

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Z. N. Mamarajabova

ONA TILI O‘QITISH MAXSUS METODIKASI
(surdopedagogika ta‘lim yo‘nalishi)

DARSLIK

Toshkent - 2019

Annotatsiya

Mazkur darslikda kar va zaif eshituvchi bolalarni ona tiliga o'qitish tizimi tavsifi, daktil nutqini o'rgatish uslubiyati, og'zaki nutqni shakllantirish uslubiyati, savodga o'rgatish uslubiyati, so'zlashuv nutqini rivojlantirish uslubiyati, bog'langan nutqni rivojlantirish uslubiyati, o'qishga o'rgatish uslubiyati, grammatikani o'rgatish uslubiyati bayon etilgan. Darslikda ona tili metodikasining barcha bo'limlarida ishlar maxsus maktabda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nutqiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda korreksion yo'nalishda tashkil etilishi yoritilgan. O'quv qo'llanma 5111900 – Defektologiya yo'nalishi uchun Ona tili o'qitish maxsus metodikasi namunaviy dasturi asosida tuzilgan bo'lib, talabalar uchun mo'ljallangan. Mazkur darslik kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internati o'qituvchilari tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Taqrizchilar:

M.Y.Ayupova pedagogika fanlari nomzodi, professor
P.M.Po'latova pedagogika fanlari nomzodi, professor
R.R.Rustamova pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Аннотация

В данном учебнике раскрыты общие вопросы методики обучения детей с нарушениями слуха к родному языку, методика обучения дактильной речи, методика обучения устной речи, методика обучения грамоте в школе, методика формирования разговорной речи детей с нарушениями слуха, методика формирования связной речи, методика обучения чтению, методика обучения грамматике в условиях специализированной школы для детей с нарушениями слуха. Все разделы специальной методики раскрыты с учётом особенностей развития детей с нарушениями слуха детей в коррекционной направленности. Учебник создан на основе одноименной программы 5111900-направления сурдопедагогики, составленной в для студентов бакалавриата дефектологических факультетов педагогических высших учебных заведений. Учебник может быть использован также и учителями, воспитателями при обучении детей с нарушениями слуха

Рецензенты:

Кандидит педагогических наук, профессор М.Ю.Аюпова
Кандидит педагогических наук, профессор П.М.Пўлатова
Кандидит педагогических наук, доцент Р.Р.Рустамова

Annotation

In this tutorial disclosed general questions methods of teaching children with hearing children their native language, methods of teaching dactyl speech, methods of teaching oral language, methods of teaching reading and writing in school technique of formation speaking children with hearing impairments, method of forming coherent speech, the method of teaching reading , methods of teaching grammar in a specialized school for children with hearing impairments taking into account the characteristics of the students, the goals and objectives of the institution. All sections of the special techniques disclosed taking into account the peculiarities of development of children with hearing impaired children in the correctional orientation. The manual is based on the eponymous program 5111900-direction Defectology prepared for undergraduate students in faculties defectological pedagogical higher education institutions. The manual can be used also by teachers, educators in teaching children with hearing impairments

Candidate of Pedagogical Sciences, Professor M.Yu. Ayupova

Candidate of Pedagogical Sciences, Professor P.M.Po‘latova

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor R.R.Rustamova

MUNDARIJA

I –BO‘LIM ONA TILI O‘QITISH MAXSUS METODIKASI FAN SIFATIDA

I-BOB Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida ona tili korreksion o‘quv fani sifatida

I .1-§. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida ona tili o‘qitish uslubiyati asoslari

I .2-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida ona tiliga o‘qitish ishlarini tashkil qilish

I .3-§. Ona tili darslarida didaktik tamoyillarni qo‘llash

I .4-§. Dars - eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida ona tiliga o‘qitish shakli sifatida

I .5-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida ona tiliga o‘qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

I .6-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida ona tiliga o‘qitish jarayonida qo‘llanuvchi nutqiy vositalar

II –BO‘LIM ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MAKTABIDA NUTQQA O‘RGATISH

I-BOB. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni daktil nutqga o‘rgatish uslubiyati

I .1-§. Daktil nutqini og‘zaki va yozma nutq shakllari bilan munosabati

I.2-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirishda daktil nutqining o‘rni

I .3-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar daktil nutqini o‘qitish mazmuni

II-BOB. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni og‘zaki nutqini shakllantirish uslubiyati

II.1-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni og‘zaki nutqini shakllantirish mazmuni va ahamiyati.

II.2-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga og‘zaki nutqni idrok etishga o‘rgatish.

II.3-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni ekspressiv og‘zaki nutqga o‘rgatish

II.4-§. Maxsus maktabda og‘zaki nutq darsi.

III -BOB. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatish uslubiyati

III.1-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatishning zamonaviy usuli

III.2-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qishga o‘rgatish uslubiyati.

III.3-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni yozuvga o‘rgatish uslubiyati.

III.4-§. Maxsus maktabda savodga o‘rgatish darsi

V-BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni so‘zlashuv nutqini shakllantirish uslubiyati

V.1-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlashuv nutqini rivojlantirishning mazmuni, maqsadi va vazifasi

V. 2-§. Maxsus maktabda pretmet-amaliy ta'lim darslarida so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha ish turlari

V. 3-§. Maxsus maktabda so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari va ularni o'tkazish uslubiyati

VI – BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni bog'langan nutqni rivojlantirish uslubiyati

VI.1-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'langan nutqni rivojlantirish mazmuni va maqsadi

VI.2-§. Insholar tasnifi

VI.3-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'langan nutqni o'rgatishga qo'yilgan pedagogik talablar

VI.4-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari.

III –BO'LIM ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA O'QISH METODIKASI

I –BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni o'qishga o'rgatish uslubiyati

I.1-§. Maxsus maktabda o'qish darslarining vazifasi va ahamiyati

I .2-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatishga zamonaviy yondoshish

I .3-§. Maxsus maktabda o'qish darslarida ishning asosiy yo'nalishlari.

I .4-§. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tizim komponentlari tavsifi

IV –BO'LIM ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA GRAMMATIKANI O'RGATISHGA SEMANTIK YONDASHUV

I-BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni grammatikaga o'rgatish uslubiyati

I .1-§. Maxsus maktabda grammatikani o'rgatish uslubiyati

I .2-§ Maxsus maktabda grammatikani o'rgatish dasturi mazmuni

СОДЕРЖАНИЕ

Глава I - СПЕЦИАЛЬНАЯ МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ

Раздел I Специальная методика обучения родному языку как коррекционный предмет в школе для детей с нарушением слуха

I.1-§. Основы методики преподавания родного языка в школе глухих и слабослыщающих детей

I.2-§. Организация преподавания родного языка в школе для детей с нарушением слуха

I.3-§. Применение дидактических принципов на уроках родного языка

I.4-§. Урок - как форма обучения родному языку в школе для детей с нарушениями обучения

I.5-§. Использование педагогических технологий в преподавании родного языка в школе для детей с нарушениями обучения

I 6-§. Речевые средства используемые при обучении родному языку в школе для детей с нарушениями слуха

Глава II ОБУЧЕНИЕ РЕЧИ В ШКОЛЕ ДЛЯ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Раздел II Методика обучения дактильной речи детей с нарушениями слуха

II .1-§. Отношение дактильной речи к устным и письменным формам речи

II.2-§. Роль дактильной речи в формировании устной речи детей с нарушениями слуха

II .3-§. Содержание обучения дактильной речи детей с нарушениями слуха

Раздел III Методика формирования устной речи детей с нарушениями слуха

III.1-§. Значение и содержание формирования устной речи детей с нарушениями слуха

III.2-§. Обучение детей с нарушениями слуха восприятия устной речи

III.3-§. Обучение детей нарушениями слуха экспрессивной устной речи

III.4-§. Урок устной речи в специальной школе

Раздел IV Методика обучения грамоте детей с нарушениями слуха

IV.1-§. Современный способ обучения грамоте детей с нарушениями слуха

IV.2-§. Методика обучения чтению детей с нарушениями слуха

IV.3-§. Методика обучения письму детей с нарушениями слуха

IV.4-§. Урок по обучению грамоте в специальной школе

Раздел V Методика формирования разговорной речи у детей с нарушениями слуха

V.1-§. Содержание, цель и задачи формирования разговорной речи у детей с нарушениями слуха

V. 2-§. Виды работ по развитию развитию разговорной речи уроках предметно-практического обучения

V. 3-§. Виды работ по развитию разговорной речи в специальной школе и методика их проведения

Раздел VI Методика развития связанной речи у детей с нарушениями слуха

VI.1-§. Содержание и цель развития связанной речи у детей с нарушениями слуха

VI.2-§. Классификация эссе

VI.3-§. Педагогические требования к обучению детей с нарушениями слуха связанной речи

VI.4-§. Виды работ по развитию связанной речи у детей с нарушениями слуха

Глава III МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ЧТЕНИЮ ДЕТЕЙ НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Раздел I Методика обучения чтению детей нарушениями слуха

I.1-§. Задача и значение уроков чтения в специальной школе

I.2-§. Современный подход к обучению детей с нарушениями слуха

I.3-§. Основные направления работы на уроках чтения в специальной школе.

I.4-§. Описание компонентов педагогической системы развития речевой речи детей с нарушениями слуха в процессе литературного образования

Глава VI СЕМАНТИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ ГРАММАТИКЕ В ШКОЛЕ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Раздел I. Методика обучения грамматике детей с дефектом слуха

I.1-§. Методика обучения грамматике детей с дефектом слуха

I.2-§ Методика преподавания грамматики в специальной школе

CONTENT

CHAPTER I-SPECIAL METHODS OF TEACHING THE NATIVE LANGUAGE

Section I Special methods of teaching the native language as a correctional subject in school for children with hearing impairment

- I. 1-§. Fundamentals of teaching methodology of the native language in the school for deaf and kabelemi children
- I. 2-§. Organization of native language teaching at school for children with hearing impairment
- I. 3-§. Application of didactic principles in the lessons of the native language
- I. 4-§. The lesson of mother tongue education in school for children with learning disabilities
- I. 5-§. The use of pedagogical technologies in teaching the native language at school for children with learning disabilities
- I. 6-§. Speech means used in teaching the native language at school for children with hearing impairments

CHAPTER II TEACHING SPEECH IN SCHOOL FOR CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

Section II Methods of teaching dactylic speech to children with hearing impairments

- II. 1-§. The relation of dactylic speech to oral and written forms of speech
- II.2-§. The role of dactylic speech in the formation of oral speech of children with hearing impairments
- II. 3-§. The content of teaching dactylic speech of children with hearing impairments

Section III Methods of formation of oral speech of children with hearing impairment

- III.1-§. The meaning and content of the formation of oral speech of children with hearing impairment
- III.2-§. Teaching children with hearing impairments perception of speech
- III.3-§. The education of children with hearing disabilities expressive speech
- III.4-§. Lesson of oral speech in a special school

Section IV methods of teaching children with hearing impairments to read and write

- IV.1-§. A modern way of teaching children with hearing impairments to read and write
- IV.2-§. Methods of teaching reading to children with hearing impairments
- IV.3-§. Methods of teaching writing to children with hearing impairments
- IV.4-§. Lesson on literacy in a special school

Section V methods of formation of spoken language in children with hearing impairment

V. 1-§. Content, purpose and objectives of the formation of spoken language in children with hearing impairment

V. 2-§. Types of work on the development of spoken language lessons subject-practical training

V. 3-§. Types of work on the development of spoken language in a special school and methods of their implementation

Section VI Methods of development of associated speech in children with hearing impairment

VI.1-§. The content and purpose of the development of associated speech in children with hearing impairment

VI.2-§. Classification essay

VI.3-§. Pedagogical requirements for teaching children with hearing impairments related speech

VI.4-§. Types of work on the development of associated speech in children with hearing impairment

CHAPTER III METHODS OF TEACHING CHILDREN TO READ HEARING IMPAIRMENT

Section I Methods of teaching children to read with hearing impairments

I .1-§. The task and importance of reading lessons in a special school

I .2-§. Modern approach to teaching children with hearing impairments

I. 3-§. The main directions of work on the lessons of reading in a special school.

I. 4-§. Description of the components of the pedagogical system of speech development of children with hearing impairments in the process of literary education

CHAPTER VI SEMANTIC APPROACH TO GRAMMAR EDUCATION IN SCHOOL FOR CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS

Section I. Methods of teaching grammar to children with hearing impairment

I .1-§. Methods of teaching grammar to children with hearing impairment

I .2 - § methods of teaching grammar in a special school

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan davrni sarhisob qilsak, hukumatimiz tomonidan inson manfaatlarini ko‘zlash va himoyalash jarayonida jamiyatimizning alohida yordamga muhtoj qatlamiga jiddiy e‘tibor qaratib kelinayotganini kuzatamiz. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni boshqa barcha fuqarolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek, o‘zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi. 2017 yil 1 avgustdagi “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab –quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash, ularni to‘laqonli ta‘lim olishi, jamiyat tomonidan qo‘llab – quvvatlanishi, ularni sog‘lomlar qatorida jamiyatga uyg‘unlashib, ijtimoiy hayotda moslashib ketishiga oid chora-tadbirlarni takomillashtirishni ko‘zda tutadi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida “aholini ijtimoiy himoya qilish, nogiron, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi”ni kuchaytirishga alohida e‘tibor berildi¹. Xususan eshitishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarni og‘zaki nutqini muloqat quroli sifatida rivojlantirish orqali ularni ma‘naviy yetuk, har tomonlama uyg‘un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yosh avlod sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish vazifasini izchil davom ettirish uchun aniq maqsadga qaratilgan keng ko‘lamdagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat va jamiyatning barcha kuch va imkoniyatlarini shu yo‘lda safarbar etish lozimligi bilan ifodalanadi. Zamonaviy maxsus ta‘lim tizimining nazariy asoschisi L. S. Vigotskiy eshitishning buzilishi oqibatida yuzaga kelgan soqovlik – insoniy nutqning mavjud bo‘lmasligini keltirib chiqarsa, o‘z navbatida, nutqni egallay olmaslik umumiy madaniy rivojlanishga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatishini alohida qayd etadi. Eshitishda muammoci bo‘lgan bolalarni atroflicha o‘rgangan R .M. Boskis eshitish analizatori funksiyasining nisbatan oz buzilishi – shivirlashni, idrok etish imkoniyatining chegaralanishi ham bola nutqining meyorda rivojlanishiga, buning oqibatida mantiqiy tafakkurining shakllanishiga to‘sqinlik qilishini ko‘rsatib o‘tadi.² Malakali o‘qituvchi – surdopedagoglarni tayyorlash oliy o‘quv yurtlarinnng defektologiya bo‘limlarida amalga oshiriladi. Defektologiya fakultetining o‘quv rejasi kar va zaif eshituvchilar maktablarida ona tili o‘qitish

¹ Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b.

²Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха.–М.:Просвещение, 1998. – 18 с.

maxsus uslubiyati fanini o'z ichiga qamrab olgan. Bu uslubiyat nazariyaga asoslanib, eshitishda nuqsoni mavjud o'quvchilarini tarbiyalash, rivojlanishi va o'qitishning amaliy vazifalarni amalga oshiradi. Uning predmeti ona tiliga o'rgatishning maxsus uslubiyati usullarini eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqni shakllantirish, yozuv, o'qish, grammatikani egallash o'rgatish hisoblanadi.

Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati talabalarga eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda til bo'yicha bilimni shakllanishining qonuniyatini o'rganishiga, korreksion (fikrlash va nutqning rivojlantirish, to'g'ri talaffuzga o'rgatish, eshitish idrokini rivojlantirish) va tarbiyaviy vazifalarni yechishga imkon beradi.

Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati pedagogik fan sifatida pedagogik tajribani o'rganish, tekshirish, umumlashtirish va ommalashtirishni ko'zda tutadi. Ona tili o'qitish maxsus uslubiyati fanini boyitishda pedagogik amaliyot bosh omillaridan biri hisoblanadi. Nutqiy va eshitish holatiga qarab, kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitishda differensial yondashuv amalga oshiriladi. Hozirda O'zbekistonda kar bolalar maktabi va zaif eshitadigan bolalar maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu maktablarda ona tili dasturlari bir-biridan sezilarli darajada ajralib turadi, bu o'quvchilarning umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Eshitishda nuqsoni mavjud o'quvchilarni o'qitish jarayonida differensial yondashish, ta'lim jarayoni usullarini o'ziga xosligi oliy o'quv yurtida "Karlar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o'qitish maxsus uslubiyati" fanini tasniflangan holda o'qitishni talab etadi. Bunda kar o'quvchilarni ona tiliga o'qitish uslubiyati mazmuni va o'ziga xosligi yoritiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tili o'qitish maxsus uslubiyatiga yondashgan tarzda ushbu darslikning vazifalari quyidagicha:

- zamonaviy bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ona tili faniga o'qitishga qo'yilgan talablarni yoritish;
- ona tili o'qitish maxsus uslubiyatining metodologik asoslarini tavsiflash;
- ona tili o'qitish maxsus uslubiyatini boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rsatish;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ona tiliga o'rgatish zamonaviy tizimini o'ziga xosligini aniqlash;
- ona tiliga o'rgatish davrlari vazifalari mazmuni, har bir davrda nutq ustidagi ishlarni o'ziga hosligi bilan tanishtirish;
- og'zaki nutqni shakllantirish bo'yicha darslarni va darsdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish malakasini shakllantirish;
- maxsus maktab dasturlaridan foydalanib, o'qitishning har xil bosqichlariga xos darslar ishlanmasini tuzish qobiliyatini shakllantirish;
- to'g'ri talaffuz malakasi va eshitish qoldiqlarini rivojlantirish talablarini hisobga olib, ona tili darslarini rejalashtirish va o'tkazish qobiliyatini shakllantirish;
- uslubiy adabiyot, ilmiy izlanish ma'lumotlari va maktab hujjatlari bilan mustaqil ishlash malakasini shakllantirish;
- olingan bilimlarni umumlashtirish va amaliyotda qo'llash;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni og'zaki nutqga o'rgatishning maxsus uslubiyati bo'lajak surdopedagoglarni nafaqat aniq bir usullar haqidagi kuchli bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularda kar bolalarning ijtimoiy moslashish va

rivojlanishi maqsadida nutqning rivojlanish darajasini uzluksiz ko'tarish shartliligiga ishonchni shakllantiradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tilga o'rgatish bo'yicha samarali usullarni egallash avvalombor o'quv jarayonini psixologik, lingvistik, uslubiy jihatdan baholash va o'qitishning samarali usullarini maqsadga muvofiq tanlashni ko'zda tutadi. Shuning uchun bu fanni egallash surdopedagogika, umumiy va maxsus psixologiya, fiziologiya, ona tili va didaktika haqidagi mavjud bilim va ma'lumotlarni faollashtirish bilan bog'liq amalga oshadi.

Ona tili o'qitish maxsus metodikasi bo'yicha nazariy ma'lumotlar talabalarga kar bolalarni ona tiliga o'qitish tizimining tuzilishining boshlang'ich tamoyillarini anglash, bu jarayonni o'ziga xosligini tushunish, uni nutqiy rivojlantirishning umumiy qonuniyatlari bilan taqqoslash, kuzatishlarni umumlashtirish hamda ta'limning yangi, samarali uslublarini amalda qo'llash imkonini beradi.

Darslik IV bo'limdan iborat: Birinchi bo'lim Ona tili o'qitish maxsus metodikasi fan sifatida nomlanib, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tilga o'qitish ishlarini tashkil qilish, ona tili darslarida didaktik tamoyillarni qo'llash, dars - eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tiliga o'qitish shakli sifatida, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tiliga o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tiliga o'qitish jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalar kabi mavzularni qamrab oladi. Ikkinchi bo'lim Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida nutqqa o'rgatish nomlanib, mazkur bo'limda eshitishda nuqsoni bor bolalarga daktil nutqini o'rgatish uslubiyati, eshitishda nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqni shakllantirish uslubiyati, eshitishda nuqsoni bor bolalarni savodga o'rgatish uslubiyati, eshitishda nuqsoni bor bolalarni so'zlashuv nutqini shakllantirish uslubiyati, eshitishda nuqsoni bor bolalarni bog'langan nutqni rivojlantirish uslubiyati kabi mavzularni yoritiladi. Uchinchi bo'lim Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida o'qish metodikasi nomlanib, maxsus maktabda o'qish darslarining vazifasi va ahamiyati, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatishga zamonaviy yondoshish, maxsus maktabda o'qish darslarida ishni asosiy yo'nalishlari, adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tizim komponentlari tavsifi kabi mavzularni qamrab oladi. To'rtinchi bo'lim Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida grammatikani o'rgatishga semantik yondashuv deb nomlanib, bu bo'limda maxsus maktabda grammatikani o'rgatish uslubiyati, maxsus maktabda grammatikani o'rgatish dasturi mazmuni kabi mavzularni yoritiladi.

I –BO‘LIM ONA TILI O‘QITISH MAXSUS METODIKASI FAN SIFATIDA

I-BOB Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabida ona tili korreksion o‘quv fani sifatida

I .1-§. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktabida ona tili o‘qitish uslubiati asoslari

Hozirgi kunda zamonaviy, har tomonlama komil, bilimdon, ishbilarmon yoshlarning kamol topishini ta‘minlash maktab, oila va jamoatchilik tomonidan yoshlarga kuchli e‘tibor, yetarlicha keng bilim berishni talab etadi. Bu masala o‘ziga kelayotgan yosh avlodning o‘z ona tilini mukammal egallashisiz hal bo‘lmaydi. Ana shu avlodning to‘laqonli a‘zosi sifatida kar bolalar ham jamiyat rivojlanishida o‘z o‘rniga egadir. Ularning tilni egallashi sog‘lom tengdoshlariga nisbatan o‘ziga xos kechadi. Bu o‘ziga xoslik mazkur bolalarning nutqiy va umumiy rivojlanishiga ta‘sir etadi. Ushbu cheklanganlik kar bolalarga ona tilini o‘rgatishda maxsus pedagogik, psixologik yondashishni, xususan, tilga maxsus o‘rgatishni tashkil qilishni talab qiladi. Eshitishning buzilishi aksariyat hollarda nutqsizlik, mazkur nuqson tufayli og‘ir nutq buzilishlari yoki umumiy nutq rivojlanmasligiga olib keladi. Kar bolada umumiy rivojlanish bilan bog‘liq holda nutqning shakllanishi ham o‘ziga xos kechadi.

Sog‘lom bolada nutq shakllanishining ilk davridagi kabi, kar bolada ham ovoz, un chiqarishlar sodir bo‘ladi. Tug‘ma kar bo‘lgan bolalarda ham gu-gulash, yig‘lash xususiyatlari bo‘lib, bular xuddi sog‘lom bolalardagidek tashqi yoki ichki muhitdan keladigan signallar–ochlik, tashnalik, sovuq, issiqqa bog‘liq bo‘ladi. Kar bolada eshitish idrokining nuqsonliligi tufayli o‘z-o‘zidan tashqi muhit bilan bog‘lanish vazifasini uning teri, ta‘m, hid bilish, ko‘rish orqali sezish imkoniyati bajara boshlaydi. Kar bola 3-4 oylik bo‘lganda havo to‘lqinlari (vibratsiya)ni sezishi kuzatila boshlaydi. Bunda kar bola havo to‘lqinlarining tebranishi-vibratsiyani his qilishi orqali atrofdagilarni «eshitadi». qaysi tomondan to‘lqinning kelishi bilan bog‘liq holda ko‘z qorachig‘i, bosh harakatlarini amalga oshiradi. Kar bolaning nuqsoni ko‘pincha 6 oylik, ya‘ni o‘yinchoqlarga intilish, ulardan chiqayotgan ovozlarni farqlash, ovoz manbai tomonga qarashning sustligi yoki yuqligidan aniqlanadi.

Agar nuqson qanchalik erta aniqlanib, to‘g‘ri tashxis qo‘yilib, kar bolaga e‘tibor maxsus tashkil etilsa, nuqsonni bartaraf etish, bilinmaydigan holatga keltirish imkoniyati keng bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, ruhiy, jismoniy va ular bilan bog‘liq holda aqliy rivojlanishi orqada qoladi, ya‘ni bola ijtimoiy muhitdan cheklangan holda rivojlanadi. Bunda ota–ona va yaqinlarining e‘tibori qanchalik kuchli bo‘lmasin, maxsus yondashuv tashkil etilmas ekan, bolaning umumiy rivojlanishi orqada qolaveradi . Chunki eshitish idrokining vazifalari nihoyatda muhimdir. Kar bola nafaqat oddiy nutqiy tovushlarni, balki nonutqiy tovushlarni ham qabul qila olmaydi, qabul qilsa ham farqlay olmaydi. Shu bilan birga kar bola ovozli, so‘zli nutq

mavjudligini, ular inson faoliyatini tashkil etishini, boshqarishini ham anglamaydilar. Natijada ular boshqalarning soʻzlarini eshitmagach, oʻzlari ham soʻzlarni talaffuz etishdek, gapirishdek oliy-ijtimoiy neʼmatlardan bahramand boʻla olmaydilar. Demak karlik juda chuqur insoniy sifatlarning shakllanishiga salbiy taʼsirini berganligi bois, kar bola jamiyatdan ajralib qolishi mumkin³.

Bola koʻrib, taʼm, hid bilib, teri orqali sezib yashasa-da, bu harakatlar yashash uchun yetarli boʻlmagan tizimiga mosdir. Kar va zaif eshituvchi bolada nutqning shakllanish mexanizmini aniqlash uchun ichki nutq mohiyatini anglash muhimdir. Ichki nutq rus olimlarining tadqiqotlarida quyidagicha taʼriflanadi: ichki nutq fikrning iqtisodiy taʼminoti, inson ongi va aqliy faoliyati mexanizmi, nazariy va amaliy faoliyatni rejalashtirish demakdir

“Aynan eshitish va nutqiy sezish ichki nutqning hosil boʻlishi uchun asosdir, "oʻzgaralar uchun nutqdan oʻzi uchun nutq" hosil boʻladi"-deb taʼkidlaydi A.S.Vigotskiy . Ushbu maʼlumotlar, yaʼni ilmiy qarashlar kar bolalarni tilga oʻqitishda oʻz oʻrniga ega. Bunda ichki nutq mexanizmining xususiyatlari uning eshitish qobiliyati nuqsonliligidagi oʻziga xosligini aniqlashga imkon yaratadi. Bolada mantiqiy tafakkurning rivojlanishi uchun yetakchi va asosiy omil eshitish idrokining rivojlanishi hisoblanadi.

Fikrni nutq orqali ifoda etishda ichki nutqning ahamiyatini ochib berish boʻyicha qator olimlar tadqiqot qilganlar . Ushbu tadqiqotlardan biz uchun muhim umumiy holatni keltiramiz, yaʼni ichki nutq natijasida fikr qurilmasi paydo boʻladi. Pirovardida u yoyiq nutqiy ifodaga aylanib qoʻllaniladi.

K.G Korovin kuzatishlarida fikr nutq shakllanishining birinchi komponenti sifatida tashqi koʻzgʻatuvchi, yaʼni motivni tushunish hisoblanadi. Ikkinchi komponent sifatida ichki nutqda qurilgan fikr hisoblanadi. Nutq-fikrning hosil boʻlishidagi bu bosqichda soʻz tanlash, yaʼni ichki nutq kodining muayyan til birliklariga aylanishi sodir boʻladi.

Nutq hosil boʻlishining uchinchi komponenti ichki nutq asosida fikr qurilmasini tuzish hisoblanib, bu bosqich fikr-gapning grammatik qurilishi bosqichi deb nomlanadi.

Toʻrtinchi komponent fikrni nutqiy ifoda shaklida tashqarida qoʻllash hisoblanadi. Bunda nutqning tashqi bezagi-talaffuzi va intonatsiyasi, ichki bezagi esatuzilishi, grammatik qurilishi hisoblanadi⁴

Yuqorida keltirilgan "fikrdan nutqqacha yoʻl" ning ochib berilishi yuzasidan maʼlumotlar kar va zaif eshituvchi bolalarga til oʻrgatish amaliyotida qator xulosalarga olib keladi. Ular nutqiy murojaatlarning hosil boʻlishida ichki nutq mexanizmlarining ahamiyatini ochib beradi va tafakkur bilan birga nutq orasidagi bogʻliqlikni namoyon qiladi.

³ Коровин К.Г. Практическая грамматика в системе специального обучения слабослышащих детей языку. – М., Педагогика, 19996. – 25 с.

⁴ Коровин К.Г. Усвоение основных грамматических понятий учащимся старших классов школы слабослышащих. –М.: Педагогика, 1988. -112 с.

I.Pavlov ta'limotiga asosan, nutq tafakkur zamiri hisoblanar ekan, u holda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish mumkin bo'lmaydi yoki cheklangan holda mumkindek tuyuladi. Biroq bu xulosa noto'g'ri, chunki kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog'lom bolalar qatori maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni natijasida maxsus belgilangan (aynan shu bolalar fiziologik, psixologik imkoniyatlaridan kelib chiqilgan) talablarni egallash imkoniyatiga egadir. Kar va zaif eshituvchi bolalarni tilni muloqot vositasi sifatida egallashga o'rgatish jarayonining asosini so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqini shakllantirish tashkil qiladi. Ushbu jarayonga psixologik-pedagogik tavsif berish kar va zaif eshituvchi bolalarda nutq shakllari va nutqiy vositalarning o'zaro fiziologik, psixologik munosabatini tahlil qilishni taqozo qiladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqni shakllantirish va rivojlantirish boshqa sog'lom analizatorlarga tayanish orqali amalga oshiriladi. Maxsus o'qitish jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda atrofdagilar og'zaki nutqini qabul qilish malakalari shakllanadi, nutqiy ovoz va nafasdan foydalanish ko'nikmalari ishlab chiqiladi, ayrim tovushlar, so'zlar va ularning birikmalarini talaffuz qilish asosida so'zlashuv nutqiga o'qitishning dastlabki talablari bajariladi. Hatto oddiygina og'zaki nutqni ko'rib qabul qilish va talaffuz qilish surdopedagog hamda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan ma'lum vaqtni, mas'uliyatli e'tiborni talab qiladi. Shuning uchun og'zaki nutq kar va zaif eshituvchi bolalarning eshituvchilar jamiyatida moslashishi uchun muhim vosita sifatida ta'limning boshlang'ich (tayyorlov guruhi) davrida muloqot vositasi vazifasini bajara olmaydi. Eshituvchilar qo'llaydigan nutqning yozma turi ham bu davrda o'z xususiyatlari bilan kar va zaif eshituvchi bolalar uchun jonli muloqotda asosiy vosita sifatida ahamiyat kasb etmaydi. Kar va zaif eshituvchi bolalarga atrofdagilar bilan og'zaki, yozma muloqot qilishni o'rgatishdagi qiyinchilik birorta yordamchi vositaga, masalan, daktil nutqqa ehtiyojni tug'diradi.

Daktil nutq orqali bola o'z xohishi, istagi, iltimosini ifoda etadi va shu o'rinda daktil nutqni qo'llay oladigan atrofdagi insonlar fikrini tushunadi. Tayyorlov guruhiga kelgan bola daktil belgilarni juda tez va hatto darsdan tashqarida ham o'zlashtiradi. Shuning uchun o'qitishning dastlabki davrida daktil nutq so'zlashuv nutqining bir turi sifatida xizmat qiladi. Bu esa kar va zaif eshituvchi bolalarda so'zlashuv nutqini muloqot vositasi sifatida shakllantirishga atrofdagilar bilan nutqiy muomalani o'rnatishga imkon beradi.

Agar kar va zaif eshituvchi bolalarga til o'rgatishda birdaniga yozma yoki og'zaki nutqdan foydalanilsa, ularning so'z-mantiq tafakkurining rivojlanishi, nutqni egallash jarayonlari sekinlashadi.

Daktillaganda bir belgidan ikkinchi belgiga o'tish, ya'ni barmoq kinesteziyasi bolalarning nutqni egallashlarida muhim ahamiyatga egadir. qo'l harakatlari orqali so'zni tafakkur qilish yetarlicha rivojlanmagan nutqiy organlarning nuqsonli harakatini kompensatsiyalovchi vositadir. Eshituvchilarning eshitish sezgisi qanchalik o'z nutqini boshqarish imkonini bersa, kar va zaif eshituvchilar uchun esa bu vazifani barmoq harakatlari (daktillash) bajaradi. Daktil nutqqa o'qitish bilan bir qatorda, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki va yozma nutqqa o'rgatish

sodir bo‘ladi. Og‘zaki nutqqa o‘qitish eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni daktil shaklda egallagan va nutqiy muloqotiga(lug‘atiga)kiritilgan so‘zlarning talaffuzini egallashga majbur qiladi».-deb ta’kidlaydi T.K KorolevskaY. Artikulyatsiyaning rivojlanishi tovush talaffuzi va nutqiy kinesteziyaning mustahkamlanishi og‘zaki nutqning daktillashsiz qo‘llanilishiga olib keladi. Og‘zaki nutqdagi xatoni tuzatish tovush talaffuzining namunasini ko‘rsatish va tegishli daktilema bilan ifodalash, ya’ni so‘zning tovush-harf tarkibini talaffuz qilish bilan birga daktillash orqali amalga oshiriladi. Daktil nutqni egallash o‘qish va yozishni egallashga yordam beradi. Daktil yordamida gapirganda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qish va yozish malakalarining asosini tashkil qiluvchi jarayonni-so‘zning analiz-sintezini amalga oshiradi. Barmoq harakati orqali so‘zni qabul qilganda eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar so‘zning grafik ifodasini emas, balki daktil shriftlar (belgilar)ni o‘qiydi. Sekin-asta daktil shriftlar harflar bilan almashtiriladi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bosma harfli so‘z, jummalarni daktillash orqali o‘qiy boshlaydi. So‘zning harfli tarkibini egallash og‘zaki nutq ustida ish davomida ham olib boriladi, ya’ni har bir talaffuz qilingan tovushga tegishli harf ko‘rsatiladi. Yozuvni egallash ham so‘z tarkibini analiz-sintez qilishsiz amalga oshmaydi. So‘zlarni yozganda bolalardan daktillagan har bir harfning grafik ifodasini bilish talab qilinadi. Kar va zaif eshituvchi Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirish ham ta’limning dastlabki kunlaridan boshlanadi. Ular muloqotni egallash jarayonida tilning leksik va grammatik tizimini o‘rganadi. Eshitishning yo‘qligi yoki nuqsonliligi talaffuz malakalarini shakllantirish va og‘zaki nutqni qabul qilish bo‘yicha maxsus ishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Har ikkala yo‘nalish ham o‘z maqsadi va vazifalariga egadir. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish yuzasidan F.Alimxo‘jayevaning tadqiqotlarida ma’lumotlar mavjuddir⁵. Ta’lim-tarbiya jarayonida ovoz kuchaytiruvchi apparatlardan foydalanish o‘qituvchining nutqini eshitib-ko‘rib qabul qilish imkonini beradi. Kar va zaif eshituvchi bolalarda og‘zaki so‘zlashuv nutqini rivojlantirishning bir jihati axborotni qabul qilish, ya’ni atrofdagilar nutqini anglash bo‘lsa, ikkinchi tomoni o‘z fikrini talaffuz qilish, ya’ni axborotni og‘zaki tarzda yetkazish hisoblanadi. Surdopedagogika tarixining har bir davri vakillari shuni ta’kidlaydilarki, kar va zaif eshituvchilar tomonidan og‘zaki nutq faqat ko‘rish orqali qabul qilinadi. Bunda nutqiy organlar harakati nazarda tutiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar labdan o‘qiganda nutqiy organlarning alohida nutqiy harakatlariga tayanib emas, balki so‘zni butun kontekstda qabul qiladi. Bunda fikrlash qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, labdan o‘qishning sifati bola nutqining rivojlanish darajasiga bog‘liqdir. So‘zlashuv nutqning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, labdan o‘qish malakasi shunchalik aniq bo‘ladi. S.A.Zikov shunday ta’kidlaydi: «Kar va zaif eshituvchi bola dastavval nutqiy materialni birdaniga 2 shaklda, ya’ni daktil va og‘zaki so‘ngra faqat og‘zaki shaklda qabul qilishga

⁵ Alimxo‘jayeva F.J. Zaif eshituvchi bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.

o'rgatiladi va bunda labdan o'qishga o'rgatishning asosiy yo'nalishi belgilanadi». Kar bola so'zlashuv nutqining yozma shakliga ham o'qitiladi. S.A.Zikov ta'kidlashicha: «Yozuv o'zida nutq faoliyatining murakkab shaklini, yuqori darajali jarayonni aks ettiradi. Unda turli xil a'zolar faoliyati eshitish, ko'rish, umumiy harakatlanish analizatorlari ishtirok etadi. Yozuv jarayonida ular orasida yaqindan bog'lanish va o'zaro aloqadorlik amalga oshiriladi»⁶.

So'zning tovush tarkibini tahlil etish, yozuv jarayonining eng murakkab operatsiyalaridan biri hisoblanadi. So'zni to'g'ri yozish uchun uning tovush tarkibini, uzluksizligini va har bir harf o'rnini farqlash lozim. Sog'lom bolalarda so'zning tovush tarkibini egallash eshitish va harakat analizatorlarining birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshadi. Tovushlarning so'zdagi o'rne, ketma-ketligini farqlashda baland, past va ichki talaffuz katta rol o'ynaydi. Eshitish va talaffuz qilish so'zning tovush tarkibini aniqlashga, o'xshash tovushlarni farqlashga yordam beradi. Demak, sog'lom bolalar yozuvni nutqning ikkinchi ko'rinishi sifatida egallaydi, chunki yozuv og'zaki nutqning harflar ko'rinishidagi aksi sifatida o'zlashtiriladi. Kar va zaif eshituvchi bola esa yozuv-alifbo orqali og'zaki nutqning tovush-harf va butun tuzilishini egallaydi. Yozma nutqning kar va zaif eshituvchi bola uchun mos va sodda shakl ekanligi haqida ko'pgina mualliflarning ishlarida ma'lumotlar mavjud. Ulardan masalan F.F.Rau ishlarida bolalarning kartochkalar asosida so'z yoki jumla tarkibini o'zlashtirish jarayoni yoritilgan. YE.P.Musatovning fikricha yozma nutq dastlab predmetlar va namoyish etilishi kerak bo'lgan yoki etilgan harakatni ifodalash uchun beriladi. Faqat ritmika darsida undan foydalanishga to'xtalganda muallif yozma nutqning ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Bunda u buyruqlar («o'ngga», «tur», «yugur», «roslan» kabilar)ni bolalarga berishda kartochkalardan foydalanishni ko'zda tutadi. T.V. Nesterovich esa yozma nutqqa o'zgacha yondoshadi. Uning tavsiyalarida ko'rsatilishicha, kar bola qanchalik erta mustaqil yozishni bilsa, u atrofdagilar bilan kengroq muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik tez ega bo'ladi. Mazkur muallifning ishlarida kar va zaif eshituvchi Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning so'zlarni bilishi, predmetlarni nomlashi, gap tuzishi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq u ham nutqiy materialdan bevosita muloqot jarayonida foydalanish ustida to'xtalmaydi. Nesterovich T.V. Nesterovich fe'lning ahamiyatini holat va harakat ifodasi sifatida biladi. Boshqa mualliflar esa fe'lni harakatga undovchi sifatida ta'riflaydilar. Uning tavsiya qilishicha, yozma nutqqa o'qitish ota-onalarga xat yozishdan boshlansa, unda u bolalarning ehtiyojiga javob beradi va nutqning rivojlanishiga turtki bo'ladi.⁷Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlashuv (og'zaki, yozma) nutqni shakllantirish masalasi nutqning fiziologik va psixologik xususiyatlarini o'rganmasdan turib, to'g'ri va to'la hal qilinmaydi. Fiziologlar tomonidan olib borilgan kuzatishlarning ko'rsatishicha, nutq shartli reflekslar asosida shakllanadi. Bosh miyaga ta'sir qilgan nutqiy qo'zg'atuvchilar bolaning shu reaksiyaga javobi

⁶ С.А.Зиков. Развитие речи слабослышащих учащихся. –М., 1996. –240 с.

⁷ Нестерович Т.В. Некоторые вопросы формирования грамматического строя речи у глухих школьников младших классов // Дефектология. – 1989. –№6. – с. 46-49.

nutqiy reaksiyani chaqiradi. «Soʻzlovchining nutqini eshitib qabul qilish nutqiy harakatga turtkidir»-deb hisoblaydi A.N.Sokolov. Demak eshitish orqali qabul qilingan qoʻzgʻalishlar takrorlash orqali mustahkamlanuvchi artikulyatsion reaksiya hosil qiladi. Bu holat quloq orqali qabul qilingan qoʻzgʻatuvchilarning ifodasigina emas, balki tovushlarning differentsiatsiyasiga va qabul qilingan qoʻzgʻalishlardan qolgan izlarning saqlanishiga yordam beruvchi omildir. Maʼlumki, inson tovushlarni artikulyatsiya, yaʼni talaffuz qilgandagina, uni yaxshi differentsiatsiyalaydi va esda saqlaydi. Tayyor kartochkalar bilan ishlaganda harakat sferasi mustasno qoladi. Chunki qoʻzgʻatuvchilarning differentsiatsiyalanish va ulardan qolgan izlarning saqlanish jarayoni faqat koʻrishga asoslanib qoladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarni tayyor kartochkalar asosida talaffuz (artikulyatsiya) ning ishtirokisiz tilga oʻqitish yuqori natija bermaydi. Yuqorida keltirilganidek, kar va zaif eshituvchi bolalar soʻzlashuv nutqining yozma shakli xususiyatlari yuzasidan tajribalar mavjud. Oʻzbek tili yozuvining tovush-harf tarkibini egallash bilan bola murakkab nutqiy bilish faoliyat turiga kirib keladi. Bola oʻz nutqini ongli ravishda tahlil qiladi, talaffuzini farqlaydi. Eshitib farqlagan soʻz (tovush, boʻgʻin)ni yozuvda ifodalangan yoki koʻz oʻngida gavdalanayotgan grafik belgilar bilan solishtiradi. Shu tariqa koʻp marta analitik-sintetik mashqlarning takroran bajarilishi natijasida nutqiy materialdan foydalanish koʻnikma va malakalari ishlab chiqiladi. Kar va zaif eshituvchi eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalar soʻzlashuv nutqining shakllanishi F Qodirova fikricha, bolalarda nutqqacha boʻlgan davr va ilk yoshdagi nutqiy rivojlanish davrining toʻgʻri aniqlanib, yoʻnalganligiga bogʻliq.⁸ Aksariyat holda bunday bolalar nutqqacha boʻlgan davrda (gugulash) ona ovozigga befarq boʻlishlari va bunga kattalar tomonidan «keyinchalik gapiradi» degan munosabat bildirilishi kuzatiladi. Bu esa bolada kattalar nutqiga taqlid qilish kabi jarayonni ham kechiktiradi. Natijada bola atrofdagilardan cheklangan munosabatdaligicha rivojlanadi. Shuning uchun kar va zaif eshituvchi bolaning tashhisi erta aniqlanib, toʻgʻri yondashilsa, uning muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik zamin yaratiladi. Respublikamiz miqyosida U.Fayziyeva zaif eshituvchi bolalarda savodni egallash jarayonining toʻgʻri tashkil etilishi asosida bolaning keyingi nutqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratilishini ilmiy tadqiq etgan⁹. Bundan tashqari I.K.Kislitina, YE.Ponamaryova va L.Kimlar olib borgan tadqiqotlari XX asr Oʻzbekiston surdopedagogikasi fanining rivojida munosib oʻringa egadir. Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarning nutqiy rivojlanish oila va maxsus taʼlim ausasasasining oʻzaro hamkorlikda va izchil olib borishga bogʻliq. Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolarni nutqiy rivojlanishining samarali shakl va usullarini izlab topish, yaratish hozirda dolzarbli bilan muhimdir.

⁸ Qodirova F. «Eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalar soʻzlashuv nutqini shakllantirish». Ped.fan.nom. ..diss. –T., 2006.-69.b.

⁹ Fayziyeva U.Y. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod oʻrgatish.: fan. nomz. dis. ... avtoref. – Toshkent: TDPI. 1994. – 18 b

Ped.

I.2-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tilga o'qitish ishlarini tashkil qilish

Kar bolalarni tilga o'rgatish zamonaviy tizimining mazmuni va o'ziga xosligini tushunish uchun madaniyat evalyusiyasining ma'lum bir bosqichlarida surdopedagogika fanini tarixiy rivojlanish yo'llarini tahlil qilish katta o'rin tutadi. Surdopedagogik g'oyalarning tomirlari chuqur tarixga borib taqaladi. Qadim zamonlarda hamda uyg'onish davrida ham olimlarning va amaliyotchilarning karlarni ona tiliga o'qitish maqsadidagi fikrlari falsafa, tibbiyot, tabiiy fanlar, psixologiya, fiziologiya, tilshunoslik va boshqa fanlar asosida shakllangan. Har qanday tarixiy bosqichda surdopedagogik yangi ilmiy g'oyalarni rivojlanishiga va ommalashishiga ayni mamlakatdagi umum ilmiy iqlim ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Insonning o'zligi haqidagi tassavurlari almashuvi bilan bir qatorda kar odamlar, ularni o'qitish tizimiga munosabat ham o'zgara borgan. XVIII asrgacha insonga «Xudoning in'omi» sifatiga qaralganligi bois odamlarga «Xudoning ishlariga aralashish!»ga yo'l qo'yilmasdi. Shuning uchun qadim zamonlarda karlarga befarq yoki yovuz munosabatlarda bo'lishgan. Ko'pincha tug'ma karlarni inkvizitsiya gulxanlarida yoqishganlar. XVIII asr oxirlarida inson haqida «Xudo inson» ta'limotini yuzaga kelishi ham karlarning yashash va faoliyat ko'rsatish ahvolini og'irlashtirdi. Chunki ular eshitish va nutqidagi nuqsonlari sababli bu yuqori darajaga erisha olmaganlar. Ma'lumki, «Xudo insoni» falsafasiga sig'inuvchi fashistlar tuzumida karlar «Past tabaqa» sifatida yo'q qilingan. Agnostitsizm falsafasi surdopedagogika rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu falsafa g'oyalari kar soqovlarning bilish imkoniyatlariga va aqliy kuchiga ishonmaslikka targ'ib qilar edi, kar soqovlar tabiati va uning o'ziga xos jihatlarini o'rganishga tusqinlik qilardi¹⁰.

Surdopedagogika sohasini takomillashuvida umumiy pedagogika, tilshunoslik, psixofiziologiya fanidagi ijobiy yutuqlar katta ahamiyat kasb etgan. Rossiyada ham I.G.Cherneshevskiy, N.A Dobrolyubov, N.I.Pirogov, K.D.Ushinskiy, P.M.Gretyanov, A.A.Pogibni, I.M.Sechenovlarning insonparvarlik g'oyalari ta'sirida karlarni tarbiyalash va o'rgatish usullarini ishlab chiqarishdagi analogik yutuqlari belgilangan. Shunday qilib, surdopedagogika va uning tarkibiga kiruvchi ona tilga o'rgatish uslubiyatining rivojlanish yo'llari faqat har bir tarixiy davrdagi umuminsoniy qadriyatlarining tahlili orqali to'g'ri tushunilishi mumkin. Bu bilimlarning zamonaviy holatini esa tarixdagi tilga o'qitish tizimlarini o'rganish, ularning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish orqali tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

¹⁰ Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012. 56-57 p.

Surdopedagogikada kar bolalarni ona tiliga o'rgatishga uslubiy yondashishlar yakka o'qitish davrida ham (XVIII asr oxirigacha) va yirik pedagogik tizimlar mavjud davrda ham quyidagi ko'rsatkichlar asosida olib borilganligi haqida ma'lumotlar mavjud:

- ❖ Kar bolalarni tarbiyalash va o'qitish umumiy tizimida nutqqa qanday o'rin ajratilgan;
- ❖ Ona tili bo'yicha ishning qanday bosqichi kar o'quvchilarning e'tibor markazida bo'lgan;
- ❖ Ona tiliga o'rgatishda nutqning qanday shakllari qo'llanilgan, bu jarayonda nutq shakllarining qay biri asosiy o'rinda bo'lgan.
- ❖ Ona tiliga o'qitishda qanday usullar qo'llanilgan, ular vositasida tarbiyalanuvchilarning nutqiy va aqliy rivojlanishda qanday natijalarga erishilgan;
- ❖ Kar o'quvchilarning eshitish faoliyatining buzilish darajalari hisobga olinganmi va bunga bog'liq holda ona tiliga o'qitishda differensial yondashuv amalga oshirilganmi;

O'tmishda faoliyati yakka o'qitish davriga taaluqli bo'lgan surdopedagoglarni (Ponse, X. Bonnet, D. Bulver va boshqalar) tajribalarini o'rganish, o'sha davrlardayoq surdopedagogik fikrlarni asosiy rivojlanish qirralari belgilanganligi va ular keyinchalik har xil pedagogik tizimlar asosiga yetgan deb fikr yuritishga imkon beradi. Deyarli barcha pedagoglarda chegaralanganlik, diniy va milliy urflar va taasurotlarga qaramay yangilik ko'rtaklari yetilgan, bu kar soqovlarni o'qitishda va tarbiyalashda nutq katta rol o'ynashini anglashga olib kelgan va samarali baholangan.

Har bir pedagogik tizim faqatgina nazariy asos va undan kelib chiquvchi o'qitishdan iborat bo'libgina qolmasdan, o'z ichiga o'qitish shart-sharoitlarini va shakllarini tashkil qilishni ham oladi. Surdopedagogikaning barcha ma'lum bo'lgan tizimlaridan birinchi bosqichi ta'limning turli bosqichlariga ajratilgan maxsus o'qitish uchun berilgan barcha materiallar bosqichlararo taqsimlangan va izchillik bilan bosqichma-bosqich tuzishni murakkablashgan, hajmi ortgan. Bir bosqich ma'lum nutqiy qo'nikmalarni hosil qilishni talab qilsa, keyingi bosqich undanda murakkabroq nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O'qitishning izchil va bosqichma-bosqichligi bolaga o'qitishning faqatgina asoslarini egallashga yoki maktab o'qitish kursining to'liq o'tish imkoniyatini berar edi. Oxirgisi faqat aqliy qobiliyat, oilada tarbiyalanish sharoiti, eshitishni buzilishi sabab va vaqti bilan bog'lanibgina qolmasdan, o'quvchi oilasini moddiy axvoliga ham bog'liq edi, chunki o'qitish moddiy mablag'ga bog'liq bo'lgan. Shu bois, qadimda o'qitishning davomiyligi barcha karlar uchun bir xil bo'lmagan¹¹.

Zamonaviy karlar maktabi o'quvchilarining asosiy qismi uchun 12 yillik ta'lim tashkil qilib, bu ta'lim jarayoni o'rta maktabning 8 yillik ta'lim dasturini o'z ichiga

¹¹ Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012.-34-35.p.

oladi. O'qitish jarayoni bosqichliligiga umumiy bilim hajmi va unga xos nutqiy rivojlanish darajasidan tashqari bolaning yosh davrlariga xos psixologik imkoniyatlari omili ham ta'sir qiladi. Tilni o'zlashtirish va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishning ba'zi talablari faqat katta yoshdagi o'quvchilar ixtiyoriy jarayonlarni ma'lum darajasidagi rivojidadagina bajara olishsa, ba'zilari esa boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan bajariladi. O'qitishni alohida bosqichlarga bo'lishning uchinchi omili – kar bolalarni nutqning har xil shakl va turlarini o'zlashtira olishining real imkoniyatlaridir. Mazkur omil o'qitishning har bir bosqichida o'zlashtira olish, qabul qilish va ishlata olish qiyin-omonlik darajasini e'tiborga olgan holda nutq shakl larini har xil birikmalar tarzida o'qitib borishni hamda bu shakl va turlardan yetakchisini, ko'makchisini belgilashga ta'sir qiladi.

Ona tilini o'qitishda tizimlilik ko'p darajada tilning tabiatiga ham bog'liq. Tilning ba'zi munosabatlari, qonuniyatlari, aloqalari o'qitishdan avval hayotda o'zlashtirilgan bo'lib, amaliyotda murakkablashtiriladi. Til tizimining boshqa xususiyatlari maxsus kuzatuvni, tahlilni, umumlashtirishni talab etadi va qandaydir amaliy asos zaminida o'qitilishi lozim. Ularning murakkabroq turlari keyingi bosqichda tanishtiriladi. Masalan, sintagmatik munosabatlar ko'proq tilga taaluqli bo'lsa, pragmatik munosabatlar ko'proq til tizimiga xosdir. Ularni bir bosqichda o'zlashtira olish mumkin emas. Shuning uchun tilning tizimli tashkillashtirishni to'liq uzlashtirish faqatgina maktab o'quv kursining barcha bosqichlarida o'qitishdagina amalga oshirilishi mumkin.

Tizimlilik yoki bosqichma-bosqichlilik kabi tilga o'qitishni tashkillashtirishni tomonlari karlar maktabida didaktik, psixofizik va lingvistik omillar tomonidan aniqlanadi. Vazifani bajarishning o'zgarmas sharti-bir bosqichdan keyingichiga o'tishdagi uzviylikdir. Kar bolalarni maktabda o'qitish kursi to'rt asosiy bosqichga bo'linadi. **Birinchi bosqich** tayyorlov sinfi bo'lib, u maktabga tayyorlovdan o'tmagan bolalar uchun mo'ljallangan. Bu davr bolani bir yoshdan 4-5 yoshgacha davom etadi. Bunda katta e'tibor ko'pchilik kar bolalarni maxsus maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnashi muddatiga va har bir bolani tarbiyalashning konkret shart-sharoitlariga qaratiladi. O'qitishning **ikkinchi bosqichi** – boshlang'ich sinflar bo'lib, ularda 7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qitiladi. **Uchinchi bosqich** – o'rta sinflar bo'lib, kar bolalar maktabining V-VII sinflarini o'z ichiga oladi. Bu bosqichda 11-13 yoshdagi bolalar o'qitiladi. **To'rtinchi bosqich** – katta sinflar bo'lib, karlar maktabining 8-12 sinflarini qamrab oladi. Mazkur bosqichda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar o'qitiladi.

Ushbu bosqichlar bir-biridan vazifalari, o'quv fanlari majmuasi o'quvchilarning nutqini o'stirish bo'yicha ishlarning asosiy yo'nalishlari bilan farqlanadi. Tayyorlov bosqichining asosiy vazifasi bolalarga muloqot uchun zarur nutqiy materialni qisqa vaqt ichida o'zlashtirishni ta'minlashdan iborat. Birlamchi aloqa o'rnatish va nutqda orttirilgan tajribani bilish faoliyatini natijalarini aks ettirish uchun zarur undov, so'roq va gaplar shaklidagi nutqiy material tilga o'qitishning mazmunini tashkil qiladi. Nutqiy rivojlanish masalalarini kompleks tarzda hal qiluvchi o'quv fani dasturida uch qismga ajratilib ko'rsatilgan:

- Daktil nutqga o'rgatish;

- Og‘zaki nutqga o‘rgatish;
- Savodga o‘rgatish.

Bundan tashqari nutqiy malakalarni rivojlantirish predmet-amaliy o‘qitish mashg‘ulotlarida, eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzga o‘rgatish mashg‘ulotlarida amalga oshiriladi. Nutqiy qobiliyatni rivojlantirish, nutqiy faoliyat turlarini shakllantirish, tilning tizimli tuzilishini aks ettiruvchi til qonuniyatlari – bolalarga tushuntirish kabi kar bolalar nutqini rivojlantirish yo‘nalishlaridan biriga katta e’tibor beriladi.

Nutqiy qobiliyatni rivojlantirish – nutqiy bilish, anglash, qayta tasvirlash va psixofizik mexanizmlarini shakllantirishga imkon yaratish demakdir. Maxsus o‘qitishning birinchi kunlaridanoq bolalarga ma’lum predmetli vaziyatdagi ularga qaratilgan nutqga ta’sirlanishni, predmetli harakatlarni tuzilishiga qarab ulardan nima talab qilinayotganini payqash shartlari qo‘yiladi. Bolalar o‘qituvchi yoki tarbiyachining predmetli va nutqiy harakatlariga kattalar tomonidan berilgan nutqiy namuna asosida taqlid qilishga o‘rganadilar. Talaffuzga o‘rgatish va saqlangan eshitish qoldig‘ini rivojlantirish mashg‘ulotlari jarayonida idrokni rivojlantirish ishlari olib boriladi. Nutq materiallarini idrok etish va qayta bayon etish malakasini rivojini tezlashtirish maqsadida daktilalogiyadan foydalaniladi. Maktabgacha tayyorlovga ega bo‘lmagan bolalarni tilga o‘qitish jarayonida daktilalogiya dastlabki nutq shakli bo‘ladi. Unga o‘rgatish og‘zaki nutqga o‘rgatish bilan parallel holda olib boriladi¹².

Amaliy faoliyatda o‘yinda darsni tashkillashtirish jarayonida turli xil kuzatuvlarda muloqot qilish mazkur bosqichdagi bolalarning butun o‘quv faoliyatini tashkil qiladi. Chunki, nutqiy qobiliyat faqat muloqotda paydo bo‘lib, muloqotdagina rivojlanadi. Nutqiy qobiliyat faqatgina nutqiy idrok qilishda emas, nutqni qo‘llashda ham rivojlanadi. Shuning uchun bolani fonetik qiyinchiliklariga qaramay, o‘qitish boshidanoq butun materialni so‘zlash hamda har bir so‘zni ham og‘zaki, ham daktil holda aytishga o‘rgatiladi. Murakkab tovushlarni talaffuzida bola tovushni fonemalar qisqartirilgan sistemasi talablariga muvofiq o‘sha tovushga yaqin qilib aytishi mumkin. Boshidanoq yetakchi idrok o‘rnini eshituv-ko‘ruv idroki egallaydi. Tanish vaziyatlarda qo‘llaniladigan so‘zlashuv nutqining bir qismi bolalarga eshittiriladi.

Ushbu bosqichda bolalar nutqini rivojlantirish ishlarining ikkinchi yo‘nalishi – nutqiy faoliyat turlarini shakllantirishdir. Bolalar daktillashtirish, eshituv-ko‘ruv idroki, so‘zlash, o‘qish, yozuv ko‘nikmalarini o‘zlashtiradilar. Biroq o‘qtishni asosiy vazifasi – kommunikativ akt natijalari: buyurilgan topshiriqni bajrish, murojaatni, iltimosni, istakni, savolni ifodalaydi olish, murojaat qilingandagi nutqni tushunish bo‘lgan tufayli, nutq faoliyatining har bir shaklini texnik tomoni o‘qitishning maqsadi bo‘la olmaydi. Nutqiy faoliyat motivlari ishga doir, shaxsiy va xususan nutqiydir. Tayyorlov bosqichida bolalar nutqiy vositalarni ma’lum natijalarga erishishni, o‘qituvchi yoki do‘sti bilan bir-birini tushunishni istaganligi uchun foydalaniladi.

¹² Kristin Snoddon - American sign language and early literacy - Gallaudet University Press , 2012, 52 p.

Biroq buning uchun nutqiy vositalarni o'zlashtirish so'z va gaplarni o'rganish, yod olish hamda to'g'ri talaffuz qilish har bir bola uchun maqsad bo'lib qolmaydi. Mazkur nutqga ijobiy munosabatda bo'lish motivini nutqiy vositalarni to'plash jarayonini o'ziga xos mazmun bilan boyitish, nutqiy muloqotni maxsus emotsional munosabatlar bilan jo'r qilish kabilar bilan maxsus rivojlantirish darkor.

Tayyorlov bosqichida o'qitishning metodik usullari bolalarning yosh xususiyatlariga, ishlatilayotgan nutq vositalari hajmiga, untq o'stirish ishlarining yo'nalishiga mos keladi. Bu avvalombo dars jarayonida paydo bo'ladigan tabiiy vaziyatlardan, individual mashg'ulotlardan, darsdan tashqari mashg'ulotlardan foydalanishda, mustaqil faoliyatni, momentlarini bajarishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'qituvchi bolalarda xissiyotlar uyg'otuvchi, muloqotga undovchi maxsus vaziyatlar tug'diradi. Bir xil vaziyatlarni muntazam takrorlanishi bolalarni kelgusi nutqiy mashqlariga tayyorlab turadi. Mazkur bosqichda didaktik o'yin va mashqlar, darsdan tashqari vaqtlarda roli o'yinlar bolalar bilan ishlashning katta qismini egallagan. Asosiy yo'li – amaliy faoliyatlar jarayonida nutqni o'stirishdir. Bosqich tavsifi yakunida shuni aytib o'tish joizki, bosqich tuzilmasining biron yo'nalishi yoki nutqiy material faqat bu bosqichgagina xos bo'lib qolmay, aksincha keyingi bosqichlarning tuzilmasi va metodikalarida aks etishi, tayyorlovda shakllantirilgan malakalar esa real-haqqoniy kommunikativ ijtimoiy xulq-atvorga asos solishi lozim.

Yuqorida qayd qilingan uch yo'nalishlardan asosiysi nutq faoliyati turlarini shakllantirishi bo'lib, bu faoliyatlar ichida eng asosiylari o'qish va yozishdir. Biroq, birinchi yo'nalish bo'lish – nutqiy qobiliyatni rivojlantirish yo'nalishi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, lekin namoyon bo'lish mexanizmi bir muncha o'zgartiriladi. 7-11 yoshli bolalar faqatgina kattalarning nutqiy xarakterlariga taqlid qilib qolmay, nutqiy namunalardan foydalangan holda tayyor jumalarni o'zlashtira oladilar. Nutqiy boylikning yetarli darajasida ular so'z shakllari va jumlar qrilmasidagi analogiya (o'xshashlik)larni aniqlash imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bolalar ularda mavjud so'z va jumlar xazinasidan vaziyatga mosrog'ini tanlay olishlari hamda tilning variantivligini tushunishlari mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'qiyotgan kar o'quvchilar tanish so'zlarning o'zagiga turli xil so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish bilan yangi so'zlar hosil qilishga o'rganadilar.

I .3-§. Ona tili darslarida didaktik tamoyillarni qo'llash

Ona tili darslarida didaktik tamoyillarni qo'llash eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar zamonaviy umumta'lim maktablari umumiy pedagogikada asoslab berilgan didaktik tamoyillar tizimi, ilmiylik, onglilik va faollik, tushunarlilik, ko'rgazmalilik, puxtalik, yakka yondashish, izchillik va muntazamlik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi va boshqa tamoyillari bo'yicha ish olib boradi.

Ilmiylik tamoyili.. Ilmiy bilimlarning egallab olinishini ta'minlash uchun kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining idrok qila olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng muhim ilmiy ma'lumotlarni tanlab olish kerak. O'quvchilarning idrok qila olish imkoniyatlari jismoniy kuch va aqliy kuchlanish talab qiluvchi o'quv mavzulari va amaliy masalalarni izchillik bilan murakkablashib borish jarayonida

kengayib boradi. O'quv materialining ilmiyliligi tushunarli bo'lish bilan uyg'unlashishi kerak. Bunga uni o'quvchilarning aqliy va ruhiy rivojlanishiga, shuningdek, ularning tayyorgarligiga moslashtirish bilan erishiladi. Bilimlar mazmunining tushunarligi kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida o'qishga qiziqish uyg'otadi, aqlga ozuqa beradi, mantiqiy fikrlashga, taqqoslash va xulosalar chiqarish, amaliy masalalarni yechishga majbur qiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish jarayonida nazariyani amaliyot bilan bog'lash tamoyili. Nazariyani amaliyot bilan bog'lash o'quvchilarni amaliy masalalarni hal qilishda nazariyaning ahamiyatini tushunishga olib keladi. Bu o'quv materiallarini o'zlashtirishda uning sifatini ko'taradi. Bu tamoyil mehnat ta'limi va o'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash vazifalarini hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'qitishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanish xarakteri o'quv fanining mazmuni bilan taqozo qilinadi. O'qitishda nazariy bilimlar o'quvchilarni tabiatning u yoki bu hodisalari bilan amaliy tanishtirish jarayonida puxtaroq o'zlashtirib olinadi. Bunda amaliyot o'quvchilarni nazariyani o'zlashtirishga qiziqtirish uchun undan oldinroq kelishi mumkin. O'quvchilarning jonli tabiat burchagidagi, shuningdek, o'simliklarning suvga, issiqlikka, yorug'likka ehtiyojini, gul, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga organik va mineral o'g'itlarning ta'sirini, pomidorning pishishi va hosildorligini aniqlash bo'yicha tajribalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan o'quv-tajriba maydonchasidagi mehnat jarayonida nazariya bilan amaliyot bog'lanishi yaxshi amalga oshiriladi. Darslarda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishini amalga oshirib borishda shuni yodda tutish kerakki, o'quvchilarning amaliy faoliyati ularning nazariy bilimlarni o'zlashtirib olishga bo'lgan intilishlarini bo'shashtirmasligi lozim. Karlarni o'qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog'lanishi uning barcha bosqichlarida amalga oshirilmog'i, nazariy bilimlarning chuqurlashishiga va amaliy faoliyatga tayyorlashga yordam berishi kerak. O'rganiladigan nazariy bilimlarning mazmuniga qarab, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning har xil shakllari mavjud.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitishda onglilik va ijodiy faollik tamoyili. O'quvchilarning bilimini ongliligi va ijodiy faolligi qoidasi: o'quvchilarning o'qishga ongli va ijodiy munosabatda bo'lishlarini; o'rganilayotgan materialni tushunib olishlari va tushunganlarini ifodalay olishlarini; o'qish faoliyatini ijodiy xarakterda bo'lishini; bilimlarning amaliyotda ongli qo'llanilishi va ularning ishonchga aylanishini o'z ichiga oladi. Onglilik tamoyilini amalga oshirishda bosh rol o'qituvchiga taalluqlidir. U o'quvchi oldida turgan vazifalarni aniq qilib ifodalashi va ularni yaxshilab bajarishga qiziqish uyg'otishi kerak. O'qitishda onglilikning namoyon bo'lishining oliy shakli o'quvchilarning ijodiy faolligidir. Bilimni egallashda onglilik mavjud bo'lsa, o'quvchilarda ijodiy faollik shakllanishi ijobiy samara beradi.

O'qitishning ko'rgazmalilik tamoyili. Ko'rgazmalilik qoidalaridan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishdir. Bu tamoyil atrof-olamni bevosita qabul qilib olish asosidagi o'qitishni nazarda tutadi. Ko'rgazmalilik tamoyiliga rioya qilish tabiatni o'rganishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, muhimdir. Chunki kichik yoshdagi

maktab o'quvchilar ko'rganlarida hosil qilgan xususiy taassurotlari asosida to'g'ri tushuncha va xulosalar hosil bo'lishiga yordam beruvchi to'la qimmatli bilimlar olishlari kerak. Tabiatshunoslikni o'qitishdagi ko'rgazmalilikni mashg'ulotlar jarayonida faqat tabiiy jismlar foydalaniladigan yoki tajriba ko'rinishidagi hodisalarni eslatuvchi fanli ko'rgazmalilikka va tabiat jismlari yoki hodisalarining jadval, doskadagi rasm, model, mulyaj, diapozitiv, kinofilm, xarita, sxema va boshqalardan foydalaniladigan tasviriy ko'rgazmalilikka ajratish maqsadga muvofiqdir. Fanli va tasviriy ko'rgazmalilikni amaga oshirish asosida o'qitish, ayniqsa, bolalar rivojining dastlabki bosqichlarida, tafakkurni, kuzatuvchanlikning faollashishiga yordam beradi, o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini oshiradi. Ularni oddiy tadqiqotlar olib borishga o'rgatadi, bilimlarni faol qabul qilishga yordamlashadi, ularni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi, bilimlarning mustahkamligini ta'minlaydi.

Bilimlarni puxta o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil olingan bilimlarni, shakllantirilgan o'quv ko'nikmalari o'quvchilar xotirasida uzoq saqlanishini nazarda tutadi. O'quvchilar bilimining puxta bo'lishi ko'rsatib o'tilgan tamoyillardan o'quvchilarning saviyasi hamda qiziqishiga qanchalik muvofiq tarzda foydalanilishiga bog'liq. Bilimlarning puxta bo'lishiga erishish uchun, avvalo, o'quv yili boshlanishida ilgari o'tilgan materialni yangi bilimlarning o'zlashtirilishini ongli bo'lishi uchun tiklash zarur. Birinchi navbatda, dasturning yangi material bilan ko'proq bog'liq bo'limlarini takrorlash lozim. Bunda yangi bilimlarini o'zlashtirishning birinchi bosqichida o'qituvchi o'quvchilar yangi materialni asosli ravishda tushunishlari va o'zlashtirib olishlari uchun uning barcha hajmini emas, balki asosiy mazmunini berishi kerak. Chunonchi, "Vatanimiz tabiatining xilma-xilligi" mavzusini o'rganishda o'quvchilarda avval o'lkadagi tabiiy sharoitning turli-tumanligi, keyin har bir hudud bilan tanishadilar. Bu yangi axborotlarni kiritib borish imkoniyatini beradi. Ular yordamida har bir hudud uchun xos bo'lgan xususiyatlarni, jumladan, o'simlik va hayvonot dunyosi aniqlanadi, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi qo'shimcha ma'lumotlar berib boriladi. Puxta bilimlarga erishishda ularni o'quvchilarning faol fikr yuritishlari asosida tizimlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar yangi bilimlarni, ilgari o'rganilgan material bilan bog'lab, yaxshiroq o'zlashtiradilar.

O'qitishda muntazamlilik VA izchillilik tamoyili. Atrofdagi olam haqida juda ko'plab ma'lumotlardan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni, Vatanimiz tabiatining xilma-xilligini, jonajon o'lka tabiatini va boshqalarni ochib beruvchi, ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ancha qimmatli o'quv materiali tanlanadi.

Materialning bunday berilishi shu bilan izohlanadiki, kichik yoshli maktab o'quvchilarining tabiat to'g'risidagi fan asoslarini faqat atrof-olamning jism va hodisalarini aks ettiruvchi va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni ochib beruvchi dastlab oddiy tabiiy ob'ektlar bilan, keyin esa murakkabrog'i bilan izchil tanishtirib borish jarayonida egallab olishlari mumkin. Bu bilan o'qitishda muntazamlilik tamoyili amalga oshiriladi.

O'qitishning muntazamliligi, ya'ni tizimlilik bilimni bayon qilishda muayyan tizimga amal qilishdan tashqari amaliyot bilan bog'lanishning xilma-xil shakllari amalga oshirilishini, jumladan, nazariy bilimlarini kuzatishlar va bilib olishga qaratilgan qiziqarli o'yinlar bilan; atrofdan hayot va qurilish amaliyoti bilan; mehnat ta'limi va ijtimoiy-foydali mehnat bilan; maktaboldi uchastkasidagi ish va unumli mehnat bilan bog'lanishini nazarda tutadi¹³.

Yakka yondashish tamoyili. O'rta ta'lim tizimini qayta qurish sharoitida bolalarning yakka xususiyatlarini o'rganish tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Maktabga kirayotgan har bir bola muayyan axborot yig'indisiga va yakka xususiyatlarga ega, ular bilimlarni o'zlashtirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq o'qitish jarayonida bolalar guruhida bilimlarni o'zlashtirish darajasi bir xil bo'lishi mumkin. Binobarin, bolalar rivojida to'g'ri keladigan umumiylikni aniqlash mumkin. U rivojlanish darajasi, bilim zahirasi, fikrlash xarakteri, faoliyat va xulq-atvor baholarining o'xshashligi bo'lishi mumkin.

Ammo umumiylik bilan bir qatorda, har bir o'quvchi uchun o'zining yakka xususiyatlari: diqqatining rivojlanishi, darsdagi xulq-atvorining xarakteri, fanga munosabati, ko'rgazmali va og'zaki materialni qabul qilishining tezligi va aniqligi; o'quv materialini tushunib olishi va fikrlash xarakteri; tabiat to'g'risidagi bilimlarining sifati va og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojlanish darajasi o'ziga xosdir.

O'qituvchi, sinfda ish olib bora turib, har bir o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish va salbiylarini bartaraf qilish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish zarurligini unutmasligi kerak.

Korreksion yo'nalganlik tamoyili. Korreksion yo'nalganlik tamoyili bolaning sog'lomligiga tayanishni, kar bolaning rivojlanishida kompensator imkoniyatlarini ta'minlashni nazarda tutadi. Kar bola sog'lom miyaga ega bo'lib, ko'rgazma-harakatli va ko'rgazma-obrazli darajada atrof dunyoni aks ettirib anglay oladi. Ifodali harakatlar tizimini – imo-ishorali nutqni egallab, muloqotga kirishish ehtiyojini qidiradilar. Karlarda yo'qolgan, buzilgan eshitish funksiyasini qisman ko'rish, kinestetik va boshqa analizatorlar faoliyati egallaydi. Saqlanib qolgan ko'rish idrokiga tayanish karlarda nutq a'zolarining qo'rinadigan harakatlari orqali og'zaki nutqni idrok etishning maxsus metodi – labdan o'qishni shakllantirishga imkon beradi. Bunda labdan o'qishning sifati tinglovchini faolligiga bog'liq. Bunday qarama-qarshi faollik, eng avvalo, kutilayotgan xabarni ehtimollashda, so'zlarni aks ettirib talaffuz etishda, berilayotgan barcha ma'lumotlarni qayta ishlashda namoyon bo'ladi. Kar bolalar maktabining o'quv rejasi ham korreksion yo'nalganlik tamoyilini e'tiborga olgan holda tuzilib, unga talaffuzni shakllantirish va eshitish idrokini rivojlantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, predmetli-amaliy o'qitish fanlari kiritilgan. Korreksion yo'nalganlik tamoyili har bir darsda amalga

¹³ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments
Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015
by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy,
75352 Paris 07 SP, France

oshiriladi. Surdopedagog bolalarda og‘zaki nutqni shakllantirishga, bilish faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi, yangi tushunchalarni hosil qilayotib o‘qituvchi saqlangan barcha analizatorlarning ishini faollashtiradi. Korreksion yo‘nalganlik tamoyili og‘zaki metodlar bilan birgalikda ko‘rgazmali va amaliy metodlarni qo‘llashni nazarda tutadi.

Fan asoslarini va so‘zlashuv nutqni o‘zlashtirish jarayonining birligi tamoyili. Umumta’lim maktab o‘quvchilari fan asoslarini maktabgacha yoshda saqlangan eshitish asosida kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilishda shakllangan nutq yordamida o‘zlashtirib olsalar, kar o‘quvchilarda esa fan asoslarini va so‘zlashuv nutqni egallash jarayonlari o‘zaro aloqadordir. Lug‘at zahirasi boyitish va grammatik ko‘rilishini shakllantirish karga fan asoslarini egallash jarayonini osonlashtiradi va aksincha, fan asoslarini egallash o‘quvchilar lug‘atini yanada boyitib, og‘zaki nutqni rivojlantiradi. Kar bolalar maktabining dasturlarida o‘quv fani bo‘yicha dastur mazmunini o‘zlashtirish ishlari bilan parallel ravishda nutqni rivojlantirish ishlari zarurligi maxsus ta’kidlab o‘tilgan.

Fan asoslari va og‘zaki nutqni o‘zlashtirish jarayonining birligi tamoyili boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va fan o‘qituvchisidan kar o‘quvchilar nutqining barcha tomonlarini (fonetik, grammatik, leksik) korreksiyalashni talab etadi. Bu, o‘qituvchidan sinfning va har bir o‘quvchining nutq imkoniyatlarini bilishni, o‘quvchining nutqiga yakka ish mazmunini e’tiborga olgan holda talablar qo‘yishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga asoslanib, fan o‘qituvchisi o‘z fani bo‘yicha atamaologiyani o‘zlashtirishdan tashqari bolalar tomonidan boshqa fanlarni o‘rganishda to‘plagan lug‘atini faollashtirishni amalga oshiradi. O‘quvchilarni sinonimlar, antonimlar turli umumlashtiruvchi so‘zlardan faol mashq qildirish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarda bog‘langan nutqning og‘zaki va yozma shakllarini dialogik va monologik nutq malakalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Ta’limda eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili. Ta’limda eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili kar bolalarni atrofidagi odamlar nutqini eshitish, ko‘rish asosida, apparat yordamida aniq va to‘liq idrok etish maqsadida qoldiqli eshitish extiyojini imkoni bor darajada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu tamoyil asosida kar bolalar uchun umumta’lim maktablarining o‘quv rejasi tuzilgan bo‘lib, unda eshitish idrokini rivojlantirish va talaffuzni shakllantirish bo‘yicha yakka mashg‘ulotlarga alohida vaqt ajratilgan.

“Eshitish idrokini rivojlantirish” predmeti dasturida eshitish idrokini rivojlantirish bo‘yicha ishlarning vazifalari, mazmuni va tashkiliy shakllari ko‘rsatib berilgan. Asosiy talab ta’limni nutq eshitish sharoitida ovozni kuchaytiruvchi asboblardan keng foydalanish orqali amalga oshirishdir.

Eshitish idrokini jadal rivojlantirish tamoyili eshitishni mashq qilish va sensor bazani kengaytirishning shunday didaktik sharoitlarini hosil qilishga yo‘naltiradiki, unda har bola faqatgina eshitish, ko‘rish, kinestetik, daktil-tebranuvchi(vibrasion) sezgilaridan bir vaqtning o‘zida foydalanib borayotgan akustik ma’lumotlarni interpretatsiya qilishgagina o‘rganmasdan, balki unda ijobiy motivatsiya, nutqni

eshitishida foydalanish ehtiyojini ishlab chiqadi. E.P. Kuzmichevaning ma'lumotiga ko'ra, eshitish mashqlari natijasida 1-sinf o'quvchilari 150 tagacha, 2-sinf o'quvchilari qo'shimcha 200 ta so'z, 3-sinf 300 ta yangi so'zni ajrata oladi.

Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyili kar bolani har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda, o'quvchilarni umumta'limga tayyorlash va kasbiy yo'naltirishda predmetli-amaliy faoliyatining turli ko'rinishlaridan maxsus korreksiya vositasi sifatida keng foydalanishni nazarda tutadi. Predmetli-amaliy faoliyat sharoitida kar o'quvchilarning bilim faoliyati takomillashadi. Fanlardan amalda foydalanish (ko'zdan kechirish, paypaslab, ushlab ko'rish, qilish-yasash) ob'ektlarning turli xususiyatlari va sifatlarini, ular orasidagi ba'zi muhim munosabatlarni eshitishni rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatning turli xillari kar o'quvchida hayotiy tushunchalarni shakllantirish, fikrlash operatsiyalarni, mantiqiy bog'lanishlarni o'zlashtirib olish jarayonini osonlashtiradi. Bunday faoliyat jarayonida kar o'quvchilar atrofdagi hodisa va voqealarning mantiqiy aloqadorligini o'rnatish ko'nikmasini tezroq egallaydilar. Predmetli-amaliy faoliyat harakat, ob'ekt xususiyatlari va sifatleri nomlarini beixtiyor eslab qolishini ta'minlaydi va so'z mantiqiy hodisalarini rivojlantirishga yordam beradi. Predmetli-amaliy faoliyatga tayanish tamoyilini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish o'quvchilarning darsda turli ish shakllarini tashkillashtirish bilan bog'liq (jamoali, guruhli, juft bilan, yakka holda).

Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili. Tilni o'rganish, nutqiy aloqa karlar uchun korreksiya va kompensatsiyaning muhim vositasi sifatida ahamiyatga ega. Nutqiy muloqotni jadallashtirish tamoyili tilning kommunikativ funksiyasini amalga oshirish, karlarda nutq asosida aloqa qilish ehtiyojini shakllantirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarning keng nutqiy amaliyotini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyili nutqni daktil, og'zaki va yozma shakllarda shakllantirishni nazarda tutadi. Daktil nutqi muloqotning ning boshlang'ich shakl sifatida kar bolaga so'zlarni og'zaki va yozma shakllari o'zlashtirilmagan vaqtda taqlid orqali daktil belgilar yordamida ifoda etishni ta'minlaydi. Daktil nutq og'zaki va yozma nutqning shakllarini o'zlashtirib olishni tezlashtirish vositasidir.

Yozma nutqni o'zlashtirish bolaning nutqiy mulovatni jadallashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Bunda nutqiy kommunikatsiyaning hisobot, ariza, xat va hokazo shakllariga alohida ahamiyat beriladi¹⁴.

Og'zaki nutq daktil bilan bir vaqtda shakllanadi. Asosiy tovushlarni o'rganib olib, (fonemalarning qisqartirilgan tizimi) bolalar atrofdagilar bilan aloqa qilish uchun daktil shaklda o'zlashtirib olgan zarur nutqiy materiallardan foydalana oladilar.

Tilning alohida nutq vositasi sifatida o'rganib olish og'zaki nutqni to'g'ri idrok etish, tushunarli talaffuzsiz iloji yo'q. Ularning sifatini oshirish uchun bolada

¹⁴ Embracing Diversity: Toolkit for Creating Inclusive, Learning-Friendly Environments Specialized Booklet 3 Teaching Children with Disabilities in Inclusive Settings Published in 2015 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7, place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP, France

rivojlanayotgan eshitishga tayanish lozim. Nutqiy muloqatni eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlar barcha o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda zarur komponent-nutqiy aloqani jadallashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Nutqiy muloqatni jadallashtirish tamoyilini amalga oshirish kar o'quvchilarda nutq ko'nikmalarining kompleksini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Ularga barcha fanlar bo'yicha darslarda rivojlantiradigan savollarga javob berish, savol tuzish, o'z munosabatini, faoliyatini, topshiriqni bajarganligini ifodalovchi nutqiy ko'nikmalar kiradi. Nutqiy aloqani jadallashtirish tamoyiliga sinfdan tashqari vaqtda pedagogik jihatdan tashkil etilgan turli kommunikativ sharoitda amalga oshiriladigan nutqni rivojlantirish ishlari ham kiradi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning yana bir yo'li maktabda yagona nutq tartibini tashkil etish. Pedagogik jarayon tomonidan o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talabning yagonaligi o'quvchilarning aloqa qilish sharoitini yaratib berishdan, moyilligini mohiyatli ravishda amalga oshirish o'quvchilarning darsdagi turli ish shakllaridan: jamoali, guruhli, yakka holdagilardan iborat. Ona tiliga o'qitish jarayonida turli xil metodlardan foydalaniladi. Bu metodlar, birinchi navbatda, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'quvchilarning fiziologik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni bolalarni o'qitish jarayonida foydalaniladigan metodlarni shartli ravishda 2 guruhga bo'lamiz: umumiy, maxsus va xususiy.

Maxsus metodlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni bolalar maxsus maktabida o'quv rejasida ko'zda tutilgan ma'lum bir o'quv fanini o'zlashtirish, o'qitishda qo'llaniladigan metodlar tushuniladi. O'quv materialining ahamiyatli tomonlari va shu o'quv materialining kar bolalar tomonidan o'zlashtirish xususiyatlariga tayaniladi, muhim metodologik metodlar, o'qitishning tashkiliy shakllaridan foydalaniladi.

Xususiy metodlar. Xususiy bo'limlar ustida ish olib boruvchi surdopedagoglar tomonidan qo'llaniladigan metodlar, shitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni bolalarning so'zli nutqini muomala vositasi sifatida shakllantirish, talaffuz va labdan o'qishga o'rgatish kabi ishlarda qo'llaniladigan metodlar.

Ona tiliga o'qitishning ko'rgazmali metodlari. *Kuzatish metodi* – atrof-olamni hissiy bilishning faol shakli bo'lib, fan va hodisalarning ob'ektiv faoliyati haqida dastlabki tasavvurlarni paydo qiladi. U kar bolalarning aqliy rivojlanishining muhim manbaidir. Bu ishga asosiy diqqat kar bolalarni o'qitishning dastlabki bosqichlarida ajratiladi. Atrof olamni o'rganish kuzatuv metodidan foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochib beradi.

Namoyish metodi – o'rganilayotgan fanlar, hodisalar bilan hissiy-ko'rgazmali tanishtirishdir. Bunda o'quvchilarda obrazli tasavvurlar shakllanadi. Kar bolalar maktabida namoyishning turli shakllari (tabiatda mavjud bo'lgan narsalar namoyishi, ularning tasviri, kinofilm va diafilmlar ko'rsatish, sxemalar, jadvallar, xaritalar ko'rsatish va hokazolar)dan foydalaniladi.

Ona tiliga o'qitishning so'zli metodlari. *Hikoya* – kar o'quvchilarning bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirishlariga ko'maklashadigan amaliy materialni jonli, obrazli, emotsional bayon qilishdir. Surdopedagog so'zi kar o'quvchilar bilimlarining muhim manbaidir. Hikoyaning qimmatliligi shundaki, qisqa vaqt ichida

o'qituvchi kattagina hajmli ma'lumotlarni berishi mumkin. O'qitish metodi sifatida hikoya o'quvchilarning bilimlarini yangi amaliy material bilan to'ldirish zarur bo'lganida qo'llaniladi. Ushbu metod barcha sinflarda jami o'quv fanlarini o'qitishda ishlatiladi. O'qituvchining nutqiga qo'yiladigan talablar nihoyatda muhimdir. U artikulyatsiyaga zo'r bermasligi, yuzi yaxshi yoritilgan, nutqi aniq; ifodali, ravon, barcha orfoepiya meyorlariga rioya qilingan bo'lishi kerak. O'qituvchining nutq sur'ati nutqiy material xususiyati va o'qitish bosqichiga bog'liq bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalar sinflarida hikoyadan foydalanilganda surdopedagogning nutqi meyordan sekinlashgan, aniq, lekin tabiiy artikulyatsiyali bo'lishi darkor. O'quvchilarning ko'rib, eshitib qabul qilish ko'nikmalari rivojlanib borgan sayin o'qituvchining nutqi so'zlashuv sur'atiga ega bo'la boradi.

Tushuntirish – so'zli metodi ishlatilishi jarayonida hodisalar qonuniyatlari ochib ko'rsatiladigan, sabab-oqibat bog'lanishlari aniqlanadigan so'zli metoddir. O'qituvchining tushuntirishida hamisha mulohaza, isbot va xulosalar ko'p bo'ladi. Uning tushuntirishi o'qitilayotgan hodisalar va qonun-qoidalar mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Tushuntirish o'quvchilarning faol fikrlash faoliyatini nazarda tutadi. Bunda o'quvchilarning mustaqilligi, ularning kitob bilan, ko'rgazmali va didaktik material bilan ishlay olishi muhimdir. Pedagog vazifasi – zaruriy yordam ko'rsatgan holda karlarning amaliy va fikrlash faoliyatiga moxirlik bilan boshchilik qilishdir. Tushuntirish fan asoslarini o'qitish metodi sifatida maktab amaliyotida hikoya, suhbat, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birga ko'riladi.

Suhbat. Monologik bayondan farqli ularoq, suhbat dialogik so'zlashuv metodidir. Uning qimmatini shundaki, u surdopedagogga o'quvchilar faoliyatini ancha faollashtirishga imkon beradi. Mulokotning savol-javob shakli kar o'quvchilarda dialogik nutqni shakllantirishga ko'maklashadi. Suhbat turlicha pedagogik maqsadlar bilan o'tkazilishi mumkin. Shunga ko'ra, uning xususiyati va o'tkazish uslubiyati o'zgaradi. Jumladan, surdopedagog amaliyotida kirish suhbatini keng qo'llaniladi. Shu jarayonda surdopedagog kar bolalardagi bilimlar darajasi, hajmi va xususiyatlarini aniqlaydi. Bunday qilish keyingi ishlar uchun va materiallarni o'qitish metodlarini belgilash uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Kirish suhbatini kar o'quvchilarning ilgari o'zlashtirgan bilimlarini dolzarblashtirish va ularni yangi materialni qabul qilishga tayyorlashga yordam beradi. Suhbat o'tkazishda surdopedagogning savollarni tanlashi va ta'riflashi eng qiyini hisoblanadi. Savollar kar o'quvchilar haqiqiy bilimlarini aniqlashgagina emas, balki hodisalarning sababiy bog'lanishini, o'zaro aloqadorligini tushunib olishga, ularning mohiyatini anglashga qaratilishi lozim. Bu esa o'quvchilarni evristik izlanishga rag'batlantiradi. Suhbat boshqa metodlar: suhbatga kiritsa bo'ladigan hikoya, suhbatga qo'shimcha qilinadigan namoyish va hokozolar bilan uzviy bog'langandir. Xususiyatiga ko'ra suhbat axborot – reseptiv, reproduktiv yoki izlanish metodlariga kiritilishi mumkin. Uni o'tkazishning mantiqiy yo'li ham turlicha bo'lishi mumkin. Suhbat usulidan foydalanganda kar bolalar fikrlash faoliyatining kuchayishi bilan bir qatorda ularda nutqni ko'rib qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, eshitib qabul qilishni rivojlantirish, shuningdek, nutqning to'g'ri talaffuzi ustida ishlash uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Ona tiliga o'qitishning amaliy metodlari. *Darslik va kitob bilan ishlash* – kar o'quvchilar uchun muhim bilim o'chog'i hisoblanadi.. Kar o'quvchilarning kitob bilan ishlashi birinchi o'quv yilidan boshlanadi. Sinf dan sinfga ko'chgan saralash faoliyatlari murakkablashadi. Bundan tashqari, surdopedagog darslik bilan ishlashgina emas, kar o'quvchilarni turli toifadagi lug'atlar va ma'lumotnomalardan foydalanishga ham o'rgatadi.

Amaliy ishlar – o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va mustahkamlashga, shuningdek, bilimlarni amaliyotda qo'llash, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi aloqani o'rnatishga qaratiladi. Amaliy ishlar bilim va malakalarni shakllantirishda kar o'quvchilarning mustaqilligini va bilish faolligini rivojlantirishda, ularni hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliy ishlar barcha sinflarda, barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda qo'llaniladi. Karlar maktabining quyi sinflarida amaliy ishning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchilarning ko'rgazmali amaliy faoliyatidir. Bunga quyidagilar kiradi: predmetli-amaliy faoliyat, o'lchov ishlari faoliyati va boshqalar. Kar o'quvchilarning quyi sinflarida predmet amaliy ta'lim (predmetli-amaliy ta'lim) faoliyatining qurish-yasash, applikatsiya modellashtirish, konstruktorlash ishlari keng tarqalgan.

Mashq – o'qitishning muhim metodlaridan biridir. Bu metod kar bolalar maktabining barcha o'quv fanlarini o'qitishda keng qo'llaniladi. Mashqning metodikasi va xarakteri o'quv fanining xususiyatlariga, aniq materialga va o'zlashtirilayotgan savolga bog'liq. Mashq qoida bo'yicha qayta tiklovchi (reproduktiv) metodga tegishlidir. Mashqlarni rejalashtirish asosida surdopedagog sinf rejasini va har bir o'quvchining yakka xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

O'qitishning o'ziga xos xususiy metodlari. Surdopedagoglarga ushbu metodlarning ilmiy-nazariy asosi va tavsifi berilgan. Ulardan biri kar o'quvchilarning so'zlashuv nutqini shakllantirish hisoblanadi. Shuningdek, kar o'quvchilarning eshitish idrokini shakllantirish ishlari o'quv-tarbiya jarayonining o'ziga xos jihati hisoblanadi. Uning vazifasiga kar bolalarning saqlangan qoldiq eshituvini maksimal darajada rivojlantirish, nutqiy ovozlarni olami haqidagi tasavvurlarini boyitish kiradi.

I.4-§. Dars -eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tiliga o'qitish shakli sifatida

Maxsus maktab, maktab-internatlarda tashkil etiluvchi ta'lim jarayoni o'quvchilar so'zlashuv nutqini rivojlantirish zamirida o'quv rejasida ko'zda tutilgan fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantirish, ijtimoiy hayotga uyg'unlashuvning zaruriy sharti – kasbga yo'naltirish hamda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini hal qilishni nazarda tutishi, ta'lim muassasasi o'z ishining pirovardida esa, ana shu vazifalarni hal qilishga erishishi lozim. O'quv-tarbiya jarayoniga qo'yilayotgan yangi talablar muassasaning pedagog xodimlariga, eng avvalo, o'z o'quvchilari rivojlanish xususiyatlari haqida mukammal bilimga ega bo'lish, maxsus tashkil etiluvchi ta'lim-tarbiya jarayonining tub mohiyati va

mazmunini anglab olish vazifasini yuklamoqda. Faqat shundagina defektolog-o'qituvchi o'ziga yuklatilgan vazifaning mohirona yechimiga ega bo'ladi. O'quvchilar tomonidan nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarning o'zlashtirilishi o'quv jarayoni (o'qitish)ning turli-tuman shakllarida amalga oshiriladi.

O'quv jarayonining tashkiliy shakllari o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum bir shart-sharoit va tartib asosida tashkil etiluvchi birgalikdagi o'zaro faoliyati bo'lib, ijtimoiy shart-sharoitlarga bog'liq bo'lib, didaktik tizimlar rivojlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi hamda takomillashib boradi. Ushbu tashkiliy shakllar turli mezonlar asosida: o'quvchilar soni (yalpi, jamoa, guruh, kichik guruh va yakka mashg'ulotlar), o'qitish(ta'lim)ni o'tkazishning joyiga ko'ra (maktab va maktabdan tashqari shakllar), o'quv mashg'ulotlarning davomiyligi va h.k.larga ko'ra tasniflanadi.

Maxsus maktab, maktab-internatlarda o'quv jarayonini tashkil etishning dars, ekskursiya, yakka tartibdagi mashg'ulotlar, musiqaviy-ritmik mashg'ulot, uy topshiriqlari, fakultativ mashg'ulotlar o'tkazilib, ularda asosiy e'tibor muassasaning oldiga qo'yilgan vazifalar yechimiga qaratiladi.

O'qitishning sinf-dars tizimi hozirgi kunga qadar, butun dunyoda barcha maktablardagi singari, maxsus maktab-internatlarda ham o'quv faoliyatining eng ko'p tarqalgan tashkiliy shakli bo'lib qolmoqda.

Dars maktabdagi o'quv jarayonining asosiy ish shakli sifatida ilk bor, XVII asrda zamonaviy pedagogika sohasida ushbu kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan – "Buyuk didaktika" asarining muallifi Yan Amos Komenskiy tomonidan amaliyotga joriy qilindi.

Dars – o'qitishning vazifalari, mazmuni, nizom va metodlarini o'zida mujassamlovchi, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar jamoasi bilan aniq, belgilangan vaqtlarda jadval asosida olib boriluvchi o'quv jarayonining asosiy shakli.

Maxsus maktab, maktab-internatlarda olib boriluvchi dars vazifalari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Sinf-dars tizimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- didaktik tizimning asosiy birligi dars sanaladi;
- dars bir o'quv faniga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilar o'qituvchining maqsad sari yo'naltirilishi, rahbarligi asosida faoliyat ko'rsatadilar;
- o'qituvchining tutgan o'rni nafaqat o'quvchilarga o'quv materialini yetkazib berish, balki uning har bir o'quvchi tomonidan o'zlashtirishligiga erishishi, javobgarligi bilan belgilanadi;
- sinf – taxminan bir xil yosh va xususiyatlarga ega o'quvchilarning birlashuvi bilan, uning tarkibi o'quv yili davomida deyarli o'zgarmasligi bilan belgilanadi;
- sinf dars jadvaliga muvofiq holda o'quv reja va dasturlari asosida ta'lim oladi;
- darslar barcha o'quvchilar uchun avvaldan tuzilgan qat'iy jadval asosida olib boriladi;
- o'quv yili chorak hamda ta'til davrlari bilan, o'quv kuni esa jadval asosidagi darslar miqdori hamda ular o'rtasidagi tanaffuslar bilan belgilanadi;
- o'quv yili har bir o'quv fanidan belgilangan dastur materiallarining tugallanishi bilan yakunlanadi;

- maktab ta'limi bitiruv imtihonlari (bitiruv attestatsiya) bilan yakunlanadi.

Dars turlari (tiplari) ma'lum bir darslar guruhiga xos bo'lgan belgilar yig'indisi bo'lib, ular asosiy maqsadlarning xususiyatlari, mazmuniy – metodik talablarga muvofiq holda belgilanadi. YA'ni har qanday dars o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'zining aniq maqsadi, vazifalari va mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Darsning qaysi tomonlari (belgilari) asosiy qilib tanlanishiga muvofiq holda o'quv mashg'ulotlarining turli – tuman ko'rinishlari belgilanadi. Darslar mazmuni hamda olib borish usullariga ko'ra guruhlashtirilishi mumkin (I.N.Kazansev). Asosiy didaktik vazifalariga ko'ra maxsus maktab-internatlarda o'tiluvchi quyidagi dars turlarini ajratish mumkin: kirish (propedevtik), o'quv materialini bilan dastlabki tanishish, yangi bilimlarni egallash, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash, yangi ko'nikma va malakalarni shakllashtirish, bilim, ko'nikmalarni takrorlash va umumlashtirish, nazorat qilish va korreksiyalash, sinfdan tashqari o'qish va h.k. Aralash dars turida o'quv faoliyatini olib borishning tushuntirish, mustahkamlash, tekshirish, yakun yasash kabi turlari uyg'unlashgan bo'ladi. Yangi bilimlarni egallash darsida asosiy e'tibor yangi materialni o'rganishga qaratiladi. Bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va mustahkamlash darslarida ko'proq amaliy faoliyatga, shuningdek, mashqlarga e'tibor karatiladi. Ko'nikma va malakalarni takrorlash va umumlashtirish darslarida muayyan mavzular va bilimlar bo'yicha o'rganilgan o'quv materialini tizimga solinadi. Laboratoriya darslari - olingan nazariy bilimlar laboratoriya sharoitida amalda qo'llanadi, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish, tekshirish va baholash darsida - o'quvchilar turli xildagi sinov va nazorat, og'zaki va yozma ishlarni bajaradilar. Bu darslarda asta-sekin maxsus maktablarda ham testlash usulidan foydalanish kiritib borilmoqda. Sinfdan tashqari o'qish darsi - bolalarda o'qishga, adabiyotga qiziqish va muhabbat uyg'otish, badiiy adabiyot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, korreksiyalash, mustaqil nutqini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Dars tuzilishi deganda uning o'quv vazifasini bajarishga yordam beradigan qismlari. bosqichlari nisbati va ularni amalga oshirish izchilligi tushuniladi.

O'quv vazifasi va ishning mazmuniga ko'ri dars qismlarining o'rtasidagi nisbat o'zgarib turadi. Ularning ayrimlari darsda asosiy o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchi ahamiyatga bo'ladi yoki umuman ishtirok etmaydi. Darsning turlari tuzilishiga oid xususiyatlar to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish eng ko'p uchraydigan dars turlari tuzilishining bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

Aralash darsning tuzilishi:

- darsning borishini tashkil etish;
- nutqiy mashqlar;
- uy vazifasini tekshirish;
- o'tgan dars yuzasidan topshiriqlar;
- yangi materialni bayon qilish (tushuntirish) (oraliqda - fizminutka);
- o'tilgan materialni mustahkamlash va takrorlash yuzasidan faoliyat;
- darsga yakun yasash va uyga vazifa berish.

Yangi bilimlarni bayon etish darsining tuzilishi:

- darsning boshlanishini tashkil etish;
- nutqiy mashqlar;
- o'quv jarayoniga kirish ishi: uy vazifalarini tekshirish, ilgari o'rganilgan material yuzasidan qisqa takrorlash va h.;
- yangi materialni bayon qilish (tushuntirish) (oraliqda - fizminutka);
- o'tilgan materialni mustahkamlash va takrorlash yuzasidan faoliyat;
- darsni yakunlash va uyga vazifa berish.

Umumlashtirish yoki takrorlash darsining tuzilishi:

- darsning boshlanishini tashkil etish;
- nutqiy mashqlar;
- o'quv jarayoniga kirish ishi: uy vazifalarini tekshirish, ilgari o'rganilgan materiallar yuzasidan qisqa savol-javob va h.;
- o'quv materiallarini umumlashtirish va muayyan tizimga solish;
- darsga yakun yasash va uyga vazifa berish

Maxsus maktab-internatlarda asosan (o'quv vaqtining deyarli 80% ga yaqini) aralash (kombinatsiyalashtirilgan) dars turidan foydalanish keng tarqalgan.

Amaliy darslarda asosiy ish faoliyati maktab tajriba maydonchasida tajriba o'tkazish, o'quv xonalaridagi laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar, ishlab chiqarish ustaxonalarida amaliy tajriba o'tkazish hisoblanadi. Asosiy dars turlaridan tashqari korreksiyalash, intergratsiyalashtirilgan hamda noan'anviy: dars-ertak, dars-sayohat, dars-seminar, dars-auksion, loyihalar bilan ishlash kabi darslar o'tkaziladi.

Maxsus maktab, maktab- internatlarida olib boriluvchi darslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Pedagogik talablar;
2. Psixologik talablar;
3. Gigiyenik talablar;
4. Tashkiliy talablar.

Maxsus maktab, maktab-internatlarida olib boriluvchi darslar o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos bo'lgan tamoyillaridan kelib chiquvchi pedagogik talablarga javob berishi zarur. Ushbu talablarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- har bir dars aniq belgilangan mavzu va vazifalarga ega bo'lishi;
- darsning mavzusi uning vazifalariga mos, ilmiylikka yo'naltirilgan bo'lishi va xuddi shuningdek, o'quvchilarga tushunarli, hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lishi, individual va tabaqalangan holda yondashuv talablariga mos bo'lishi;
- darsning vazifalari hamda o'quv jarayonining bosqichlari dasturiy talablardan, shuningdek, sinf o'quvchilarining umumiy va nutqiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi;
- dars jarayonida qo'llaniluvchi metod va usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi, ularning ikkilamchi muammolarini bartaraf etish, umumiy rivojlanishlarini ta'minlash va ixtimoiy meyorlarni egallashga xizmat qilishi lozim;
- sinf o'quvchilarining bilish faoliyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan ish usullaridan mohirona va o'rinli foydalanishning oldindan loyihalashtirib qo'yilishi;

- har bir darsda o‘quvchilar tomonidan egallab borilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarning sifatining nazorat qilib borilishi;
- alohida yordamga muhtoj bolalar rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko‘rsatmalilik, ko‘rgazmalilik, amaliy ish jarayoniga alohida e‘tibor qaratish;
- darsga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘quvchilar so‘zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirish zamirida egallanishi;
- darslarda nutqning turli-tuman shakllaridan foydalanish (bunda qaysi nutq shaklining yetakchi bo‘lishi bosqich talablaridan, shuningdek, sinf o‘quvchilarining umumiy va nutqiy rivojlanishlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi);
- eshitish qoldig‘ini rivojlantirish, labdan o‘qish malakasini shakllantirish ishlariga alohida e‘tibor qaratish;
- alohida yordamga muhtoj bolalar rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda doskada bajariladigan ishga ajratilgan vaqt taqsimotiga jiddiy ahamiyat qaratish;
- o‘quvchilar ko‘rish o‘tkirliklari pasayishining oldini olish maqsadida namoyish qilinuvchi rasm va namunalar o‘lchamlarini mos ravishda tanlash;
- darsda qo‘llanuvchi so‘z va iboralar kartochkalarda ko‘k rangda, bosma harflarda berilishi (qizil, och yashil, pushti va shu kabi ranglar bolalar toliqishlarini keltirib chiqarish bilan bir qatorda ko‘rish o‘tkirligining pasayishi kabi asoratlarga ham olib kelishi mumkin) lozim.

Darsga qo‘yiladigan psixologik talablar

Dars samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘z o‘quvchilari rivojlanish xususiyatlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishiga bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi doimo har bir darsini rejalashtirish va olib borishida o‘z o‘quvchilarining idroki, diqqati, xotirasi, tasavvuri kabi xususiyatlarini nazardan chetda qoldirmasligi lozim. O‘z o‘quvchilarining ruhiy jarayonlari haqida aniq ma‘lumotga ega bo‘lish o‘qituvchiga ishning samarali shakl va metodlarini tanlashda katta yordam ko‘rsatadi.

Ma‘lum-ki, jismoniy va aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashda o‘ta qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. O‘qituvchining bolalarga bo‘lgan iliq munosabati, mohirona qo‘llab-quvvatlovi, muloqot o‘rnata olishi o‘quvchilarda nafaqat darslarda faol ishtirok eta olishlarini uyg‘otadi, balki ulardagi o‘z imkoniyatlariga ishonchni, ya‘ni optimistik ruhiyatlarini yuzaga keltiradi.

Darsga qo‘yiladigan gigiyenik talablar

O‘quvchilar ishchanlik qobiliyatlarining holati gigiyenik talablarga qay darajada rioya qilinishiga bog‘liq sanaladi. YA‘ni har bir darsda quyidagi gigiyenik talablarga :

- Sinf devorlarining talab darajasidagi ranglarda bo‘yalishi;
- Sinf xonasining meyordagi yorug‘likka ega bo‘lishi;
- Sinf xonasini darsdan oldin va darslar o‘rtasidagi tanaffuslarda shamollatib turilishi;
- Bolalar toliqishining oldini olish maqsadida faoliyatning turli – tuman ko‘rinishlaridan foydalanish;

- Dam olish daqiqalarini o'tkazib turish;
- Darslar o'rtasida majburiy tanaffuslarga rioya qilinishi lozim. Ba'zi o'qituvchilar o'quvchilarning o'quv materialini ajratilgan vaqt mobaynida egallay olmasliklari sababli tanaffus vaqtida ham ular bilan shug'ullanishga harakat qiladilar. Bu esa o'z navbatida, bolalarning nafaqat avvalgi o'quv soati materialini, balki keyingi dars materialini ham o'zlashtira olmasliklariga sabab bo'lishi mumkin va h.

Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar

Darsning samaradorligi o'tkaziladigan o'quv xonasining holati, uning zaruriy jihoz va uskunalari, korreksiyaning amalga oshirish imkonini beruvchi apparatura va texnik vositalar, ko'rgazmali va didaktik materiallarning shayligiga ham bog'liq hisoblanadi. Bo'lib o'tadigan darsga texnik vositalar (masalan kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ovozkuchaytirgich, ko'zi ojiz bolalar maktablarida turli ko'rish o'tkirligini kuchaytiruvchi lupa va b.) va boshqa uskunalarning tayyorligi bir kun avval (yoki darsdan kamida bir soat avval) tekshirib ko'rilishi, nosozliklar esa bartaraf etib qo'yilishi lozim. Ushbu imkon mavjud bo'lmagan sharoitlarda o'qituvchi dars mobaynida birlamchi muammoni kompensatsiyalash (masalan, eshitish apparatining o'rnini bosish maqsadida labdan o'qishga e'tibor qaratish va h.) choralarini ko'rishi lozim.

Dars va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish uchun o'qituvchi, avvalo, «Mavzuni maxsus pedagogikaning eng so'nggi zamonaviy talablariga muvofiq o'ta olamanmi yoki buning uchun yana alohida tayyorlanishim kerakmi?» hamda «Namuna sifatida ishlab chiqilgan dars reja va ishlanmalari mavjudmi?» kabi savollarga javob berishi kerak.

Shundan keyingi bosqichda o'qituvchi o'z o'quvchilarining dastlabki bilim va ko'nikmalarini aniqlab olishi lozim.

Buning uchun quyidagi asosiy savollar qo'yilishi lozim:

- Dars yoki mashg'ulotni o'tkazish uchun o'quvchilarning dastlabki bilimlari qay darajada?
- Dars yoki mashg'ulotni o'tkazish uchun qanday shart-sharoitlar mavjud?
- Qanday ta'limiy mazmunlar o'rganilishi ko'zda tutilmoqda?

Rejalashtirish uchun yuqoridagi savollarni o'rganib chiqish – dars yoki mashg'ulotning boshqa barcha tayyorlash harakatlariga asosdir. Bu tushunchalar va savollar o'rtasidagi uzviylik quyida keltirilgan omillar orqali aniq ko'riladi.

Maqsad. Har bir dars yoki mashg'ulotda oldindan belgilangan maqsadlarga rioya qilishi lozim. Odatda o'quv dasturi asosida belgilashimiz mumkin bo'lgan aniq bir maqsadga erishilishi lozim. Maqsadlar yozma ravishda nazariy dars rejasiga kiritiladi hamda maqsadga erishilgan yoki erishilmaganligi topshiriq (test)lar yordamida tekshirilib, mustahkamlanadi.

Har bir darsga maqsad qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus maktab, maktab-internatlarda o'tiluvchi darslar oldiga 3 ta maqsad qo'yiladi:

I Ta'limiy maqsad bolalarni o'quv dasturi hajmidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishni nazarda tutadi;

II Tarbiyaviy maqsad o'quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiya-lash, ularning shaxsiy axloqiy sifatlarini shakllantirish, ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olishlariga imkon beruvchi ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi;

III Korreksion – rivojlantiruvchi maqsad alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar birlamchi muammolari oqibatida yuzaga keluvchi ikkilamchi muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

O'qituvchi dars olib borish jarayonida nomlangan uch ko'rinishdagi vazifalarni o'zaro bog'liq - uyg'un holda hal etib borishi talab etiladi. holda hal etib borilishi talab etiladi.

Mazmun. Belgilangan o'quv maqsadlariga muvofiq ravishda bilimlar sohaning mazmuni (shu jumladan ko'nikma va malakalar) belgilanadi. Bu mazmunlar bir tomondan kerakli dastlabki bilimlarni (nazariy dars mazmunini) va boshqa tomondan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli maxsus bilimlarni (amaliy mashg'ulot mazmunini) inobatga olishi kerak.

Metod. Agar maqsadlar va mazmun aniq bo'lsa, aynan shunday metodlar tanlab olinishi kerakki, ular shu maqsad va mazmunlarni o'lchanadigan natijaga aylantira olishlari lozim. Bu munosabatda “an'naviy” va “interfaol metodlar” deb atalgan metodlar ta'lim beruvchi tomonidan tanlab olinadi va qo'llanadi.

Sharoitlar. Sharoitlar deganda avvalo, birinchi navbatda moddiy – texnik shart sharoitlar tushuniladi. Bir tomondan, moddiy—texnik sharoitlar ya'ni binolar, sinf xonalari, o'quv ustaxonalar, laboratoriyalar ularning jihozlanganlik darajasi, ashyo va qurollar va b. materiallarining umumiy holati va h. (chunki ular ma'lum sifat talablariga javob berishi kerak), boshqa tomondan esa, o'quv vositalari tushuniladi, chunki ular o'quv jarayonidagi bilimlarning o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'quv maqsadlariga mo'ljallangan ko'plab o'quv vositalari mavjud. Ammo asosiy omil vositalarining ko'pligida emas, balki muayyan o'quv maqsadiga erishish uchun ma'qul keladiganlarining tanlab olinishi hisoblanadi.

Tashkillashtirish. Yuqoridagilarning barchasi vaqt omilini inobatga olgan holda tashkil qilinishi lozim. Chunki har bir nazariy dars va amaliy mashg'ulot uchun aniq vaqt meyorlari mavjud bo'lib, aynan shu ajratilgan vaqt doirasida o'quv maqsadlariga erishish lozim. Buning uchun nafaqat puxta reja, balki ishni unumli tashkillashtirish muhim omil hisoblanadi. Vaqt taqsimoti, davomiyligi va o'quv joyi – tashkillashtirish jarayonida belgilanadi. O'rgatish va o'rganishni tashkil qilishning xilma-xil imkoniyatlari mavjud.

Natijalar. Dars yoki amaliy mashg'ulot nihoyasi, albatta, uning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishilgan yoki erishilmaganligini nazorat qilib borish kerakligini taqozo etadi. Shu maqsadda baholash vosita, metod hamda mezonlari belgilanadi. Bunday vositalar sifatida turli-tuman mashqlar, og'zaki va yozma testlardan foydalanish mumkin. Ular o'quvchilarning qobiliyati, bilim, ko'nikma va malakalarini baholash imkoniyatini yaratadi.

Darsni kuzatish va tahlil qilish

Dars tahlili - o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish va uni yuksak darajaga ko'tarishga qaratilgan faoliyat bo'lib, o'z tarkibiga bir necha turlarni oladi.

Dars tahlilining turlari:

To'la tahlil - o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish sifatini nazorat qilish va o'qituvchining ish uslubini o'rganish maqsadida o'tkaziladi.

Qisqa tahlil - o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilish sifatini umumiy baholash maqsadida o'tkaziladi. Faqat asosiy didaktik kategoriyalarni (darsda asosiy maqsadlarning amalga oshirilganligi, barcha bilish topshiriqlarining bajarilganligi, rsjaning bajarilganligi) nazarda tutadi.

Kompleks tahlil - darsning maqsadi, uslubi, mazmuni, uni tashkil qilish shakllarining har tomonlama va o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Aspektli tahlil - dars tahlilining biror bir turini mo'ljallaydi. Bu asosan nuqsonlarni yoki o'qituvchi faoliyatining ilg'or pedagogik usullarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Darsni tahlil qilishni quyidagi to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- a) ilmiy tahlil;
- b) uslubiy tahlil;
- v) didaktik (ta'limiy) tahlil;
- g) umumpedagogik tahlil.

Ilmiy tahlil

Ilmiy tahlil berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihatini, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning esa maqsadga yo'nalishi jihatidan to'g'riligini aniqlashni anglatadi. Darsning ilmiy tahlilida asosan quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi:

- a) qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi;
- b) mavzuga nisbatan o'qituvchining ilmiy va ijodiy yondashishi;
- v) o'qituvchi va o'quvchining nutq madaniyati;
- g) darslik materiallarini qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitish va o'quvchi bajarayotgan mustaqil laboratoriya ishlarning maqsadga muvofiq yo'nalishi;
- d) o'quvchi nutqining ravonligi, ongliligi, fikr va xulosalarning to'g'ri, qisqa, ravon va mukammal bayon etilishining nazorat qilinishi;
- ye) o'quv fanining korreksion yo'naltirilganligi, o'ziga xos xususiyatlari.

Darsni ilmiy tahlil etishda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati atroflicha o'rganilish lozim. Qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi va mavzuga ilmiy yondashish bir-biridan ajralmagan holda tahlil qilinishi lozim. Chunki ular bir-birini to'ldiruvchi tavsifga ega bo'ladi. Tahlilda tushuncha, qoida, ta'rif, nazariy bilimlar, malaka va ko'nikmalarga o'quvchilar tomonidan berilgan javoblar, o'quvchilar faolligi ham to'liq o'z aksini topishi lozim.

Qoida, ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi ko'p jihatdan o'qituvchi nutqining ravonligiga, talaffuzidagi aniqligiga ham bog'liq bo'ladi.

Uslubiy tahlil

Darsda o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi ta'limning turiga qarab belgilanadi. O'quv materialini o'quvchilarga tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarning shu materialga mosligi yoki mos emasligi uslubiy

tahlil davomida aniqlanadi. Dars usullarini tahlil qilishda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

1. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining tashkiliy shakllariga ko'ra:
 - a) hikoya usuli (o'qituvchining o'quv materialini bayon etishi ko'rinishida);
 - b) suhbat usuli.

2. O'quvchilarning o'zlashtirishi darajasiga ko'ra:

- a) o'qituvchining so'zlash usuli;
- b) darslik bilan ishlash usuli;
- v) ko'rgazmali qurollardan foydalanish usuli.

U yoki bu fanning o'qitilishi uslubiy jihatdan tahlil etilganda, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi masalalar e'tiborda bo'lishi lozim, ya'ni ta'limning:

- a) maqsadi;
- b) mazmuni;
- v) tashkil etish shakllari;
- g) manbalari;
- d) usullari.

Darsni tahlil etish jarayonida tahlil o'tkazuvchi (yoki kuzatuvchi) quyidagi metodik amallarga e'tibor berishi lozim bo'ladi:

1. Tushuntirishning sodda va barchaga tushunarli (ommaviy)ligi.
2. O'quvchilar tushunishlariga qulay, oson bo'lishi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanish.
3. Darslik materialiga qo'shimcha ravishda o'quvchilarning rivojlanish xususiyatlariga, shuningdek, ularning yoshiga ko'ra moslab taqdim etish.
4. Mustaqil ishlar berishda sinf o'quvchilari imkoniyatining darajasi, yoshi va qobiliyatiga mos bo'lishiga erishish va b. (differensial va yakka tartibdagi yondashuv).

Didaktik (ta'limiy) tahlil

Didaktik tahlil - ta'lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonunlarning darsda qanchalik to'g'ri va mukammal bajarilganligini o'rganishga qaratilgan.

Didaktik tahlil dars jarayonida o'qituvchining ta'limdagi umumiy va o'ziga xos tamoyillarning qay darajada tatbiq etayotganligini zrganishni nazarda tutgan holda quyidagi pedagogik talablarga qaratilishi lozim:

- a) o'qituvchi bayonining sinf jamoasiga (barcha o'quvchilarga) to'liq tushunarli bo'lishi;

- b) bildirilayotgan fikrning g'oyaviy jihatdan milliy g'oya, tarbiya talablariga hamohang bo'lishi;

- v) o'quv materialining barcha o'quvchilar tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishi;

- g) ko'rsatmali qurollardan, texnika vositalaridan yetarli darajada va to'g'ri foydalanish ko'lami;

- d) tajriba, laboratoriya ishlarining ko'zlangan maqsadga yo'naltirilgan holda o'tishiga erishish;

- ye) darslik bilan ishlashning to'g'ri bo'lishi;

j) keltirilayotgan misollarda, dalillarda ta'limiy-tarbiyaviy-korreksion maqsadlarning birligi va b.

z) o'quvchilar bilan korreksion ishlarning olib borilishiga e'tibor qaratilishi.

Umumiy pedagogik tahlil

Umumiy pedagogik tahlil - darsdagi hamma jihatlarining qisqa va yengil ko'rinishdagi tahlilidir.

O'qituvchi darsiga kirishdan oldin yoki darsi kuzatilgach, uning sinf qaydnomasini yuritish, o'quvchilarning daftarlarini tekshirib borishning ahvoli, tarbiyachi, ota-onalar bilan olib borilgan ishlari kabi barcha faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarini tahlil etilgan darsdagi yutuq, kamchiliklar bilan teng ko'rsatib o'tish foydalidir.

Darsni umumpedagogik jihatdan tahlil qilganda quyidagilar hisobga olinadi:

- dars jihozlari;
- sinf xonasining tayyorlik holati;
- dars bosqichlaridan to'g'ri foydalanish;
- o'qituvchining pedagogik-psixologik jihatdan namunali shaxs darajasiga ko'tarila olishi;
- o'quvchilarning rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib borgan korreksion ishlar;
- o'quvchi bilimiga ko'yiladigan bahoning xolisona, izohli bo'lishi;
- o'quvchilar intizomi;
- tashqi va qulay psixologik muhit, ish sharoiti;
- partalarning o'quvchilar gavdasiga mosligi;
- o'qituvchining o'quvchiga bergan savollari;
- o'quvchining o'qituvchiga bergan savollari.

Umumiy pedagogik tahlil sohasidagi tajribalarga ko'ra quyidagi maslahatlarga rioya qilinishi, ularni doimo yodda tutish tavsiya etiladi:

1. Berilgan savolga javob berishda kechikayotgan o'quvchi uchun bir oz qo'shimcha vaqt berilishi lozim.

2. Javobni boshlashda qiynalgan o'quvchiga o'qituvchining yordam berib yuborishi o'rinlidir (jumalalar namunalari, ko'rgazmalar asosida va h.).

3. O'quvchi bilimiga qo'yilgan baho doimo sharhlanishi kerak.

4. Muomala va muloqotda ehtiyokkor bo'lish lozim.

O'z darsini o'zi tahlil qilish

Dars yoki mashg'ulotlar faqat o'zgalar tomonidan tahlil qilinibgina kolmay, uni o'tkazgan o'qituvchining o'zi tomonidan ham tahlil qilinishi mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, o'z dars yoki mashg'ulotini tanqidiy tahlil qilib borishga o'rgangan har bir o'qituvchi ta'limda sifat va samaradorlikka erishadi. O'z xatolarini ko'ra bilgan o'qituvchi rivojlana oladigan o'qituvchi demakdir.

Kamchiliklarni tuzatish, o'z darsini qayta ko'rish maqsadida o'qituvchi darsdan chiqqach, dars jarayonini to'la eslashga harakat kiladi. Har bir dars bosqichida bajarilgan ishlar, qo'llanilgan usullarni tahlil kiladi, ularni nimalar bilan to'ldirish, to'g'irlash lozimligini aniqlaydi.

O‘z darsini o‘zi tahlil qilish, erishilgan yutuqlarini yaqqol ko‘rish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga o‘rganish uchun o‘qituvchi ilg‘or tajribali o‘qituvchilarning darslariga kirib, o‘z darslari bilan taqqoslashi lozim.

O‘qituvchining o‘z darsini o‘zi tahlili - bu juda murakkab ichki jarayon bo‘lib, fikran amalga oshiriladi. O‘qituvchi o‘z-o‘zini tahlil qilganda, fikran o‘z darsini qismlarga bo‘lib, o‘z mushohada taqrizidan o‘tkazadi. Bunday usulda ishlashdan maqsad o‘tkazilgan darsni zamonaviy pedagogika, psixologiya, uslubiy va ilg‘or pedagogik tajribalar talabiga javob berishini aniqlash va shu jihatdan o‘z darsiga baho berishdan iboratdir. Shu yo‘l bilan o‘qituvchi o‘z darsining yutuq va kamchiliklarini aniqlab, pedagogik mahoratini takomillashtirish rejasini tuzishi lozim.

:

Dars tahliliga kiruvchilar uchun qo‘yiladigan pedagogik talablar:

Dars tahlili o‘qituvchi (tinglovchi)ning kasbiy malaka va ko‘nikmalari qay darajada shakllanganligi darajasini aniqlash, yutuk va kamchiliklarini qayd etish, dars berish tajribasini o‘rganish, unga uslubiy maslahatlar berish maqsadida o‘tkaziladi.

Shu sababli tahlil davomida o‘qituvchi (tinglovchi)ning shaxsiyatiga tegish, obro‘sini to‘kish, kamsitish, kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatish, darsga aloqasi bo‘lmagan masalalarni muhokama qilishga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Quyidagilarni doimo esda saqlash tavsiya etiladi:

1. Darsga kirilishi rejalashtirilgan o‘qituvchi (tinglovchi) bu haqda oldinroq ogohlantirishi lozim.
2. Darsni tahlil qilish uchun sinf xonasiga fan o‘qituvchisi (tinglovchi) bilan birgalikda kiriladi.
3. Dars jarayonida quyidagilarga yo‘l qo‘ymaslik lozim:
 - dars nihoyasiga yetgunga qadar sabr-toqatli bo‘lish va dars tugamasdan turib sinf xonasidan chiqib ketish;
 - dars davomida o‘rnidan turib yurish va o‘quvchilarning daftarini tekshirish;
 - o‘qituvchi, o‘quvchi va boshqalarga turli xil ishoralar qilish;
 - dars tahlilida ishtirok etayotganlar bilan baland ovozda gaplashish, u yoki bu vaziyatni muhokama qilish;
 - dars davomida tahlil ishtirokchilarining savollariga javob berish;
 - o‘qituvchi (tinglovchi) bildirgan fikrga nisbatan o‘z noroziligini baland ovozda oshkora qilish;
 - o‘qituvchi, o‘quvchi va boshqalardan darslik, o‘quv qo‘llanmalari, qurollarini so‘rab olish;
 - o‘qituvchi (tinglovchi)dan va tahlil ishtirokchilardan achchiqlanish, uni ochiqchasiga oshkora qilish;
 - o‘qituvchi (tinglovchi)ga dars davomida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun o‘quvchilar oldida tanbeh berish;
 - o‘qituvchi (tinglovchi)ning o‘rniga dars berishga intilish, uning faoliyatiga aralashish.
4. Muhokama (tahlil)ni boshlamasdan oldin o‘tilgan dars xususida o‘qituvchi (tinglovchi)ning shaxsiy fikrini eshitish, ba’zi vaziyatlarda nima uchun u yoki bu uslubiy vositani qo‘llaganligi sabablarini bilish kerak.

5. Dars xususida bildirilgan fikrlar xolisona, do'stona bo'lishi kerak.

6. Muhokama (tahlil) dars tugagandan so'ng o'tkazilishi shart.

Agar shu talablar bajarilmasa, darsni kuzatuvchi (tahlilga kiruvchi) o'qituvchining darsni tashkil etishiga, ta'limning samarador va mukammal usullarini tanlashiga, ijodkorlikka erishishiga, o'quvchilar jamoasini o'quv-bilish faoliyatiga faol jalb qilishiga, sinfda zarur tartib-intizomni o'rnatishiga halal bergan sanaladi.

Darsni kuzatuvchining darsdagi intizomi, tahlil davomidagi xolisona yondashuvi o'qituvchi (tinglovchi)ning mustaqil va unumli ishlashida muhim omildir.

Darsni kuzatish va tahlil qilishning taxminiy sxemasi:

Dars kuzatish maqsadi

O'qituvchi _____ Fan

1. Darsning tarbiyaviy mohiyati:

O'quv materialining g'oyaviy yo'nalishi, milliy mafkura, milliy tarbiya oldidagi muammolarning hal etilishi bilan bog'liqligi; barkamol avlod tarbiyasi vazifalarining bajarilishi _____

2. Darsning ilmiyligi:

1. Materialning ilmiy asoslanishi
2. Fanning zamonaviy (so'nggi) yutuqlaridan foydalanish

3. Uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqligi:

1. Dars mavzusining taqvim (kalendar)-mavzu rejaga mosligi

2. Darsning uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi _____

3. O'quvchilar bilimini tekshirish usullari, ularning samaradorligi _____

4. Baholashning xolisligi

5. Darsning turi, o'qitish uslubi va uning maqsadga muvofiqligi

6. O'qituvchining darsga tayyorgarligi, bayon qilinayotgan materialning to'liqligi, ketma-ketligi, izchilligi va uning tushunariligi. Asosiy tushunchalar va nutq (korreksiyaga yo'naltirilgan) materialining ajratilganligi

7. Darsdan ko'zlangan maqsadlarga erishish

8. Darsda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

9. Yangi mavzuning o'tilgan materiallar bilan bog'lanishi

10. Mavzuning boshqa fanlar bilan bog'liqligi

11. O'quvchilar faolligini oshirish (muammoli vaziyatlardan chiqish, o'quv jarayonini faollashtirish)

12. O‘quvchilarning mustaqil ishlashga jalb kilinishi

13. O‘qitishni tabaqalashtirish, differensiallashtirish usullari va ularning samaradorlik darajasi _____

14. Eshitish qobilyatini rivojlantirish, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish yuzasidan borasida olib borilgan faoliyat darajasi

15. Har bir o‘quvchiga yakka yo‘naltirilganlik tamoyiliga rioya qilinishi darajasi _____

14. O‘quv materialini mustahkamlash usullari va uning maqsadga muvofiqligi

15. Uyga vazifa (vazifa hajmi, turi, vazifa bo‘yicha berilgan izohlar)

4. Darsning boshqa sifat tavsifi:

1. O‘qituvchiniig dunyoqarashi, pedagogik mahorati, nutq ravonligi, madaniyati
 2. O‘quvchilar intizomi, dars xonasi va o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi
-
-

3. O'qituvchining darsni yaxshilash yuzasidan rejalashtirgan ishlari, takliflari

4. Sinf xonasining tozaligi, metodik jihozlanganligi, navbatchining o'z vazifasini bajarishi

5. Tavsiyalar va maslahatlar

Tahlil bilan tanishdim:

Tahlil qiluvchi:

I.5-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tiliga o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tiliga o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat bo'lib, o'yin usullarini ta'lim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab ta'lim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, o'zining samarasini bermokda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda maxsus maktab uchun o'quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya o'qitishga o'ziga xos yangicha yondashuvdan iborat bo'lib, o'yin yangicha, ilg'or, shu bilan birga samarador usullarini ta'lim tizimiga dars jarayonida tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutg'ini muloqat quroli sifatida shakllantirishdan ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko'nikmalar egallashda ahamiyatli ekanini dalillamokda¹⁵.

Ta'limni motivlash o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushoxada qilishga, nutqning

¹⁵ M. Marschark, Harry G.Lang, John Albertini - Educating deaf students - Oxford University Press, 2006, 83p

rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg'otadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir.

Hozirgi vaqtda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini o'zaro muloqotlar orqali rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda o'qituvchi va o'quvchilar guruhi (o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi) faoliyat ko'rsatishlari zarurligi ma'lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro muloqot Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fikr almashish va so'zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsiy sifatlari shakllanishida, nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqotni amalga oshirishda interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Ma'lumki, rolli o'yinlar obyektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o'yinlar Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O'yin o'quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda mashg'ulotlarni yosh hususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtirishga e'tibor berilmokda. Haqiqatan ham, bola har kanday mashg'ulotga qaraganda, o'yinga tez intiladi va qiziqadi.

Rollarga asoslangan o'yin ta'lim usuli sifatida o'quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o'yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so'rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farkli ravishda, rolli o'yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o'yinda qatnashayotgan o'quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O'quvchilar o'yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishoralaridan o'qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar.

O'quvchilar o'yinni aniq maqsadga yo'naltirgan holda amalga oshirsa, kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Rolli o'yin o'quvchilar guruhi tomonidan qiziqib qabul qilingan, ularga tanish bo'lishi kerak. Oldindan har bir obrazni izohlab berish lozim. O'quvchi o'yin jarayonida ikkilamchi darajali rollarda ishtirok etishi mumkin, lekin bosh rolda emas. Chunki bu holda rolli -o'yin ta'limning an'anaviy usullaridan biriga aylanib qoladi. Muloqotda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'yin jarayonida emas, balki undan keyin muhokama qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini rivojlantirish davomida mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka va umumlashtirishga undovchi usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni yangi material bilan tanishtirishda, oldin o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashda, ularning so'z boyligini oshirish va tafakkurini rivojlantirishda didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'quvchilarga individual yondoshib, mos topshiriq berish ularning qobiliyatini o'stirishni ta'minlaydi. O'quvchilar diqqatini topshiriqning eng muhim va murakkabroq jihatlariga qaratish, ularni belgilariga qiziqishlarini

oshirish joiz. Bu ulardagi ijodkorlik hususiyatlarini rivojlantiradi. Ta'kidlash joizki, soddalik, bir xillik, hoxishsiz takrorlashlar bolalarni toliqtirib, befarq qilib qo'yadi. Uyin davomida «Kim tez bajaradi?» - deb faolliklarini oshirish ularda qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, topshiriqlarni bajarishda bolalar g'olib chiqish, boshqalardan orqada qolmaslik, ularni bajarishga qodir ekanini ko'rsatish hissi bilan harakat qiladilar.

Quyida shu maqsadga yo'naltirilgan bir necha usullarni keltirib o'tamiz.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish, o'zaro bog'lik gaplardan matn tuzish malakasini hosil qilish, erkin fikr yuritish, munosabatini bemalol bayon qilishga o'rgatish uchun R.Djonson, D. Djonson usuli uch-to'rt o'quvchining bir vazifani bajarishga asoslangan usul-nihoyatda samaralidir.

Masalan, sinfdagi bir o'quvchi qura tanlash yo'li bilan tanlanadi. Sinf o'quvchilari muayyan qoidaga ko'ra (soniga ko'ra, ihtiyoriga ko'ra) ikkiga bo'linadi, har bir o'quvchi bir bo'lak qog'ozga ta'rifga asoslangan bir jumla yozadi. Bir guruh o'quvchilari ijobiy baho, ikkinchi guruh o'quvchilari salbiy baho berishadi. Masalan: Nafisa a'lochi o'quvchi. Nodira jaxldor o'quvchi va shu kabi. Har bir guruhdan bir o'quvchi oqlovchi, qoralovchi vazifasida chiqadi. Har ikki guruh o'quvchilari raqib guruhga xos fikrining aksini isbotlashga urinadilar.

O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq mohiyatini tushuntirishda og'zaki-daktil va imo-ishora nutqidan foydalanadi. Agar Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi topshiriqni og'zaki nutq vositasida bayon etishga qiynalsa, imo-ishora yoki daktil nutqi vositasida bayon etadi, so'ng o'qituvchi o'quvchini vazifani og'zaki nutq vositasida bajarishga undaydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda Sinkveyn metodini qo'llash samarali natija beradi. Buning uchun quyidagi sxema beriladi va uni to'ldirish so'raladi:

_____ Mavzu (ot)

_____ Belgi(sifat)

_____ Harakat(fe'l)

_____ Mavzuga oid jumla

Sxema quyidagi tartibda to'ldirilishi shart:

- muayyan mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi yoki o'quvchilar tomonidan tanlanadi;
- mazkur mavzuni xarakterlovchi ikki sifat so'z turkumiga oid so'z tanlash taklif etiladi;
 - mavzu mohiyatini ifodalovchi uchta fe'l topiladi;
 - mavzuga ta'luqli gap tuziladi;

Namuna:

O'qituvchi

aqilli, mehribon,

o'qitmoq, o'rgatmok, tarbiyalamoq

O'qituvchilaringizni xurmat qiling.

Ushbu usul maxsus maktab o'quvchilarini mustaqil ijodiy ishlashga, o'z fikrlarini erkin bayon qilishga undaydi hamda og'zaki, yozma nutqini rivojlantiradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirishi jarayonida quyidagi usul ijobiy natija beradi: «1» dan «10» gacha raqam yozilgan qog'oz bo'laklari o'qituvchi stoliga qo'yiladi yoki qo'lida bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilariga «omadini sinab ko'rishini taklif etadi. Qaysi o'quvchiga necha rakami chiqsa, shunga sodda gap tuzish kerak. Muhimi, ikki va undan katta raqam chiqqan bo'lsa, mazmunan o'zaro bog'lik matn tuzish kerak. Mavzu erkin. O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar tashigan ma'no xususiyatlari ham aniqlanishi zarur.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar yozma bog'langan nutqini rivojlantirish, o'quvchilarni qiziqtirish va e'tiborini bir nuqtaga jalb etish uchun kuyidagi topshirik beriladi. O'quvchi yonida o'tirgan sherigiga o'z tilaklarini bildirishi kerak. Bu topshiriq shaklini biroz o'zgartirish mumkin. Ota-onasiga, boshka mamlakatda yashovchi do'stiga maktub yozish topshiriladi. Bunda, albatta xat matnida ko'llangan gaplarning mazmuniy xususiyatlari aniqlanishi lozim bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini muloqat quroli sifatida shakllantirishda klaster metodi unumli ekanligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Klaster metodi umuman bir tushunchaga oid turli tushunchalarni birlashtirib tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilarga muayyan tushunchani berib, uning sifatlovchilarini aniqlash topshirilishi mumkin. «O'zbekiston qanday davlat?» so'rog'i «mustaqil», «boy», «xuquqiy», «buyuk», «ilg'or», «yetakchi», «demokratik), «obod» kabi sifatlarni birlashtiradi. Bu so'zlar, shuningdek, tuzilishiga ko'ra ham guruxlashtirilishi mumkin. Yoki o'quvchilarga tanish bo'lgan asar, teatr, kino, multfilm qahramonlarini sifatlash topshiriladi. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagi kahramoni Zumradga shunday ta'riflar berish mumkin; «jabridiyda», «bardoshli», «chidamli», «kuchli», «ishonuvchan», «mehribon», «go'zal», «g'amxo'r». Bu ta'riflarning nechog'li asosli yoki asossiz ekanligi dars jarayonida baxs munozara vositasida aniqlanadi.

Biror so'zning har bir tovushi uchun alohida so'z topish taklif qilinadi. Masalan, «odob», «oy», «do'st», «oyna», «bosh» kabi.

O'qituvchining topshirig'i bo'yicha bir o'quvchi yig'ma polotnoga boshqa bolalar esa stolning chap tomoniga olma rasmini, o'ng tomoniga pomidor yoki meva-sabzavotlarining rasmini qo'yadilar. Ular shu narsalarga daxldor sifatlarni daktil harflar yordamida og'zaki talaffuz qiladilar. Masalan, «olma» - «shirin», «nordon», «cho'zinchoq», «qizil», «sariq», «dumaloq». Pomidor - «nordon», «qizil», «dumaloq», «cho'zinchoq».

So'ngra meva-sabzavotlarning belgi-xususiyatlarini solishtirib o'xshash va farqli jihatlarini topadilar.

O'qituvchi: «Tun» - deganda, o'kuvchilar ko'zlarini yumadilar.

«Kun» - deganda, ko'zlarni ochib, javob beradilar. Ma'lum bir narsaning belgisini, xossasini aniqlash vazifasini beradi. Masalan, «Xushbo'y gul», «ok gul», «chiroyli gul», «qizil gul», «sun'iy gul» va hokazo.

O'qituvchi polotno yoniga uchta hayvon tasviri tushirilgan rasmlarni (masalan, quyon, tulki, bo'ri) qo'yadi. Rasmlar yoniga ma'lum raqamlarni joylashtiradi (quyonning yoniga «4» tulkining yoniga «5» bo'ri yoniga «6» raqami) qo'yiladi. Shu raqamlarda ko'rsatilgan songa muvofiq hayvonning xususiyatini sanab berish kerak. Masalan, quyon - oppoq, epchil, chaqqon, qo'rqqoq.

O'qituvchi ikkita-uchta rasmlarni (olma, daraxt, qiz) tomondan ko'rsatib, shulardan birini tanlashni tavsiya etadi. O'quvchilar rasmlardan birini tanlashgach, o'qituvchi ular haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar narsaning belgisiga ko'ra savol berishadi va uning nima ekanligini topadilar. Masalan, «Kattmi», «Shirinmi?», «Dumaloqmi?», «Qizilmi?», «Yeyiladimi?» «Kiyiladimi?» va hokazo. O'quvchi bu savollarga faqat «Ha» yoki «Yo'q» deb javob beradi.

O'qituvchi bu ko'rinishdagi o'yin jarayonini tashkil etishda o'z faoliyatini rejaga va qo'yilgan maqsadga muvofiq olib borishi kerak. U mashg'ulotga tayyorlanishi, jarayonida oldindan zarur didaktik materiallarni tayyorlashi, o'yinni uyushtirishni nazorat qilishi, yakunlash, baholash va rag'batlantirish kabi barcha tadbirlarni belgilab olishi lozim. Shuningdek, bolalar shaxsiy sifatleri shakllanishida nutqiy rivojlanishni va nutqiy muloqatni amalga oshirishda perdmot – amaliy ta'lim darslarida interfaol o'yinlarning ahamiyati katta. Ma'lumki, rolli o'yinlar obyektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o'yinlar bolalar nutqini faollashtiradi va mihlashtiradi. O'yin o'quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta'lim – tarbiya berish, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishda mashg'ulotlarni yosh xususiyatlariga muvofiq o'yin tariqasida uyushtirishga e'tibor berilmoqda. Haqiqatan ham, bola har qanday mashg'ulotga qaraganda o'yinga tez intiladi va qiziqadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirishning yangi usullaridan amaliyotda unumli foydalanilsa, so'zlashuv malakasi va madaniyatini shakllantirishda aniq maqsadga erishish mumkin. Rolli o'yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so'rashi, isbot qilishi, tushuntrishga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farqli ravishda, rolli o'yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqsad, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o'yinda qatnashayotgan o'quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaradi. Masalan: o'qituvchi polotno yoniga uchta hayvon tasviri tushirilgan rasmlarni (quyon, tulki, bo'ri) qo'yadi. Rasmlar yoniga esa ma'lum raqamlarni joylashtiradi (quyonning yoniga “4”, tulkining yoniga “5”, bo'ri yoniga “6” raqami) qo'yiladi. Shu raqamlarda ko'rsatilgan songa muvofiq hayvonning xususiyatini sanab berish kerak. Masalan: quyon – oppoq, epchil, chaqqon, qo'rqqoq.

Masalan: o'qituvchi ikkita – uchta rasmlarni (olma , daraxt, qiz) orqa tomondan ko'rsatib, shulardan birini tanlashni tavsiya etadi. O'quvchilar rasmlardan birini tanlashgach, o'qituvchi ular haqida qisqa ma'lumot beradi. Bolalar narsaning belgisiga ko'ra savollar berishadi va uning nima ekanligini topadilar. Masalan, “Katami?”, “Shirinmi?”, “Dumaloqmi?”, “Qizilmi?”, “Yeyiladimi?” “Kiyiladimi?” va hakoza. O'quvchilar bu savollarga faqat “Ha” yoki “Yo'q” deb javob beradi. O'qituvchi bu ko'rinishdagi o'yin jarayoni tashkil etishda o'z faoliyatini rejaga va qo'yilgan maqadga muvofiq olib borishi kerak. U mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida oldindan zarur didaktik materiallarni tayyorlashi, o'yinni uyushitirishni nazorat qilish, yakunlash, baholash va rag'batlantirish kabi barcha tadbirlarni belgilab olishi lozim. Ta'lim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni amalga oshirish ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar o'quv jarayonining asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlarni rag'batlantirish, qiziqarli tashkil etish bilan birga talabalarni fikrlashi doirasini, tafakkurini kengaytiradi, o'quv materialini chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi. Quyida maxsus ta'lim yo'nalishidagi yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslar namunasini beramiz.

1-sinflarda «Nutq o'stirish» fanidan bir soatlik dars namunasini keltiramiz

Mavzu: Haqiqiy do'st mavzusida rasmlarni majmuasi va tayanch so'zlar asosida suhbat

Mavzu: Harakatning predmetga o'tishini bildirgan so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzishni o'rgatish.

Maqsad: Ta'limiy: O'quvchilarni rasmlar majmuasi asosida suhbatga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish, bog'langan nutqni rivojlantirish, hodisalar mohiyatini aniqlash, haqiqiy do'st, qo'rqmas, ishonchli tushunchalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarda so'zlashuv nutqiga qiziqish hissini uyg'otish.

Korreksion: Nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish, o'quvchilarni to'g'ri gapira olishga o'rgatish.

Darsning jihozi: mazmunli rasmlar, tablichkalar, tarqatma materiallar, doskaga osiladigan maxsus moslama, darslik.

Nutqiy material: o'qituvchi, buvi, navbatchi, qiz bola, o'qiyapti, olyapti, yuyyapti, bobo, artyapti, tikyapti, tikuvchi, ona, gazeta, doska, idishlar, ko'ylak, mevalar, konfet, sabzavotlar, qog'oz, soch, uzum, hovli, mix, olma, o'tin, bolalar, o'quvchi, dehqonlar, bog'bon, ...)

Darsning borishi :tashkiliy qism, salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilardan kichik guruhlarini tashkil etish.

Asosiy qism: aqliy hujum, klaster, epednayzer, yelpig'ich, bbb kabi strategiyalarni qamrab oladi.


Darsni yakuniy qismida o'quvchilarni baholash, rag'batlantirish ko'zda tutiladi.

Darsning borishi

I Tashqiliy qismda o'quvchilar bilan salomlashiladi, davomat aniqlanadi. O'quvchilar miqdoriga ko'ra uchga bo'linadi. O'quvchilarni do'st haqidagi tushunchalarni aniqlash maqsadida aqliy hujum, klaster metodidan foydalaniladi. O'quvchilardan o'qituvchi do'st haqidagi tushunchalarga klaster metodi asosida ta'rif berishini so'raydi.

beradi.

O'quvchilar do'stga quyidagicha ta'rif



O'qituvchi: Do'stlik qanday bo'lishi kerakligini bilib oldik. Endi rasmlarni diqqat bilan ko'rib, haqiqiy do'st haqida suhbat quramiz.

O'quvchilar rasmlar majmuasini diqqat bilan kuzatib, hodisalar ketma-ketligini aniqlaydi. Rasmlar mantiqan to'g'rilab, joylashtiradilar.

Lug'at ishi

Doskada har bir rasm tagida tayanch so'zlar

1 rasm

Ilk bahor, quyosh, yorqin, nurlari, sochdi, daryo. Xakim, iti, sayr, chiqdi, qoplon.

2 rasm

To'satdan Xakim daryo yoqasida yurib suvga tushib ketdi. U suzishni bilmaydi, yordam, so'rab baqira boshladi.


3 rasm

Qoplon, do'st, o'zini, suvga, tashladi. U Xakimni qutqardi. Qoplon Xakimni do'sti

O'qituvchi: Hozir lug'at ustida ishlaymiz. Men rasmlarni ko'rsataman siz rasmlarga ta'rif berasiz. Doskadagi so'zlardan foydalaning. O'qituvchi rasmdagi detallar va tayanch so'zlarga ko'rsatib yordam beradi. O'quvchilar javob beradilar.

Baholash harakteridagi suhbat.

Qoplonni haqiqiy do‘st deyish mumkinmi? U qanday bo‘lishi kerak? Hikoyani qanday nomlash mumkin? Hozir do‘stni salbiy va ijobiy jihatlarini yelpig‘ich strategiyasiga yozasizlar



O‘quvchilar yelpig‘ich strategiyasi asosida, do‘stni salbiy va ijobiy jihatlarini aniqlab, og‘zaki javob beradilar

Dam olish daqiqasi

Guruhlar epednayer metodi asosida qo‘llarini ushlagan holda doira, uchburchak, to‘rtburchak shaklini hosil qiladilar.

Dars so‘ngida BBB metodidan foydalangan holda o‘quvchilar haqiqiy do‘st qanday bo‘lishi haqidagi tushunchalarni jadvallarga yozadilar.

Bilaman	Bilmayman	Bilmoqchiman
Haqiqiy do‘st aqli mehribon ishonchli bo‘lishi kerak	Haqiqiy do‘st haqida bilmayman. Qanday asarlar bor?	Haqiqiy do‘st qanday bo‘lishligi haqidagi she‘r, hikoya va kinofilmlarni bilmoqchiman

Birinchi grafasiga mavzu yuzasidan mavjud bilimlarni, ikkinchi grafasiga, uchinchi grafalarga mavzu yuzasidan qiziqayotgan, bilmoqchi bo‘lgan ma‘lumotlarni yozadilar. O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rnini to‘ldiradi. Ko‘rilgan muommolar yuzasidan hal qilingan natija e‘lon qilinadi., Uyga vazifa Haqiqiy do‘st haqida beshtadan gap

tuzib kelish. Dars soʻngida guruh faoliyatini baholash mezonida koʻrsatilgan ball asosida baholanadi va eʼlon qilinadi. Toʻplangan ballar oʻzaro guruh aʼzolari oʻrtasida taqsimlanadi.

Taklif etilayotgan interfaol dars ishlanmalari aynan mana shu maqsadlarga yoʻnaltirilgan, yaʼni har bir yoʻnalishdagi maxsus maktab, maktab-internatlar oʻquvchilarining imkoniyatiga moslashtirilgan boʻlib, ularning faolligini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, hamkorlikda ishlash va ijod qilishga oʻrgatish, yetakchilik qilish, mustaqil fikr bildirish, muloqot oʻrnata olish, hamkorlikda ishlash hamda qator hayotiy koʻnikmalarning shakllanishiga qaratilgan.

Taʼlim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab oʻrganish oʻquvchilarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning toʻgʻri yechimini topishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi, ularning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Demak, taʼlim metodlarini toʻgʻri tanlash va ularni amalga oshirilishi har bir oʻtkazilgan oʻquv mashgʻulotlarining sifati bilan bir qatorda tahsil oluvchilarning ilmiy – intellektual salohiyatini oshirishga, erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Taʼlim tizimidagi keng qamrovli tarkibiy islohatlarni amalga oshirish taʼlim jarayonida ilgʻor pedagogik texnologiyalarni qoʻllash bilan belgilanadi. Zero, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar oʻquv jarayonining asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Taʼlim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashgʻulotlarni ragʻbatlantirish, qiziqarli tashkil etish bilan birga oʻquvchilarni fikrlashi doirasini, tafakkurini kengaytiradi, oʻquv materialini chuqur oʻzlashtirish imkonini yaratadi.

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar bogʻlangan nutqini rivojlantirish texnologiyasi - bu butun oʻqitish va bilimlarini oʻzlashtirish jarayonida oʻz oldiga taʼlim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qoʻyuvchi texnik hamda shaxs zaxiralari va ularning oʻzaro aloqasini hisobga olib, bilimlarini yaratish, qoʻllash va belgilashning tizimli uslubidir. Predmetli amaliy taʼlim darslarida eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar bogʻlangan nutqini rivojlantirish texnologiyasi oʻqitishga oʻziga xos boʻlgan yangicha yondashuv (innovatsiya)dan iborat boʻlib, oʻyin usullarini taʼlim tizimi, dars jarayonida tatbiq etilishi muhim va samarali natija beradi. Yangi pedagogik texnologiyalarni maxsus maktab taʼlim tizimiga kiritish, tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish, oʻzining samarasini bermokda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda maxsus maktab uchun oʻquv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Taʼlimni motivlash oʻquv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida shu maqsadga yoʻnaltirilgan bir necha usullarni keltirib oʻtamiz.

Kubik

Maqsadi

Bu usul koʻrilayotgan masalani turli tomondan, qadamba-qadam, oddiydan murakkabga tomon yoʻnalishda tasavvur etish;

Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Eshitishda nuqson boʻlgan oʻquvchilarni faollikka undash;

Tafakkurni operatsiyalarini rivojlantirish;

Og‘zaki nutqini rivojlantirish;
Idrok etish qobiliyatini rivojlantirish;

Mazmuni:

- mavzu (tushuncha) haqida e‘lon qilinadi.
 - eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilar yakka tartibda ishlaydilar. Kubik har bir tomoni uchun topshiriq berilib, 40-60 sekund vaqt ajratiladi.
 - yakka tartibda ishlash tugagandan so‘ng guruhlarda muhokama qilinadi.
 - “kubik” ni har bir mikrogrupdan bir vakil (sardor) taqdimot qiladi.
- Yasang. Tavsif etilgan predmetni plastilindan yasang.

Qo‘llanishi:

Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

- bu nima? Ko‘rayotgan narsani rangi, o‘lchamlari, shaklini tasavvur eting, eslang va yozma ravishda ta‘riflang?
- taqqoslang: U nimaga o‘xshaydi, nimadan farq qiladi?
- assotsiatsiya. Ta‘suotingizni izohlang? U sizni nima to‘g‘risida o‘ylashga majbur qildi? Hayolingizga nima keldi?
- tahlil qiling. Bu nimadan va qanday yasalgan? Nimalardan tashkil topgan? Nimaga o‘xshaydi yoki nimadan farq qiladi?
- qo‘llang: Bu nimaga yaraydi? Uni qaerda qo‘llash mumkin?
- “Ha” va “Yo‘q” larni asoslang. Bunda ishonchli dalillar va asoslovchi fikrlarni ayting.

Mazayka strategiyasi

Maqsadi:

Eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilarni og‘zaki nutqini o‘stirish;
Erkin fikrlashga, yuzma-yuz o‘tirishga imkoniyat yaratish;
Qo‘l barmoqlarining harakatlanishni rivojlantirish;
Bir-birini tinglashga va o‘zaro suhbatlashishga o‘rgatish;

Mazmuni:

Bu strategiyada yasalishi talab etilgan predmet rasmi bo‘laklarga bo‘linib, o‘quvchilar guruhi tomonidan bir butun ko‘rinishga keltiriladi. Buning uchun eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadilar. Yasalishi talab etilgan predmet aplikatsiyasi amalga oshiriladi

Qo‘llanishi:

Buning uchun olma rasmi bo‘laklarga alohida qilib kesib olinadi va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi bo‘laklarni yoyib, so‘ng bir chekkadan tartib bilan yig‘ishlari kerak. Boshqa guruhlarga nisbatan ishni oldinroq tamomlagan guruhga quyidagi qo‘shimcha vazifalarni berish mumkin.

Qo‘shimcha topshiriqlar:

1. Olma rasmini alohida yig‘ing;
2. Nok rasmini alohida yig‘ing;
3. Olmani aplekatsiyasini yasang;
4. Nokni aplekatsiyasini yasang.

Hamma vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, guruhlar nima ish bilan shug'ullanganliklari va nimalarni bilib olganliklari so'raladi va umumlashtiriladi.

Bosqichda qo'llanishi:

Bu strategiya darsning mustahkamlash bosqichida qo'llanadi.

Tez yordam usuli

Maqsadi:

∴

Eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni muammoli vaziyatga tushirish;

O'zaro muomala qilish malakalarini oshirish;

Ko'rish, eshitish, tahlil qilish, fikrlash qobliyatlarini rivojlantirish;

Ma'lum bir vaziyatlardan xulosa chiqarishga o'rgatish;

Hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

Mazmuni:

“Tez yordam” usulini turli holatlarda o'tkazish mumkin, ya'ni juftlikda yoki kichik guruhlarda. Bunig uchun yasaladigan predmet turli ko'rinishlarda bo'lib beriladi: (rasm, shakl, matn, so'zlar ko'rinishida).Tarqatma material har bir guruhning (yoki juftlikning) har bir a'zosiga konvertga solib beriladi.

Qo'llanishi:

Har bir eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchi o'z konvertidagi bo'laklardan yaxlit biror narsa hosil qilishi kerak.(konvertda esa shunday bo'laklarki, ulardan yaxlit hech narsa hosil qilish mumkin emas).Birmuncha bir vaqtdan so'ng, tekshirib chiqiladi va hach narsa chiqmaganligi sababli, guruh a'zolari bir-birlarining bo'laklarini ko'rib chiqadi va yaxlit biror narsa yasash uchun o'ziga kerakli bo'lakni boshqa guruhdagi boshqa do'stidan so'rab oladi va o'z bo'lagidan yonidagi sherigi uchun zarur qismini beradi.Muddatdan so'ng guruhlarda ma'lum so'z va iboralar paydo bo'la boshlaydi. Boshqa guruhlarga nisbatan tez bajargan guruhlarga qo'shimcha topshiriq beriladi.

Bosqichlarda qo'llanishi: Bu usul yangi mavzu bayonida, mustahkamlash bosqichlarida qo'llaniladi.

Maxsus ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni darslarini shu tipda tashkil etish kar bolalar mexnat malakasini shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Zero, bu metodlar samarali va effektiv metod ekanligi tajribalarda o'z isbotini topmoqda. Ayni paytda har bir o'qituvchi pedagogik texnologiyalarga ko'r-ko'rona emas, balki ijodiy yondashish kerakligini ta'kidlab o'tish joiz

Ona tiliga o'qitish jarayonida interfaol darsni tashkil etish

Interfaol dars va uni tashkil etish jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

-auditoriyaning doska osilgan tomonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish uchun maxsus ekran yoki oppoq devorda yetarli darajada bo'sh joy bo'lishi kerak;

-o'qituvchi stoliga oldi bilan tirab bir parta qo'yiladi. Bundan ekspertlar, sardorlar, konsultatsiya olishga, uy vazifasini topshirishga kelgan o'quvchilar bilan suhbatlashishda foydalaniladi;

-xonadagi boshqa har ikki parta bir-biriga oldi bilan tirab qo'yiladi. Oqibatda to'rt o'quvchi bir-birlariga yuzma-yuz o'tirishadigan, doskaga yon tomonlaridan qaraydigan bo'lishadilar. Partalari yonma-yon turgan ikki kichik guruh birlashtirilib kichik guruhlar hosil qilish mumkin. Bunda o'qituvchi mehnati ikki marta qisqarib, o'quvchilarning hamkorlikda ishlashlari yanada kuchayadi. Natijada butun o'quv yili davomida doimiy ravishda hamkorlikda ishlaydigan kichik guruhlar shakllanadi;

-har bir kichik guruhda kamida bitta yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi (sardor, ekspert) bo'lishi kerak;

-sardorlar bir-birlari va o'qituvchi-trener bilan maslahatlashishga borishlari uchun partalarning qulay tomonida o'tirganlari ma'qul;

-o'qituvchi taklif etmagan holda uning huzuriga konsultatsiya uchun faqat bir o'quvchining kelishiga ruxsat etiladi;

-bunday darsda bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun, aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi texnologiyalardan kompleks foydalanish kerak;

-yangi pedagogik texnologiyalardan har darsda sistematik foydalanilmasa kutilgan natijani bermaydi;

-o'qituvchi-trener masala sharti va yechimini ekranga tushirib tushuntirgach, shunga o'xshash bir xil topshiriqni barcha kichik guruhlariga hamkorlikda bajarishlari taklif etiladi;

-yekranga tushirilgan masala sharti va yechimini tushuntirish jarayonida aqliy hujum, sinektika, nima uchun kabi interfaol metodlardan foydalanish qulay va yaxshi samara beradi. Bunda o'quvchilarga noto'g'ri bo'lsada o'z fikrlarini bildirishlari, qo'rqmasliklari, har qanday noo'rin fikrlarga ham tanqidiy munosabat bildirilmasligi oldindan aytilishi kerak. O'quvchini, umuman bolani fikrlashdan to'xtatish jamiyat taraqqiyoti oldiga to'siq qo'yish bilan barobar;

-o'qituvchi o'quvchilardan navbatdagi dars mavzusiga doir nazariy materiallarni uyda o'rganib kelishlarini qat'iy talab etishi zarur;

-topshiriqni bajara olmagan ayrim kichik guruh sardorlarining boshqa kichik guruhlardan va o'qituvchi-trenerdan yordam olishlariga ruxsat etiladi;

-agar bitta kichik guruh ishni bajara olmasa, kuchli sardorlardan birining ularga yordam berishi uyushtiriladi;

-topshiriq birorta ham kichik guruh tomonidan bajarilmasa, oldin o'rgatilgan masala yechimi yana ekranga chiqarilib, o'qituvchi-trener tomonidan qayta tushuntiriladi. Shu tartibda o'quvchilar hamkorlikda mustaqil ishlashga o'rgatiladi;

-sardor sust o'zlashtiruvchi sheriklarining o'z imkoniyatlari darajasida o'qishlariga mas'ul;

-sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar o'qituvchi-trener va sardorlarning doimiy e'tiborida va ko'magida bo'lishlari, ularning har qanday kichik muvaffaqiyatlari rag'batlantirilishi zarur;

-qo'yilgan topshiriqning qaysi kichik guruh sardori tomonidan birinchi bajarilganligi, qaysi sardorning boshqa kichik guruhlar sardorlariga necha marta yordam berganligi belgilangan bir o'quvchi tomonidan yozib boriladi. Bu yozuvlar va o'qituvchining shaxsiy kuzatishlari natijalari bo'yicha kichik guruhlar va sardorlar rag'batlantiriladi. Darslarning texnologik xaritasini yaratish -murakkab ko'p bosqichli jarayondir. Bu faoliyat kim tomonidan va qanday obyektga tadbiiq etilishiga qaramay, qator ketma-ket, bir-biri bilan bog'liq bosqichlarda amalga oshiriladi, oldinda turgan umumiy g'oyalardan aniq ta'sirlangan harakatlar ishlanmasiga yaqinlashadi: Darslarning texnologik xaritasini loyihalashtirishning 3 ta bosqichi farqlanadi:

1-bosqich. Modellashtirish.

2-bosqich. Proyektlashtirish.

3-bosqich. Konstruksiyalash.

Pedagogik loyihalashtirish (loyiha yaratish) – keyinchalik yaratilgan modellarni qayta ishlash va ularni amalda qo'llash darajasiga yetkazish. Pedagogik modellashtirish (model yarati) – bu pedagogik tizim, jarayonlarni yaratishdagi, maqsadlar (umumiy g'oyalar) va ularga erishishning asosiy yo'llarini ishlab chiqarish.

Pedagogik konsultatsiyalash (konstruksiya yaratish)-bu yaratilgan modelda ish olib borilsa, u pedagogik faoliyatni o'zgartirish uchun qo'llash darajasiga olib boriladi pedaggikada model xayolan yartilar va o'rnatish funksiyasini bajarar ekan, demak loyiha o'quv tarbiyaviy jarayon va muhitni qayta shakllantirish mehanizmi bo'lib qoladi.

Loyihalashning uchinchi bosqichi – bu konstruksiyalash. Konstruksiyala. Konstruksiyalash loyixani yanada ko'proq detallashtiradi, uni konketlashtiradi va haqiqiy faoliyat xolatiga yaqinlashtiradi.

Konstruksiyalash – o'quv va pedagogik faoliyat bo'lib – bu metodik vazifadir.

Pedagogik loyihalashtirish shakllari bu pedagogik tizim, jarayonlar va holatlarni faoliyatlarni turli darajada aniq yaratishni tavsiflovchi xujjatdir.

Konsepsiya loyixalashtirishning shakllaridan biri bo'lib unda pedagogik tizim va jarayonlarni qurish, nazariy tomoyillar, yetakchi g'oyalar, asosiy nuqtai nazarni ko'zda tuuvchi vositalar orqali bayon etiladi.

Qoidaga ko'ra konsepsiya ilmiy izlanishlar natijalari asosida quriladi. U yetarlicha umumiy va abstrakt bo'lishiga qaramay katta amaliy axamiyatga ega. Shu tariqa, har qanday konsepsiya amalda u yoki bu tizim yoki jarayonda qo'llash mumkin bo'lgan holat g'oya, qarashlarni o'z ichiga oladi.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish tamoyillari

1.Insoniy ustunlik tamoyili insonga nisbatan mo'ljal olish tamoyili sifatida, tizim ostidagi ishtirokchi, jarayonlar va xolatlar asosiy hisoblanadi.

O‘z tarbiyalanuvchilaringizni haqiqiy ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini loyihalashtirilgan pedagogik tizim, jarayonlar holatlarga bo‘yso‘ndiring.

O‘quvchilarni o‘z loyihalaringiz, konstruksiyalaringizni bajarishga bog‘lab qo‘ymang, chekina oling va ularni boshqalari bilan almashtira oling. Qat‘iy va detalli loyihalashtirmang, o‘quvchilarga va o‘zingizga xususiylashtirish uchun imkoniyat qoldiring.

Loyihalashtirish mobaynida pedagogga o‘zini o‘quvchi o‘rniga qo‘yish va hayolan uni xulq-atvorini, xislarini, unga yaratilgan izimlar, jarayon yoki xolatdagi ta‘sirini eksperiment qilish taklif etiladi.

2.loyihalashtirilayotgan tizim, jarayonlar, holatlarni o‘zicha rivojlanish tamoyili-ulaning dinamik, qat‘iy, rivojlanish jarayonidagi o‘zgarishlarga, qayta qurishga, murakkablikka yoki soddalashtirishga mos yaraish degani.

Bita loyiha bilan to‘xtab qolmang, zaxirada yana bir ikkita maqsadga erishishni ta‘minlaydigan loyihalarga ega bo‘ling. Xayot har doim turli uman va kutilmagan loyihalardir.

Ayniqsa bu pedagogikada yuzaga keladi. Qandaydir reja, ko‘rgazma, ssenariy, kuch bilan tarbiyalanuvchilarga ta‘sir etishiga, uni erkini sindirishiga uni idealiga bog‘lab qo‘yishga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Pedagog aynan uni tabiyalanuvchilarni o‘sish va rivojlanishiga yordam beradigan yetarlicha metodlar, vositalar va shakllarni tanlaydi, shuningdek turli mazmunlarni ko‘zda tutadi.

Didaktik ijodkorlik-bu o‘qitish sohasida turli xil vositalarni tanlash va o‘quv materialini tizimlashtirish, uni bilish metodlari va o‘quvchilarning o‘zlashtirish metodlarini yaratish bo‘yicha faoliyati.

Didaktik-ijod eng keng tarqalgan va pedagog va o‘quvchilar uchun oson faoliyat.

Bunda variantivlik ko‘p: o‘quvchilar faoliyatini kombinatsiyalash, o‘zaro o‘tish; qo‘shimchalar, yangi yaratilgan usullarni qo‘llash. Musiqa fonidan foydalanish, ota-oanalar bilmini baholash, o‘z-o‘zini baholash, rangli musiqa o‘yin avtomatlar, so‘rov qurilmalaridan o‘quv maqsadida foydalanish – ularning hammasi didaktik ijoddir. Amaliyot uni chegarasizligini ko‘rsatadi. Texnologik madaniyat bu pedagogik texnologiyalar va loyihalashtirish sohasidgi faoliyat bo‘lib, unda yangi pedagogik tizim izlash va yaratish, pedagogik jarayonlar va o‘quv pedagogik holatlarni, o‘quvchilarni tarbiyalashning natijaviylikini oshirishga mos yangi tizimlar yaratish.

Bu pedagogik ijodning eng murakkab turidir. U pedagog va o‘quvchilar faoliyatini to‘la qamrab oladi. Ijodning bunday turiga kollej, litsey o‘quvchilarni guruhli shaklda o‘qitish. O‘qitishda informatsion texnologiyalaridan foydalanish, interfaol darslar yaratish va boshqalar kiradi.

Tashkilotchilik ijodi- bu o‘quvchilar va pedagoglar orasidagi o‘zaro oloqa, muxit bilan aloqa resurslarni mobillashtirishning kuchini taqsimlash, yangi nazorat usullarini yaratish bo‘yicha faoliyatni tashkil etish va boshqarishdir.

Tashkilotchilik ijodi mehnatni ilmiy tashkil etishni hamma omillarni to‘g‘ri qo‘llashni maqsadga erishishning osonyo‘llarini a‘minlaydi. Ko‘rib tuganimizdek

pedagoga o'z ijodini ko'rsatadigan joylar bor. O'quv tarbiyaviy jarayondagi o'qitish vositalari va usullari haqidagi bilimlar yig'indini "o'quv jarayoni texnologiyalari" deb atash mumkin.

Darslarning texnologik xaritasini ishlab chiqishda o'qituvchi va o'quvchining mutlaqo aniq faoliyati zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llab yoki ularsiz loyihalashtiriladi. Aniq pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish jarayonini pedagogik loyihalashtirish jarayoni deb altash mumkin. Ular quyidagicha amalga oshiriladi:

- O'quv rejasi va o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'qitish mazmunini tanlash;
- o'qituvchi mo'ljal olishi lozim bo'lgan ustun maqsadlarni tanlash;

loyihalashtirilayotgan ta'lim jarayonida o'quvchilarda qanday kasbiy va shaxsiy sifalarni shakllantiradi;

- ko'zda tutilgan maqsadlar yig'indisi yoik biinchi o'rinda turadigan bir maqsad uchun texnologiyalar tanlash;

- o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish.

O'qitish texnologiyalarini loyihalatirish fan mazmunini, o'quv jarayonini, o'qitish vositalari va metodlarini tanlab loyihalashni ko'zda tutadi.

O'qitish texnologiyasi – tizimli kategoriya quyidagi strukturalardan tashkil topgan:

- o'qitish maqsadlari;

- o'qitish mazmuni;

- o'quv jarayonini tashkil etish;

pedagogik ta'sir etish vositasi (o'qitish vositasi va motivatsiya)

- o'quvchi

- faoliyat natijasi (shu Bilan birga kasbiy tayyorgarlik natijasi ham) shu bilan birga o'qiish texnologiyasi o'quv jarayonini tashkil etish, bshqarish va nazorat qilishni, ko'zda tutadi. Bu jarayonning hamma tomoni o'zaro bog'liq va bir-biriga ta'sir etadi. Bita bo'g'inga kuch berib, shu zahoti boshqalari haqida ham bilash mumkin. Butun tizimni samarali harakatlantirish uchun uni tashkil etuvchi hamma qismi puxta va sozlangan bo'lishi kerak.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish yo'nalishlari bir qancha umumiy holatlar pozitsiyasida ko'rish mumkin.

1. Bevositalik asosida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri aloqali va masofali o'qitish shakliga ajratilishi mumkin, birinchi guruhga o'qitishning an'anaviy ishlab chiqarishning hamma yo'nalishi kiradi, ikkinchisiga faqar hozirgi kunda o'qitishda masofali ta'sir ko'rsatuvchi maxsus texnik vositalar orqali yaratilgan o'qitishyo'nalishi kiradi.

2. Onglilik tamoyili asosida o'qitish intuativ o'zlashtirish mos malaka va onglilikka bo'linadi. Onglilik tamoyiliga asoslangan ta'lim nazariyasini ko'rib chiqishda o'quv jarayonida o'quvchilarning anglash obyektini nima ekanligi to'g'risidagi savolga javob berish muhim hisoblanadi. Agar faqat qoida vositalar angalansa, bu shakl ananaviy tarzda N.F. Talzina fikriga ko'ra "dogmatik, habar beruvchi" deb ataladi. Agar bu aniq bir qoidaga bo'ysunadigan harakatlarni anglash bo'lsa, unda bu aqliy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasidir. (P.Y. talperin,

N.F.Talzina) Agar bu dasturlar algoritmlar faoliyatlarini atash bo'yicha, unda bu o'qitishni dasturlashtirish, algoritmlashtirish nazariyasidir. (N.F.Talzina, N.L.Landa) Agar bu vosita usullar, yo'llarni o'zlashtirish uchun zarur masalani yechish, muammolarni anglash bo'lsa bu muammoli o'qitishdir. (V.Okon, M.M.Maxmutov, A.M.matyushkin, I.Y.Lerner)

3. Mavjud o'quv jarayonini boshqarishga asosan, u unga asoslangan (masalan: ananaviy o'qitishga) va o'zlashtirish mexanizmining asosiy sifatini ko'zda tutuvchi boshqaruvga aralashishi mumkin. (aqliy faoliyatlarni bosqichma bosqich shakllanishi nazariyasi, dasturlashtirilgan, algoritmlashtirilgan o'qitish).

4. Ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligiga asosan o'qitish, asosiy ta'limda madaniyatni loyihalash o'rni va o'quvchilarda loyihalashtirish faoliyatini shakllanishi (loyihali o'qitish nazariyasi) va fan tamoyillariga asoslanib o'qitish (ananaviy o'qitish) bilan chegaralanishi mumkin.

5. O'qitishning kelajak faoliyat bilan aloqasiga asosan, "Belgili-kontekstli" yoki kontekstli ta'lim (A.A.Verbeskiy) va ananaviy kontekstdan tashqari o'qitish turlariga ajratish mumkin.

6. O'qitishning tashkil etish vositasiga ko'ra o'qitishning faol shakllari va metodlari va ananaviy axborotli ma'lumotli o'qitish shakllari farqlanadi.

Yuqorida nomlari keltirilganlarga mos tarzda ananaviy o'qitish asoslari aloqali (masofali bo'lishi mumkin), xabar beruvchi, onglilik tamoyiliga asoslangan (fanni o'zini ongli o'zlashtirish bilim) boshqarmasdan maqsadga qaratilgan, fan tomoiyllari asosida qurilgan konspektdan tashqarida (oliy ta'lim tizimida kelajakdagi kasbiy faoliyatni o'quv jarayonida maqsadga yo'naltirmasdan moslashtirish) aniqlanishi mumkin. N.F.Talzina tomonidan aniflangan ananaviy o'qitish, axborotli xabar beruvchi, dogmatik sifatida yuqorida keltirilgan tavsifda passiv aks etadi. Bunda shuni ta'kidlash kerakki, bu "yomon-yaxshi" turdagi baholovchi belgilash emas, bu ta'kidlovchi belgilash bo'lib, ananaviy o'qitishda bilish o'zlashtirishning hamma shart sharoitlariga va samarali amalga oshirilishi asoslarini o'z ichiga oladi., ular ko'pgina omillar bilan o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. M.K.Kabardov tadqiqotlarining ko'rsatishicha, intellektual faoliyati turini xarakterlovchi odamlar—"mutafakkir", qobiliyatlidir, masalan chet tiliga ananaviy o'qitish shaklida, o'yindagiga ko'ra faolroqdir. Ta'limda ananaviy o'qitish bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan nomlar asosida boshqa yo'nalishlar ham shakllanadi: muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan o'qitish, aqliy faoliyatlarni bosqichma bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslangan (P.Y.Galperen, N.F.Talzina) algoritmlashtirilgan o'qitish (N.L.Landa) belgini kontekstli turiga asosan rivojlantiruvchi o'qitish (A.A.Verbeskiy) loyihali o'qitish. Hozirgi kunda V.Okoning ta'kidlashicha, o'qitishda ko'p tomonlama jarayon mavjud bo'lib, u o'z ichiga uni turli yo'nalishlarning turli xil elementlarini oladi. Bu o'qitishdagi ko'p tomonlamalik ta'lim tizimining har bir bosqichida, o'qitishning har bir holati uchun, o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari va imkoniyatlariiga mos, shuningdek o'qituvchining o'ziga, o'qitishning u yoki bu yo'nalishda qo'llashi imkoniyatini beradi. Darslarning texnologik xaritasini yaratishni umumiy tarzda

V.Okon tomonidan quyidagicha tasvirlangan. jarayoni deb atash mumkin. Uni ketma-ketligi quyidagicha bo'ladi:

-o'quv rejasi va o'quv dasturida ko'zda tutilgan o'qitish mazmunini tanlash;

-o'qituvchi mo'ljal olishi zarur bo'lgan birlamchi maqsadlarni tanlash: loyihalashtirilayotgan fani o'qitish mobaynida o'quvchilarda qanday kasbiy va xissey sifatlar shakllantiriladi;

-maqsadlar yig'indisini yoki birlamchi ustun maqsadlardan birini ko'zda tutuvchi texnologiyalar tanlash;

-o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish.

Shaxsni jadal rivojlanishi individni taraqqiyotini ko'zda tutadigan jismoniy va psixik o'zgarishlari uni hamma bosqichlarida kichikdan katta, soddadan murakkabga, pastdan yuqoriga o'tishidir.

Shaxs rivojlanishining maxsus xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

-immanentlik: tabiat tomonidan berilgan shaxs xususiyatlarini daxlsiz rivojlanishi;

-biogenlik: ko'p jihatdan nasliy belgilanadigan shaxsni psixik rivojlanishi;

-sodiogenlik; ijtimoiy muhit ta'siri.

-psixologik: inson-o'z-o'zini tuzatuvchi va o'z-o'zini boshqaruvchi tizim;

-individuallik: shaxs o'zida noyob hodisalarni, individual sifatlar to'plami va o'ziga xos rivojlanish varianti bilan farq qilishini ko'rsatadi;

-bosqichlilik; shaxs rivojlanishi umumiy davriylik qonuniga buyso'nadi;

-chiziqlilik: har bir shaxs o'zicha tempda tasodifiy tezlashish vaqtini taqsimlanishini va qarama qarshiliklarni ortishini sezib rivojlanadi;

Jismoniy yosh psixik rivojlanishining imkoniyatlari, sifat va son tavsifini belgilaydi.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish qonuniyatlari individning darajasi va xususiyatlaridan foydalanadi va xisobga oladi.

Darslarning texnologik xaritasini yaratish shaklida o'quvchi faoliyatining hamma bosqichlarida to'laqonli subyekt bo'ladi. Har bir bosqich shaxs rivojlanishiga maxsus xissa qo'shadi. Maqsadni ko'zlash faoliyatida erkinlik, maqsadga intilish, g'urur, to'g'rilik, qadr qimat, mustaqillik tarbiyalanadi; rejalashtirishda –tashabbus ijod, tashkilotchilik, mustaqillik, iroda; maqsadni amalga oshirishda – mehnatsevarlik, intizom faollik, maxorat; taxlil qilish bosqichida munosabat, javobgarlik, baholash kategoriyalari shakllantiriladi. Zamonaviy pedagogikadagi hamma shaxs sifatleri guruhlari:

BMK-bilim, malaka, ko'nikma;

AFU-aqliy faoliyat usullari;

SHO'BM-shaxsni o'zini boshqarish mexanizmi

HAD – hissiy axloqiy doira

Pedagogik loyihalashtirish va pedagogik texnologiyalar

PFM-pedagogik faoliyat muhiti-murakkab dinamiy rivojlanuvchi butun tizimni aks ettiradi va o'zaro bog'laydi. Individual farqlar u yoki bu guruh

sifatlarini rivojlanish darajasini belgilaydi. Rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi shaxsni hama sifatleri majmui yuzaga keladigan butun garmonik rivojlanishiga yo'naltirilgan RO'-rivojlantiruvchi o'qitish. RO'=BMK+AFU+SHO'BM+HAD+PFM

Rivojlantiruvchi o'qitish o'quvchi o'qituvchi yordamida bajaradigan faoliyatda "yaqin rivolanish zonasi"ni ko'zda tutadi.

Rivojlantiruvchi o'qitish yaqin rivojlantirish zonasidan o'tadi (L.S.Vigotskiy bo'yicha) rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari ichidan tadqiqot uchun L.V.Zankov tizimi, D.B.Yelkonin-V.V.Davidov texnologiyalari, G.S.Altshullerning rivojlantiruvchi ta'lim tizimini shaxs ijodiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimi qiziqishi uyg'otadi. Oxirgisidan tashqari, ko'rsatilgan bu innovatsion texnologiyalar-maktab pedagogikasi texnologiyalaridir, lekin ularga oliy maktab pedagogikasi didaktik tamoyillarini kiritish mumkin va ular oliy bilim yurti modifikatsiyasini qayta ishlash ba'zasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

L.V.Zankovning konseptual didaktik vaziyatlari qiymati mazmunini to'liqligi va butunligida, o'qitishda qiyinchiliklar yuqori darajada, xarakterning tezligida, anglangan motivatsiyalarda, variantlilikda, individuallikda, induktiv metodni qo'llashda, mazmunni muammolashtirishda va o'qitish jarayonida ratsional va xissiy tafakkurni kiritishdadir.

D.B.Yelkonin-V.V.Davidov texnologiyasi "mazmunini boyitish" asosiga qurilgan bo'lib, unga ilmning, sabab oqibat aloqasi va qonuniyatlarini chuqur aks ettiradigan umumiy tushunchalari, fundamental genetik birlamchi tasavvurlar (son, so'z, energiya, metall) ichki aloqalar ajratilgan tushunchalar, mavxumlashtirish yo'li bilan olingan nazariy obrazlar kiradi.

Mualliflar maqsad urg'usini quyidagi texnologiyalarda keltirilgan:

-nazariy anglash va tafakkurlashni shakllantirish;

-bilim malaka ko'nikmalarni qancha shakllantirsa, aqliy faoliyat usullari shuncha shakllanadi;

-o'quv faoliyatiga ilmiy tafakkur mantig'ini kiritish;

Bu metodikalar xususiyati o'quv faoliyatini maqsadga yo'naltirilganligi, ongli rivojlantirish maqsadi, sube'ktini-sube'ktga munosabati pedagogni o'quvchiga nisbatan munosabati, metodologiyalarni bilim malaka ko'nikmani va aqliy faoliyat usullari, ijodiy refleksi shakllantirishga qaratilganligi hisoblanadi. Bu metodikaga o'quvchini maqsad va vazifalar qo'yishi, o'zi o'zgartirishlar kiritishi va ijodiy yechadigan maqsadga yo'naltirilgan o'quv faoliyati sifatida qarash mumkin.

I.6-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tilga o'qitish jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalar

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tilga o'qitish jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalar haqida gapirganimizda, avvalo, eshitmaydigan insonlar tomonidan muloqotda qo'llanuvchi imo-ishora (jest)lar nutqini nazarda tutamiz.

Eshitmaydigan insonlarning asosiy muloqot vositasi sanalgan mazkur nutq shaklidan ularning maxsus ta'limi jarayonida foydalanish juda ham qiyin hamda munozaraga sabab bo'lib borayotgan bosh mavzulardandir. Bu til anchagacha keng tushunchaga ega bo'lib, afsuski, har doim ham hisobga olinavermaydigan hamda ko'pincha, o'rinsiz munozaralarni keltirib chiqaruvchi turli xil tarkibiy qism (komponent)lardan tarkib topgan. Aynan shu sababga mazkur nutq tarkibiy qism (komponent)larini baholash hamda ularga bo'lgan munosabatni aniqlashda barobarlashtirish yuzaga keladi. Umumtan olingan atama (terminologiya)ning qabul qilinmaganligi bois ham ko'pincha anglashilmovchilik yuzaga keladi. Shu bois surdopedagogik adabiyotlarda mualliflar tomonidan turli nomlashlarga: "mimika (imo, imlash) nutqi", „imo-ishora (jest) nutqi“, "mimika-jest(imo-ishora) nutqi" duch kelamiz. Bunday turli qarashlar eshitmaydigan insonlar tiliga kiruvchi turli tarkibiy qism (komponent)lar o'rnini turlicha tushunish bilan bog'liq.

Ushbu tilning ko'pgina komponentlari u yoki bu darajada so'zlashuv tiliga ega bo'lgan eshituvchi insonlar tomonidan ham qo'llaniladi. Ularning eng oddiydari rivojlanishning ilk bosqichlaridayoq yuzaga keluvchi muloqotning ko'rsatmaliamaliy (faoliyat) vositalaridir. Go'dak narsa, o'yinchoqlarga talpinadi yoki uni olish, qabul qilishdan bosh tortib, itarib yuboradi. Ona yoki bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi oila a'zolari uning ushbu istagini tushunadilar. Boshqa bir holat: go'dak nimadir qurishga harakat qiladi, lekin hamma narsa buzilib ketaveradi va u qayg'udan yig'lab yuboradi. Uning yoniga kattalardan biri kelib, hech nima demay, yordam ko'rsatadi. Har ikki holatda ham go'dak va kattalar bir-birlarini tushundilar hamda natijadan qoniqdilar.

Eshitmaydigan bolalar boshqa o'yinchoqlarni olishni istasalar, xuddi kerakli so'zni egallamagan eshituvchi go'dak singari, ularga talpinib, kattalarga ularni ko'rsatadilar. Lekin eshituvchi bolada o'z hoxishini bayon etishning bunday –imo-ishora usuli tezda so'zlashuv nutqi bilan to'ldirilsa, eshitmaydigan bolalarda bu holat maxsus ta'limsiz uzoq muddat saqlanib qoladi.

Shuningdek, ba'zan kulgu, achinish, norozilik (e'tiroz), g'azabni keltirib chiqaruvchi, mazmuni qaxramonlarining hatti-harakatlari orqali ochib beriluvchi ko'pgina ovozsiz kinosuratlar birorta so'zni bilmaydigan eshitmaydigan insonlar uchun tushunarli bo'ladi hamda bunday insonlar tomomnidan qiziqib tomosha qilinadi.

Kar bolalar maktabiga ilk bor qabul qilingan bolalar umuman yangi sharoitiga tushib qolsalar, (yetarli darajada) tezda vaziyatni anglab, sharoitga moslashib qetadilar. Oshxonaga kelib, hamma bilan stol atrofida o'tirib, tanovul qila boshlaydilar. Tabiiyki, bunday vosita ideal(eng yuksak maqsad) emas, lekin ularga kar o'quvchilar bilan muloqot qilishda, ayniqsa maktabda o'qishni endigina boshlaganlar bilan, ahamiyat bermaslik mumkin emas.

Muloqotning eng oddiy usullariga inson hoxish, sezgilarini aks ettiruvchi hamda shu maqsadda qo'llanuvchi yuzning ifodali vositalari-mimika kiradi. Shodlik hamda qayg'u, qoniqish hamda hayrongarchilik, rozilik hamda e'tiroz- bularning barchasi hamda ko'pgina boshqa narsalar mimika va jestlarda namoyon bo'lib, kishilar o'rtasida o'zaro bir-birlarini tushunishlariga xizmat qiladi. Onaning

nigohiga ko‘ra go‘dak, hech bir so‘z aytmagan bo‘lsa ham, sho‘xlikni davom ettirish mumkinmi yoki uni tugallash darkorligini aniqlab oladi.

Karlar uchun muloqot qilishning to‘la tushunarli bo‘libgina qolmay, balki ko‘pgina hollarda juda ham zarur bo‘lib qoladi.

Aks ettiriluvchi sezgining yaxshiroq idrok etilishi insonlar mimika vositalarini kuchaytirishga intiladilar. Bu usulga ko‘pincha karlar murojaat etadilar, shu sababli ko‘pincha ularning mimikasi bo‘rttirilgan va hattoki, be‘mani(xunuk) bo‘lib qoladi. Lekin bu narsa uning muloqot vositasi sifati foydalanmasligi uchun asos bo‘lib xizmat qilmasligi lozimdir. Bu yerda mimika vositalari madaniyati ustida ishlash zarurligi haqida gapirish o‘rinli bo‘lar edi.

Boshqa vositalar ichidan karlar o‘zaro va eshituvchilar bilan muloqotda pantomima (so‘zlamay, faqat harakat va imo-ishoralar bilan tomosha ko‘rsatish), harakatlar imitatsiyasi (taqlidi), drammalashtirish elementlari, predmetlarni havoda rasm bilan tasvirlashdan keng foydalanadilar. Bunday eshituvchilar ham o‘z ehtiyojlarini (qondirish) bayon ettirish uchun so‘zlashuv vositalari yetarli bo‘lmaganda murojaat etadilar.

Aytib o‘tilgan karlar tomonidan qo‘llaniluvchi usullar, ular uchun ko‘proq ahamiyatli hamda keng qo‘llanilsa-da, eshituvchi kishilar muloqotda qo‘llaniluvchilari bilan taqqoslaganda prinsipial farqqa ega bo‘lmaydi.

Farq yana shunda ham namoyon bo‘ladi-ki, eshituvchi insonlar so‘zlashuv vositalari bilan bir qatorda ularning yanada ma‘noli bo‘lishi uchun bunday vositalardan foydalanadilar. Biroq bu har doim ham shunday bo‘lavermaydi. Rozilikni bildira turib inson boshini silkitadi, bunda u ko‘pincha hech bir so‘z aytmaydi. Norozilikni u boshni chayqatish bilan, hatto-ki „yo‘q“ so‘zini ishlatmay ham bildiradi.

Karlarda esa ushbu barcha vositalar mustaqil rolda keng qo‘llaniladi. Ammo bularning barchasi ham ko‘rib chiqilayotgan ushbu hodisaga prinsipial farq kiritmaydi.

Lekin shuni ta‘kidlash lozim-ki, kar bolalar ushbu vositalardan mustaqil rolda faqatgina rivojlanishlarining dastlabki paytlaridagina foydalanadilar. Ular tezda o‘z o‘rnini karlarning asosiy muloqot vositasi – jest nutqiga bo‘shatib beradilar. Jest nutqiga o‘tish vaqti uning xarakteri singari atrof muhitga bog‘liq bo‘ladi. O‘zaro muloqotda jest nutqidan foydalanuvchi kar ota-onalar oilasidagi kar bolalar rivojlanishlarining ilk pog‘onalaridayoq jestlardan foydalana boo‘laydilar. Bunday sharoitlarda yuqorida bayon etilgan (mimika, pantomima va hakozi) vositalar boshdan oq jest nutqiga yo‘ldosh bo‘ladi.

Aytib o‘tilgan yo‘ldosh vositalardan pedagogik jarayonda foydalanishning zarurati hamda maqsadga muvofiqligi hech kimda va hech qachon shubha(gumon) tug‘dirmagan va ular surdopedagogikadagi bahsning predmetimasdir. Lekin karlar tomonidan qo‘llaniluvchi vositalarni bir atamaga birlashtira turib (mimika, mimika nutqi, mimika-jest nutqi), ularning barchasiga global (yaxlit) yondashish shunga olib keladi-ki, yuqorida aytib o‘tilgan turli komponentlar(tarkibiy qismlar) jest nutqi bilan bir qatorga qo‘yiladi hamda undan ajratilmaydi. Jestlar tiliga bo‘lgan qarashlarga bog‘liq ravishda sanab o‘tilgan vositalarga munosabat ham aniqlanadi.

Jestlar tili o'ziga hos lug'at tarkibi hamda grammatik qurilishiga ega bo'lgan o'ziga hos til sistemasidir. Jest hamda ularning chatishma(kombinatsiya)lari so'z va so'z birikmalari singari o'zlarida mustahkamlangan ma'lum bir ma'noni yetkazib beruvchi hisoblanadilar hamda umumlashmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Aynan shu narsa bilan jestlar tili boshqa barcha ko'rib chiqilgan vositalardan farq qiladi. Ko'pgina hollarda jest nutqi orqali beriluvchi ma'nolar so'zlarda qayd etiluvchi ma'nolarga yaqin bo'lib qoladi hamda ularga monand bo'ladi: „o'g'il bola”, „qiz bola”, „o'qitmoq”, „ishlamoq”, „yaxshi”, „yomon” va hakoza. Bu narsa ko'pincha surdopedagog va karlar bilan ishlovchi boshqa shaxslar kar bolalarni so'zlar tiliga o'qitish(o'rgatish)ni jestlar tili asosida olib borish mumkin va hatto-ki, zarur degan xulosaga kelishlariga asos bo'ladi. Jestda aks etuvchi ma'noni so'zga o'tkazish(ag'darish) hamda shu bilan tilni o'zlashtirish jarayoni yengillashtiriladi.

Bunday xulosa go'yo jest nutqi orqali muloqotda bo'lgan kar ota-onalar bolalarining maktabga nisbatan rivojlangan holda kelishlari bilan tasdiqlanadi. Lekin bunday holatlarda bolalarning o'z tengdoshlariga taqqoslaganda, so'zlar tilini egallashda katta layoqatga ega bo'lmasliklari va hatto-ki, aksincha bo'lishi nazardan chetda qolib ketadi. Tarixda hatto-ki, eng yaxshi rivojlangan jest nutqining so'zlar tilini egallashga olib kelgan (keluvchi) biron bir hodisa bo'lmagan. Qator hollarga bog'liq ravishda bunday bo'lishi mumkin ham emas. Eng avvalo jest tili nutqining so'zlar tilidan bir necha marta kambag'alligi sabab bo'ladi:(masalan, unda ko'pi bilan 2,5-3 ming jest bo'lsa, o'zbek lug'atida so'z bor). Demak, shu narsa ma'lum bo'ladi, bunday kambag'al vosita u bilan taqqoslab bo'lmaydigan so'zlar tili uchun asos bo'lib xizmat qila olmaydi. Bunday xulosa ko'pgina hollar bilan tasdiqlanadi. Jest nutqining kambag'alligi tufayli birgina jest ko'pgina tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi: ish, ishlamoq, ishchi, sovuq, ayoz, olov, gulxan, yong'in. Turli tuman ma'nolarni aks ettiruvchi so'zlarning birgina jest orqali ifodalanishining o'zi shuni ko'rsatadi-ki, masalan „ishlamoq” jestining asosida mazmuniga ko'ra turli-tuman bo'lgan “Ishchi”, “Ish” so'zlarining ma'nosini shakllantirish mumkin emas.

Jestlar tilining tuzilishi (strukturasi) ham juda o'ziga xos hamda sodda (primetiv)dir. Masalan, bo'lishsizlik (inkor) jesti fe'ldan so'ng qo'llaniladi, (“ishlamoq yo'q”, “o'qimoq yo'q”), aniqlovchi aniqlanmishdan so'ng (“bola kichkina”, “baliq katta”) qo'llaniladi. Keltirilgan (aytib o'tilgan)lar shuni tasdiqlaydi-ki, haqiqatdan ham jest nutqi asosida so'zlar tiliga o'rgatish olib borib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash lozim-ki, bayon etilgan jest nutqi o'zgarimas bo'lmay, aksincha, u o'quvchilarda sekin-asta o'zgarib boradi, boshqa tusni egallab boradi. Bu narsa so'zlashuv nutqini o'rgatish ta'sirida amalga oshadi. Jestlar bilan keng muloqotda bo'luvchi karlar so'zlashuv tilini egallab borganlari sari so'zlar tilida akslangan narsalarini jest tilida bayon qilish usullarini izlaydilar. Lekin ushbu holatlarda kar bolalar (xuddi eshituvchi yoki kar bo'lib qolganlar singari) haqiqatda (aslida) so'zlar tilidan foydalanadilar, u ularning fikrlashining quroli bo'lib qola boshlaydi, jestlar esa so'zlashuv vositalarida qayd etiluvchi mazmunni yetkazib berishda yordam beruvchi o'ziga hos kod (shartli belgilar ro'yxati) bo'lib xizmat qiladi.

Qayd etilgan faktlar ushbu ikki til sistemalari (soʻzlar tili va jest nutqi) oʻrtasida oʻzaro tirik aloqa mavjudligi hamda oʻzlashuv nutqining shakllanishiga jest nutqi xizmat qilmay, aksincha, jest nutqining boyishiga soʻzlashuv nutqi taʼsir qilishini koʻrsatadi. Shuni taʼkidlash zarur-ki, ushbu narsaga koʻpincha pedagoglarning oʻzlari imkon yaratadilar. Masalan, dastlabki kunlarda “kam”, “koʻp” tushunchalarini shakllantira turib, oʻqituvchi bir qancha predmetlarni koʻrsatadi va “kam” deydi. Bolalar ushbu soʻz maʼnosini tushunishlariga ishonch hosil qilmay, ushbu maʼnoni (aks ettiruvchi) ifodalovchi belgini bolalar hali bilmasliklari pedagogka ayon boʻlsa-da, taalluqli jestni koʻrsatadi. Dam bir jestning (kam), dam boshqa jestning (koʻp) koʻrsatilishi bir necha marta takrorlanadi, natijada jestlarda taalluqli soʻzlarga hos boʻlgan maʼnolar shakllantiriladi.

Ammo keyinchalik qiyinsiliklar tugʻila boshlaydi. “Koʻproq” va “kamroq” soʻzlarining maʼnosini ifodalash uchun taalluqli jestlar yoʻq. “Koʻp” va “kam” jestlarini qoʻllash majburiyati tugʻiladi. Tabiiyki, bunday nomuvofiq (neravnotsenniy) almashtirishlar yangi “koʻproq”, “kamroq” soʻzlar maʼnosini shakllantirishga toʻsqiglik qiladi. “Koʻproq”, “kamroq” tushunchalarini shakllantirish boʻyicha maxsus ish koʻrishimiz boʻyicha, jestlardan foydalanganda yengillatilmay, balki murakkablashtiriladi.

“Koʻp”, “kam” soʻzlarining maʼnosini egallashdagi qiyinchiliklarni yengib, kar bolalar yangi qiyinchiliklar oldida turib qoladilar: endi ular “koʻp”, “kam” jestlariga “koʻproq”, “kamroq” maʼnosini kiritishlari zarurdir. Soʻzlashuv nutqini oʻrganish natijasida koʻpgina jestlar bunday kod asosida yuzaga keluvchi tushunmovchiliklarga olib keluvchi uch-toʻrt va undan koʻp maʼnolarda qoʻllaniladi.

Bularning barchasi shuni taʼkidlaydi-ki, soʻzlar tiliga jest nutqini aynan koʻchirish usuli bilan oʻqitish mumkin emas. Demak, soʻzlashuv nutqini shakllantirish jest nutqiga tobe boʻlmagan hoda qurilishi hamda kar bolalar uchun yangi boʻlgan til tuzilishini egallash jarayoni boʻlib namoyon boʻlishi lozimdir. Koʻrinib turibdi-ki, soʻzlashuv nutqi shunday taʼsir kuchiga ega boʻlishi lozim-ki, buning natijasida jest nutqi shakllanadi. Jest nutqi oʻzining sodda (primetiv)ligiga qaramay, muloqot vositasi boʻlib xizmat qiladi. U muloqotda yuzaga keladi (tugʻiladi), kommunikatsiya (muloqot)ga muxtojlik taʼsirida rivojlanadi, oʻquvchilar ijtimoiy talablariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham soʻzlashuv nutqini shakllantirish muloqotga extiyojni qondirish bilan boshlanishi, muloqotga extiyoj uchun xizmat qilishi hamda, oʻsib boruvchi kommunikatsion talablar

taʼsiri ostida amalga oshishi lozimdir.

Soʻngi soʻzimizda jest nutqiga taalluqli boʻlgan xulosalardan kelib chiquvchi munosabatlarga toʻxtalib oʻtamiz.

Agar tilga oʻrgatishning muvoffaqiyatli borishi uchun taalluqli nutqiy muhitning tashkil etilishi zarur boʻlsa, kar bolalar maktabida jestlar tilidan haddan ziyod foydalanish nutqiy rivojlanishni pasaytiruvchi, uni tormozlovchi omil hisoblanadi. Demak, soʻzlashuv nutqini taraqqiy ettirish hamda shu maqsadda nutqiy muhitni yaratish (tashkil etish) soʻzlar tilining taʼsirini bolalarning butun pedagogik tashkil etilgan hayotlariga, oʻquvchilar tashkil etilgan faoliyatlarining barcha turiga keng yoyishni talab etadi. Maxsus maktab kollektivi tashvishining predmeti jest

nutqini ta'qiqlash emas, balki so'zlar tilining muloqot vositasi sifatida ta'sir doirasini kengaytirish bo'lib qolishi lozimdir.

Tabiiy-ki, aytib o'tilgan jest nutqini(to'la ravishda) butunlay ta'qiqlashni olib bormaydi. Jest nutqi maxsus maktab katta bolalar kollektivida bo'lib, jest nutqiga bo'lgan salbiy munosabat daktil nutqiga ham ko'chirilishiga sabab bo'ladi(keltirib chiqaradi). Bu fikrlar tushunmovchiliklardan kelib chiqadi. Daktil va jest nutqlari o'rtasida ikkisining qo'ldan foydalanishga asoslanganliklaridan bo'lak umumiylik mavjud emas. Biz yuqorida ko'rib o'tdik-ki, jest nutqi- sodda(primitiv) bo'lsa-da, o'ziga xos til sistemasidir. Karlarning jest nutqi juda nisbatan bo'lsa-da, so'zlashuv nutqi bilan taqqoslanishi mumkin. Daktil nutqi esa- so'zlashuv tilining formasi hamda u ham nisbatan nutqning yozma va og'zaki formalari bilan taqqoslanishi mumkin. Daktil nutqi o'z tarkibiga ko'ra yozma nutqqa muvofiq keladi. Shunga asoslangan holda uni ko'pincha havodagi xat(yozuv) deb nomlaydilar. Lekin u bunday emas. Havodagi xat(yozuv) nafaqat havoda, balki boshqa qo'l kaftlari, devor va hakoazolarga yozishda barmoqlar bilan harflarni qaytadan ishlab chiqish asosida quriladi. Bunday usul surdopedagogikada „daktilografiya“ atama(nomi)si bilan ma'lumdir. Bu usul mahsulsiz bo'lganligi tufayli keng tarqalmagan(yoyilmagan).

Nutqning daktil formasi jest nutqidan farqli ravishda nafaqat so'z tuzilishini, balki grammatik formasini ham eslash(qayta ishlab chiqarish)ni talab qiladi. Xuddi shu sababli kar bolalar uchun daktil nutqini jest nutqiga qaraganda egallash qiyin(mushkul)roqdir, ammo uning afzalligi aynan shunda namoyon bo'ladi, chunki daktil formasidan foydalanish so'zlashuv vositalari bilan gapirishdan iboratdir.

Nutqning daktil formasi funksiyasiga ko'ra og'zaki formaga tegishli bo'lishi mumkin: u bevosita muloqotga xizmat qiladi. Bu formaning og'zaki forma bilan o'xshashligi yana shunda namoyon bo'ladi-ki, u iz qoldirmaydi. Shunday bo'lsa-da, u eshituvchi insonlar foydalanuvchi og'zaki nutq bo'lmay, insonlarning tor doirasi tomonidan qo'llanuvchi o'ziga hos nutq formasidir.

Daktil nutqi surdopedagoglarga ko'pdan ma'lum bo'lsa-da, kar bolalarni o'qitishda uni kam qo'llaganlar. Sof og'zaki sistemada u umuman jest nutqidan ham kuchliroq chiqarib tashlangan. U juda sodda hamda karlarga yengil o'zlashtirilishiligi tan olinar, ammo aynan shuning uchun foydalanish xavfliligi ta'kidlanardi. Bunda daktil nutqi karlar uchun qo'shimcha vazifa bo'lib, daktil nutqidan foydalanish yuzdan o'qish ko'nikma(mimika)larining rivojlanishiga halal berishi, daktil nutqi talaffuz etilayotgan so'zning buzilishiga olib kelishi ta'kidlanar edi.

Ammo Zikov.S.A.lar tekshirishlari(izlanishlari) daktil nutqi to'siq bo'lmay, balki kar bolalarni umuman tilga o'qitishda, shuningdek nutqning og'zaki formasiga o'rgatishda yaxshi yordamchi ekanligini ko'rsatdi. Daktil nutqi o'zida quyida namoyon bo'luvchi kompensatsiyaning muhim mexanizmlarini mujassamlashtiradi.

1.Daktil nutqi oson idrok etiladi, bola so'zning har bir elementini ko'radi.

2.U gapiruvchining to'la nazoratida bo'ladi. Kar bola o'z nutqini o'qituvchi bergan so'z bilan taqqoslab tekshirishi mumkin.

3.Daktil qilishda so'z tuzilishining tezroq hamda mustahkamroq eslab qolinishini ta'minlovchi barmoq kinesteziyalari(qo'lning muskul sezgilari) shakllanadi.

4. Barmoq kinesteziyalari hamda artikulyatsiya apparati kinesteziyalari o'rtasida daktil nutqi og'zaki nutqqa tayanch bo'lib qolishini ta'minlovchi mustahkam neyrodinamik bog'lanishlar o'rnatiladi.

5. Daktil nutqi aniq nutqni, uning grammatik qurilishi, lug'at tarkibini egallashga yordam beradi.

6. Nutqning bu formasi kar bolaga ilk bosqichlarda jest nutqini qisib chiqara turib, so'zlashuv muloqotini ta'minlaydi.

Uzoq vaqtlar mobaynida bola daktil formasidagi so'zni faqatgina ushbu harflarni bilgan, savodni egallagan sharoitdagina o'zlashtira oladi, deb hisoblanar edi. Biroq bu ham noto'g'ri bo'lib

Etilayotgan so'zni, agar ular uning tarkibini bilsalar, ko'z orqali idrok etish yengilroqdir. Daktil formasini qo'llash lug'atning va frazeologiyaning boyishiga ta'sir ko'rsatadi. Nutq qancha boy bo'lsa, karlarga yuzdan o'qish shuncha yengil bo'ladi.

Daktil nutqini qo'llash albatta talaffuz etilayotgan so'z tuzilishining buzilishiga olib keladi, degan ta'kidlar xato bo'lib chiqdi. Shunga taaluqli ravishda ko'p narsa o'qitish metodikasiga, qanday o'qitishga bog'liq bo'ladi. Shu narsa aniqlandi-ki, so'z tuzilishining daktil formada yuzaga kelishi artikulyatsiya qoidalariga bo'ysundirilishi lozim: so'zni bo'g'inlab qayta ishlab chiqish, urg'uli bo'g'inni ajratish.

Ko'rishimizcha, nutqning daktil formasi har tomonlama katta ahamiyatga egadir, ammo karlarni o'qitishda uni qo'llash asosiy maqsad bo'lmay, balki so'zlar tilini egallashda yordam beruvchi vositadir.

Mavzuni tugallashda biz shuni ta'kidlashimiz mumkin-ki, karlar bilan ishlashda, xuddi ularning o'zaro muloqotida ham, turli-tuman vositalar qo'llaniladi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ona tiliga o'qitishning mazmunini yoriting.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ona tiliga o'qitish bosqichlariga tavsif bering.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ona tiliga o'qitish bo'yicha ish qanday tashkil etiladi?
4. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqiy qobiliyatini rivojlantirish jarayoniga umumiy tavsif bering.
5. Ona tili darslarida didaktik tamoyillarga tavsif bering.
6. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida ona tilga o'qitish jarayonida qo'llanuvchi nutqiy vositalarga tavsif bering.
7. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda ularning o'zaro muloqotida qanday vositalar qo'llaniladi?
8. Darsni rejalashtirganda o'quvchilarning o'rganish natijalari va ularning o'quv imkoniyatlari, o'zga xos xususiyatlari hisobga olinganmi?
9. Hozirgi o'tilgan mavzu o'tgan mavzu bilan bog'langanmi, kelasi dars uchun zamin tayyorlaydimi? O'tilgan darsning boshqa darslar turkumida tutgan

- o'zni qanday?
10. Darsni (ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi) maqsadlari amalga oshirildimi? Ularning yaxlitligiga erishildimi?
 11. Eshitish qobiliyati, talaffuz ko'nikmalari, umumiy nutq rivojlantirish yuzasidan ishlarga e'tibor berildimi?
 12. Darsning tuzilishi o'quv materialining mazmuniga, hal etiluvchi o'quv topshiriqlarining tavsifiga mos keladimi? Darsning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish to'g'ri amalga oshirildimi? Darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalaniladimi?
 13. Darsniig asosiy mohiyati, belgilovchi g'oyalari ta'kidlandimi?
 14. Darsga tanlangan usul, vosita, tamoyillar yangi o'quv materialining mazmuniga to'g'ri keladimi? O'qitishning hozirgi zamon vositalaridan unumli foydalanildimi?
 15. Darsda o'quvchilarga yakka va tabaqalashtirilgan holda yondashildimi?
 16. O'quvchining darsda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarini nazorat qilish qanday tashkil etiddi? Ularga ko'yilgan baholar tarbiyalovchi xarakterga ega bo'lib, o'qish faoliyatini rag'batlantirdimi?
 17. Darsda o'quvchining bilish faoliyatini o'stirishga va unda o'qishga istakni shakllantirishga e'tibor berildimi?
 18. Darsda o'quv anjomlaridan, ko'rgazmali qurollar, texnik vositalardan foydalanish qay tarzda amalga oshiriddi?
 19. Darsdagi ruhiy muhit, o'quvchilar va o'qituvchining o'zaro munosabatlari qanday?
 20. Uy topshiriqlarini tekshirish metodikasi kay tarzda amalga oshirildi?
 21. Darsda qanday qiyinchilikka duch kelindi, ularning sabablari nima va qaysi yo'llar bilan bartaraf qilish mumkin?
 22. Mazkur dars maqsadi va vazifasini amalga oshirish uchun o'qituvchining bilim malakasi yetarlimi? O'z bilimini qaysi yo'nalishda yanada chuqurlashtirish zarur? O'z-o'zini tahlil qilishda o'qituvchi darsning fikriy nusxasini uning amaldagisi bilan solishtirib, shu asosda umumiy saviyasini, ilmiy nazariyasini, psixologik, pedagogik, uslubiy mahoratini yanada takomillashtirish yo'llarini belgilab olishi lozim
 23. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlarini tavsiflahg.
 24. Maxsus ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalar qanday ta'sir ko'rsatadi?
 25. Darslarning texnologik xaritasini loyihalashtirishning necha bosqichi farqlanadi?
 26. Maxsus ta'lim jarayonida interfaol darsni tashkil etish nimalardan iborat?

II –BO‘LIM ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MAKTABIDA NUTQQA O‘RGATISH

I-BOB. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni daktil nutqga o‘rgatish uslubiyati

I.1-§. Daktil nutqini og‘zaki va yozma nutq shakllari bilan munosabati

Ponso o‘z metodikasida nutqning turli: og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishora ko‘rinishlarini qo‘llaydi. X.P. Bonet (1579-1633) o‘zining 1620 yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va kar-soqovni gapirishga o‘rgatish san’ati» asarida karlarni o‘qitish va tarbiyalashning o‘sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko‘rib chiqar ekan, ularni so‘zlashuv nutqiga daktil va og‘zaki nutq orqali o‘rgatish lozimligi haqida so‘z yuritadi. U kar bolalarni maxsus ravishda tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘qitishi, ta’lim jarayonida nutqni va aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ishlar savol-javob shaklidan foydalangan holda olib borilishi alohida e’tiborli omil sifatida qaraydi. X.P. Bonnet g‘oyalarining keyinchalik taraqqiyotiga Angliyalik J. Vallis (1616-1703) va J. Bulver, Shveysariyalik J.K. Amman (1669-1724), Niderlandiyalik F.M. Van Xelmont (1614-1699), Italiyalik F.L. Tersiy (1631-1687) kabi amaliyotchi olimlar karlarni o‘qitishga alohida urinishlar sifatida o‘z xissalarini qo‘shdilar.¹⁶

E.R. Karrion (1579-1652) o‘z zamondoshlari boy tajribasidan unumli foydalangan holda ularning g‘oyalarini rivojlantirar ekan, karlar ta’lim-tarbiyasida taktil-vibratsiya sezgilariga hamda eshitish qoldig‘iga tayangan holda ish olib boradi. Yuqorida bayon etilgan karlarni yakka tartibda o‘qitishga urinishlar eshitish nuqsoniga ega farzandlari bo‘lgan zadogon oilalar ijtimoiy buyurtmasining mahsuli edi. Shu bois ta’limning bu turi ijobiy tajribaga ega bo‘lsada, ushbu toifa bolalari uchun o‘quv muassasalarining tashkil etilishiga uzoq vaqt muvaffaq bo‘linmadi. Faqat 14 asrning 70-yillaridagina kar bolalarni o‘qitish va tarbiyalash uchun maxsus muassasalar tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha urinishlar yuzaga kela boshladi. 1770 yilda Fransiyada dunyo tarixida birinchi bo‘lib Sharl Mishel de Epe (1712-1789) tomonidan Parijda xususiy maktab - kar-soqovlar instituti ochildi. De Epe tarixda Volter, Deni Didro, Jan Jak Russo kabi fransuz ma’rifatparvarlarining g‘oyalari bilan yo‘g‘riltirilgan mimika (imo-ishora) metodining muallifi sifatida nom qoldirdi. Amaliyotchi olim o‘qitish jarayonida asosiy e’tibor kar bolalarning har tomonlama: aqliy va jismoniy rivojlanishiga qaratish hamda ushba tizim kar bolani umumta’lim fanlariga oid bilimlarni o‘zlashtirish, jamiyatda yashash va mehnat qilishga tayyorlashi lozimligi masalalariga alohida axtiyorat qaratadi. Ammo ushbu vazifalarni hal etish uchun o‘qitish davomida faqat nutqning imo-ishora shaklidan foydalaniladi hamda kar o‘quvchilar uning asosida yozishni o‘rganadilar. Uning shogirdi R.A. Sikar Sharl Mishel de Epening g‘oyalarini rivojlantirib, imo-ishoralar tilini «metodik belgilar»

¹⁶ Kristin Snoddon - American sign language and early literacy - Gallaudet University Press , 2012, 54 p

bilan boyitadi. Ya'ni ushbu metod asosida o'qitish jarayonida o'quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalarni tasvirlash uchun ma'lum bir belgilar o'rgatib boriladi. Ma'lumki, tilda grammatik kategoriyalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. O'quvchilar hajmi kundan kunga ortib borayotgan belgilarni o'zlashtira olmasliklari natijasida fanlarga oid bilimlarni ham o'zlashtirishga ulgurmay qoladilar hamda imo-ishora metodi asosida o'qitish tizimi takomillashtirilganiga qaramay, undan amaliyotda foydalanish ta'limning oldiga qo'yilgan vazifalarni to'laligicha hal etish imkonini bermasligini ko'rsatadi.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakterga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. chizuvchi harflar (z, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir.

Ye.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham ko'zatiladi. Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A. Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo'riladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot ob'ekti sifatidan o'rganish talab etiladi. Ye.N. Marsinovskiy daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshim o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riligi, nutqni tushunarililigiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bu jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So'zlashuv nutqini egallash darajasiga ko'ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so'zni talaffuz etib, so'ng yozadi.

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi. Labdan o'qishning koloreya tizimida o'z ifodasini topgan. Quyidagi jadvalda o'zbek tili alifbosiga asoslangan daktilema alifbosi ifodalangan (1-rasm).

1-rasm

						
А	Б	В	Г	Д	Е	Ж
						
З	И	Й	К	Л	М	Н
						
О	П	Р	С	Т	У	Ф
						
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ъ	Ы
						
	Ь	Э	Ю	Я		

I.2-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirishda daktil nutqining o‘rni

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning ogzaki nutqni mulokot kuroli sifatida shakllantirish maxsus tashkil etilgan ta’lim tarbiya tizimining bosh maksadi sanaladi.

Daktil nutqi – kar bolalarni o‘qitishning qudratli vositasi, u lug‘at boyligi va natqni o‘zlashtirish sifatini, shuningdek kar bolalarning umumiy rivojlanish darajasini bir necha barobar oshirishi mumkin. Kar bolalarni tarbiyalayotgan ota-onalar va boshqa kishilar uni bola bilan muloqotda to‘g‘ri qo‘llash uchungina emas, balki fikrlari, aniqrog‘i, bilib-bilmay chiqaradigan hukmlari bolaning to‘la qonli tarbiyasiga xalal beradigan kishilarga uning ahamiyatini tushuntirib berish uchun ham daktil nutqning ahamiyatini tushunib yetishlari kerak. Daktil nutq nima? Daktil

nutqni ba'zilar mimika (mimina yoki imoishora nutqi) bilan qorishtirishadi, mutaxassislar esa daktil nutqni savodi chiqmagan kar bolalarda og'zaki nutq o'rniga mimika nutqining intensiv rivojlanishining oldini olish uchun keng qo'llashni tavsiya qilishadi.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakterga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

1. chizuvchi harflar (z, b, d);
2. harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
3. shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrda kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

YE.N. Marsinovskaya tadqiqot natijalariga ko'ra, bu nutq formasining quyidagi belgilarini ochib beradi. Eshituvchi bolalarda daktillash 2,5 marta og'zaki nutqni bayon qilishga nisbatan orqada qoladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni bayon etish va daktillash tempi bir xil bo'ladi, ba'zan daktillash og'zaki nutqni bayon etishda oldindan o'tib ketish hollari ham ko'zatiladi. Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va YE.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga qo'riladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar fikrlash operatsiyalarida faqat artikulyator apparatlarda, balki qo'l, barmoq muskullarida ham impulslar yuzaga kelgani kuzatilgan. Lekin, artikulyator apparatdagi nutqiy kinestiziyalar, qo'l kinesteziyalariga nisbatan puxta bo'lib, tadqiqot obyekti sifatidan o'rganish talab etiladi. YE.N.Marsinovskiy daktillash tempi og'zaki nutq talaffuzi yaxlitligiga ta'sirini o'rgatgan. Bu tajribalar ko'rsatishicha kar bola daktillash texnikasini yaxshim o'rganganda daktilologiya og'zaki nutq tempi va yaxlitligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Daktillash texnikasini yaxshi darajada egallamaslik, talaffuz to'g'riligi, nutqni tushunarlilikiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Lekin so'zning talaffuzi yozilishdan uzoqlashsa tovush tarkibini o'rganishda daktilologiya ta'sir ko'rsatdi. Daktilologiyani va yozma nutqning o'zaro munosabati juda murakkabdir. S.A.Zikov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda, bu muammo tadqiq etilgan. Eshituvchi bola savodga o'rgatishning boshlang'ich etapida nutqni akustik va harakat obrazlariga tayanadi. Bolani so'zli yozishidan avval uni ichida yoki ovoz chiqarib o'qishini ko'rish mumkin. Kar bola og'zaki nutqqa ega bo'lganligi uchun savodga o'rgatish davrida daktilologiyaga tayanadi. So'ng bu

jarayon bir vaqtda amalga oshadi, bola ham yozadi va daktillaydi. So‘zlashuv nutqini egallash darajasiga ko‘ra daktil kinesteziyalari asta-sekin siqilib, artikulyator kinesteziyalar bilan almashinadi. U ham bola singari so‘zni talaffuz etib, so‘ng yozadi. Chunonchi, og‘zaki nutkni mustaqil qo‘llashga o‘rgatish ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo‘l, butun o‘kuv tarbiyaviy jarayon davomida o‘qituvchi nutqini eshitish va eshituv – ko‘rish asosida idrok etish bilan amalga oshadi. Bu xolatda talaffuz malakalarini shakllantirish maxsus o‘qitishlarsiz informal tarzda amalga oshiriladi. Talaffuzga o‘rgatish informal yo‘li – nutq xarakat organlarini faollashtirishga xizmat qiladi, ba‘zi talaffuz malakalarini egallashga zamin yaratadi. O‘qituvchi o‘z diqqatini nafaqat bolaning nutq tovushlari talaffuziga emas, balki ovozigacha, bolalar nafasiga, nutkning bog‘liqligiga qaratadi. Ushbu ishda katta yordamni ovoz kuchaytirgich apparatlari ko‘rsatadi, ular o‘kuvchilarga o‘kituvchi nutkni kabul qilish imkonini beradi. O‘kituvchi bilan birga yoki uning ortidan barcha materialni ko‘rish, eshitish orkali kabul kilib bolalarni gapirishga doimiy undash nafakat ularning nutqiy apparatini faollashtiradi, balki ularda ogzaki nutkni ko‘llashning doimiy malakasini tarbiyalaydi.

Biroq nutqning talaffuz tamoyilini shakllantirish uchun birgina informal yo‘lning o‘zi kifoya emas. Ikkinchi yo‘l ham darkor – talaffuz malakalarini maxsus, rejali shakllantirish. Ushbu ish og‘zaki nutq darslarida, yakka mashg‘ulotlarda, fonetik mashqlar davomida amalga oshiriladi va o‘z ichiga tovushlarni, so‘z iboralarni ishlab chiqishni normal ovoz va to‘g‘ri nutqiy nafasni ishlab chiqishni qamrab oladi. Talaffuzni shakllantirish nutqni ifodalashning aniqligini rivojlantirishda katta o‘rni musiqiy – ritmik mashg‘ulotlarga ajratiladi.

Eshitish buzilganda nutqning rivojlanish darajasi bir xil bo‘lmaydi va quyidagi omillarga bog‘liqdir: eshitishning buzilganlik darajasi; eshitish analizatori nuqsonining yuzaga kelish vaqti; eshitish analizatori faoliyati buzilganidan keyin bolaning qanday pedagogik sharoitlarda bo‘lgani; bolaning individual xususiyatlari. Sanab o‘tilgan omillarning har biri bolalar nutqini baholashda katta ahamiyatga ega. Eshitishning pasayish darajasi va nutqning rivojlanishi bevosita bog‘liqdir. Bolaning eshitishi qanchalik pasaygan bo‘lsa, nutq shuncha ko‘p zarar ko‘radi. Eshitish pasayish darajasi sezilarli bo‘lmasa, nutqdagi buzilishlar yorqin ifodalanmaydi. Eshitish pasayishining yuqori darajasida bola maxsus ta‘limning boshlanishigacha soqov bo‘lib qolaveradi. Eshitish pasayishining o‘rta darajasida nutqning fonetik, leksik, grammatik tomonida buzilishlar kuzatiladi. Eshitish bola hayotining turli bosqichlarida buzilishi mumkin. Nuqsonning ikkilamchi ko‘rinishlari mavjud yoki mavjud emasligi vaqt omili bilan bog‘liq. Nuqson qancha erta yuzaga kelsa, u nutqiy funksiyaning shakllanganligiga shuncha ko‘p ta‘sir o‘tkazadi. Ikki yoshgacha bo‘lgan, nutq shakllanmagan davrda kar bo‘lib qolish nutqning mavjud bo‘lmasligiga olib keladi. 3-3,5 yoshgacha davrda eshitishning yo‘qotilishi shakllangan nutqning yo‘qotilishiga olib keladi. 4-5 yoshda eshitish to‘lig‘icha yo‘qotilsa, maxsus ta‘lim o‘z vaqtida boshlanmasa, nutq deyarli to‘liq boy beriladi. 6-7 yoshda eshitishni yo‘qotish bola nutqining keskin buzilishiga olib keladi, maxsus pedagogik yordamsiz esa bolaning nutqi asta-sekinlik bilan yomonlashib boraveradi.

Bola 7 yoshdan keyin eshitmay qolsa, savol egallash ko'nikmalari bo'lsa, nutq saqlab qolinishi mumkin, buning uchun tizimli korreksion ish olib borish talab qilinadi.

Eshitish qisman boy berilganda bolalarda vaqt omili shuningdek muhim sanaladi – u nutqning rivojlanish darajasini belgilaydi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda eshitishning sezilarsiz pasayishi nutqning kechikishi yoki yetarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. 3 yoshdan keyin eshitishning pasayishi nutqiy rivojlanishda u qadar jiddiy nuqsonlarni keltirib chiqarmaydi. Eshitishning pasayishi oqibatlarini bartaraf qilishga qaratilgan ham tibbiy, ham pedagogik chora-tadbirlar qanchalik erta ko'rilsa, bola shuncha muvaffaqiyatli rivojlanadi. Oilada nutqiy muhitning shakllantirilishi, eshitishni erta protezlash, nutqiy idrok va nutqni rivojlantirish bo'yicha maxsus ishlarni tashkil etish bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishini belgilaydi.

Individual xususiyatlar ham nutqning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Nutq egallash jarayonida bola shaxsining faolligi, tafakkur jarayonlarining harakatchanligi katta rol o'ynaydi. Barqaror ko'rish diqqati va xotira nutqiy nuqsonni kompensatsiyalash va nutqni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish maxsus o'qitish sharoitida qoldiqli analizatorlardan foydalanishga asoslanadi. Ko'rib va eshitib idrok idrok etish, kinestetik sezgi, taktik vibratsiyali sezgirlik faol jalb qilinadi. Surdopedagog kar bolaga nutqiy apparat harakatlarini egallash, eshitib idrok etishni rivojlantirishda (ovoz kuchaytirish apparaturasidan majburiy foydalanish bilan) ko'maklashadi.

Zaif eshituvchi bolalarning nutqini rivojlantirish tabiiy yoritish sharoitida qoldiqli eshitish asosida amalga oshiriladi. Xatto og'zaki nutqni idrok etish to'liqsiz bo'lsa-da, bola og'zaki nutqni mustaqil, biroq turli buzilishlari bilan, egallashga qodir. Intensiv rivojlanish va eshitishdan foydalanish uchun sharoit yaratilganida nutqning grammatik qurilishini mustaqil o'rganish imkoniyati tezkorlik bilan ortadi.

Keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalar shakllangan, rivojlangan nutqqa ega. Ularda nutq saqlanganligining turli darajasini kuzatish mumkin. Eshitish yo'qotilguniga qadar keyin kar bo'lib qolgan bolada nutqning rivojlanishi va lisoniy tafakkurning shakllanishi eshitish asosida tabiiy nutqiy muloqot sharoitida kechadi. Keyinchalik kar bo'lib qolganlarning ko'pchiligi og'ir darajadagi eshitish nuqsoniga ega. Korreksion ta'limda nutqni ko'rish yoki ko'rish-eshitish asosida (ovoz kuchaytirish apparaturasi yordamida) idrok etishni shakllantirish vazifasi birinchi planga qo'yiladi. Keyin kar bo'lib qolgan bolalar og'zaki nutqni ko'rib idrok etish ko'nikmalarini nutqni egallash vaziyatining o'zidan keyin egallashlari lozim. Shu bilan ular eshitishida nuqsoni bo'lgan boshqa bolalardan farq qiladi.

Nutqiy rivojlanish bolaning shaxs sifatida rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eshitishning pasayishi ijtimoiy muloqotning cheklanishini belgilaydi. Bu cheklanish bola psixikasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bilish faoliyatining barcha sohalari defitsitga uchraydi (qiyinlashadi). Nutq, idrok, xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur zarar ko'radi.

Hayotining dastlabki 2-3 oyida kar va eshitadigan bola o'rtasidagi tafovut deyarli ko'zga tashlanmaydi (YE.F.Rau, F.F.Rau). kar bolaning baqirig'i va g'o'ldirashi eshitadigan bolanikidan u qadar farq qilmaydi. Kar bolalarda g'o'ldirash

paydo bo'ladi, ammo o'z talaffuzini nazorat qilish imkoni yo'qligi sababli u asta-sekin yo'qolib boradi.

Maktabgacha yoshda kar bolalarda ta'lim olib borilmasa, nutq shakllanmaydi. Turli ovoz reaksiyalari, tovush birikmalari, g'o'ldirash kuzatiladi. Ta'limsiz ovoz reaksiyalari soni kamayib boradi, ular tobora bir xillashib boradi, 5-6 yoshga kelib butkul yo'qoladi. Ba'zan katta maktabgacha yoshdagi, nutqqa o'rgatilmagan, bolalar o'zining nutqiy muammolarini anglab yetadi, kishilar bilan muloqotga kirishni unchalik istamaydi, kattalar va eshitadigan bolalar bilan aloqadar o'zini olib qochadi. Muloqotning nolisoniy vositalari miqdori bola kattalashgani sari kengayib boradi. Tabiiy imo-ishoralar ko'payadi, bolalar bularni kattalardan nusxa oladi yoki o'zi o'ylab topadi. Ularning emotsional holatini tavsiflovchi bir xildagi qarashlar rivojlanadi.

To'rt yoshdan keyin kar va og'ir darajali zaif eshituvchi bolalar nutqida tafovutlar yanada sezilarli bo'ladi. Zaif eshituvchi bolalarda xatto maxsus o'qitishsiz ham talaffuz qilinadigan so'zlar miqdori ortib boradi. Ayrim bolalar «Oyi, te (Oyi, keling), oyi be (Oyi, bering)» tipidagi qisqa, agrammatik jummalarni o'zlashtiradi.

Nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlarni olib borishning asosiy shartlaridan biri eshitish-nutqiy muhitni yaratish sanaladi. U bola bilan eshitish apparatlaridan foydalanib, doimiy nutqiy muloqot qilishni ko'zda tutadi. Go'dak yoshidagi bolalarning nutqini rivojlantirish ishlari kattalarning yuzi, nutqi, predmetlarga ko'rish va eshitishni jamlashga qaratiladi. Bu ish bola bilan kun davomidagi muloqot jarayonida, shuningdek, tizimli maxsus mashg'ulotlarda uzoq muddat olib boriladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar hayotining 2-3-yilida nutqiy rivojlanish nisbatan yuqori sur'atga ega bo'ladi. Turli predmet, hodisalarni bilgani tufayli bolada ularning nomlari lug'ati, predmetlar bilan harakatlar shakllanadi. Tuzilishiga ko'ra sodda jummalardan doimiy foydalanish ularning ayrimlari, tobora ko'p takrorlanadigani tushunarli bo'lishiga olib keladi. Bolani fe'llarning ma'nosini tushunishga o'rgatish muhim, zero bu jummalarni tushunish va qo'llash uchun zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ilk yosh davrida boshlangan ishlar davom ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan oilada olib boriladigan ishlarni tashkil qilish va ularning mazmuniga talablar ilk yoshdagi bolalar bilan ishlarga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Biroq turli yo'nalishlardagi ishlar mazmuni kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Turli xil ishlarni o'z ichiga oladigan mashg'ulotlar har kuni olib boriladi. Bola bilan ishlar davomida eshitish apparatidan foydalaniladi.

Bolaning har tomonlama barkamol rivojlanishi jismoniy, mehnat tarbiyasi, atrof olam bilan tanishtirish, o'yin faoliyati, tasviriy faoliyatni rivojlantirish, nutqni rivojlantirish ishlari, boshlang'ich matematik tasavvurlarni shakllantirish, shuningdek o'qishni o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bola maktabga qabul qilinganda nutqni, idrokni, xotirani va umuman, tafakkurni rivojlantirish ishlari davom ettiriladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning potensial imkoniyatlari favqulodda keng. Tibbiyot bu kabi bolalarning eshitish qobiliyatini qaytarishga qodir emas. Biroq eshitishda nuqsoni bo'lgan

bolalar umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi bo'yicha eshitadigan tengdoshlariga yaqin kela oladi.

Agar bolalar rivojlanishda qo'shimcha nuqsonlarga ega bo'lmasa, adekvat va maqsadli korreksion ishlar esa bola hayotining dastlabki oylaridan boshlansa, 3-6 yoshiga kelib, umumiy va nutqiy rivojlanish darajasini yosh normalariga yaqinlashtirish mumkin (xatto og'ir darajadagi zaif eshitish holatida ham). Bunday bolalar keng jumlati (frazali) nutqqa ega, bolalar kabi kattalar bilan ham erkin muloqot qiladi, ko'rganlari va hayotidagi ayrim voqayealar haqida hikoya qila oladi, ularga qaratilgan nutqni yaxshi tushunadi (ko'rib-eshitib idrok etadi), she'rni yoddan aytib va xatto qo'shiq xirgoyi qilib bera oladi. Ularning o'z nutqi jarangi odatda eshitadigan bolalar nutqidan u qadar farq qilmaydi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish apparatlaridan foydalanadi. Keyinchalik ya'ni hayot davomida kar bo'lib qolgan bolalar (4-5 yoshida eshitmay qolgan va bungacha nutqi saqlangan bolalar) ishlar o'z vaqtida boshlangan va maqsadli olib borilgan sharoitda shunday yuqori natijalarga erishishi mumkin. Mavjud nutqiy ko'nikmalarni saqlab qolish va ulrani takomillashtirishga, shuningdek. Qisqa muddatlarda og'zaki kommunikatsiyani boshqa sensor (ko'rish-eshitish, ko'rish, ko'rish-vibrotaktil) asosda tiklashga erishilsa, keyin kar bo'lib qolgan maktabgacha yoshdagi bola xatto eshitish qobiliyatini yo'qotguniga qadar tarbiyalangan muassasasida qoldirilishi va ommaviy maktab sharoitida og'zaki o'qitishga tayyorlanishi; keyin kar bo'lib qolgan maktab o'quvchisi esa kasallikkacha o'zi o'qigan sinfda ta'dimni davom ettirishi mumkin.

O'qitish kech boshlangan kech kar bo'lib qolgan bolalar 2-3 yoshga kelib qator ijobiy omillar o'rin tutgani holda umumiy va nutqiy rivojlanishda yuqori darajaga erisha oladi. Bunday omillarga bolaning o'zining yuksak potensial imkoniyatlari, uning shaxsiy xususiyatlari (kommunikabelligi, faolligi, jismoniy chidamliligi, ishchanlik qobiliyati), shuningdek sistemali, intensiv, adekvat o'qitishni kiritish mumkin. Mashg'ulotlar yakka tartibda, kichik guruhlarda (6-8 bola), qo'shimcha yordam ko'rsatilgan holda (nutqiy ritmika va sh.k.), oilaning bola ta'limi va tarbiyasida faol ishtiroki sharoitida olib boriladi.

Vatanimiz surdopedagogikasiga eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishning mumkinligi masalasida optimistik qarashlar xos. Vatanimiz psixologiyasida mavjud, individ psixikasi rivojlanishini uning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro hamkorligi sifatida tushunish bilan bog'liq qoidalar muvofiq, surdopedagogika bola nuqsonining oqibatlarini muvaffaqiyatli bartaraf qilish va uni har tomonlama rivojlantirish uchun maqbul ijtimoiy, jumladan maxsus amaliy shart-sharoitlarning hal qiluvchi roli haqidagi qoidani ilgari suradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilingan majburiy umumiy ta'lim sharoitida karlar uchun maktab unda ta'lim olayotgan bolalarning turli toifalari uchun mumkin bo'lgan ta'lim darajalarini differensiatsiyalashni ta'minlashi, ishning ustivor yo'nalishlarini, eshitmaydiganlar uchun ta'limning yangi vazifalarini belgilab berishi zarur.

Maxsus (korreksion) maktab bolalarni bilimlarning tayanch darajasi bilan quollantirish bilan birga bitiruvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi, ularning mehnat faoliyatiga kirishishi va munosib hayot darajasini ta'minlash; ularda turli sharoitlarda,

stress vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, kerakli axborotni olish va o'z bilim hamda ko'nikmalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirilgan. Bu vazifalarni maktabda o'qiyotgan bolalarning turli guruhlari xususiyatlarini hisobga olgan holda hal qilish nazariya, amaliyot va eyesperimental ta'limning o'zaro birligini talab qiladi.

Fan, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini qayta qurishni, e'tiborni bolalarning rivojlanishi, ularning o'qishga, bilimlarni to'ldirib borishga bo'lgan istagida jamlash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Kar va zaif eshituvchi bolalar muammolarini tadqiq qilgan ko'p sonli mutaxassislar ta'kidlaydiki, bolalarning ko'pchiligi ham jismoniy, maxsus mashg'ulotlar olib borilmagan holda esa ham intellektual rivojlanishda orqada qoladi. Bu holat korreksion mashg'ulotlarni maktabgacha yosh davridayoq boshlash zaruratini belgilaydi. Jismoniy orqada qolish borasida, N.A.Rau fikricha, kar va zaif eshituvchi bolalarda yurishning mustahkam emasligi, oyoqlarini sudrab bosishi, harakatlarning qo'polliigi kuzatiladi. Vestibulyar apparatning buzilganligi ko'pincha muvozanatning beqarorligi va yo'qolishiga olib keladi. Karlik va zaif eshituvchilik nutqning shakllanmaganligiga sabab bo'ladi, bu o'z navbatida bilish faoliyati va lisoniy-mantiqiy tafakkurning tormozlanishiga olib keladi. Aynan shuning uchun pedagoglar maktabgacha yoshdagi kar va zaif eshituvchi bolalar tarbiyasiga katta e'tibor qaratadi. Korreksion ishlar qanchalik erta boshlansa, ularning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha psixik jarayonlar, jumladan, tafakkur, xotira, idrok va sh.k. larning kuchli rivojlanishi kuzatiladi. Nuqsoni tufayli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z tengdoshlaridan ortda qoladi, shuning uchun ham bu hollarda maqsadli tizimli tarbiya-ta'lim talab etiladi.

Kundalik hayotda jonli ishtirok etadigan, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilgan bola faol rivojlanadi. Uning nutqi shakllanadi, atrof olam haqidagi tasavvurlari yuzaga keladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar ularning yoshiga mos bilim va ko'nikmalarni egallashi, maktabga tayyorlanishida ko'maklashadi, intellektual faoliyatini rivojlantiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar muammolari bilan ko'plab tadqiqotchi-pedagoglar shug'ullanishgan. N.A.Rau, B.D.Korsunskaya, A.A.Katayeva, N.G.Morozova, T.I.Obuxova ishlariga asoslanib aytish ma'lum xulosalar qilish mumkin bo'ladi. Bunday bolalarga Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida maxsus ta'lim va tarbiya talab etiladi, garchi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari sog'lom bolalarniki bilan umuman mos keladi. Kar va zaif eshituvchi bolalar qator xususiyatlarga ega. Ularda:

- ko'rib idrok etish borasida yetarlicha rivojlanmaganlik, jumladan, predmetlarni idrok etish tanib olish tezligi past ekani;
- taqlidning sekin shakllanishi, shuningdek namunaga qarab tanlashda qiyinchiliklar;
- nutqning yo'qligi va nutqqacha muloqotning kamligi kuzatiladi.

Bu bilish faoliyati va lisoniy-mantiqiy tafakkurning rivojlanishidagi kechikishga olib keladi. Aynan shuning uchun zaif eshituvchi bolalarning aqliy rivojlanishiga katta e'tibor qaratish talab etiladi.

Maxsus mashg'ulotlarda bolalar atrof olamdagi predmet va hodisalar, predmetlarning tuzilishi va ularning vazifalari qida tasavvurlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, inson va hayvonlarning hayotiy faoliyati haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi. Mashg'ulotlar ko'rgazmalilik, tabiiy narsalardan keng foydalangan holda olib boriladi. Ekskursiyalar, kino va videofilmlar namoyishi uyushtiriladi. Parallel ravishda nutq o'stirish bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi, ularda maktabgacha yoshdagi bolalar turli predmetlar bilan manipulyatsiya jarayonida egallagan lug'atini mustahkamlaydi.

Ma'lumki, atrof olamni bilish asosida hissiyot va idrok yotadi. Ko'rish, his qilish, eshitish, kinesteziya, hid bilish, ta'm bilish bolalarga atrofda voqelikning ma'lum manzarasini tuzish imkonini beradi. Boshqa tomondan, idrok va hislar kabi psixik jarayonlarning rivojlanishi bolaning intellektual rivojlanishiga ham olib keladi.

Birinchi mashg'ulotlardayoq eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sensorikani rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajaradi. Buning uchun turli ko'rgazmali qurollar: yorqin o'yinchoqlar, tabiiy buyumlardan foydalaniladi. Bolalar predmetlarni qarab chiqish, predmetlarning u yoki bu xossalarini aniqlash, predmetlarni o'zaro qiyoslashga o'rganadi. Samaradorlikni oshirish uchun bola o'rganilayotgan narsani o'z qo'lida tutib ko'rish, aylanma harakatlar bilan uni ko'rsatishi kerak. Ayni paytda yangi so'z jadval bo'yicha qayta yaratiladi.

Mayda motorikani rivojlantirish bolalarning o'qituvchining qo'l harakatlariga taqlidi jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, predmetlar bilan manipulyatsiyalash oldidan bola: yuvinish, kir yuvish, mix qoqish va sh.k. harakatlarni imitatsiyalaydi. Natijada harakatlar murakkablashadi. Bola bilan daktil alifbo belgilari o'rganiladi. Taqlid qilish malakasi bolalarda ma'lum ma'lum o'yinlar: ko'zgu, mozaika, namuna asosida tayoqchalardan naqsh tuzish yordamida shakllantiriladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sensor tarbiyasiga, ayniqsa eshitish idrokini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Nutq va nolisoniy tovushlarni farqlashga mashqlar bajariladi. Mashg'ulotlar jarayonida bolada tovushlar olami haqida ma'lum tasavvurlar shakllanadi, bu og'zaki nutq sifatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ayniqsa lug'aviy nutqni erta o'rganish juda muhim. Normal eshitadigan bolada nutqni egallash uchun sensitiv davr uch yoshgacha bo'lsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolada shu nuqson tufayli orqad qolish kuzatiladi. Nutqning shakllanmaganligi intellektual rivojlanishning kechikishiga olib keladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabgacha o'qitish normal eshitadigan bolalar bilan ortib boradigan tafovutlarni bartaraf qilish imkonini beradi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola nutqni egallashi uchun zaruriy shart bolalar muassasasida nutqiy muhitning yaratilganligidir. Bola o'zlashtirishi zarur bo'lgan nutqiy material o'xshash vaziyatlarda kattalar nutqida doimiy qo'llanishi, natijada, bolalar tomonidan takrorlanishi lozim.

Nutqning rivojlanishi nafaqat mashg'ulotlarda, balki maishiy turmush sharoitida, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot jarayonida, shuningdek amaliy faoliyat davomida amalga oshadi. Kichkintoylar nutqiy muhitga har bevosita bir bolaga yakka tartibda murojaat qilish bilan kiritiladi. So'zlarning minimal to'plami nashr qilingan jadvallar va kartochkalar ko'rinishida beriladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy materialni eshitib-ko'rib idrok etadi. Ta'limning ikkinchi yilida bola jadvalda keltirilgan so'z va jumalarni pedagog yordamida og'zaki-daktill gapirishi amalga oshiriladi. Muloqot jarayonida bolalar nutqning daktill shaklidan faol foydalana boshlaydi.

Bola yo'l qo'yadigan og'zaki nutqdagi xatoliklar kattalar tomonidan, albatta daktill nutq yordamida to'g'rilab boriladi. Bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga o'z nutqini tahlil qilishda yordam beradi.

Bolaning og'zaki nutqni egallashi asosida taqlid yotadi. Kattalar ortidan Ayni bir materialni turli vaziyatlarda ko'p marta takrorlab, bolalar uni eslab qoladi. Astasekinlik bilan ko'p qo'llanadigan so'zlar bolaning faol lug'ati tarkibiga qo'shib boradi. Bundan tashqari, bolalarda zaruriy nutqiy materialni ovoz chiqarib gapirish ko'nikmasi yuzaga keladi, nutqiy tafakkur rivojlanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda og'zaki nutq syujetli-rolli o'yinlar davomida tobora samarali shakllanadi. Shu maqsadda nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga tanish ertaklar sahnalashtiriladi, syujetli-rolli o'yinlar o'ynaladi, bunda bolalar o'z roliga muvofiq tarzda bir-biri bilan hamkorlik qiladi va muloqotga kirishadi. Bunda so'zning tabiiy sur'ati, ritmik strukturasi, intonatsiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Aynan shuning uchun pedagog va tarbiyachilar nutqi ham tabiiy, odatiy sur'at va intonatsiyaga ega bo'lishi lozim. Katta yoshdagi ayrim kishilar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan har bir bo'g'inni sekin aytib gaplashashga urinadi. Natijada, bola muloqotning shu kabi uslubini o'zlashtiradi. Ularning nutqi g'ayritabiiy va atrofdagilar uchun tushunarsiz bo'lib qoladi.

Mashg'ulotlarda nutq o'stirish ishlari uchta yo'nalishda olib boriladi:

- mavzular bo'yicha taqsimlangan nutqiy materialni o'zlashtirish va mustahkamlash;

- nutqiy faoliyat turlarini (og'zaki nutq, o'qish, yozish, eshitib-ko'rib idrok qilish, daktillash, tingalsh) shakllantiriladi;

- so'z ma'nolarini bilish uchun tilga oid maxsus kuzatuvlar, so'zning tovush-harf tahlili, so'zning butun gap strukturasi grammatik shakllari ustida ishlash.

Og'zaki nutq darslarining mazmuni nafaqat talaffuz ustidagi ishlarni, balki ushbu nutq shaklidan muloqotda foydalanishga o'rgatishni nazarda tutadi. O'qitish materiali og'zaki nutq dasturiga ko'ra ajratilgan va Rau, Slezinalar tomonidan ishlab chiqilgan talaffuzni o'rgatishni ishlab chiqishning ma'lum izchilligini hisobga oladi.

Og'zaki nutq darslarida so'zning tovush tarkibi ustida ish olib boriladi. Shuning o'zida (yerda) so'zning ma'nosi yoritiladi, bolalar uni talaffuz qilishni, muloqotda qo'llashni o'rganishadi. Talaffuz ustidagi ish uning ma'nosini yoritib berilgandan so'ngina boshlanadi. Shu maqsadda og'zaki nutq darslarida daktill nutqiga o'rgatish metodik usullarida qo'llaniladi. Bu sharoitlarda kerakli so'z qo'llanilishi shart.

Aniq (konkret) ahamiyatga ega soʻzlar maʼnosini (F.F.Rau va boshqalar) darsligida keng yoritilgan turli ish turlarini qoʻllash yoʻli bilan ochiladi. Predmetning rasmini koʻrsatish, rasmni nomlash, soʻzning grafik elementlariga koʻra soʻzni ogʻzaki shaklda ifoda etish (xarf, boʻgʻin, soʻzlarni oʻqish, harakatga koʻra soʻzni ifodalash). Soʻzni berish uslubiyati (metodikasi) quyidagicha:

Oʻqituvchi predmtni (rasmni) koʻrsatadi, uni ogʻzaki daktilda nomlaydi, bolalarni birgalikda talaffuz etishga undaydi. Bolalar uni eshituv – koʻruv orqali idrok etadilar, ogʻzaki – daktilda ifodalaydilar. Soʻng har bir oʻquvchiga soʻzni mikrafon orqali talaffuz etish imkoni beriladi va oʻqituvchi ishlab chiqilayotgan tovushning talaffuzini baholaydi. Bolalar tovush tarkibini oʻzlashtirib olganlaridan soʻng ular soʻzni daktillashsiz talaffuz etadilar. Talaffuz malakalari yakka mashgʻulotlarda mustahkamlanadi. Shunday qilib, tovush talaffuzi ustidagi ishning boshlangʻich materiali uchun butun soʻz xizmat qiladi. U avval butunligicha, soʻng qismlarga boʻlib talaffuz qilinadi. Oʻqituvchi bolalar diqqatini fonemalarni boʻgʻinlarda va yakka talaffuz etishga qaratadi. Bunday analizdan soʻng soʻzni sintez qismi ustida ish boshlanadi, yaʼni fonemalarni boʻgʻinlarga, boʻgʻinlarni soʻzlarga bogʻlash. Talaffuz ustida ishlashning bunday yoʻli talaffuzga oʻrgatish analitikosintitik metodiga mos tushadi.

Ogʻzaki ekspressiv nutqqa oʻrgatish qisqartirilgan fonemalar tizimida qabul qilingan tovushlarni qoʻyish tartibiga koʻra tanlangan materialda olib boriladi. Talaffuzga oʻrgatishning konsentrik metodi qisqartirilgan fonemalar tizimini qoʻllashga asoslanadi. Talaffuzning barcha bilimlari boʻyicha talabalarning ortib borish izchilligini nazarda tutadi. Boshlangʻich (ilk) oʻqitish ikki konsentrdan iborat, ularning birinchisi tayyorlov sinfi bilan mos tushadi, ikkinchisi birinchi va ikkinchi sinflarni qamrab oladi. Tayyorlov sinfida oʻquvchilar asosiy 17 fonemaning aniq talaffuzini egallaydilar: “a”, “o”, “u”, “e”, “u”, “p”, “t”, “k”, “f”, “”, “s”, “sh”, “x”, “v”, “m”, “n”, “l”, “r” – va ikki jarangli tovushlarni: “b”, “z”. Ushbu tovushlardan tuzilgan soʻzlarni artikulyatsiya boʻyicha yaqinlarning oʻrindoshi hisoblanadi, maslan, “s”, - “z”, - “z”. Tovush ustidagi ish izchilligi dasturda keltirilgan, darslik betlarida oʻz ifodasini topgan. Tayyorlov sinfini 4 – choragiga kelib kar oʻquvchilar asosiy tovushlar talaffuzini egallashadi. Ogʻzaki nutq darslarini bu davrdagi materiali boʻlib daktil nutqida egallangan ibora, soʻzlar hisoblanadi. Bu esa 4 – chorakka kelib darslarning nutqiy mazmuni ancha kengayishini anglatadi va bu bolalarga ogʻzaki nutqni muloqot quroli sifatida oʻqitish ishlarini ancha jadal kechishi imkonini beradi. Bu davrda oʻqituvchi talaffuzni ikki turlanishlari ifodalovchi bolalar nutqini sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak. Birinchisi – 17 asosiy tovushlarni soʻzlardaniq talaffuz etish (ogʻzaki va daktil nutqi dasturidagi soʻzlar), ikkinchisi – qisqartirilgan fonemalar tizimiga koʻra asosiylari bilan almashtiriladigan tovushlarni oʻz ichiga oluvchi soʻzlarni talaffuz etish. 4- chorakka qadar bolalar nutqida talaffuzning uchinchi turi ham mavjud boʻladi. Hali egallanmagan asosiy fonemalar va tovushlar imkon darajasida talaffuz etiladi. Bu holatda kerakli tovush oʻrnida oʻquvchilar faqat artikulyatsiya elementini berishadi. yoki tovushni butkul tushurib qoldirishadi, qisqartirilgan fonemalar tizimida keltirilmagan tovush bilan almashtiriladi.

Shunday qilib, og‘zaki nutqning talaffuz malakalarini shakllantirish o‘zaro bog‘langan ikki yo‘l orqali amalga oshiriladi. Birinchisi – informal (maxsus o‘qitishsiz) – butun o‘quv tarbiyaviy jarayon mobaynida o‘z o‘rniga ega va barcha darslarning nutqiy materialida amalga oshiriladi. Ikkinchi yo‘l fonetik tamoyilga ko‘ra tanlangan materialda talaffuz malakalarini ravon ishlab chiqishni nazarda tutadi va yakka mashg‘ulotlarga o‘tkazish bilan ogzaki nutk darslarida amalga oshiriladi. Tovushlarni ro‘yishda bolalarning barcha saqlangan analizatorlari mavjud eshituv qoldig‘idan foydalaniladi.

Demak, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini muloqot quroli sifatida shakllantirishda maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli ish olib borish maqsadga muvofiq

Bolada og‘zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og‘zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarga eshituvchilar tovushlarni to‘g‘ri talaffuzini egallaydilar. Lug‘at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola bu yo‘l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituchi bola bog‘chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa maktabgacha yoshdagi kar bola og‘zaki nutqi mavjud bo‘lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, maktabgacha yoshdagi kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari egadir. U bo‘lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo‘la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida maktabgacha yoshdagi kar bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko‘p miqdordagi maktabgacha yoshdagi karlarda ovoz bo‘g‘iq, modullashmagan bo‘ladi. Maxsus mashqlar jarayonida tarbiyalovchi kar bolani ovozini eshituvchi bola ovoziga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola nutqi ovoziga butun xayoti davomida o‘ziga xos otsenkaga ega bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarni og‘zaki nutqqa o‘rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. O‘zbek tilidagi har bir fonema maktabgacha yoshdagi kar bolada maxsus usullar bilan qo‘shiladi. Saqlangan analizatorlar ko‘ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo‘llab, tarbiyachi oldi tovush talafuzini ko‘rsatadi va taqlid asosida talaffuz etiluvchi tovushlar “p”, “b”, “m” qo‘shiladi, so‘ng bo‘g‘in, so‘z birikmalariga o‘tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o‘tiladi.

Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig‘iga tayaniladi. Maktabgacha yoshdagi kar bolada og‘zaki nutqni shakllantirishda ko‘ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordami bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o‘z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so‘ng to‘g‘irlaydi. Maktabgacha yoshdagi kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so‘ng ko‘ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo‘lish kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo‘ladi. Bu sezgi turi maktabgacha yoshdagi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o‘rin hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi kar bolaning og‘zaki nutqini shakllantirishda eshitish qoldig‘i ham katta ahamiyat kasb etadi.

Chunonchi, maktabgacha yoshdagi kar bolalar pedagogik ta'limi ularda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosida tashkil etiladi. Agar oldin nutqiy ta'limotdan amaliyotga o'tsa, so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotni shakllantirishga o'qitiladi, lekin bu amaliyot grammatik jihatdan tashkil etilgan. Qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida og'zaki nutqqa o'rgatishda tezroq maqsadga erishish uchun talaffuzni yengil bo'lgan, hosil bo'lish o'rniga ko'ra o'xshash fonemalar o'zaro almashtirib o'rgatiladi. Bu lug'at boyligi oshirish so'zlarni muloqotga kiritish, maktabgacha yoshdagi kar bola nutqiy amaliyoti imkonini oshiradi. Bunday psixologik yondashuv maktabgacha yoshdagi kar bolalarni tilga o'qitishning boshlang'ich etapida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash holat eshituchi bolani nutqiy rivojlanishida ham kuzatiladi. Eshituvchi bola 2-5 yoshlar o'rtasida ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bu bosqich bolaning nutqiy apparati to'liq shakllanmaganligi va hosil bo'lishiga ko'ra murakkab bo'lgan tovushlar talaffuziga tayyor emasligi bilan almashtiradi, tushirib qoldiradi. Bunda so'zning tovush tarkibi o'zgarsa ham u o'zining mazmunini o'zgartirmaydi. Vaqt o'tishi bilan bu xatolik o'z – o'zidan yo'qolib ketadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Lekin u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur quroli sifatida namoyon bo'ladi. U o'zini birinchi vazifasini bajara olmashi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So'zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Ayrim mimik belgilar so'z kabi muloqot elementiga egadir. So'z qat'iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat'iy bo'lmaydi. Ko'p tushunchalar kar shaxslar o'rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning harakteri ta'lim jarayonida so'zlashuv nutqi vositasida o'zgarishi mumkin. So'z tarkibida tovush kompleksi va ma'nosi bo'yicha mustahkamlash aloqasi mavjud bo'lib, uni ixtiyoriy buzib bo'lmaydi. So'zning tovush tarkibi bo'zilsa, u o'zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma'nosi bilan umumiy bog'liqqa ega emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol nomayon bo'ladi. Ko'p olimlar mimik belgilarini tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M.Boskil, L.V.Zankov, G.L. Zayseva, N.F.Slezina). Ularning ilmiy ishi natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari:

a. ko'rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko'z, stol, shkaf, u);

b. predmet konturi yoki uning harakterli xususiyatlari ko'rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, g'oz, ona);

v. to'liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi harakterlar.

2. Sezgilariga asoslangan belgilar.

3. Xid sezgilariga asoslangan belgilar.
4. Teri sezgilariga asoslangan belgilar.
5. Xid sezgilariga asoslangan belgilar.
6. Moza ta'lim sezgilariga asoslangan belgilar.
7. Organik sezgilarga asoslangan belgilar.
8. Ematsional sezgilarga asoslangan belgilar.
9. Mimiko-daktil sezgilar
10. Tabiiy sezgilar
11. Shartli sezgilar
12. Sonni ifodalovchi sezgilar
13. O'tkazuvchan mimik sezgilar

Mimik belgilar tarkibi qat'iy va bir turga ega bo'lmaydi. Karlar Yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so'z paydo bo'lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, bomba). Ayrim mimik belgilar bir tomondan konkret va ko'rgazmaliligi, ikki tomondan diffuzligi va differensiallashmaganligi bilan karakterlanadi. Shuning uchun, uy belgisi ko'p qavatli uy, hovli joy ma'nosidagi ishlatilishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko'p uchraydi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim tizimida so'zlashuv nutqi o'zgarib boradi va mimik belgilar yanada differensiyalanib boradi. Avval kar bola turli turdosh qurilishlarni uy belgisi bilan markali mashinalarni belgisi bilan ifodalanmasa, so'zlashuv nutqi yordamida yangi differensiallashgan belgilarni qo'llay boshlandi. Har qaysi mimik belgi qoidadir, obyektiv realligi ifodalasa ham, har shakllarni turli jamoalarida turlicha ma'noda kelish mumkin. Bu avvalo ko'rsatish, plastik va imititatsyalovchi belgilarga xosdir. Mimik belgida emotsional belgi so'zga nisbatan yorqli ifodalanadi. Mimikada predmet xodisani belgilanish va unga munosabat bir vaqtda ifodalanadi. Nutqning ikki tomonni uning grammatik tomonida yordamida tilning ovoz qismi ma'noli karakter kasb etadi. Mimik imo-ishora nutqi o'zining grammatik tuzilishiga egami? Imo-ishora nutqi grammatik tuzilishga ega bo'lmagan, agrammotik nutqdir. Lekin bu ushbu nutq turixatolik degan ma'noni bildirmaydi. Imo-ishora nutqida ham gap tuzilishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Nutqda har bir so'z ma'lum grammatik shaklga egadir, u gapda boshqa so'zlar bilan muloqotga kirishishi bilan grammatik shakli o'zgaradi. Mimik belgisini shakli esa o'zgaruvchan bo'lmaydi, u gapda boshqa ishoralar bilan kelganda ham grammatik jihatdan o'zgartirmaydi. Mimik belgi so'zga nisbatan grammatik jihatdan sodda bo'ladi, lekin mimik gap qo'rilishda nutq qismlarni qo'llashda o'ziga xos tendensiyani ko'rish mumkin. So'zlashuv nutqida va imo-ishora nutqida ham gaplarda so'zlarni joylashish tartibi bir xil bo'ladi. Xususan, kesim, vositali to'ldiruvchidan iborat. Yoyiq gapni so'zlashuv va imo-ishora nutqida joylashish tartibi bir xildir.

Imo-ishora nutqida qo'shimcha gaplarga nisbatan sodda gaplar ko'p qo'llaniladi. Gap tarkibidagi yuklama qo'shimchalar imo-ishora nutqida kam qo'llaniladi. Imo-ishora nutqi egallash jarayoniga kar bolani so'zlashuv nutqini egallash darajasi ta'sir ko'rsatadi. Imo-ishora nutqi ham so'zlashuv nutqi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, lekin bu ta'sir salbiy ko'rinishga ega bo'ladi. Ba'zan

yozma yoki ogʻzaki nutqda gap tuzish imo-ishora nutqidagi barcha nuqsonlarni oʻzida ifodalaydi: gap boʻlaklarini oʻrnini almashib qolishi, soʻzlarni grammatik aloqasini buzilishiga olib keladi.

Shunday qilib, eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarni imo-ishora nutqi soʻzlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan soʻz va mimik belgini solishtirganda, gapdagi soʻz boʻlaklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon boʻlishida yaqqol koʻzga tashlanadi. Ogʻzaki nutqga nisbatan chegaralanganligi, takomillashmaganligiga qaramay imo-ishora nutqi kar shaxslari uchun asosiy muloqot qurolidir. Pedagogik jarayonida imo-ishora nutqidan foydalanish ilk bosqichlarda yaxshi samara beradi.

Eshitadigan bolaning ogʻzaki nutqi kabi (mimika) imo – ishora nutqi muloqot ehtiyojidan kelib chiqadi. Bola dastlab foydalanadigan imo – ishoralar juda sodda, tabiiy (masalan, u nimanidir hohlasa, predmetga ishoa qiladi). Asta – sekin ular murakkablashadi, muloqot vazifasini bajara boylaydi, shartli xarakter kasb etadi. Biroq eshitish sezgilari asosida shakllanadigan ogʻzaki nutqdan farqli oʻlaroq, mimika – ishora nutqi boshqa natomik – fiziologik asosda - koʻrish va harakat sezgilari asosida yuzaga keladi. Soʻzning realizatsiya vositasi uning tarixan shakllangan va barqaror tovush yoki grafik qobigʻi boʻlsa, mimik belgini realizatsiyalash vositasi qoʻl harakati va yuzning tegishli mimik ifodasi sanaladi. Bosh miya qobigʻi harakat uchastkalarining mimika – ishora nutqi shakllanishi uchun ahamiyati afaziyalarda nafaqat nutqiy, balki harakat funksiyalari ham buzilishi, jumladan baʼzan mimika – ishora va daktil nutq buzilishi roʻy berishi mumkinligi bilan oʻz tasdigʻini topadi.

Maʼlumki, til ikkita asosiy vazifa bajaradi. U fikrlash quroli va muloqot vositasi sanaladi. Mimika – ishora nutqi shu vazifalarga egami?

Maʼlumki, karlar mimika yordamida murojaat qilish va oʻzaro tushunishga erisha olishadi. Mimika – ishora nutqi ular uchun atrof olamni bilishga koʻmaklashuvchi vosita hamdir. Masalan, kar – soqov ota – ona oilasida kar bola asosan mimika vositasida muloqot qilib rivojlanadi, birooʻq shunga qaramay, uning intellektual rivojlanish darajasi anchagina yuqori boʻlishi mumkin.

Shunday qilib, mimika karlar uchun muloqot funksiyasini bajarishini inkor etish notoʻgʻri boʻladi. Bu jihatdan u odatiy nutq bilan maʼlum oʻxshashlikka ega. Biroq mimika va tilning bu funksiyani realizatsiyalashida jiddiy farqlarni kuzatish mumkin. Mimika – ishora nutqi faqat insonlarning juda cheklangan doirasi – kar-soqovlar uchun muloqot vazifasini bajarishi mumkin. Ogʻzaki nutqni egallamagan, mimikani bilmaydigan boshqa kishilar bilan erkin muloqot qila olmaydi. Til esa umumxalq muloqot vositasi sanaladi.

Til muloqot funksiyasini bajargani uchungina fikrlash quroli boʻlib xizmat qila oladi. U muloqot vositasi boʻlmas ekan, oʻzining ikkinchi funksiyasini ham yoʻqotadi.

Bir qarashda, qarama – qarshilikka duch kelgandaymiz. Agarki fikrlash quroli til va fikrlar faqat til asosida yuzaka kelar ekan, demak uni, yaʼni tilni egallamagan kar - soqovlarlarda fikrlash asosi yoʻq. Biroq aslida bunday emas: ularning xulqi aqlli, anglashilgan, biroq fikrlar boshqa asosda – saqlangan sezgi aʼzolari (koʻrish,

hid bilish, taktil – vibratsiya analizatorlari) tufayli yuzaga keladigan obrazlar, tasavvurlar, idrok asosida shakllanadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, kar odamlar fikrlashida mimika ham qatnashadi, biroq bu masala hali yaxshi o'rganilmagan vash u sababli karlarda fikrlash qo'roli mimika, deb to'liq ishonch bilan aytishga hali erta.

Tilning eng muhim tarkibiy qismlari uning lug'at tarkibi va grammatik qo'rilishi sanaladi. Mimikani til bilan qiyoslaganda, uning ham ayrim tarkibiy qismlarini shartli ravishda ajratish mumkin.

Mimika – ishora nutqi uchun o'ziga xos qurilish materiali ma'lum, nisbatan shakllanib ulgurgan mimik belgilar frndi sanaladi. Ularni so'z bilan qiyoslaganda farqli jihatlar o'xshashlariga nisbatan ko'proq bo'ladi. ayrim mimik ishorlar so'zlar kabi umumlashtirish elementiga ega. Bu ularning ma'lum diffuzligida, bo'linmasligida ifodalanadi (masalan, *ishlamoq, ishchi, qilmoq, bolg'a bilan qoqmoq* tushunchalari karlarning ayrim jamoalarida aynan bir belgi bilan ifodalanadi. Har bir tilning so'zlari barqaror va universal ma'noga ega. Aynan bir predmetning nomi shut il tarqalgan butun hudud doirasida saqlanadi. Mimik belgilar bunchalik barqaror emas. Karlarning turli jamoalarida aynan bir tushunchalar turlicha belgilar bilan ifodalanishini ko'rish mumkin. Ularning xarakteri aynan bir jamoada lisoniy nutqni o'rganish jarayonida uning ta'sirida ham o'zgarishi mumkin. bularning barii so'zlarga xos emas. So'zda tovush kompleksi bilan ma'no – mazmun o'rtasida mustahkam tarixan shakllangan aloqa mavjud bo'lib, u ixtiyoriy tarzda buzilishi mumkin emas. So'zning tovush tarikbini o'zgartirar ekanmiz, u o'zining signal funksiyasini shu zahoti yo'qotishi mumkin. Tovush kompleksi, odatda, u ifodalagan mazmun bilan hech bir umumiylikka ega emas. ayrim mimik (masalan, ko'rsatish, plastik) belgilarda esa bu aloqa anchagina yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mimik belgilar xarakteri kar bolalarni lisoniy nutqqa o'rgatish jarayonida jiddiy o'zgarishlarga uchraydi – ularning ma'nosi aniqlashtiriladi, yanada differensiatssiyalanadi. Dastlab bola hamma qurilmalarni *uy*, avtomobillarning hammasini *mashina* belgisi bilan ifodalasa, keyinchalik lisoniy nutq ta'sirida yangi alohida differensiatssiyalangan belgilar (*katta uy, kichi kuy, bir qavatli uy*), shuningdek yengil va yuk avtomobilini ifodalash uchun alohida belgilar paydo bo'ladi. Mimik belgilar konkretligi va yetarlicha umumlashtirilmagani sababli mavhum tushunchalarni ifodalaydiganlari soni u qadar ko'p emas. Bu holda ba'zida mimik belgilar kompleksidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Har bir mimik belgi qandaydir obyektiv reallik, qandaydir predmet, yorqin ifodalangan belgili harakatni ifodalagani sabali ko'plab belgilar barqaror ma'nolarini saqlab qoladi va karlarning turli bir - biridan uzoq bo'lgan guruhlar uchun bir xil sanaladi. Bu avvalo ko'rsatish, plastik, imitatsiyalaydigan belgilarga taalluqli (*uy, qush, kitob, ishlamoq, yemoq*). Shu bilan birga ayrim mimik belgilar avtonom bo'lib, turli jamoalarda turlicha tushunchalarni ifoda etadi. Masalan, predmet yoki harakat qator raqobatdosh belgilarga ega bo'lsa, ayrim hollarda bitta belgi, boshqa hollarda boshqasi mimik belgi uchu nasos bo'la oladi.

Emotsional ottenka mimik belgida so'zga qaraganda yorqinroq ifodalanadi. Mimikada predmet, belgi va unga munosabatni ifodalash go'yo uyg'unlashib ketadi va bir paytning o'zida ifodalanadi.

Tilning yana bir muhim belgisi uning grammatik qurilishi sanaladi.

Mimika – ishora nutqida ergashgan qo‘shma gaplar kam qo‘llanadi. Yordamchi so‘zlar deyarli qo‘llanmaydi.

Lisoniy nutqni o‘zlashtirish mimik ishora gap qurilishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Mimika ham lisoniy nutq shakllanishiga – umuman salbiy – ta‘sir o‘tkazadi. ba’zida og‘zaki yoki yozma nutqda gap mimik – ishora nutqidagi kamchiliklarni saqlab qoladi.

Shunday qilib karlarning imo – ishora nutqi lisoniy nutqdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar funksiyalar, kabi til va mimikaning tarkibiy qismlariga ham oid. pedagogik jarayonda mimikadan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Biroq maktabning vazifasi bolalarda lisoniy nutqni shakllantirishni yoddan chiqarmaslik lozim bo‘ladi.

I .3-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar daktil nutqini o‘qitish mazmuni

Daktil nutqni bizga ma‘lum bo‘lgan og‘zaki nutqning boshqa shakllari bilan taqqoslasak, u yozma nutqqa ko‘proq yaqin keladi. Xuddi yozuv kabi undan faqat savodli odam foydalana oladi. Qolaversa, daktil nutqni o‘zlashtirish bilan inson savod o‘rganadi, zero daktil nutq, xuddi yozma nutq kabi lisoniy nutq shaklidir. Daktil nutqning yozuvdan farqi shundaki, yozuv belgilari o‘rniga so‘zlovchi barmoqlari yordamida makonda (bo‘shliqda) aks ettiriladigan belgilardan foydalanadi.

Daktil alifboda xuddi harflisidagi kabi 29 ta belgi mavjud. Har bir daktil belgi alifbo harfiga to‘liq mos keladi. Daktil tasvirdagi ko‘plab belgilar bosma va qo‘lyozma harflarni eslatadi. Masalan, : *o, l, m, s, sh*. Mimik yoki imo-ishora nutqi. U lisoniy qismlarga bo‘linadigan nutqqa qarshi qo‘yiladi. Bu nutqda so‘z va xatto butun bir jumla bita ishora bilan «aytiladi». Bunda predmetlar, alohida harakatlarga ishoralardan, yuz imosidan foydalaniladi. Imo-ishoralar lisoniy nutqqa xos bo‘lgan grammatik shakllarga ega emas, ya‘ni turlanmaydi, tuslanmaydi va sh.k. farqiga yetmaydigan kishilar imo-ishora va daktil nutqning o‘xshashligi xaqida gapirar ekan, ularning faqat tashqi belgilariga, ya‘ni har ikkala nutq shaklida qo‘llardan foydalanilishiga e‘tibor qiladi. biroq bu o‘rinda ham e‘tiborliroq bo‘lgan kuzatuvchi jiddiy tafovutlarni ko‘ra biladi.

Daktil nutqdan foydalanuvchi faqat bitta qo‘l barmoqlaridan foydalanadi (ayrim mamlakatlar, masalan Angliyada daktil nutq har ikkala qo‘l barmoqlari yordamida ifodalanadi). Imo-ishora nutqida har ikkala nutq qatnashadi, ular harflarni emas, balki turli ishoralarni o‘ziga xos kuchli yuz ifodasi bilan ifoda etadi.

Biroq og‘zaki nutqqa ega bo‘lgan va nutqiy tafakkuri rivojlangan karlarning mimikasini savodi chiqmagan kishilar, ayniqsa nutqni egallamagan kichik yoshdagi bola mimikasi bilan farqlash kerak.

Eshitmaydigan, biroq labdan o‘qiydigan va gapira oladigan kishilar uchun mimika – tezroq va osonroq o‘ziga qaratilgan so‘zni idrok etish va boshqalarga fikrini yetkazish vositasi. Nutqni egallagan karlarga imo-ishora ularga qaratilgan nutqni yaxshirok tushunishga yordam beradi. Imo-ishoralar og‘zaki so‘z bilan birga qo‘llanilganda, ular go‘yo kattalashtiruvchi oyna vazifasini o‘taydi. Mimikali nutq qurilishi bu xolda og‘zaki nutq qurilishiga bo‘ysundiriladi, so‘zni idrok etishga ko‘maklashadi.

Daktil nutqdan foydalanish – soʻzlarning maʼnosini tushunish, tilning grammatik qurilishini egallash demak. Bu nutqni ham ogʻzaki ham yozma shaklda egallashga koʻmaklashadi. Daktil belgini nafaqat idrok etish, balki tovushga qaraganda qayta yaratish ham ancha oson. Xatto ikki yarim yoshli bola ham daktil alifboni oʻzlashtira oladi. Uch yoshli bolalar uni 15-30 kunda oʻzlashtiradi. Bu juda muhim, chunki bu tarzda bolaga soʻz yordamida murojaat qilish, eshitadigan bolaga istalgan predmetni aytish mumkin. Buni soʻzni ovoz chiqaribgina emas, balki barmoqlar yordamida ham «talaffuz qilish» kerak. Bunda bola har bir soʻzning harf tarkibi va grammatik qurilishini aniq idrok etadi. Shu tariqa uni nutqqa va muloqotga oʻrgatish boshlanadi. Bunda xuddi eshitadigan boladagiga oʻxshash jarayon kechadi. Vaqt oʻtishi bilan, tovushlarni talaffuz qilishga oʻrgangan bola barmoqlari yordamida «ayta oladigan» soʻzlarini va iboralarini ogʻzaki shaklda ham qoʻllaydi.

Taniqli surdopedagog F.A. Rauning kuzatishlariga koʻra, bunda xuddi biz hamma vaqt telefonda gaplashgandagiga oʻxshash jarayon oʻrin tutadi. Maʼlumki, telefon orqali hamma tovushlarni ham farqlab boʻlmaydi, biroq tanish soʻzlarda buni biz his qilmaymiz, eshitib idrok qilingan tanish soʻz konturidan, suhbat kontekstidan kelib chiqib, aniq eshitmagan tovushni faxmlaymiz. Biroq notanish familiyani talaffuz qilishganida, uni harflab aytishlarini soʻraymiz, toki eshitib idrok qilish qiyin boʻlgan tovush ismlarning tanish birikmasida birinchi boʻlib chiqsin.

Soʻz bilan daktil nutqda tanishib, uning maʼnosini oʻzlashtirib, harf tarkibini egallab, bola bu soʻzni labdan ancha oson oʻqiydi, aniq koʻrinmagan yoki umuman koʻrinmagan tovushlarni xotiradan toʻldiradi.

Gap shundaki, labdan oʻqiyotib, talaffuz qilingan tovushlarning faqat bir qismini idrok qilish mumkin. *a, o, u, i, e* unililari oson farqlanadi. *p- b-m* undoshlar guruhit, *n, dyoki sh, ch, j* undoshlaridan farq qiladi. biroq bu guruhlarning har birida harflar, masalan *p-b-m* koʻrinishdan bir xildek idrok etiladi. *k, g, x* undoshlari esa umuman koʻrinmaydi. Shu oʻrinda avvaldan daktil nutqda oʻzlashtirilgan soʻzning ijobiy roli namoyon boʻladi.

Baʼzida daktil nutq undan foydalanish estetik emasligi bois ota-onalarning noroziligiga sabab boʻladi. bunda maʼlum maʼnoda haqiqat bor. Biroq daktil nutq kar bola uchun noqulay boʻlgan muloqotning umum tomonidan qabul qilingan shakli oʻrniga emas, balki atrofdagilarning eʼtiborini yanada koʻproq jalb qiladigan mimika oʻrniga taklif qilinadi.

Koʻpchilikni daktil nutqdan foydalanish bolalarning talaffuziga zarar yetkazishi, daktil muloqotga oʻrganib qolib, bolalar eng kam qarshilik yoʻlidan borib, ogʻzaki nutqdan foydalanmasligi xavotirga soladi.

Koʻp yillik kuzatishlar bu xavotirlar asossiz ekanidan dalolat beradi. Bolalarni daktilologiyadan foydalanish bilan parallel tarzda talaffuzga toʻgʻri, malakali oʻrgatilganda, labdan oʻqishni muntazam mashq qildirilganda, bolalarning ogʻzaki nutqi ularning individual imkoniyatlariga mos tarzda rivojlanadi. Bolaning ogʻzaki nutqi qanchalik tushunarli boʻlsa, bola daktilologiyadan oʻzini tiyib, ogʻzaki nutqdan shunchalik tez foydalana boshlaydi. bundan tashqari, bolaning nutqda yaxshi oʻzlashtirilmagan tovushlardan foydalanishi (bolalar shunday qilishga majbur, soʻzni boshqacha ifoda qilish imkoni yoʻq) talaffuzni buzadi, hali aniqlashmagan talaffuzni

mustahkamlaydi. Daktil belgilar tovushlarni qo'yishni tezlashtirish zaruratini yo'qqa chiqaradi, talaffuz ustida batafsil ishlash imkonini beradi. Boshqa sharoitlar bir xil bo'lgani holda bolaning yomon ogzaki nutki uning talaffuziga extiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish, kattalar tomonidan xar kunlik e'tibor va nazoratning yo'qligi natijasi sanaladi.

Biz og'zaki nutkdan foydalanishga qarshi e'tirozlarni inkor etishga, ularning asossiz ekanini isbotlashga urinib ko'rdik. maksadimiz – kar bolani o'kitishda uning samaradorligini va zaruratiga ishonch xosil qilish. Biroq og'zaki nutqning axamiyatini anglab yetishning o'zi yetarli emas. Natija kar bola bilan mulokot kiluvchilarning xammasi daktil alifbodan qanchalik to'g'ri foydalana bilishiga bog'lik. Belgilarni mohirlik bilan ko'rsata olish (daktillash) birinchi dastlabki shart. Buning uchun ayrim qoidalarni bilish kerak: o'ng ko'l bilan «so'zlash» kerak. ko'lni ko'krak qafasi darajasida tutiladi. O'ng tirsak o'ng yonga siqilgan. ko'l bilan «gaplashganda», asosan, barmoqlar harakatlanishi lozim. Bunda yozish va o'qishdagi jarayon bilan ma'lum umumiylik ko'zga tashlanadi: so'zlarni daktillab, yozuv jarayoni o'ziga xos tarza takrorlanadi, uni idrok qilayotgan bola esa o'kish jarayonini takrorlaydi. Yozuvda bo'lgani kabi so'zlarda xarflar aloxida belgilar sifatida emas, balki yaxlit joylashadi (buning uchun harfni ko'rsatayotib, qo'lni xayolan keyingi belgi xolatiga tayyorlash kerak bo'ladi).so'zlar orasida sukut kilinadi, u yozuvda bir so'zni boshkasidan ajratib turadigan bo'sh makonga mos keladi. Yozuvda xarflar chizikda tekis yozilgani kabi, bu o'rinda ham ko'l bir xil darajada (balandlikda) bo'lishi, belgilar aniq va ravshan ko'rsatilishi kerak, birok yozuvdagidan farqli o'laroq, qo'l harakatsiz qoladi. Bu kabi aniklikni bolada avval boshdan tarbiyalab borish lozim. to'g'ri, bolani bunga o'rgatish uning taklid ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mashklardan boshlanadi. ko'l to'g'ri turishi kerak; kaft harakatsiz, fakat barmoqlar harakatlanishi lozim. *i*, *sh*, *s* kabi harflarni ko'rsata turib, kaftni yengil buring. *i* ni ko'rsatganda, barmoqlarni vertikal qo'yish shart emas, ko'lni gorizontal holatda saqlash mumkin, zero bu belgini, odatda, boshqalari bilan adashtirishmaydi. Bir paytning o'zida gapirilsa va daktillansa, buning uchun daktillash texnikasi juda yaxshi rivojlangan bo'lishi talab kilinadi, talaffuz biroz sekinlashtiriladi, birok bo'ginlab talaffuz kilinmaydi, aks xolda bu bolaning ogzaki nutqida, uning labdan o'qishida va talaffuzida salbiy okibatlariga olib kelishi mumkin.

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy samara beradi. Kar bolada og'zaki nutqni tarbiyalash uchun, eng avvalo, uning diqqatini, kuzatuvchanligi, taqlidni tarbiyalash lozim. Shu sababli siz bola uchun qiziqarli bo'ladigan va bolada zarur sifatlarni, ko'nikmalarni tarbiyalashga ko'maklashadigan mashg'ulotlar, o'yinlar, o'yinchoqlar, kitobchalarni tanlay bilishingiz kerak.

Eshitish qobiliyatida nuqsoni bor maktablarning tayyorlov sinflarda maxsus maktabgacha muassasalarda tarbiyalanmagan, nutqi mavjud bo'lmagan bolalar o'qitiladi. Bu kategoriyadagi bolalarni o'qitishda juda katta qiyinchiliklarga duch kelinadi, chunki bunday bolalarda nutqini shakllantirishning qulay vaqtlari boy

berilgan, nutqning yo'qligi esa bolaning psixik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'ladi.

Maktabga borish, yangi sharoit bilan tanishish, yangi do'stlar, bular hammasi bolalarga o'zaro muloqotga kirishishi talab etadi. Tarbiyachi va o'qituvchining vazifasi – ularning atrofdagilar bilan muloqot qilish ehtiyojini qondirishdir. Buning uchun ularni og'zaki nutq bilan muloqot vositasi sifatida qurollantirish ko'zda tutiladi. Agar maktablarda so'zlashuv nutqiga yaxshi ahamiyat berilgan bo'lsa, butun pedagogik jamoa faoliyati nutqni muloqot vositasi sifatida o'qitishga qaratilgan bo'lsa, bunda bolalar kommunikatsiyaning bu turidan ko'proq foydalanadilar. Jonli muloqotdan noto'g'ri foydalanish bolalarda imo-ishora bilan gapirish yo'lini tanlashga olib keladi. Maxsus o'qitish jarayonida kar bolalarda tovush bilan ishlash, nutq nafasi, ayrim tovushlar ustida ishlash, talaffuzini shakllantirish amalga oshiriladi. Og'zaki nutqni talaffuz qilish va shakllantirish o'qituvchi hamda bolalardan katta mehnat talab qiladi. Eshituvchi o'quvchilar kabi, eshitish qobiliyatida nuqsoni bor o'quvchilar uchun og'zaki nutq muloqot uchun juda katta ahamiyatlidir.

Kar bolalarni og'zaki va yozma so'z nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar daktil nutqiga murojaat qilishga sabab bo'ldi. Daktil nutqi karlar o'rtasida muloqot (aloqa)larining amalga oshirish uchun yaratilgan. Daktil nutqini o'zlari uchun sukut saqlab yashash turmush tarzini qabul qilgan Ispan monaxlari tomonidan ixtiro qilingan. Nutqning og'zaki nutqga o'xshash bo'lgan bu ko'rinishidan faqat bevosita (yuzma-yuz) muloqotda bo'lganda foydalanish mumkin. Daktil nutqi yozma nutqga ham o'xshash bo'lib, har bir harfga aniq bir daktilema to'g'ri keladi. O'zbek tili daktilema alifbosi quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan. Nutqning bu ko'rinishini egallash uchun karlardan nutqning og'zaki va yozma ko'rinishlarini qanday darajada egallash talab qilinmaydi. Daktil nutqi yordamida bolalar o'z xohish, istaklari va iltimoslarini bildirishlari va daktil nutqdan foydalanayotgan boshqa kishilarni tushunishlari mumkin. Tayyorlov sinfining o'quvchilari, katta maxsus tayyorgarliksiz ham daktil belgilarini tezda o'zlashtirisha oladi. Daktil nutqidan tilni egallashning boshlang'ich formasi sifatida foydalanish kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish va atrofdagilar bilan nutq aloqlarini o'rnatish imkoniyatini beradi. Shuningdek, kar bolalarni tilga o'rgatishda daktil nutqini qo'llanishi asosiy maqsad emas, kar bolalarni og'zaki nutqini shakllantirish maqsadida foydalanadigan majburiy choradir.

Xususan, tayyorlov sinflarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qituvchining daktillashiga taqlid qilish asosida daktillamalar o'rganadilar. Og'zaki nutqga o'rgatish jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil belgilari va daktillash texnikasini birga egallaydilar. Materialni idrok etish va egallash jarayonini yengillashtirish uchun daktil belgilar ifodalangan so'zli ifoda jadvalidan foydalaniladi. So'zli ifoda jadvalini qo'llab o'quvchi, daktilema belgilarini qo'li vosita amalga oshiradi. Daktil belgilari ifodalangan so'z o'quvchilar to'liq eslab, qolmaguncha, yig'ma polotnoga osib qo'yiladi. O'qituvchi daktil shaklda berayotgan nutqiy materialni og'zaki bayon etadi. Bu o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan asosiy talab hisoblanadi. Nutqiy materialni og'zaki daktil bayon etish tayyorlov sinfi yili oxirigacha asosiy talabdir. O'qituvchi o'ng quli bilan daktillaydi, barmoqlar uni

labini o'ng tarafida joylashgan holatda bo'ladi. Barcha daktil belgilar aniq ko'rsatilishi zarur. Ta'limning birinchi yilida daktillash bilan birga bayon etiluvchi og'zaki nutq sekin tempda bog'langan va aniq bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining og'zaki dakti nutqi bolalar uchun yaxshi namuna bo'ladi va ularni daktil nutqini egalash jarayonini tezlashtiradi.

Bu bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning daktil nutqiga qat'iy talablar qo'yiladi. O'quvchilar har bir harf va so'zni daktillashi aniq, to'g'ri bo'lish kerak. So'zlarni eslab qolish o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan maxsus mashqlar asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi bolalarda nutqqa ehtiyojni talab etuvchi o'yin, mehnat, o'quv faoliyat turlarini tashkillashtiradi. Masalan, sinfdagi umumiy faoliyat bolalar ismini bilishni talab etadi, o'quvchilarga topshiriq, vazifalar bayon etish jarayonida o'qituvchi ularni ismini nomlaydi. O'quvchi ismini og'zaki daktil nomlanadi va so'zli ifoda jadvali ko'rsatiladi. O'quvchilardan o'rtog'ini ismini aytish so'raladi. Tabiiy sharoit o'quvchilarga yangi so'z ma'nosini tushunishga yordam beradi. Jamoa faoliyatida so'zlarni og'zaki daktil bayon etish uni ma'nosini eslab qolishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar so'zni, tovush tarkibini og'zaki bayon etish imkoniga ega bo'lgunlariga qadar uni og'zaki daktil bayon etadilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'z tarkibini daktil nutqini qo'llamasdan o'rgatish nutqiy muloqotni buzilishi va nutqiy rivojlanishni sekinlashishiga olib keladi. Lekin o'quvchilar tomonidan xaddan ortiq daktil nutqini qo'llash og'zaki nutqni rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, daktil nutqi boshlang'ich nutq shakli sifatida qo'llab, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirish ishini boshlab o'qituvchi butun faoliyatini og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga qaratishi lozim.

Daktil nutqiga o'rgatish bilan yonma-yon (parallel) ravishda bolalarni og'zaki va yozma nutqqa o'rgatish ham olib boriladi. Bolalarni og'zaki nutqqa o'rgatish, daktil formasida egallangan so'zlarini ovoz chiqarib aytish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Talaffuzni o'zlashtira borish bilan birgalikda o'quvchilar tomonidan daktillangan so'zlarni gapirish aniqligi ortib boradi. Og'zaki nutq xatolarini to'g'rilash talaffuz qilingan tovush namunalarini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi va unga mos ravishdagi daktilamani ko'rsatish bilan mustahkamlanadi. Daktil nutqini egallash o'qish va yozishga o'rgatishda yordam beradi. Daktil orqali so'zlashganda, bolalar so'zini va o'qish so'zlarini analiz va sintez qiladi. Bu esa o'qish va yozish ko'nikmalarini asosini tashkil qiladi. Qo'l harakatlari yoki katakcha orqali daktillangan so'zni qabul qilganda kar bolalar daktil shriftini o'qishni o'rganadi. Asta-sekin daktil belgilarini o'rganadilar, harflar yozish va o'qish malakasini egallab boradilar. O'quvchilar o'z daktillariga suyangan holda yozma so'z va iboralarni o'qishni boshlaydilar, xatolarini to'g'rilaydilar. Daktil nutqidan foydalanish savodga o'rgatish jarayonini yengillashtiradi va tezlashtiradi.

Shunday qilib, kar o'quvchilar nutqini shakllantirish jarayonida daktil nutqidan foydalanish so'zlashuv nutqini muloqot quroli sifatida tez va samarali shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq o'rgatishning dastlabki bosqichi o'z ichiga tayyorlov sinfni qamrab olgan bo'lib o'ziga xos vazifalari uslubiy qo'llanmalari bordir.

Boshlang'ich sinfda kar bolalar muomila (muloqot) sifatida so'z nutqi bilan tanishadilar, ularda atrofdagilar bilan aloqada bo'lish, o'z istak va ehtiyojlarini ifoda etish uchun nutqdan foydalanishning dastlabki ko'nikmalar yuzaga keladi. Kar bolalarni nutqqa bo'lgan ehtiyoj ruhida tarbiyalamasdan, bu masalalarni yechimini topish mumkin emas.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi ta'lim jarayonining bosh maqsadi ularning og'zaki nutqini shakllantirishdir. Daktil nutqni o'zlashtirish bilan inson savod o'rganadi, zero daktil nutq, xuddi yozma nutq kabi lisoniy nutq shaklidir. Daktil nutqning yozuvdan farqi shundaki, yozuv belgilari o'rniga so'zlovchi barmoqlari yordamida makonda aks ettiriladigan belgilardan foydalanadi. Daktil nutqi og'zaki nutqni rivojlanishida yordamchi vosita sanaladi .

Daktilologiya atrofdagilar nutqini labdan o'qishda ham muhim vosita sanaladi. Chunonchi, ayrim tovushlar labdan yomon o'qiladi, shu o'qishda daktilologiyadan foydalanadi. Lekin labdan o'qish jarayonida daktilologiyadan foydalanish ham ijobiy Samara beradi. Daktil belgilar tovushlarni qo'yishni tezlashtirish zaruratini yo'kka chikaradi, talaffuz ustida batafsil ishlash imkonini beradi. Boshka sharoitlar bir xil bo'lgani holda bolaning yomon ogzaki nutki uning talaffuziga extiyotsizlik bilan munosabatda bo'lish, kattalar tomonidan xar kunlik e'tibor va nazoratning yo'kligi natijasi sanaladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamini tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, kar bola oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasi bajarishni ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir.

Savol va topshiriqlar

1. Daktil nutqini og'zaki va yozma nutq bilan munosabatini tavsiflang.
2. Daktil nutqini ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlang.
3. Daktil nutqiga o'rgatish mazmunini yoriting.
4. Daktil nutqini eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki va yozma nutqini shakllantirishdagi axamiyatini tavsiflang.
5. Tayyorlov sinfida daktil shaklida yangi nutqiy material bilan tanishtirish usullarini ko'rsating.
6. Imo-ishora nutqi qanday vosita sanaladi?

II-BOB. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqini shakllantirish uslubiyati

II.1-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqini shakllantirish mazmuni va ahamiyati.

Og'zaki nutqni shakllantirish ko'p qirrali jarayon sanaladi. Uning turli shakllarini, avvalo muloqot asosini tashkil etadigan og'zaki nutqni rivojlantirish zarur. Kar va zaif eshituvchi bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish avvalo katta odamga taqlid shaklida, eshitish apparatlaridan foydalanilgani xolda amalga oshiriladi. Go'dakning ovoz reaksiyalarini faollashtirish bu reaksiyalarni qo'llab-kuvvatlash va yangi tovushlar xosil qilishga qaratilgan mashqlarni o'tkazish jarayonida amalga oshiriladi. Bu mashqlar muloqot jarayonida, katta odam bola bilan turli tovush va tovush birikmalaridan foydalanib, ularni gimnastika elementlari bilan birga qo'llab "gaplashganida" amalga oshiriladi. Bir yarim ikki yoshli bolaning og'zaki nutqi ustida ishlashning muhim vazifasi bolada og'zaki nutq ehtiyojini shakllantirish sanaladi. Eng muhimi - bolaning katta odamga ergashib tovush, bo'g'in, so'zlarni talaffuz qilishga urinishi. Nutqqa taqlid harakatlarga taqlid bilan uzviy bog'liq. Shu sababli gavda harakatlariga taqlidga o'rgatishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Kattalarga bu kabi taqlidni o'zlashtirgani sari bola harakatlarni tovushlar, bo'g'inlar, so'zlarni go'ldirab talaffuz qilish bilan to'ldirib boradi. Shu davrdan fonetik ritmka mashg'ulotlari boshlanadi. Fonetik ritmika - maktabgacha yosh oldidan va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ularning talaffuzi ustida olib boriladigan ishlarning asosiy usullaridan biri.

Fonetik ritmikani olib borishda tovush, bo'g'in, so'z, jummalarni talaffuz qilish ma'lum harakatlar bilan birga bajariladi. Fonetik ritmikadan foydalanish metodikasi turli ko'llanma, dasturlarda (E.I.Leongard, 1991; T.A.Vlasova, A.N.Prafenrodt, 1989, 1998; N.D.Shmatko, T.V.Pelinskaya, 1991, 1993, 1995) bayon qilingan. Ota-onalar va adabiyotlardan fonetik ritmikaning vazifasi va uni amalga oshirish metodikasi bilan tanishish uchun foydalanishlari mumkin.

Eshitib idrok etishni rivojlantirish bolaning bilish faoliyati, nutq va talaffuzni idrok etish mexanizmlari shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega. Qoldiqli eshitishni rivojlantirish bo'yicha ishlarni erta boshlash alohida muxim ahamiyat kasb etadi, shu sababli eshitish funksiyasini rivojlantirish bola hayotining birinchi yillarida tobora senzitiv davrda amalga oshiriladi, bunda eshitish analizatori fiziologik jihatdan yetiladi, bu pedagogik ishsamaradorligini ta'minlaydi. Dastlabki oylar davomida bolada katta odamning tovushi, ovozli o'yinchoqlarga kompleks ko'rish-eshitish e'tiborini jamlash shakllantiriladi. Eshitish apparatlaridan erta foydalanish bolaning eshitish qobiliyatini rivojlantirishning eng muhim sharti sanaladi. Ulardan foydalanar ekan, bola ayrim baland maishiy tovushlarni, ayniqsa katta odam ularga e'tiborni qaratganida idrok eta oladi. Apparatni taqib yurish kattalarning u bilan muloqoti chog'ida g'o'ldirash, shivirlashni yaxshilaydi. Kichkintoylar bilan maxsmus mashqlar ham bajariladi, ular o'yinchoklarning ovoziga, o'z ismiga reaksiya qilish, ovoz yo'nalishini

aniqlash (ovoz tomonga boshini qaratish), o‘yinchoqlar nomini ifodalaydigan tovush va tovushga taqlidlarni eshitishga qaratiladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari I.M. Solovyeva, F.F.Rau, N.I. Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozonov, N.G. Morozov, R.M.Boskislar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Og‘zaki nutq inson jamiyatida ilk nutq shakli sifatida namoyon bo‘lgan. Dastlabki so‘zlar tovush komplekslar shaklida bo‘lib, tarixiy rivojlanish davrida ma‘lum tushunchalar sifatida aniqlanib, mustahkamlanib borgan. Lekin dastlab imo-ishora nutqi mavjud bo‘lgan degan fikr ham mavjud. Bu ma‘lumotga ko‘ra, og‘zaki nutq keyinroq paydo bo‘lgan. Imo-ishora va mimikalar orqali o‘z fikrini ifodalashda tovush taqlid so‘zlarni ham qo‘llaganlar. Keyinchalik tovush bo‘linmalar imo-ishoralardan ajralib, mustaqil ma‘noga ega bo‘la boshlagan. Lekin tadqiqot natijalari tahliliga ko‘ra bu ta‘limot tanqidga uchragan va mustaqil emas deb tan olingan. Og‘zaki nutq psixologik nuqtai nazardan jaranglanishga ko‘ra faoliyat ko‘rsatadi. So‘zning tovush qobig‘i uning, material qobig‘i sanaladi. Tilning tovush tarkibi turlicha bo‘ladi. O‘zbek tilida fonemalar tavsiflanadi. Bunda jarangli – jarangsiz tovush variantlari ham farqlanadi. Fonema nutqning eng kichik birligi bo‘lib, so‘z ma‘nosi va axamiyatini farqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Har bir tilda o‘ziga xos tovush tarkibi bo‘lib, buni bola nutqiy amaliyot jarayonida egallab boradi. Biz kattalar tomonidan so‘zlarni bir necha marta takrorlanishi hamda uni bolalar tomonidan idrok etilishi asosida amalga oshadi.

Og‘zaki nutqni idrok etish eshituv analizatori asosida yozma nutqni idrok etish ko‘ruv analizatori asosida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari ham turlichadir. Og‘zaki nutqda bu mimika, imo-ishora, urg‘u, yozma nutqda – bu uslub, so‘zlarni alohida tanlash usullari hisoblanadi. Og‘zaki nutq, yozma nutq ham monologik va diologik shaklda bo‘ladi. Diologik nutq psixologik nuqtai nazardan murakkab savol-javob tarzida bo‘ladi va auditoriyaning hisobga olishi tayyorgarligini talab qiladi. Monologik nutq yengilroq bo‘ladi. Uni tuzilishiga, u davom etayotgan sharoit va muhit yordam beradi. Bolada og‘zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og‘zaki nutqini idrok etadi, 5-6 yoshlarda eshituvchilar tovushlarni to‘g‘ri talaffuzini, lug‘at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Kar bola bu yo‘l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituvchi bola bog‘chaga maktabga shakllangan nutq bilan borsa, kar bola og‘zaki nutqi mavjud bo‘lmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Buning uchun kar bolaning artikulyatsion nafas olish va ovoz apparatini tayyorlash kerak. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari egadir. U bo‘lingan havo oqimidan foydalana olmaydi va frazalarni qismlarga bo‘la olmaydi. Maxsus mashqlar davomida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Ko‘p miqdordagi karlarda ovoz bo‘g‘iq, modullashmagan bo‘ladi. Maxsus mashqlar jarayonida o‘qituvchi kar o‘quvchi ovozini eshituvchi bola ovoziga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Kar bola nutqi ovozi butun hayoti davomida o‘ziga xos otenkaga ega bo‘ladi. Kar o‘quvchilarni og‘zaki nutqqa o‘rgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni

shakllantirishdir. O'zbek tilidagi har bir fonema kar bolada maxsus usullar bilan qo'yiladi. Saqlangan analizatorlar ko'ruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qo'llab, o'qituvchi oyna oldida tovush talaffuzini ko'rsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni boladan so'raydi. Avvalom bor oson talaffuz etiluvchi tovushlar "p", "b", "m" qo'yiladi, so'ng bug'in, so'z birikmalariga o'tiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga o'tiladi. Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldig'iga tayaniladi. Kar bolada og'zaki nutqni shakllantirishda ko'ruv, harakat va sezgi analizatorlari yordamida bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola o'z talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib so'ng to'g'rilaydi. Kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, so'ng ko'ruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi bo'lish kinestik sezgilar shunchalik differensiyalashgan bo'ladi. Bu sezgi turi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim o'rin hisoblanadi. Kar bolaning og'zaki nutqini shakllantirishda eshitish qoldig'i ham katta ahamiyat kasb etadi, Eshitish qoidalaridan foydalanish unli tovushlar differensatsiyasi, to'g'ri mantiq va so'zli urg'ularni qo'llash imkonini beradi. Karlarni og'zaki nutqqa o'rgatishda teri va taktil vibratsion sezgilardan keng foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi artikulyatsiyasi o'xshash tovushlarni (p - b, t - d) kar o'quvchi diqqatini ayrim holda bu jarangsiz tovushli vibratsiyasi yo'q, ikkinchi holatda qo'yib xalqum yoki ko'proq qafasiga qo'yib vibratsiyasini sezish mumkin. Taktil vibratsiyatsion sezgilarni maxsus asboblari yordamida ta'limda qo'llash kar o'quvchilarni 38 % darajada og'zaki nutqni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu M.G.Abramov va M.N. Moginshinskiy tadqiqotlarda aniqlangan. Oxirgi yillarda mutaxassis defektologlar tomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqini shakllantirishga bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni talaffuzga o'rgatishning samarali usullarini tadqiq etmokda.

Nutqiy muloqot jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish va qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida talaffuzga o'rganish tamoyilini ko'rib chiqamiz. S.A. Zikov tadqiqotlariga ko'ra eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni ularning hayotiy ehtiyojlarini hisobga olib, shakllantirish kerak. Til insonlarning mehnat faoliyati yuzaga kelib, shakllana borgan. U insonlarning fikr almashinuvi, ong kuroli sanaladi.

Chunonchi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar pedagogik ta'limi ularda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosida tashkil etiladi. Agar oldin nutqiy ta'limotdan amaliyotga o'tsa, so'zlashuv nutqini shakllantirish muloqotni shakllantirishga o'tiladi, lekin bu amaliyot grammatik jihatdan tashkil etilgan. Qisqartirilgan fonemalar tizimi asosida og'zaki nutqqa o'rgatishda tezroq maqsadga erishish uchun talaffuzi yengil bo'lgan, hosil bo'lish o'rniga ko'ra o'xshash fonemalar o'zaro almashtirib o'rgatiladi. Bu lug'at boyligi oshirish so'zlarni muloqotga kiritish, kar bola nutqiy amaliyoti imkonini oshiradi. Bunday psixologik yondashuv eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tilga o'qitishning boshlang'ich etapida saqlangan bo'lishi mumkin. Shunga o'xshash holat eshituvchi bolani nutqiy rivojlanishida ham kuzatiladi. Eshituvchi bola 2-5 yoshlar o'rtasida ma'lum tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaydi. Bu bosqich bolaning nutqiy apparati to'liq shakllanmaganligi va hosil

bo'lishga ko'ra murakkab bo'lgan tovushlar talaffuziga tayyor emasligi bilan asoslanadi. Shuning uchun bola tovushlarni boshqalari bilan almashtiradi, tushirib qoldiradi. Bunda so'zning tovush tarkibi o'zgarsa ham u o'zining mazmunini o'zgartirmaydi. Vaqt o'tishi bilan bu xatolik o'z – o'zidan yo'qolib ketadi.

Inson hayotida og'zaki nutqni ahamiyatini, kar bolalarni uni egallash imkoniyatini inobatga olgan holda kar bolalar uchun maktablar o'z oldiga o'quvchilarni og'zaki nutqga o'rgatish masalasini qo'yadi. Og'zaki nutq ta'lim jarayonining boshidanoq muomala vositasi sifatida shakllanadi, chunki bolalar atrofdagilar bilan munosabatga og'zaki nutq shaklda kirishadi. Muomalaga kirishish jarayonida ular tilning leksikasini, grammatikasi egallab boradi. Eshitishni buzilishi og'zaki nutqni qabul qilishga o'rgatish va talaffuz malakalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus ishlarni o'tkazishni talab etadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqini shakllantirishning ikki yo'nalishi mavjud. Har ikki yo'nalish ham o'z vazifalariga ega, ular maqsadga erishishni metodik usullarini qamrab oladi. O'qitishni mazmunini murakkabligi bola rivojlanishida og'zaki nutqni katta ahamiyatga egaligini tan olinishi bilan ushbu ish bo'limiga katta soatlar ajratilganligi izohlanadi. Tayyorlov sinfida ona tiliga xaftada beriladigan 8 soatdan 4 soat og'zaki nutqni o'rgatishga ajratishadi. Og'zaki nutq ustida ishlash eshituv idrokini rivojlantirish va talaffuzga o'rgatish bo'yicha yakka mashg'ulotlarda davom ettiriladi. So'zlashuv nutqiga o'rgatish kar o'quvchilar uchun eng oddiy bo'lgan nutq shaklidan daktildan boshlanadi. Biroq o'qituvchi o'quvchilarga ma'lum qilayotgan barcha so'zlarni u albatta daktillash bilan birgalikda og'zaki aytish shart. Shunday qilib o'quvchilar o'qishni birinchi kunlaridanoq o'qituvchi nutqini ikki shaklda daktil va og'zakida qabul qilishga o'rganishadi. O'qitish jarayonida eshituv apparatlaridan foydalanish o'quvchilarga o'qituvchi nutqini ko'ruv-eshituv orqali qabul qilishga imkon beradi. Muloqotga kirishishni egallash jarayonida o'quvchilar so'z materiallarni qabul qilishni ko'p qismi ham daktil ham og'zaki o'rganishadi, chunki daktil nutqining barcha materiali eshituv-ko'ruv orqali og'zaki nutqni qabul qilishga ham shart hisoblanadi. Ammo og'zaki nutqni o'rgatishni ikkinchi yo'nalishi – o'quvchilarda talaffuz malakalarini shakllantirishdir. Ish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi o'quvchilarni doimiy ravishda o'qituvchi singari barcha daktil materiallini og'zaki bayoniga undash bilan bog'liq. Bu talablar o'quvchilarning nutq harakat apparatini faollashuviga asos bo'ladi, so'zlarni talaffuzini yaqin o'zlashtirishga zamin yaratadi. Talaffuzga o'rgatishni ikkinchi yo'nalishi, asosiy talaffuz ustidagi sistematik ishni nazarda tutadi. Biroq bu holatda ham nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga yo'naltirish o'z kuchida qoladi. bu shuningdek nutqiy materialni tanlashga (muloqotda zarur bo'lgan so'zlar) va talaffuz malakalarini ishlash jarayoniga ham ta'luqli holda o'tkaziladi.

Kar bolalar tomonidan og'zaki nutq shaklini egallanishi daktil nutqiga qaraganda qiyinroq o'zlashtiriladi. Karlar maktabida bolalarni muloqot quroli sifatida shakllantirish bu nutq turiga o'rgatish ta'limni birinchi kunlardan boshlanadi. Tayyorlov sinfida og'zaki nutqni shakllantirish tilga o'rgatishni umumiy tizimiga kiritiladi va daktil nutqining ilgarilovchi rivojlanish sharoitida amalga oshiriladi.

II.2-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqni idrok etishga o'rgatish

Og'zaki nutqni ko'ruv orqali idrok etish surdopedagogikada o'z sinonimlariga ega (Labdan o'qish, yuzdan o'qish). . Karlar tomonidan og'zaki nutq organlari xarakterlariga ko'ra qabul qilinadi. Og'zaki nutqni labdan o'qish orqali idrok etish jarayoni murakkab, chunki bunda karlar tez o'zgarib almashinuvchi artikulyatsion organ harakatlarini kuzatib borishlari lozim. Ammo barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, karlar labdan o'qish malakalarini o'zlashtiradilar, ularning ko'pchiligi esa nutqni artikulyatsiyasiga ko'ra qabul qilinadi. Thomas Arnold ta'kidlashicha labdan o'qish asosida og'zaki nutqni qabul qilish, avvalom bor kar bola xotirasida joylashgan nutq xarakter obrazlarining aktuallasuvi hisobida amalga oshiriladi. Ular butun so'z va so'z birikmalariga mos kelishi, karlarning nutqiy va hayotiy tajribalarini ma'lumotiga tayanadigan ongli kombinatsiya hisobiga moslashishi lozim. Kar bolalar artikulyatsion organlarning alohida harakatlariga muljal qiladilar. Bu bog'liqlikda labdan o'qish sifati ko'p jihatdan karlar nutqiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqadi. So'zlashuv nutqini rivojlanganlik darajasi yuqori bo'lgani sayin, labdan o'qish malakasi ham shuncha yaxshi bo'ladi¹⁷. Tilga o'rgatishni kommunikativ tizimini shakllanishi davrida kar bolalarda labdan o'qish malakasi daktil nutqiga tayanib shakllangan. S.A.Zikov e'tirof etishicha, o'quvchilarda birinchi kunlardayoq analitik-sintitik faoliyatning predmeti bo'lgan daktil nutqiga tayanish og'zaki nutqni shakllanishiga asos bo'ladi. To'liqligicha qabul qilinadigan so'z obrazi daktillash asosida qismlarga ajratiladi. So'zlarni daktillashda o'z bayon etilgan so'z artikulyatsion harakatlariga bog'liq bo'ladi. So'zlarni qabul qilishni (idrok) osonlashtiradi. Labdan o'qishga o'rgatish avval daktilda o'zlashtirilgan nutqiy materialda quriladi. Nutqiy materialni tushunish, labdan o'qish ko'nikmalarini egallashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Labdan o'qishga o'rgatish og'zaki nutqiy shakllantirishning muvofaqqiyatini ta'minlovchi muhim omil, bu nutqni mulohot quroli sifatida shakllantirishni umumiyligida mujassam bo'lgan. Muloqotga kirishish, atrofdagilar nutqini qabul qilishni zarurligi, boshqalar bilan muloqotga kirishishni rivojlantirib borish og'zaki nutqni ko'rish idroki rivojlantirish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq labdan o'qish jarayonida daktillashni katta yordamiga qaramay uning qo'llanilishi o'qitishni (ta'limni) ma'lum bosqichida chegaralangan. O'qituvchi tomonidan so'zni daktil va og'zaki berilgani asosida, so'zni qabul qilish mashqlaridan so'ng bolalar nutq materialini faqat yuzdan o'qishga o'tkazilgan. S.A. Zikov ta'kidlashicha bola nutqni avval bir vaqtda ikki shaklda (og'zaki va daktildi) so'ng faqat og'zaki qabul qilishga o'rgatish ushbu tizimning yuzdan o'qishga o'rgatishni asosiy yo'li hisoblanadi.

Labdan o'qishga o'rgatishni asosiy yo'llarini amalga oshirish uslubiyati yuqorida keltirilgan S.A.Zikov yoki F.F. Raularning ishlarida keltirib o'tilgan. 70

¹⁷ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. 36 p.

yillarda o'tkazilgan kar bolalarni eshituv idrokni rivojlantirish sohasidagi kuzatishlar, izlanishlari yuqorida tasvirlangan ish tizimiga o'zgartirish kiritdi. Ye.P. Kuzmichyova izlanishlari karlarning eshituv qoldig'ini rivojlantirishda va karlar nutqini shakllanishida xatto chuqur zarurlangan, eshituvini ham muhim rolini isbotlab berdi. Uning fikricha kar o'quvchilarda eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha ishning asosiy vazifasini ularning eshituv qoldig'ini maksimal rivojlantirish, ular tomonidan og'zaki nutqni qabul qilish uchun rivojlanayotgan bazaga ko'ra yangi eshituvni ko'ruv asosni yaratishini ko'zda tutadi. Rivojlanish butun o'quv tarbiyaviy jarayonda ovoz kuchaytirgach apparatlarni keng qo'llash asosida qurilgani uchun, ushbu ish labdan o'qishga o'rgatishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Labdan o'qish malakasining ishlatilishi kar bolalarni eshitish qoldig'ini keng qo'llash sharoitlarida nutqga o'rgatish tizimida ham qo'llaniladi. Agar karlar tomonidan og'zaki nutqni qabul qilish, nafaqat ko'rishga (bolalar nafaqat daktillashdagi barmoqlar xarakterini va og'zaki ifodalash artikulyatsion xarakterlarni qabul qilishadi) balki nisbatan zararlangan bo'lsada eshitishga ham asoslanadi. Aynin shuning uchun ko'rish organi orqali nutqiy qabul qilish eshitish bilan to'ldirilganda pedagogik jarayonda jamoa va yakka eshituv apparatlaridan keng foydalanishda og'zaki nutqiy eshitish, ko'rish idroki faoliyati samarali bo'ladi. Kar o'quvchilarni eshitish qoldig'idan foydalanish va rivojlantirish tizimini ishlab chiqish (E.P. Kuzmicheva) tilga o'rgatishi kommunikativ tizim sharoitlarda o'tkazilgan. Og'zaki nutqni shakllantirishning barcha tamoyillar nutqni shakllantirish yo'llarida amalda saqlanib qoladi, bundan tashqari eshitish idrokini rivojlantirish bo'yicha ishning barcha tizimi og'zaki nutqni shakllantirishga va tilni muloqot quroli sifatida shakllantirishga ta'sir etuvchi faktorlarni inobatga oladi.

Daslabki nutq shakli daktil hisoblanadi, biroq o'qituvchi tomonidan nutqiy materialni daktil shaklida bayon etilishi, og'zaki so'zlashni ovoz ko'chaytirgich apparatlari foydalanishi bilan birga kechadi, ya'ni o'qituvchi og'zaki daktilda so'zli ifodani ko'rsatib, har bir so'zni mikrofondan talaffuz etadi. So'zni o'zlashtirib borish darajasiga ko'ra so'zli ifodalar qo'llanilishi olib tashlanadi. O'qituvchi daktil nutqini istisno etadi va bolalar materialini eshitish, ko'rish asosida idrok (qabul) etishadi (O'qituvchi doim mikrofondan bolalar esa naushniklardan foydalaniladi). Daktil nutqida materialni ifodalashda foydalanilgan metodik usullar nutqni eshituv-ko'ruv idrokini o'rgatishda ham qo'llaniladi. Ulardan biri u yoki bu so'z, iborani qo'llanilishini talab etadigan vaziyatlarni yaratish (Masalan: predmet-amaliy ta'lim darsida "Ol" fe'li ustida ish olib boriladi. Avval bolalarga (og'zaki daktilda). "Qog'ozni ol" (qaychi...) kabi vazifalar beriladi. So'ng ushbu vazifalar boshqa o'quvchilarga daktilsiz beriladi. Ko'rsatmalar kombinatsiyalangan tarzda ham berilishi mumkin: ishlab chiqilayotgan so'z – og'zaki, qolganlarning barii (o'quvchilar tomonidan ham egallanmaganligi) – og'zaki daktilda beriladi. Agar bolalar matrielni o'zlashtira olmasalar, o'qituvchi tomonidan vazifa daktillab takrorlanadi. Boshqa usul – vaziyatlardan foydalanish, ular predmet-amaliy faoliyat sharoitida tabiiy kelib chiqishi kerak va nutqiy materilni qo'llanilishini talab etish lozim. Masalan, o'quvchining qalami sinib qoldi, o'qituvchi eshituv-ko'ruv idrokiga mo'ljallangan vazifa beradi. O'xshash vaziyatlarni qo'shimcha yaratish, maxsus

mashqlarni o'tkazilishi, o'qituvchi nutqini daktil qo'llanishsiz qabul qilish malakalarini yetarlicha tez rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek nutqiy eshitish-ko'rish idroki malakalarini rivojlantirish uchun didaktik o'yinlar keng qo'llaniladi. Nutqni eshituv-ko'ruv idrokini shakllantirish bo'yicha ishlar barcha qolgan darslarda, daktil nutqi darslarni kiritganda o'tkaziladi. Avval o'qituvchi bolalarga yangi materialni eshituv apparatlaridan foydalangan holda og'zaki daktilda taklif etadi, so'ng u daktilsiz amalga oshiriladi. Og'zaki, nutqiy eshituv-ko'ruv idroki tayyorlov sinfi kar bolalari uchun sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va ulardan katta diqqatni e'tiborni talab etadi. Bu ishni tashkil etishda inobatga olish kerak. Nutqiy eshituv ko'rish orqali idrok etishga o'rgatish uchun maxsus vaqt ajratish (haftasiga ikki soat) maqsadga muvofiqdir. U og'zaki nutq darslaridan ajratiladi. Bu vaqtni daktil nutqi darslari bo'yicha taqsimlangani ma'qul. Kombinatsiyalashgan darslarni o'tkazish, yarim dars daktil nutqiga o'rgatish, yarim dars – og'zaki nutqiy eshituv ko'ruv orqali idrok etishga o'rgatish yaxshi samara beradi. Bunday darslarni o'tkazishini o'quvchilar ish qobiliyatini saqlash, ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. O'qituvchi uchun ushbu darslarni tashkil etish ham qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki mavzu maqsad birligi saqlanadi. Darsning birinchi va ikkinchi qismi uchun material umumiy bo'lishi mumkin va farqlanishi faqatgina uning berish ususliga ta'luqli bo'lishi mumkin. Avval og'zaki daktilda, so'ng o'qituvchining daktillashsiz o'quvchilarni og'zaki nutqiy eshituv – ko'ruv orqali idrok etish o'rgatishda, o'qituvchi so'zi yaxshi yoritilgan bo'lishi zarur. Noaniq artikulyatsiyaga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar 2-3 marotaba qaytarilgandan so'ng o'quvchilar so'zni iborali (idroki) etilmasa, o'qituvchi ularni mos daktillash bilan qaytaradi, so'ng yana bir marotabadan usiz qaytaradi. Nutqni kuruv-eshituv orqali idrok etishga o'rgatish yakka mashg'ulot soatlarida ham ya'ni darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi.

Shunday qilib tayyorlov sinflarida o'quvchilarni og'zaki nutqni eshituv-ko'ruv orqali idrok etishga o'rgatish butun o'quv tarbiyaviy jarayon va maxsus ajratilgan vaqt mobaynida amalga oshiriladi. Butun nutqiy material dastlab o'qituvchi tomonidan ovoz kuchaytirgich apparatlaridan foydalangan holda og'zaki daktilda keyinchalik daktillashsiz beriladi.

II.3-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ekspressiv og'zaki nutqqa o'rgatish

Og'zaki nutqni mustaqil qo'llashga o'rgatish yuqorida keltirilganidek ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchi yo'l butun o'quv tarbiyaviy jarayon davomida o'qituvchi nutqini eshitish va eshituv-ko'rish asosida idrok etish bilan amalga oshadi. Bu holatda talaffuz malakalarini shakllantirish maxsus o'qitishlarsiz informal tarzda amalga oshiriladi. Talaffuzga o'rgatish informal yo'li – nutq xarakat organlarini faollashtirishga xizmat qiladi, ba'zi talaffuz malakalarini egallashga zamin yaratadi. O'qituvchi bolalarni o'zining og'zaki nutqini eshituv-ko'rish asosida idrok etib unga taqlid qilishga undaydi, tasdiqlaydi, to'g'ri artikulyatsion xarakatlarni qo'llaydi, noto'g'ri artikulyatsiyadan ogoh etadi. U o'z diqqatini nafaqat bolaning nutq tovushlarini talaffuziga emas, balki ovoziga bolalar nafasiga, nutqning bog'liqligiga qaratadi. Ushbu ishda katta yordamni ovoz kuchaytirgich apparatlari ko'rsatadi, ular

o'quvchilarga o'qituvchi nutqini qabul qilish imkonini va individual mikrofonlarni qo'llash orqali o'zlarini eshitish imkonini beradi. O'qituvchi bilan birga yoki uning ortidan barcha materialni ko'rish eshitish orqali qabul qilib bolalarni gapirishga doimiy undash nafaqat ularning nutqiy apparatini faollashtiradi, balki ularda og'zaki nutqni qo'llashni doimiy malakasini tarbiyalaydi.

Biroq nutqni talaffuz tamoyili shakllantirish uchun birgina informal yo'lning o'zi kifoya emas. Ikkinchi yo'l ham – talaffuz malakalarini maxsus, rejali shakllantirish zarur. Ushbu ish og'zaki nutq darslarida, yakka mashg'ulotlarda, fonetik mashqlar davomida amalga oshiriladi va o'z ichiga tovushlarni, so'z iboralarni ishlab chiqishni normal ovoz va to'g'ri nutqiy nafasni ishlab chiqishni qamrab oladi. Talaffuzni shakllantirish nutqni ifodalashni aniqligini rivojlantirishda katta o'rni musiqiy-ritmik mashg'ulotlarga ajratiladi.

Og'zaki nutq darslarining mazmuni nafaqat talaffuz ustidagi ishlarni, balki ushbu nutq shaklidan muloqotda foydalanishga o'rgatishni nazarda tutadi. O'qitish materiali og'zaki nutq dasturiga ko'ra ajratilgan va Rau, Slezinalar tomonidan ishlab chiqilgan talaffuzni o'rgatishni konsentrik metodida ko'rsatilgan nutq tovushlarini ishlab chiqishlarini ishlab chiqishni ma'lum izchilligini hisobga oladi.

Og'zaki nutq darslarida so'zning tovush tarkibi ustida ish olib boriladi. Shuning o'zida so'zning ma'nosi yoritiladi, bolalar uni talaffuz qilishni muloqotda qo'llashni o'rganishadi. So'zning talaffuz ustidagi ish uning ma'nosini yoritib berilgandan so'nggina boshlanadi. Shu maqsadda og'zaki nutq darslarida daktil nutqiga o'rgatish metodik usullarda qo'llaniladi. Bu sharoitlarda kerakli so'z qo'llanilishi shart.

Aniq ahamiyatga ega so'zlarni ma'nosi turli ish turlarini qo'llash yo'li bilan ochiladi. Predmetni rasmini ko'rsatish, rasmni nomlash, so'zning grafik elementlariga ko'ra so'zni og'zaki shaklda ifoda etish (xarf, bo'g'in, so'zlarni o'qish, xarakatga ko'ra so'zni ifodalash). So'zni berish uslubiyati (metodikasi) quyidagicha:

O'qituvchi predmetni (rasmni) ko'rsatadi, uni og'zaki daktilda nomlaydi, o'quvchilarni birgalikda talaffuz etishga undaydi. Bolalar uni eshituv-ko'ruv orqali idrok etadilar, og'zaki – daktilda ifodalaydilar. So'ng har bir o'quvchiga so'zni mikrafon orqali talaffuz etish imkoni beriladi va o'qituvchi ishlab chiqilayotgan tovushning talaffuzini baholaydi. O'quvchilar so'zning tovush tarkibini o'zlashtirib olganlaridan so'ng ular so'zni daktillashsiz talaffuz etadilar. Olingan talaffuz malakalari yakka mashg'ulotlarda mustahkamlanadi. Shuunday qilib, tovush talaffuzi ustidagi ishning boshlang'ich materiali uchun butun so'z xizmat qiladi. U avval butunligicha so'ng qismlarga bo'lib talaffuz qilinadi. O'qituvchi bolalar diqqatini fonemalarni bug'inlarda va yakka talaffuz etishga qaratadi. Bunday analizdan so'ng so'zni sintez qismi ustida ish boshlanadi ya'ni fonemalarni bug'inlarga, bug'inlarni so'zlarga bog'lash. Talaffuz ustida ishlashni bunday yo'li talaffuzga o'rgatish analitiko-sintitik metodiga mos tushadi.

Og'zaki ekspressiv nutqga o'rgatish qisqartirilgan fonemalar tizimida qabul qilingan tovushlarni qo'yish tartibiga ko'ra tanlangan materialda olib boriladi. Talaffuzga o'rgatishni konsentrik metodi qisqartirilgan fonemalar tizimini qo'llashga asoslanadi. Talaffuzni barcha bo'limlari bo'yicha talablarni ortib borish izchilligini

nazarda tutadi. Boshlang'ich (ilk) o'qitish ikki konsentrdan iborat, ularning birinchisi tayyorlov sinfi bilan mos tushadi, ikkinchisi bir va ikki sinflarni qamrab oladi. Tayyorlov sinfida o'quvchilar asosiy 17 fonemani aniq talaffuzini egallaydilar: "a", "o", "y", "e", "u", "p", "t", "k", "f", "s", "sh", "x", "v", "m", "n", "l", "p" – va ikki jarangli tovushlarni: "b", "z". Ushbu tovushlardan tuzilgan so'zlarni bolalar aniq talaffuz etishadi. Shu tovushlarning o'zi artikulyatsiya bo'yicha yaqinlarni o'rindoshi hisoblanadi, masalan, "s" tovushi "s" – "z"- "z". Tovush ustidagi ish izchilligi dasturda keltirilgan, darslik betlarida o'z ifodasini topgan. Tayyorlov sinfini 4-choragiga kelib kar o'quvchilar asosiy tovushlarni talaffuzini egallashadi. Og'zaki nutq darslarini bu davrdagi material bo'lib daktil nutqida egallangan ibora, so'zlar hisoblanadi. Bu esa 4 chorakka kelib darslarning nutqiy mazmuni ancha kengayishini anglatadi va bu bolalarga og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida o'qitish ishlarini ancha jadal kechishi imkonini beradi. Bu davrda o'qituvchi talaffuzni ikki turlanishlari ifodalovchi bolalar nutqini sinchkovlik bilan kuzatib borishi kerak. Birinchisi – 17 asosiy tovushlarni so'zlarda aniq talaffuz etish (og'zaki va daktil nutqining dasturidagi so'zlar), ikkinchisi – qisqartirilgan fonemalar tizimiga ko'ra asosiylari bilan almashtiriladigan tovushlarni o'z ichiga oluvchi so'zlarni talaffuz etish. To'rta chorakka qadar bolalar nutqida talaffuzni uchinchi turi ham mavjud bo'ladi. Hali egallanmagan asosiy fonemalar va tovushlar imkon darajasida talaffuz etiladi. Bu holatda kerakli tovush o'rnida o'quvchilar faqatgina artikulyatsiya elementini berishadi yoki tovushni butkul tushurib qoldirishadi, qisqartirilgan fonemalar tizimida keltirilmagan tovush bilan almashtiradilar. Nutqni talaffuz tomoni ustidagi ish uslubiyatini kengaytirilgan tavsifi F.F.Rauning "Ustnaya rech gluxix" (M. 1973), o'quv qo'llanmasida berilgan. Talaffuzni shakllantirish va eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan yakka mashg'ulotlarni tashkil etishi shva o'tkazish masalalari T.R.Sakolovskayaning "Razvitie sluovogo vospriyatiya gluxix uchashixsya" (M. 1987) o'qituvchilar uchun qo'llanmasida yoritilgan. Bu masala bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlarni mavjudligi uni kengaytirib ko'rmaslikka imkon beradi.

Og'zaki nutq darslarida va yakka mashg'ulotlar soatlarida shakllangan talaffuz malakalari barcha o'quv-tarbiyaviy jarayon mobaynida takomillashib boradi. Shu maqsadda o'qituvchi bolalar bilan muloqotda og'zaki nutqiy material qo'llashga ishlatiladi. Xatto bolalar o'zlashtirilgan elementar so'zlar ham ("ana", "shu yerda") ular nutqiga kiritilishi lozim. Bundan tashqari og'zaki nutqni chegaralangan materialida shakllangan talaffuz malakalarini daktil nutqida egallangan so'z va iboralarga yoyish lozim. Karlarni og'zaki nutqini shakllantirish bo'yicha o'qituvchining maqsadga yo'naltirilgan sistematik ishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Shunday qilib, og'zaki nutqni talaffuz malakalarini shakllantirish o'zaro bog'langan ikki yo'l orqali amalga oshiriladi. Birinchisi – informal (maxsus o'qitishsiz) – butun o'quv tarbiyaviy jarayon mobaynida o'z o'rniga ega va barcha darslarning nutqiy materialida amalga oshiriladi. Ikkinchi yo'l fonetik tamoyilga ko'ra tanlangan materialda talaffuz malakalarini ravon ishlab chiqishni nazarda tutadi va yakka mashg'ulotlarga o'tkazish bilan og'zaki nutq darslarida amalga oshiriladi. Tovushlarni qo'yishda bolalarning barcha saqlangan analizatorlari mavjud eshituv

qoldig'idan foydalaniladi

II.4-§. Maxsus maktabda og'zaki nutq darsi

Og'zaki nutq darsi faqat tayyorlov sinflarining o'quv rejasida mavjud. U birinchi sinflarda o'tkaziladigan nutq o'stirish darslaridan farq qiladi, farqlanishlar og'zaki nutq shakllantirish vazifalaridan kelib chiqqan. Ushbu darslarda ish o'quvchilarda eshitadiganlarning asosiy muloqot quroli bo'lgan va kar o'quvchilarni egallashlari ancha qiyin bo'lgan nutq shaklini shakllantirishdan boshlanadi. Og'zaki nutq darsini birinchi navbatdagi vazifasi kichik kar o'quvchilarda og'zaki nutq shaklini muloqot quroli sifatida shakllantirish hisoblanadi. Aynan shuning uchun dars mazmuni, uni tashkil etish unda qo'llaniladigan mashqlar, vazifalar, masalalar, ish turlari bari ushbu masalani xal etishga yo'naltiriladi. Biroq og'zaki nutq darslari bolalar tomonidan so'zlarni, iboralarni, ularni muloqotda qo'llash ko'nikmasidan tashqari, nutq tovushlarni, talaffuzning turli tomonlari ustida maqsadga yo'naltirilan ishni nazarda tutadi.

Shuningdek, nutq ustirish darslarida talaffuzga o'rgatish ishlari o'tkaziladi (to'g'ri talaffuz mashqlari, uni korreksiyalash) ammo asosiy diqqat bunga emas, balki turli nutqiy malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Savollarga javoblar, hikoyalarni, rasmlarni turli tasvirlash, suhbat va boshqalar. Tayyorlov sinfi o'quvchilari og'zaki nutq darslarida ish ko'p hollarda ovoz chiqarish, tovush qo'shishdan boshlanadi. Ilk tovushlar – “a”, “o” darhol so'zga kiritiladi. Ushbu tovushlar mavjud so'zni o'quvchilar ko'ruv-eshituv idrok etishga va og'zaki talaffuz etishga o'rganishadi. Keyinchalik har bir yangi tovush bolalarga so'zlarda beriladi. Darsda so'z ma'nolari ochib chiqiladi (yuqorida keltirilgan ish turlarini qo'llab) va o'quvchilar uni talaffuz etishni o'rnaishadi. Shu maqsadda qayta ishlashni talab etuvchi tovushni ajratib olish bilan so'z analizi o'tkaziladi. O'quvchilar uni alohida talaffuz etishga, so'ng bo'g'inlarda va keyin yana butun so'z tarkibida talaffuz etishga mashq qildiriladi. Darsdagi keyingi barcha ishlar yangi so'zni anglab yetishga yo'naltiriladi (uni ma'nosi va talaffuzi, uni nutqda qo'llash sharoitlariga ko'ra amalga oshiriladi). Og'zaki nutq darslarida og'zaki, yozma va daktil nutq shakllari qo'llaniladi, biroq daktil nutqi ushbu darslarda asosiy emas balki yordamchi vosita hisoblanadi. U o'qituvchi tomonidan yangi so'zni ma'lum qilishda (agar u daktil nutqi darslarida ishlatilmagan bo'lsa). Shuningdek o'quvchilar nutqiy materialni ko'ruv-eshituv orqali qabul qilishga qiynalغانlarida qo'llaniladi. o'quvchilar daktil nutqini yangi so'zni tovush, xarf tarkibini anglashda va uni talaffuz etishga qiyinchiliklarga duch kelganlarida qo'llashadi. Yozma nutq yangi so'zni ma'lum qilishda (odatda tablichkadagi yozuvlarda) o'qishga asoslangan mashqlarda (so'zlarni, iboralarni o'qishda, so'zlardagi tushirib qoldirilgan xarflarni to'ldirishda, so'z juftliklarini tanlashda va boshqalarda) qo'llaniladi. Biroq yozma nutqni qo'llashga ko'p kirishib ketmaslik kerak. S.A.Zikovning e'tirof etishicha, o'qish orqali talaffuzga o'rganuvchi bolalar artikulyatsion jihatdan juda kam tayyorlangan bo'ladi. Axir ular so'zlaganlarida, ularning ko'z o'ngida yozilgan matn bo'lmaydi.

Ishning bunday usuli biz keltirgan tizimda ayniqsa maqsadga muvofiq emas.

Bu jarayon keyinchalik nutq xarakat analizatorini rivojlantirish bilan kechadigan qo‘lning xarakat analizatorini dastlabki qo‘llash va rivojlantirish asosida namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutq darslarida qo‘llaniladigan ish turlari orasidan so‘zlarni o‘qish emas balki mustaqil ifoda etishga asoslangan maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda quyidagi ish turlari keng qulmanilmoqda: predmetlarni, ularni modellarini, rasmlarni, ularning ko‘rsatish bo‘yicha xarakatlarni namoyish etish, savollarga javoblar va boshqalar. Og‘zaki nutq darslarida turli xil o‘yinlar, og‘zaki nutqiy muloqotda qo‘llashi o‘rgatish uchun sharoit yaratuvchi vaziyatlar qo‘llaniladi. Daktil nutqiga o‘rgatishda qo‘llanilgan o‘yinlar, og‘zaki nutq darslarida ham qo‘llanilishi mumkin. Og‘zaki nutq darslarida materialni qayta ishlashni umumiy sxemasi quyidagicha:

- ❖ O‘qituvchi so‘zni ma‘lum qilishi (mikrofonda, og‘zaki daktilda, so‘zli ifodani ko‘rsatib);
- ❖ O‘quvchilar tomonidan so‘zni ifodalanishi (og‘zaki daktilda, og‘zaki);
- ❖ Uning talaffuzini qayta ishlash (so‘z, bug‘in, tovush);
- ❖ So‘zlarni ifoda etishdagi mashqlar.

Daktil nutqini qo‘llanilishi so‘zning analizini uning sintezini ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun og‘zaki nutq darslarida so‘zni to‘liq talaffuz etishga, alohida va so‘z iboralarda qo‘shib va ritmik talaffuzini ishlab chiqishga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir. Talaffuzga o‘rgatish metodi analitik-sentetik, konsentrik deb nomlanishi mumkin. Ishning umumiy sxemasi og‘zaki nutq darsining qurilishida o‘z aksini topadi. Dars mavzusi dasturga ko‘ra belgilanadi. Dars maqsadi uning vazifalariga ko‘ra aniqlanadi. Yangi so‘z bilan tanishtirish, tovushni so‘zlarda talaffuz qilishni mashq qildirish va boshqalar. Darsni jihozlashda kerakli predmetlar kiritiladi: rasmlar, o‘yinlar uchun jihozlar, so‘zli ifodalar, “Talaffuz”, nutq o‘stirish, “Alifbe” darsliklari.

Savol va topshiriqlar

1. Og‘zaki nutqqa o‘rgatish mazmunini yoriting.
2. Tayyorlov sinflarida og‘zaki va yozma nutqqa o‘rgatish uslubiyatini o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rsating.
3. Og‘zaki nutqqa o‘rgatish bo‘yicha ish turlarini tavsiflang.
4. Og‘zaki nutqqa o‘rgatish bo‘yicha dastur talablarini yoriting.
5. Og‘zaki nutq darslarida materialni qayta ishlashni umumiy sxemasi qanday bo‘ladi?
6. Og‘zaki nutq dars maqsadi uning vazifalariga ko‘ra qanday aniqlanadi?
7. Maxsus maktabda og‘zaki nutq darsi mazmunini yoriting.
8. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni og‘zaki nutqni idrok etishga o‘rgatish turlarini tavsiflang
9. . Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni ekspressiv og‘zaki nutqqa o‘rgatish turlarini tavsiflang

III -BOB. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatish uslubiyati

III.1-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning zamonaviy usuli

Savodga o'rgatish tayyorlov sinfida nutq ustida ishlashni uchinchi bo'limidir. Ushbu bo'limning maqsadi kar o'quvchilarda o'qish va yozishni boshlang'ich bilimlarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Og'zaki nutqdagi singari bu yerda impressiv o'qish va ekpressiv yozish shakllari ajratiladi. U yoki bu nutq shakllarini egallash nafaqat karlar balki, eshitadigan bolalar uchun ham sezilarli qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchiliklar o'qish texnikasi va o'qilganni anglash bilan bog'liq.

O'qish va yozish malakalari – bu nutqiy malakalar, o'qish va yozishni o'zi esa nutqiy faoliyatni shunday turishi namoyon etadiki, ularni egallashda motiv va ehtiyojlar katta ahamiyatga ega. Agar og'zaki nutqni eshitadigan bolada atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish jarayonida deyarli qiyinchiliklarsiz egallansa, yozma nutqni egallash uni anglab o'rganishni talab etadi. O'zbek yozuvi – tovushli, fonemali, har bir fonema o'z belgi va grafikani xosligidir. O'qish mexanizmi yozma bosma belgilarni, ularning xayoliy birlik komplekslarini qayta kodlashdan iborat. Yozish mexanizmi mazmunini, birliklarni shartli birliklarga ko'chirilishida ifodalanadi. Yozuvda tovushlar harflarga, o'qishda esa tovushlari qayta kodlanadi. Psixologlar, tilshunoslar, metodistlar o'qish va yozish jarayonini psixologo – fiziologik asoslarini yoritib borib, bolalar tomonidan ushbu nutqiy faoliyatlarini egallash, ulardan irodaviy, aqliy, jismoniy malaka ko'nikmalarni shakllantirishni talab etishini belgilab o'tganlar. O'qitish boshida o'qish jarayoni shoshmasdan amalga oshiriladi, chunki bolaning «o'qish maydoni» bir harfni tashkil etadi, u harfni qabul qilishi, tushunishi uni kerakli tovushga o'girishi lozim. So'zda nechta harf bo'lsa shuncha bosqichlarni o'tash zarur. So'ng tovushlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni so'zlarga qo'shish kerak. o'qishni texnik tomoni katta e'tibor va diqqatni, kuchni talab etadi. Ammo o'qilgan so'z doim ham bola tomonidan tez tushunilmaydi. O'qilganni ahamiyatini tushunish o'qish jarayoni bilan bir vaqtda kechmaydi. O'qishdagi katta qiyinchilik tovushlar birlashuvida sodir bo'ladi. Bolalar alohida tovushni talafuz etadi, ammo ularni bo'g'inlarga birlashtira olmaydi.

Hozirda ommaviy maktablarda savodga o'rgatishda tovushlarni analetik – sintetik metodi qo'llanilmoqda. U o'qituvchilar amaliyotida yig'ilgan va yetakchi metodikaga ko'ra ishlab chiqilgan barcha yaxshi narsalarni o'z ichiga oladi. Ushbu metodga ko'ra o'qituvchi bolalarni nutqda so'zlarni, so'zlarda bo'g'inlarni, ularda tovushlarni ajratishga o'rgatish lozim. Tovushni talaffuz etilishi ajratgandan so'ng o'qituvchi ushbu tovushning belgisini, ya'ni harfni ko'rsatadi. So'ng bolalar yangi harf bilan bo'g'in va so'zlar tuzishni o'rganadilar.

Surdopedagogikada mavjud bo'lgan nutqga o'rgatish tizimida savodga o'rgatish masalasi turlicha hal qilingan. Mimik sistemada karlarni mimik nutqini rivojlantirish asos sifatida amalga oshiriladi. Ularni yozma nutqga o'rgatishda mimik belgilarini grafik belgilarga o'tkazilishidan foydalanilgan. Yozuvga o'rgatish jarayoni

quyidagilarda ifodalangan: predmet va u haqidagi tushunchani – mimik belgiga undan yozuvga, o‘qishda – grafik obrazdan mimik belgiga undan predmet haqidagi tushunchaga o‘tilgan.

Tilga o‘rgatishni yozma tizimida og‘zaki nutqning bazasi sifatida ko‘riladigan yozma nutq asos qilib olindi. Yozishda tushunchadan uning grafik belgisiga o‘qishda esa grafik obrazdan – tushunchaga o‘tilar edi. Ushbu ikki tizimni qo‘llanilishida savodga o‘rgatish grafik obrazlarni va ularni tushunchalar bilan bog‘liqligini aks ettirardi. Savodga o‘rgatish yozma nutqni rivojlantirish bilan bir vaqtda kechgan, shuning uchun nutqga o‘rgatish haqida so‘zlaganda, savodga o‘rgatishni ham nazarda tutilgan¹⁸.

Sof toza og‘zaki tizimda o‘qish va yozish og‘zaki nutqga o‘rgatish yordamchi vositalari sifatida qo‘llanilgan va bu masalani hal qilishda asos bo‘lgan. Thomas Arnold shunday degan: «kar o‘quv muassasalarida, yozish va o‘qishga o‘rgatiladi. Kar o‘quvchilarni yozma nutqini shakllantirishni og‘zaki nutqga o‘rgatish bilan bir vaqtda boshlash lozim deya ta’kidlagan. Thomas Arnold o‘qish va yozishga o‘rgatishda tovush – sintetik metodidan foydalanishni tavsiya etgan: tovush talaffuziga o‘rgatish, so‘ng mos harfning o‘qilishi va yozilishi, undan so‘ng esa bo‘g‘in va so‘zlarni talaffuzga o‘rgatishni samarali usul deb ko‘rsatgan¹⁹.

O‘qish va yozishga o‘rgatish metodikasi rivojlanishida F.A.Rau va N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan alifbolar katta ahamiyatga ega edi. Birinchi alifbo 1903 yilda nashr etilgan edi. Unga ko‘ra savodga o‘rgatishni tovush-sintetik metodikasi amal qilib o‘qituvchilar bolalarni og‘zaki nutqga o‘qitishga o‘rgatib borganlar, o‘quvchilar o‘qib talaffuzni o‘rganishgan. 19-20 yillarda karlar maktabiga o‘sha vaqtda ommaviy maktablarda tarqalgan butun so‘zlar metodi kirib kelgan. Kar bolalar maktablari dasturlarida maktabni barcha ishlari, shuningdek savodga o‘rgatish ham og‘zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qilgan. Va o‘qish va yozish materiali sifatida ma’nosiz tovushlar birlashmasi emas balki so‘z va iboralar xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Ammo o‘quvchilarga so‘zning tovush tuzilishini anglash taklif etilmagan. Shuning uchun so‘zlarni grafik obrazli eslab qolish va ularni o‘qishda eslash rasmiy o‘lik holda bo‘lgan. Yozishda bolalar harflarni birin-ketin ko‘chirib olishgan.

1939 yilda F.A.Rau va N.A.Raularning yangi «alifbe»si paydo bo‘ldi. Unda savodga o‘rgatish metodlarini rivojlanishini keyingi bosqichi ifodalangan edi. Uni asosini tovushni analitik-sintetik metodi tashkil etdi. Ushbu savodga o‘rgatish metodini ommaviy maktabda qo‘llanilishini bolalarda eshitish va nutq tovushlarini ajratish, so‘zlarni, bo‘g‘inlarni va ularni umumlashtirishni sintez malakalarini rivojlanishini nazarda tutgan. N.A.Rau va F.A.Raular tomonidan «Alifbe» so‘z boshisida keltirilgan savodga o‘rgatish bo‘yicha ish tartibi ham ishni so‘z va uni talaffuzdan boshlanishi nazarda tutgan, ammo keyingi analiz og‘zaki so‘zga emas yozmaga keltirilgan ya’ni uning harf tarkibi. Analiz kechishida bolalar talaffuziga

¹⁸ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -45 p.

¹⁹ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -52 p.

o'rganganlar. Ushbu «Alifbe» kitobi bo'yicha savodga o'rgatish metodikasi Zikovni quyidagi xulosaga yo'naltirdi: bu metodni tovush emas balki, harf analitik-sintetik metod deya nomlash to'g'ri bo'lar edi, chunki analiz sintez jarayoni so'zli ifoda asosida amalga oshiriladi.

Kar o'quvchilarni o'qitish amaliyotini keyingi rivojlanishi savodga o'rgatishni analitik – sintetik metodini tarkib topishiga olib keldi. 1940 yilda S.A.Zikov tomonidan «Kar - soqov bolalar alifbe»si tuziladi. Bu metod og'zaki nutqni rivojlantirish, savod o'rgatishdan oldin boshlashni ko'zda tutadi. Ushbu metod asosida o'quvchilar tovushni alohida va so'zda talaffuz qilishni o'rganganlaridan so'ng, bu tovushning grafik belgisini ko'rsatib o'tish mumkin. Bunda o'qish va yozishga o'rgatish bir vaqtda amalga oshiriladi.

Savodga o'rgatish tovushlarni qo'yish, og'zaki nutqni rivojlanishidan so'ng kelgani sababli savodga o'rgatish muddati 1,5 yilgacha cho'zilgan. Savodga o'rgatishni Ushbu metodikasi 50 – yillar oxiriga karlar maktabida tilga o'rgatish tizimida nutqiy muloqot prinsipini kiritilishiga qadar saqlanib qolgan.

Nutqga o'rgatishni «kommunikativ» tizimi savodga o'rgatishni, tayyorlov sinflarida III – IV choraklarda o'qish va yozishga o'rgatishni nazarda tutadi. Nutqga o'rgatishda daktil nutqi boshlang'ich omil hisoblangan sharoitlarda savodga o'rgatish jarayoni o'ziga xoslikka ega bo'ladi. Yuqorida keltirib o'tilganidek, o'qish va yozishga o'rgatish asosida so'zning analizi va sintezi yotadi. Kar bolalar bu jarayonlar bilan savodga o'rgatishda emas, balki nutqni daktil shaklida egallashda duch keladilar. So'zni daktillab, uni analiz va sintezini o'tkazadilar. Daktil so'ziga o'rgatish o'rgatilayotgan so'z yozilgan jadvalni ko'rsatish bilan kechsa, uni so'zlash uchun o'quvchi jadvalni o'qishi lozim. Daktillab gapirayotganda bolalar daktillarni birin-ketin ko'rsatadilar. Ular harflar izchilligiga qat'iy bo'ysunadilar, ushbu metod yozishga yaqin jarayonni bajaradilar. Daktil nutqiga o'rgatish bolalarni savodni egallashga tayyorlaydi. Shuningdek harf tarkibini ular bu jarayon yo'sinida egallaydilar. Daktil nutqiga o'rgatishda o'quvchilar daktil alifbosida foydalanadilar, ammo ikkinchi chorakdan bolalar daktilni egalab bo'lgach ularga alifbo yangi ko'rinishda beriladi. Unda daktillar bosma harflar bilan birga keladi. O'quvchilarga harflarni maxsus o'rgatilmaydi ammo kesa alifboga doimiy murojaat etish, daktil nutqi darslarida qo'llash harflarni xotirada saqlanib qolishiga zamin yaratadi. Uchinchi chorakda alifbodagi harflar ularga mos daktilsiz beriladi va uni qo'llash bolalarni bosma harf borasidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Birinchi chorakdan harf alifbosini qo'llash mumkinligi tavsiya etilmaydi (Individual va jamoa bilan qo'llanuvchi daktil alifbosini mavjud bo'lmaganida). Chunki bu holatda bolalarda so'zlarni daktil orqali qabul qilishda, daktil belgilari tizimini anglashda qo'shimcha qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin.

Og'zaki nutq darslari ham harf tizimini o'rganishda katta hissa ho'shadi. Bolalar bilan so'zni tovush almashinuvi o'tkazgach o'qituvchi qayta ishlashni talab etadigan tovushni ajratadi va bu tovushga mos harfni jadvalchadagi tasvirini ko'rsatadi. Og'zaki nutq dasturi talablariga rioya qilib, kar o'quvchilar birinchi chorakda 11 ta harfni biladilar, ikkinchi chorakda ular soni 20tadan oshadi. Uchinchi chorakda bolalar barcha harflarni bilishadi, ularni daktil va og'zaki talaffuzi bilan

solishtiradilar (17 ta tovushni aniq talaffuz etadilar qolganlarini yaqin qabul qilish, o‘rin almashtirishga ko‘ra talaffuz qiladi).

Shunday qilib o‘quvchilar so‘zni analiz, sintez jarayonlarini egallab borishi birinchi chorakdan boshlanadi. Yozuvga o‘rgatishga o‘qishga o‘rgatish bilan bir vaqtga emas keyinroq kirishiladi. O‘qish va yozishga o‘rgatishni bunday yondoshuvi ommaviy maktabda qabul qilingan uslubiyatdan sezilarli farq qiladi. Nutqiy materialni analiz sintez bo‘yicha propedevdik ishi bilan, o‘qish va yozish malakalarini shakllantirish ishlarini bir vaqtda boshlamasligi bilan. Yozuvga o‘rgatish yondoshuvi o‘zgartirilgan bo‘ladi. Karlar maktabida savodga o‘rgatish asosan og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun qo‘llangan nutqiy material asosida amalga oshadi. Bu savodga o‘qish darslarida so‘zlarni ma‘nosini bo‘yicha ish olib borilmaydi, ammo bu holat o‘quvchilar tomonidan o‘qilayotgan va yozilayotganlarni tushunish ishlarini mustasno etmaydi.

Nutqga o‘rgatishni kommunikativ tizimi uchun xos bo‘lgan savodga o‘rgatishni bunday yondoshuvi S.A.Zikov tomonidan yaratilgan «alifbo»da o‘z aksini topdi. Unda nutqning uch shakli (daktil, og‘zaki va yozma) orasidagi o‘zaro bog‘liqlik yaqqol kuzatilgan va nutqiy muloqot quroli sifatida o‘rgatishga yo‘naltirilgan. Alifbo betlarida daktil nutqi darslarida egallangan so‘zlarni daktil yozuvi materiali berilgan bo‘ladi. So‘ng harf shiriftida yozilgan so‘zlar qo‘llaniladi. Bu berilgan so‘zlar bola tomonidan og‘zaki nutq darslarida egalanayotganini va og‘zaki talaffuz mumkinligini anglatadi. Darslikni keyingi betlari ham daktil bosma shirftiga ega bo‘ladi, bu o‘qituvchiga bola nutqiga qanday talablar qo‘yish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. «Alifbo»ni oxirgi betlari daktil belgilari berilmagan matnlar bilan tugallanadi. Bu barcha material bolaga og‘zaki talaffuz qilish lozimligini anglatadi. «Alifbe»da shuningdek yozishga o‘rgatish uchun ham material berilgan, u bolalarni asta-sekin oson harflarni yozishdan keyinga o‘tishni namoyon etgan. «Alifbe» daktil nutqiga o‘rgatish, og‘zaki nutq va savodga o‘rgatish darslarida qo‘llanilgan.

S.A.Zikov «Alifbe»si maktabgacha tayyorgarliksiz, tayyorlov sinfiga boradigan, nutqi mavjud bo‘lmagan bolalarni savodga o‘rgatish uchun mo‘ljallangan edi. Chunki savodga o‘rgatishni nutq rivojlanishini ma‘lum darajasisiz amalga oshirish mumkin emas. S.A. Zikov boshchiligidagi 60 – yillar oxiridagi ilgari surgan kar o‘quvchilarni yangi didaktik tizim bo‘yicha o‘qitish predmet amaliy faoliyatini keng qo‘llanilishiga asoslangan bo‘lib, savodga o‘rgatishga yondashuv tamoyillarini o‘zratira olmadi. Ammo P.A.T. qo‘llanilishi o‘qish va yozishga o‘rgatish samaradorligini oshirdi. O‘quv jarayonida P.A.F. qo‘llanilishi, tayyorlov sinfiga P.A.T. darslarini kiritish nutqni muloqot sifatida egallash jarayonini faollashtirdi, o‘quvchilarni nutq boyligini sezilarli kengaytirdi, savodga o‘rgatishda zarur bo‘lgan nutqiy negizni ertaroq yaratishga yo‘l ochdi. P.A.T. darslarida o‘quvchilar birinchi chorakda va xususan keyingi choraklarda yozma ko‘rsatmalar bo‘yicha ishlashadi. Bu esa o‘quvchilar o‘qilganlarni tushunishi o‘qish va yozishga o‘rganayotganlarini anglatadi. Bu sharoitlarda o‘qituvchiga ularni o‘qishlarini anglanganligini, yozma nutqini tushunishlarini nazorat qilish ishlarini tashkillashtirish osonroq kechadi. Bundan tashqari P.A.T. darslarida o‘quvchilar ishlari haqida hisobot beradilar.

Birinchi chorakdayoq ular kesma alifbodan tayyorlangan predmet nomini keyinroq esa tarkibida aniqlovchi, to'ldiruvchi, xoll, kesim kabi bo'laklarni olgan butun gaplarni yig'adilar. O'quvchilar yozma shiriftni egallab borgan sari harflar kassasi bilan ishlash yozma hisobot bilan almashiniladi. P.A.T. darslariga kiritilgan bunday mashqlar bolalar tomonidan o'qish va yozish malakalarini anglab egallashga zamin yaratadi. Savodga o'rgatish darslariga yorituvchi P.A.F turli ko'rinishlarini qo'llaydi, bu o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonga P.A.F. kirib kelishi bilan bog'liq holda kar bolalarni o'qitishni yangi sharoitlari, ularni nutqiy rivojlanishini, savodga o'rgatish ishlarini boshlashi uchun qo'lay imkoniyat tug'iladi. Karlar maktabi uchun tuzilgan ona tili dasturining «tushuntirish xatida» savodga o'rgatish darslarini tayyorlov sinfi birinchi choragidan kiritish imkoniyatlari haqida ma'lumot mavjud. Bu alfabegacha davr bo'lib, unda bolalarni yaqin atrof bilan tanishnadilar, predmetlarni, rasmlarni nomlashga o'rganadilar, ularni nomini kesma alifbodan yig'ilishi, yozuvga tayyorlaydigan mashqlar bajarishga o'rganadilar. Ikkinchi chorakdan alifbe davri boshlanadi uning jarayonida bolalar yozishga o'rganishni boshlaydilar, o'qishga o'rgatish davom etadi. To'rtinchi chorakda alifbedan keyingi davrda o'qish va yozish malakalari mustahkamlanadi.

Dasturni yangi talablari 1985 yili chop etilgan «Alifbe»da o'z aksini topgan. Alifbening muallif jamoasini (F.A.Rau, Z.G.Kas, N.A.Moreva, N.F.Slizinsa) bu kitob og'zaki nutqga va savodga o'rgatish uchun qo'llanilishi mumkinligini e'tirof etadi. Darslikda og'zaki nutqni o'qitish uchun konseptrik metod talablariga mos talaffuzni shakllantirish uchun boy material mavjud. Shu yerning o'zida o'qish va yozishga o'rgatish uchun material kar o'quvchilarni nutqga o'rgatishni zamonaviy tizimida qabul qilingan savodga o'rgatishning asosiy metodik yo'llarini aks ettiradigan vazifalar berilgan.

Turli davrlarda o'qish va yozishga o'rgatish ishlarini mualliflar tomonidan «Alifbe»ga berilgan metodik ko'satmalarida sanab o'tilgan. Kommunikativ tizim shart sharoitlaridagi savodga o'rgatish metodi analiz-sintetik deya nomlanishi mumkin, ammo u amalga oshirilishi uchun nutqga egallash daktil nutq shaklida boshlanishi, og'zaki nutqni o'rgatishda konsentrik metod qo'llaniladigan sharoit zarur bo'ladi. Bu faktorlar savodga o'rgatish jarayonlariga o'ziga xoslik kiritadi: boshlang'ich nutqiy rivojlanish sharoitlarida o'qish va yozishga o'rgatish; bolalar tomonidan o'qish va yozishni bir vaqtda egallanmasligi; so'zlarni to'g'ri grafik obrazini aniq yoki taxminiy talaffuz sharoitida anglash. Tayyorlov sinflarida o'quvchilar o'qish va yozishni ilk malakalarini egallaydilar. I chorakda savod darsining taxminiy tuzilishi (alifbegacha davr) quyidagicha bo'lishi mumkin (Savodga o'rgatish darslari tarkibiga bolalarga daktil nutqi, og'zaki nutq PAT darslarida tanishtirilgan nutqiy material kirishini esalatib o'tish joiz).

III.2-§. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatish uslubi

Daktil nutqiga o'rgatish so'zli jadvallarni qo'llash bilan bog'liq va bolalar I-chorakdan ularni o'qish zaruriyati oldida turadilar. Boshlang'ich davrda bolalar

soʻzlarni analiz qilishmaydi, balki uni toʻliqligicha qabul qiladilar. Bu bosqich uchun dastil soʻzini qabul qilishda analitik faoliyat xosdir. Bir vatqni oʻzida soʻzlarni daktil shaklida qoʻllash boshlanadi, bu bolalarda soʻzlarni analiz – sintez malakalarini shakllantiradi. Bu davrda toʻgʻri oʻqish ustida ishlash boshlanadi.

Biz oʻqituvchi va oʻquvchilarni ogʻzaki nutqni va daktillashga qoʻyiladigan talablar haqida gaplashgan edik. Shuni taʼkidlab oʻtish zarurki, oʻqitishni boshidanoq oʻquvchilarda daktilmalarni aniq va toʻgʻri qoʻllanilishini va ularni soʻzlarda birlashtirishni tarbiyalash zarur. Bundan tashqari har bir oʻquvchi bilan daktil va ogʻzaki soʻzlashni sinxronligiga alohida eʼtibor berish lozim. Materialni egallab borishga koʻra urgʻu ogʻzaki aytishga, talaffuzni bogʻliqligiga tushadi. Uning texnikasi ustida ishlash boshidanoq fikrlangan nutq materiali ustida koʻriladi va anglab oʻqish bilan birgalikda oʻtkaziladi. Avval bolalar jadvallardan alohida soʻzlar, kichik iboralarni oʻqiydilar. Shu bosqichni oʻzidayoq ular har bir soʻz ortida predmet, har bir ibora ortida maʼlum mazmun yotishga koʻnikadilar. Oʻqilgan, anglangan munosabatni ayniqsa PAT darslari asoslanadi, unda har bir yangi soʻz predmet bilan taqqoslanadi. Bunda oʻquvchi har bir oʻqilgan soʻzga alohida eʼtibor berishi lozim, chunki aynan shundan uning predmet amaliy faoliyati kelib chiqadi. Oʻqilganlarni tushunishga oʻrgatish PAT darslarida oʻqituvchini tablichkada yozilgan koʻrsatmalarini bajarishdan boshlanadi. Ular oʻqituvchi bilan birgalikda vazifalarni oʻqishadi va bajarishadi. Oʻquvchilar tomonidan vazifani bajarilishi iborani tushunganlikdan dalolat beradi. PAT darslarida bolalar iboralarni toʻliq qabul qilishlari juda muhim.

Anglab oʻqishga oʻrgatish savodga oʻrgatish darslarida ham davom etadi. oʻqishga oʻrgatish oʻquvchilarga tanish boʻlgan nutqiy materialda oʻtkazilganligi sabab, har bir soʻzni tushunganliklari aniqlash zaruriyati yoʻq. Ular gapda ifodalangan har bir soʻz tarkibini emas, balki uni mazmunini qabul qilishga oʻrganishadi. Xuddi shunday yondashuv matnlarni oʻqishga oʻrgatishda, saqlanib qoladi. Oʻqishga oʻrgatish metodikasi bolalar bilan matnni soʻz taxlilini oʻtkazish tavsiya etmaydi. Ularni mani toʻliqligicha qabul qilishga oʻrgatish zarur. Matn ustida ishlash tuzilmasiga koʻra bolalar matnni toʻla oʻqishadi, soʻng oʻqituvchi bilan birgalikda u yerda kim nima bilan shugʻullanganini aniqlashga harakat qilishadi. Bu ish oʻquvchilarni nima oʻqishganligi haqida uylanishga, oʻqituvchini esa bolalar matnni qanday tushunganliklarini muhokamalashga undaydi.

Shundan soʻng uni qismlarini, oʻqilganlarni mazmunini yoritish ustidagi ish boshlanadi. Oʻqilganlarni tushunganligini aniqlash uchun turli tadbirlar oʻtkaziladi: rasmlar tanlash, mazmunini koʻrsatib berish, predmet amaliy faoliyatini qoʻllash, savol javoblar.

Rasmlarni moslash. Oʻquvchilar iborali yoki matnni qismini oʻqishadi va oʻqituvchi vazifasiga koʻra oʻqilganlarni mazmuniga mos rasm koʻrsatadilar. Rasm oʻqituvchi tomonidan maxsus tayyorlanadi yoki kitobdagi rasmlardan foydalaniladi.

Mazmunini koʻrsatib berish. Mazmunni yoritishini bu usuli ham tayyorlov sinflarida keng qoʻllaniladi. Mazmunni bu tahlil yoʻlini “Alifbe”dagi materialga qoʻllash maqsadga muvofiq boʻladi. Masalan, oʻqituvchi bilan 43 betdagi iboralarni oʻqib, doskaga chiqarilgan oʻquvchi qiz “oʻtir-tur” harakatlarini oʻxshatadilar.

Bolalarni predmet amaliy faoliyatini qo'llanilishini. Matn yoki iboralarni o'qigach o'qituvchi ular o'qigan narsalari haqida chizib berishlarini so'raydi. Bolalar raasmlari ular o'qiganlarini tushunishga yordam beradi.

O'qilganlarni savollar bo'yicha tahlil qilish. Bu usul alifbe betlar asosida keng qo'llaniladi, ammo uni qo'llanilishi tayyorgarlik ishlarini talab etadi. Tayyorlov sinfi bolalari uchun savol ahamiyatini tushunish qiyin. O'quvchilar darslik betlarida duch keladigan birinchi savollar: Bu kim? Bu nima?. O'qilganlarni mazmunini tahlili uchun ushbu savollarni qo'llashdan avval bolalarni mazmunini tahlili uchun Ushbu savollarni qo'llashdan avval bolalarni kundalik muloqot jarayonida savollarga javob berishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir . Bunday tayyorgarlik ishlarini o'tkazilmasligi savolni tushunishda bolalarda qo'shimcha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Bu talablar mazmun ustida ishlashda qo'llaniladigan boshqa savollarga ham taaluqlidir. Bolalarni fikrlash, matn analizini talab etuvchi savollarga javob berishga o'rgatish juda muhim. O'qilganlarni mazmunini tushunishga o'quvchilarni oldindan asosiy nutqiy material bilan tanishuvi asos bo'ladi. Bu nafaqat o'qish darslarida balki boshqa darslarda, sinfdan tashqari vaqtda ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni o'qish vaqtigacha ular matn tarkibiga kiruvchi so'zlar ma'nosi bilan tanish bo'lishlari lozim. Xikoya o'qishdan avval zaruriy mavzuga oid suhbat o'tkazilishi mumkin.

Ongli o'qish ustdagi ish o'qish texnikasini shakllantirish tizimli tarzda olib boriladi . O'quvchilarni matn o'qishga, iboralarni qayta o'qishga undab, o'qituvchi diqqatini o'qish sifatiga qaratadi, to'g'ri o'qish namunasini ko'rsatadi va o'ziga taqlid qilishini talab etadi.

III.3-§. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni yozuvga o'rgatish uslubiyati

Tayyorlov sinfi dasturiga ko'ra o'qishga o'rgatish vaqti yozishga o'rgatishni boshlanishini ilgarilaydi. Kar o'quvchilarda yozma nutq og'zaki daktil asosida shakllanadi. So'z va iboralarni yozishda ular albatta daktillashadi va so'zni talaffuz etishadi. Talaffuz malakalarini rivojlangani sari daktillash kamroq namoyon etiladi, biroq so'z tuzilishini chiqarganda qiyinchilikka duch kelsalar Yana uni daktillashga qaytadilar. Bolalar yozishga o'rganishga daktil nutqiga o'rganish jarayonida tayyorlanib boradilar. Ular so'zlarni analiz va sintez qiladilar, kesma alifbo bilan ishlaydilar. O'quvchilar I chorakda savodga o'rgatish va va PAT darslarida qo'l materikasini rivojlanishiga asos bo'ladigan yozuvga tayyorlaydigan mashqlar bajarishadi. Yozuvga o'rgatishni boshdanoq bolalarda to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlab, daftarni yozish jarayonida surib borish odatlari shakllanadi. O'quvchilar sharik ruchkasidan foydalaniladilar.

Bolada yozuvni harakat malakasi sekin shakllanadi va 7-9 yil o'qitishdan so'nggina avtomatik darajaga yetadi. Har bir malaka mashqlar jarayonida rivojlanib mukammalashib borganligi sabab o'quvchilar o'quvni egallashlari uchun o'qitishni barcha ishlarida ko'p yozishlari kerak.

Kar bolalar maktabida yozilgan xarf bilan tanishish izchilligi, ommaviy maktabdan farq qiladi. U yerda xarf ketma-ketligi, bolalar o'qishga o'rganishlari bilan bog'liq. Karlar maktabida yozuvga o'rgatish o'qishga urgatish bilan qat'iy

bog'lanmagan. Xarflarni grafik o'qilishiga o'rgatish grafik sodda xarflardan murakkablariga qarab ketadi. Ommaviy maktabdagi singari o'quvchilar biroz egib, bosmasdan, uzluksiz yozishga o'rganishadi. Eshitadigan bolalarga qo'yilgan yozish texnikasi talablari maxsus maktablarda ham o'z kuchini yo'qotmaydi. Bu bilan bog'liq holda tayyorlov sinfi o'qituvchisi bolalarni yozuvga o'rgatayotganda ommaviy maktabni metodik (uslubiy) ko'rgazmalaridan foydalanishi mumkin. Yozuv texnikasiga o'rgatishni umumiy talablari quyidagi tarzda bo'lib, yozishga o'rgatish maqsadga muvofiq emas. Bir harakatda yozish mumkin bo'lgan xarflarni elementlarga bo'lmaslik lozim²⁰. Xarflarni bo'lmasdan ulashning turli usullari darslarda maxsus ishlab chiqilgan. Yozuv namunasini o'qituvchi doskada beradi. Xarf yozishdagi xatolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi o'quvchi qo'lidan ushlab yo'naltirishi mumkin. Shu maqsadda o'qituvchini yozuvi ustidan yozish mashqlari ham o'tkazilishi mumkin. Ommaviy maktablardan farqli o'laroq karlar maktabining tayyorlov sinflarida ortiqcha og'zaki tushuntirishlardan bolalarga yozish qoidalarini tushuntirishdan qochish zarur. Xarflarni yozishga tayyorgarlik mashqlari o'z ichiga turli chiziqchalarni, ilmoqchalarni, avallarni yozishga o'rgatishni oladi. Xarflarni yozishga o'rganish izchilligi "Alifbo" betlarida aksini topgan. Yozuvga o'rgatishda imkon qadar o'rganilayotgan xarfni so'zga kiritish lozim, ya'ni nafaqat xarflarni balki so'z va kichik iboralarni yozishga o'rgatish lozim. Kar o'quvchilar yozma nutqni egallashda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar, asosiysi bu tovush va so'zlarni ifodalashdagi izchillikda kuzatiladi. Xatto so'z tarkibini og'zaki daktilda egallab, alifbodan so'zni yig'ishni bilsalar ham o'quvchilar so'zni yozma ifodalashga qiynaladilar.

Bolalarni yozishga mashq qildirishni samaradorligini oshirish uchun yozma nutqni PAT darslarida qo'llash maqsadga muvofiqdir (Ishni imzolash, savolga qisqacha javob berish, bajarilgan ish haqida hisobot yozish). Bu mashqlar nafaqat yozuvni egalash uchun, balki muloqotda yozma nutqdan foydalanish malakalarini o'qitishni boshlash uchun ham zarurdir.

III.4-§. Maxsus maktabda savodga o'rgatish darsi

Savodga o'rgatish darsi ikki qismdan iborat. Bular o'qishga o'rgatish va yozuvga o'rgatish. Darsni bunday tuzilishini maqsadga muvofiqligi quyidagicha tushuntiriladi: o'quvchi 45 daqiqa davomida faqat yozma mashqlarni, shuningdek butun dars jarayonida o'qish bilan shug'ullana olmaydi. Ammo IV chorakda o'quvchilarga bir nechta gaplardan (9-10 ta) iborat matnlar berilganida savod darsi to'liqligicha o'qishga bag'ishlanishi mumkin, chunki matnni o'qish uchun kerakli vaqt zarur. Tayyorlov sinfida matnni bo'lish nomutanosib, chunki bolalarni matnni to'liqligicha qabul qilishga qabul qilishga o'rgatish zarur.

Savod darsining mavzusi, boshqa darslar kabi dastur bo'yicha aniqlanadi. Savodga o'rgatish darsi ko'p hollarda kombinatsiyalashganligini hisobga olib, o'qituvchi dars rejasida ikki mavzuni belgilaydi: biri savodga o'rgatishga qaratilgan,

²⁰ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -39 p.

ikkinchisi yozuvga o'rgatishni asosiy mazmunini namoyon etadi. Biroq birinchi mavzu dasrni ikkinchi qismini birlashtirsa bu dars eng yaxshi variant hisoblanadi. Savod darsining maqsadi xal qilish zarur bo'lgan asosiy masalani ifodalaydi: bolalarni xarf yozish bilan tanishtirish, ibora yozishni mashq qilish, o'quvchilarni ibora o'qishga mashq qildirish, o'qilgan hikoya mazmunini tahlili va boshqalar. Savodga o'rgatish darsi jihozlari bo'lib yakka va sinf kassalari, alifbolar, daftarlar, ruchkalar, rasmlar, so'zli tablichkalar va boshqalar hisoblanadi. Yangi xarf bilan tanishish va bu xarf ishtirok etgan so'zlarni o'qish darsidan namuna keltiramiz. Bu ish II chorakda o'tkaziladi, bunda o'quvchilar "m" tovushi bilan og'zaki nutq darslarida tanishgan bo'ladilar.

Mavzu: "M" xarfi ishtirok etgan so'zlar. "M" xarfini yozish.

Maqsad: "M" tovushi ishtirok etgan so'zlarni o'qishga mashq qilish. "M" xarfi bilan tanishish.

Jihoz: alifbo, daftarlar, ruchka, kassalar.

Darsning borishi.

1. **Tashkiliy qism.** Bolalar sinfga kirishdi, naushnik taqib partaga o'tirishadi. Dars mobaynida nutqiy materialni eshituv-ko'ruv orqali idrok etishadi.
2. **O'qishga tayyorlash.** O'qituvchi stolida alifbolar turadi. U bolalarga bugun dars mavzusi haqida bayon qiladi. So'ng (og'zaki daktilda) bolalarga ko'rsatmalar orqali kitoblarni tarqatadi: "Vali, beri kel. Kitobni ol, o'tir. Sevara, beri kel. Kitobni Lolaga ber. Tulqin beri kel. Uchta kitob ol. Kitobni Munisa, Xilola va Barnoga ber".
3. **Matnni o'qish** (Alifboni 49 beti). O'qituvchi ko'rsatmasini bajarib, bolalar kitoblarni ochishadi (kerakli bet xatcho'p bilan belgilangan). O'qituvchi varaqdagi rasmni ko'rishga vaqt beradi. So'ng o'qituvchi bilan birga bolalar so'zlarni o'qishadi va unga mos rasmlarni ko'rsatishadi. O'qituvchi alohida diqqatni barcha bolalar u bilan bir vaqtda o'qish malakalarini shakllantirishga qaratadi. Buning uchun u qulga kichik ko'rsatmani olib, uni so'zning birinchi xarfiga qo'yib, uni o'qituvchi bilan birga o'qish jarayonida surish kerakligini ko'rsatadi. So'zni birgalikda o'qib bo'lgach, uni alohida o'quvchilar o'qishadi. O'qituvchi so'zlarni talaffuzini nazorat qiladi, xatolarni tug'rilyaydi, qayta o'qishni talab qiladi. So'ng barcha o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda matn o'qishadi: "Mana mashina..." va hakozi. Bu yerda o'qituvchi barcha bolalarni birga o'qishni kuzatadi. Matnni o'qib bo'lgach o'qituvchi rasm ko'rsatishni taklif etadi. Bolalarga rasm ko'rsatiladi va "Manna mashina" deyishadi. So'ng gapni o'qishadi, rasmdagi predmetlarni ko'rsatishadi.
4. **"M" xarfini yozish.** O'qituvchi e'tiborini boshqa rasimga qaratadi. Bu nima deb so'raydi. Bu malina. U bolalarga xarfli konvertlar tarqatadi va vazifa beradi. Birinchi o'quvchi katta kassadan foydalangan holda gap tuzadi. Qolganlar o'z kassalaridan foydalanadilar. So'ng o'qituvchi surat ko'rsatadi. O'quvchilar maktab deyishadi, o'qituvchi o'quvchilar bilan so'zni bug'inlab o'qiydi va ularni yozadi, bug'inda "M" xarfi ajratib ko'rsatiladi.

O'qituvchi daftar, ruchkalarni tarqatib, "M"ni yozamiz deb aytadi. Xarfni qo'l o'zmasdan yozish namunasi doskada ko'rsatiladi. Bolalar daftarlarda bita xarf

yozishadi, o'qituvchi yozuvni baholaydi. So'ng o'quvchilar Yana bir necha bora "M" xarfini yozadilar.

Dars so'ngida. O'qituvchi bolalar ishini baholaydi, ularni kitob-daftarlarini yopishni, xarflarni konvertga yig'ishini taklif etadi.

Ushbu rejalar shunchaki savodga o'rgatish darsini namunasi bo'lib, ular uning taxminiy tuzilishini, tarkibiy qismlarini ko'rsatadi. Material hajmi ham taxminiydir, u konkret sharoitlaridan kelib chiqadi va hajmi ortishi yoki kamayishi mumkin. Biroq barcha xolatlarda ham bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish darsi faqatgina o'qish va yozish malakalarini shakllantirishni ko'zda tutish kerak emas. Savodga o'rgatish nutq shakllantirish bo'yicha ishning tarkibiy qismi bo'lganligi sababli har bir dars o'quvchilarni nutqiy rivojlanishini va nutqiy faoliyatni shakllantirishga zamin yaratishi asos bo'lishi kerak. Bu talabni amalga oshirish dars mazmunini nutqiy materialni, ish turlarini, o'qitish metodikasini tanlash yo'li bilan kechadi. Shunday qilib, kar bolalarni savodga o'rgatish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi, o'qishga va yozuvga o'rgatishni ko'zda tutadi.

Ushbu bo'limda ifodalangan o'qitishni mazmuni va uslubiyati bolalarda nutq shakllanishi jarayonini namoyon etadi. biroq ba'zi sabablarga ko'ra karlar maktabini tayyorlov sinflariga ba'zida maktabgacha tayyorgarlik ko'rgan ammo birinchi sinflariga o'qishga layoqatsiz bolalar kiritiladi. Ularni o'qitish tayyorlov sinf dasturiga asoslanadi, ammo ularda mavjud nutqiy rivojlanish inobatga olinadi. Odatda bu o'quvchilarda daktil nutqini to'liq dasturga ko'ra shakllantirish ni boshlash zaruriati bo'lmaydi. Ko'pincha o'quvchilar o'qishni II chorak materialini o'zlashtirishdan boshlashadi. Shu bilan birga nutqni barcha shakllarini egallashga qo'yilgan talablar ularning o'zaro bog'liqligi va uzviyligi o'z kuchida qoladi va o'qitish jarayonida amalga oshirilib borish kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Savodga o'rgatish uslubiyatini mazmuni va maqsadini tavsiflang.
2. O'qishga o'rgatish uslubiyatini mazmunini yoriting.
3. Yozuvga o'rgatish uslubiyatini mazmunini yoriting.
4. Savodga o'rgatishning zamonaviy usullarini tavsiflang.
5. Savodga o'rgatish dars ishlanmasini tuzing
6. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning zamonaviy usulini tavsiflang.
7. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatish uslubiyatini yoriting.
8. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni yozuvga o'rgatish uslubiyatini yoriting.
9. Maxsus maktabda savodga o'rgatish darsi maqsadini tavsiflang.

IV-BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni so‘zlashuv nutqini shakllantirish uslubiyati

IV.1-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni so‘zlashuv nutqini rivojlantirishning mazmuni, maqsadi va vazifasi

Ona tilining boshlang‘ich kursi o‘quvchilar nutqini har tomonlama rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Kar bolalarlar maktabida nutq tadqiqot predmeti hisoblanadi. Eshituvchilar bilan muloqotda bo‘la olish qobiliyatini shakllantirish kar o‘quvchilar so‘zlashuv nutqini rivojlantirishning asosiy maqsadidir. Kar bolalar maktabida boshlang‘ich sinflarda og‘zaki nutqni rivojlantirish uch yo‘nalishda: so‘z (leksik daraja), so‘zlar birikmalari va gap (sintaktik daraja) va bog‘langan nutq (matn daraja) olib boriladi.

Kar bolalar maktabida so‘zlashuv nutqini rivojlantirish maqsadi talaffuz ustida ishlashni ham ko‘zda tutadi. Yuqorida ko‘rsatilgan uch yo‘nalish o‘zaro bir-biriga bevosita bog‘langan munosabatda bo‘lsa ham, parallel holda rivojlantiriladi. Zero, so‘zning ma‘nosini o‘zlashtirish gap uchun qurilish materiali bo‘lsa, bu ikki birlikning bog‘lanishidan hikoyalar tuzishda, bayon va insholar yozishda foydalaniladi. O‘z navbatida hikoyalar va insholar yozish ustida olib borilgan ish maktab o‘quvchilari lug‘at boyligini oshirishga, gap tuzish bo‘yicha ko‘nikmalarini takomillashtirishga, turli-tuman sintaktik konstruksiyalar qo‘llashga yordam beradi.

Kar o‘quvchilar nutqini rivojlantirishda turli ko‘rinishdagi mashqlardan foydalaniladi. Ular orasida eng muhimi – nutq mashqlarining murakkab tizimining yuqori bosqichidagi bog‘langan nutq mashqlaridir. Bunda lug‘at borasidagi, gap darajasidagi material to‘plash aniq mantiq bo‘yicha matn va kompozitsiya tuzish bo‘yicha bo‘lgan barcha bilimlar bilan bir-biriga qo‘shilib, birlashib ketadi.

O‘quvchilar so‘zlashuv nutqini rivojlantirish bo‘yicha tizim amaliyotda qo‘yidagi to‘rt shartni amalga oshirilishiga bog‘liq bo‘ladi²¹:

- Mashqlarning ketma-ketligi;
- Mashqlarning samaradorligi;
- Mashqlarning turli-tumanligi va ularning har biridan aniq bir maqsad ko‘zlanishi;
- Turli mashqlarni umumiy (asosiy) maqsadga yo‘naltirilganligi.

²¹ Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012-44 p.

Zamonaviy karlar maktabida, xuddi ommaviy maktablarda bo'lganidek, nutqni rivojlantirishga til o'rganishning asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Aynan shuning uchun ham nutq ustidagi mashg'ulot nafaqat ona tili fani bo'yicha emas, balki barcha o'quv predmetlari bo'yicha darslar tarkibiga kiritiladi. Nutq ichki va tashqi shakllarga bo'linadi.

Ichki nutq – insonning o'z-o'ziga murojaat etgan fikriy nutqidir. U talaffuz qilinmaydi va yozilmaydi. Ichki nutq ayrim so'z va so'z birikmalari ishtirokida amalga oshiriladi. Ichki nutq darajasida bolalar yangi bilimlarni o'zlashtirishadi hamda yangi ma'lumotlar asosida yozma fikr bildirishga tayyorgarlik ko'rishadi, fikran gap tuzishadi va uni og'zaki bayon etishadi, yozishadi. Bunday ichki nutqiy tayyorgarlik o'quvchilarning so'zlashish hamda nutqiy mahoratini (nutqining sifatini) oshiradi.

Tashqi nutq – bu insonlarning boshqalarga murojaat qilgan nutqidir. Bu nutq tovushlar yordamida va xarflar vositasida yozma ko'rinishda amalga oshiriladi. Tashqi nutq ikki tomonlama faoliyat ko'rsatib, nutq signallarini yo'llovchi va qabul qiluvchi bo'lishini taqozo etadi. Nutq signallarini yuborgan (so'zlovchi) gapiradi yoki yozadi, qabul qiluvchi esa eshitadi yoki o'qiydi. Tashqi nutq dialogik yoki monologik ko'rinishida bo'lishi mumkin. Nutqning dialog ko'rinishida ikki yoki bir necha suhbatdosh o'rtasida fikr almashinuv, so'zlashuv amalga oshiriladi. Eshitadigan bolalar umumiy rivojlanishining dastlabki bosqichida ularning og'zaki nutqi dialogik nutq yordamida namoyon bo'ladi.

Bolaning (gudakning) bu davrdagi nutqi asosan kattalarning savoliga javobi yoki ularga bo'lgan munosabati, qandaydir muammolarni hal qilish, o'z talablarini qondirish maqsadida qilingan murojaatlardan iborat bo'ladi. Bolaning nutqiy muloqotda bo'lishi asosan taqlidiy ko'rinishda bo'lgan turli gaplarni qo'llashdan boshlanadi. Keyinroq esa uning nutqida so'roq va darak gaplar paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinfda kar bolalarni so'zlashuv nutqini rivojlantirish ham dialogik nutqini rivojlantirishdan boshlanadi. Chunki nutqning bu ko'rinishi o'qituvchining sinf o'quvchilari bilan o'zaro muloqotda bo'lishi uchun qo'lay va tabiiy ekanligi bilan ajralib turadi. Dialogik nutqning o'ziga xos jihatlari psixologik va lingvistik adabiyotlarda keng yoritilgan. Dialogning asosiy belgisi savol tashlash, suhbatdoshlarning navbatma-navbat savol-javob shaklida so'zlashuvlari bilan belgilanadi. Bunda navbatdagi replika o'zidan oldingisining natijasi sifatida paydo bo'ladi. Replikani gaplar bilan almashinuvi, oldindan o'ylab olinmasdan suhbat paytidagi vaziyatga qarab amalga oshiriladi.

Dialogda keng ko'lamli gaplarga ehtiyoj bo'lmaydi, chunki uning mazmuni vaziyatga qarab, intonatsiya, mimika va qo'l harakatlari bilan to'ldirilib boradi. Dialogik nutq kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati tufayli yuzaga keladi. Nutqning murakkablashuvi bolalar jamoasining rivojlanishi tufayli paydo bo'ladi.

Henry Walter Edward Klopping so'zlashuv nutqining, leksik qashshoqligi, so'z qo'llanishining potensial erkinligi, olmoshlarning faol qo'llanishi, suhbat jarayonida tuxtashlar bo'lishi, uni imo-ishoralar, mimikalar bilan to'ldirilishi kabi o'ziga xos

ko‘rinishlarini ta’kidlab o‘tadi²². So‘zlashuv nutqining shakli bo‘lgan suhbat – keng qamrovdagi biron mavzu va maqsadga qaratilgan dialogdir. Suhbatning asosi savol va javobdan iborat bo‘ladi. Dialog – suhbatga nisbatan muloqotning sodda shaklidir. Zamonaviy kommunikativ o‘qitish tizimida kar o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish uchun so‘zlash va uni qabul qilish jarayonini, suhbat faoliyatining o‘zaro bog‘liqligi o‘zaro hisobga olish kerak. Monologik nutq – nutq bazasida kechroq shakllanadi. Maktabda bayon etiladigan monologlar – bu rasm, rasm seriyalari, ko‘rgan kino filmlar asosida suhbat, o‘qilgan matnlar asosida suhbatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Monologik suhbat dialogik suhbatga nisbatan ancha keng qamrovli bo‘ladi. Monologik nutqni dialogik nutqdan farqi, u bir necha kishi emas, bir kishi nutqini ko‘zda tutadi. Shuning uchun u har bir tinglovchiga tushunarli bo‘lishi kerak. Tashqi nutq – yozma va og‘zaki shaklda bo‘ladi. Nutq orqali ikki kishini bir-biri bilan o‘zaro suhbatini ko‘zda tutuvchi nutq shakli yozma va og‘zaki tarzda bo‘ladi. Og‘zaki nutq eshitilsa, yozma nutq ko‘z bilan ko‘riladi. Har ikkalasi o‘zining xususiyatlariga egadir. Og‘zaki nutq – diolog, suhbat, gaplashish orqali insonlarning bir-biri bilan muloqotidir. U eshituvchi va gapiruvchilar asosida tashkil topgan. U intonatsiya, pauza, logik urg‘u, temp, jest va mimikalardan iborat. Bu narsalar eshituvchi va so‘zlashuvchini bir-birini tushunishi uchun yordam beradi. Shuningdek, og‘zaki nutq vositasida suhbatdosh har vaqt aytganini qaytarishi va unga qo‘shimcha tushuncha kirgiza olishi mumkin. Shuning uchun og‘zaki nutq sintaktik murakkab konsturksiyalarga qaraganda oddiy, sodda, qisqa gaplardan iborat bo‘ladi. Cuhbatdosh og‘zaki nutqini oldindan uylamay, bayon etganligi uchun u qisqa va tayyorgarliksiz bo‘ladi.

Yozma nutq – uning suhbatdoshi bo‘lmaganligi sababli vaqt tanlamaydi. Unda intonatsiya va mimika bo‘lmaydi, shuning uchun uning tuzilishi murakkabroq. Yozma nutq tayyorgarlikni va tekshiruvni talab qiladi. Yozma nutq mavzu va nutqning keng ko‘lamda bayon etilishini, so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘zda tutadi. Yozma nutqda hamma bayon qilingan material aniq va ravon bo‘lishi kerak. Yozma nutq yanada tushunarli bo‘lishi uchun unda matnlarni abzaslarga bo‘lish, kerakli so‘zlarni ajratib yozish kerak²³.

L.S.Vigotskiy, yozma va og‘zaki nutq shakllarini qiyoslagan holda, ikkala nutq shakli ham ikki xil psixologik asosga ega, deb e’tirof etgan. Boshlang‘ich sinflarda yozma nutqning o‘ziga xosligi tadqiq etilmaganligi uchun, ularda og‘zaki va yozma nutqlarni farqlash xususiyatiga ega emas. U og‘zaki nutqni to‘ldirish uchun parallel o‘rganiladi. Yozma nutqni rivojlantirish uchun matn yordam beradi.

V.Y. Lyaudis va I.P. Negirelarning fikri bo‘yicha yozma nutq ikki asosiy xususiyatga ega so‘zning ma’nosini va ifodasini tashkil etadi. Mavzu tanlash; uning chegaralari belgilash, ma’nosini keng qamrovliligini, markkablighi katta ahamiyatlidir.

²² Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012-56 p

²³ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -44 p.

Matnni ma'nosini ifoda qilishda so'zlarni to'g'ri tanlash va gap tuzishda so'zlarning sintaksik tuzilishi ahamiyatga ega.

IV. 2-§. Maxsus maktabda pretmet-amaliy ta'lim darslarida so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha ish turlari

Kar o'quvchilarning so'zlashuv nutqga o'rgatish hamma darslarda, barcha predmetlar bo'yicha va sinfdan tashqari vaqtlarda olib boriladi. Karlar maktabda o'qitishning asosiy tamoyilliga muvofiq maktab dasturida so'zlashuv nutqiga o'rgatishning mazmuni va ketma-ketligi ko'zda tutilgan.

Kar bolalar maktabida I-IV sinflarda o'qitishning asosiy maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqni muloqot quroli sifatida shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir o'quv fani bo'yicha dasturda so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun zarur bo'lgan, ushbu predmet uchun spesifik bo'lgan talablar bayon etilgan.

Dastur talablarini murakkablashi bir necha bosqich davomida amalga oshiriladi. O'qituvchining ish faoliyatida boshqarish jarayoni miqdori kamaytirilib, ko'proq o'quvchilarning nutqi yildan yilga faollashtiriladi. Ikkinchidan nutqning iborali strukturasi talab oshiriladi. Tipik iboralar o'qituvchi va o'quvchining nutqida ishlatilishida leksik tartibi va sintaksiz strukturada ishlatishi tavsiya qilinadi.

Tayyorlov sinflarning dasturi kabi I-IV sinf dasturlari eksperessiv iboralar shakllantirishni bir xil talab qiladi. Dialoglarni o'zlashtirish talablari uchinchi planda turadi. Dialog ustida ishlash tayyorlov sinflarda mukammal savol va javob orqali boshlanadi. I-IV sinflarda dialoglar nafaqat ikki o'quvchi orasida, balki butun sinf ishtiroki orqali ishlanadi. S.A.Zikov nafaqat o'rganilgan iboralarni takrorlamasdan, balki yangi xayotiy misollar orqali dialoglar tuzishni kerakligini ta'kidlaydi iboralar mazmuni xayotiy bo'lsa, o'quvchilar boshidan qiziqqa boshlaydi va ko'proq so'rab savol beradilar.

So'zlashuv nutqini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning talaffuz ustida ko'proq ishlash talab etiladi. So'zlashuv nutqini shakllantirish uchun o'qituvchi og'zaki nutqni daktil bilan qo'shib olib boradi. Kar o'quvchi yangi so'zni og'zaki formada ifoda qilishga qiyinalganda daktil nutqidan foydalaniladi. Oson o'zlashtirish mumkin bo'lgan iboralar daktil nutqi orqali ishlatilmaydi. So'zlashuv nutqini mustahkamlash va o'zlashtirish V-VII sinflar uchun dasturda o'qituvchini og'zaki nutq orqali muloqot qilishini talab qiladi. V-VII sinflarda so'zlashuv nutqini rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Boshlang'ich sinflarda o'tilgan mavzularni mustahkamlash va aniqlash;
2. Yangi material bilan nutqni boyitish;
3. Monologik va dialogik nutqni yanada rivojlantirish va mustahkamlash.

Eng avvalo, dasturda gap turlarini mustahkamlash va leksik lug'atni boyitish ko'zda tutiladi. Shuningdek, o'quvchilarni diolog va suhbatlarni tuzishga o'rgatish va mustahkamlash eng asosiy maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda.

V-VII sinf o'quvchilaridan turli faoliyatlarda so'zlashuv nutqini shakllantirish asosiy talablardan biridir. Shuning uchun o'quvchilar o'z fikrlarini to'g'ri va mustaqil ifoda qila olishlari va lug'at boyligidan o'z ehtiyojiga ko'ra foydalana olishi asosiy omillardan biridir.

Shunday qilib, dasturda asosiy maqsad o'zlashtirish kar bolalarning so'zlashuv nutqini rivojlantirish, ibora va so'zlardan o'z maqsadiga ko'ra mustaqil, keng qamrovda foydalanish, o'zaro savol-javobni turli mavzularda olib borishni ko'zda tutadi.

IV. 3-§. Maxsus maktabda so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari va ularni o'tkazish uslubiyati

So'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari dasturning tegishli bo'limini quyidagi talablariga ko'ra aniqlanadi.

1. Murojaatni tushunish, buyruqni bajarish, ehtiyoj, istak va iltimosni bayon etish.
2. O'qituvchi va tarbiyachini topshirig'iga ko'ra va o'zining shaxsiy ehtiyojiga ko'ra do'stlariga va boshqa shaxslarga murojat etish.
3. Bajarilgan va bajarilishi zarur bo'lgan ish (vazifa) haqida ma'lumot berish va uni bajarilganligi haqidagi hisobotni tuzishga o'rgatish.

Uchinchi guruh talablariga muvofiq (savol berish va ularga javob berish) kar bolalar maktabida yopiq rasmlar yoki yopiq rasmlar to'plami bilan ish olib borish keng tarqalgandir. Ikkinchi guruh talablariga muvofiq (dialogda ishtirok etish) dialogni kengaytirish maqsadida turli o'yinlar, mashq, suhbat turlari va hokazo qo'llaniladi. Ishning bu turlari kar o'quvchilarning oldindan o'ylangan mavzu bo'yicha va vaziyatga ko'ra dialogni olib borish ko'nikmalarining rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ular nafaqat turli darslarda, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham qo'llanilishi mumkin.

Yopiq rasm ustida ishlash. Bu karlar maktabida keng tarqalgan ish turlaridan biri hisoblanadi. Ishning maqsadi – bolalarni ko'rmagan rasmlari haqida savol berishga o'rgatish va savollar yordamida rasmning mazmunini aniqlash. Bu vaziyatda bolalarning barcha savollari yaqqol ifodalangan, motivlashtirilgan xarakterga ega bo'ladi, chunki bolalar haqiqatdan ham rasmda nima tasvirlanganligini bilishni istaydilar.

Malum vaqt davomida kar bolalar maktabida bolalarni ochiq rasm bo'yicha savollar berishga o'rgatilgan. Ammo rasmni ko'ra turib o'quvchilarni savol-javob jarayoniga Kirishi yopiq rasm asosidagi savol-javobga nisbatan kam qiziqish uyg'otgan. Asosiysi, bu savollar bolalar uchun muhim ma'no ega bo'lmagan, motivlashtirilmagan. Bolalar savolning muhim kommunikativ asosini nutqiy muloqotning asosiy komponentlaridan biri ekanligini qabul qilishga qiynalishgan.

O'quvchilarga yopiq rasm berilganda, suhbat rasm mazmunini aniqlash asosida tashkil etiladi. Bunday ish nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki o'rta sinflarda ham davom etadi. Yopiq rasm asosidagi suhbatni murakkablashtirish uch yo'nalish bo'yicha olib boriladi:

- Rasm mazmuniga ko'ra;
- Rasm asosidagi savollarning mazmuni va shakliga ko'ra;
- O'quvchilarning mustaqilligi darajasiga ko'ra.

Birinchi sinfda rasmlar mazmuni sodda bo'ladi. Unda albatta harakatlanayotgan bitta qaxramon tasvirlangan bo'lishi kerak (bola o'qiyapti, qiz yuguryapti). II-III sinflarda bir nechta ob'ekt qatnashgan rasmni va ob'ektlarni olish mumkin (qiz qo'g'irchoqni kiyintiryapti, o'quvchi kitob o'qiyapti). III sinfda bolalarga bitta rasm o'rniga rasmlar to'plami (seriyali) beriladi. Masalan: O'qilgan ertaklar yuzasidan o'quvchilar savol berishadi va o'qituvchining javoblariga ko'ra qaysi ertakning qay bir qaxramoni haqida so'ralayotganini aniqlashadi. Birinchi sinfda rasmlar mazmuni va ularga tuzilgan savollar sodda tuzilgan bo'ladi. Rasmda kim tasvirlangan? U nima qilyapti? Predmet kattami kichikmi? O'quv yilining oxiriga kelib qaxramonning tashqi ko'rinishiga, kiyimiga tegishli bo'lgan savollar berishadi. "Sochi qanday?", "Kuylagi qanday?", "Qizchani oyog'ida qanday tufli bor?"

Ikkinchi sinfda bajarilayotgan faoliyatning vaqti va joyi haqidagi savollar qo'shiladi. "Qizcha qaerda turibdi?", "O'ng tarafda nima turibdi?", "Chap tarafdachi?", "Qanday fasl?", "Obi havo qanday?", "Bulutlimi?"

Uchinchi sinfda o'quvchilar rejali rasmlar bilan ishlash jarayonida umumlashtirilgan savollar berishni o'rganadilar. Asta-sekinlik bilan bolalarda mustaqillik tuyg'usi shakllanib boradi, bu savollar tuzishda o'qituvchining ko'maging kamayishida ko'rinadi. Birinchi sinfda pedagogning o'zi savol berishga undaydi. "Mendagi rasmda kim tasvirlanganligini so'rang". Agar "so'rang" so'zini ikki marotaba urg'u berib aytganda ham sinfda hech kim vazifani tushunmasa, o'qituvchi vazifani yana bir bor takrorlab, doskada yoki tablichkada yozilgan savolni ko'rsatadi. Bolalar savolni birgalikda o'qishadi. Ikki o'quvchi uni qaytaradi, shundan so'nggina javobni olishadi. Doskada o'qituvchi savolni ung tarafiga o'zining to'liq javobini yozadi (Rasmda qor, qorqiz va qorbobo tasvirlangan). Birinchi o'quv yilining oxirida esa qisqa javobga o'tiladi (Qor, qorqiz, bola qorbobo yasayapti). Suhbat so'ngida bolalar shu yozuvlarga asosan rasmlarni o'z tasavvurlari bo'yicha tasvirleydilar. Birinchi savol bergan o'quvchi shoshma-shosharlik bilan javob qaytarmasligini o'qituvchi nazorat qilib turishi maqsadga muvofiqdir, chunki asosiy maqsad bolalarni savol berishga o'rgatishdir.

Yopiq rasm bo'yicha ishlash jarayonida to'rt bosqich tasniflanadi. Birinchi bosqich – yopiq rasm yoki rasmlar seriyasi mazmunni aniqlash bo'yicha suhbat. Bu suhbatda o'qituvchi o'quvchilarni savol berish va javob berishga o'rgatadi, o'qituvchi – o'quvchi dialogdan o'quvchi – o'quvchi, kichikina o'qituvchi – o'quvchi dialogiga o'tishga tayyorlaydi. Har bir juftlik yetakchisiga rasm beriladi. O'z juftini rasm mazmuni yuzasidan berilgan savollariga javob beradi. Bu suhbatda pedagog bolalarni savol berish va ularga javob berishga o'rgatadi, bunda o'qituvchi dialogga kirishga bolalarni o'rgatadi.

Ikkinchi bosqichda yopiq rasm mazmunini bolalar tomonidan tasavvur orqali tasvirlash amalga oshiriladi. Bunda bolalar o'qituvchi tomonidan doskada yozilgan yoki o'z varaqlarida yozilgan yozuvlarga tayanadilar. Tasvirlash jarayonida bolalarda aniqlashtiruvchi xarakterga ega savollar tug'ilib ular o'z navbatida o'qituvchi bilan o'quvchi (kichik muallim) orasida o'zaro dialogni vujudga keltiradi. O'qituvchi savollarni tuzishga yordam beradi, ularga javob beradi.

Uchinchi bosqich – bolalar chizgan rasmlarining tahlili, bunda ularni rasm bilan solishtirish ko‘zda tutadi. Bu bosqichda rasmdagi tasvir ochilgan bo‘ladi. Ikkita rasm tanlanadi (to‘g‘ri va noto‘g‘ri), u namuna rasm yoniga osiladi. Bu holatda bolalar xohishi bilan rasm darhol ochiladi. O‘qituvchi rasmlar tahlili bo‘yicha suhbat tashkil etadi.

Shu yo‘sindagi ishni ikkinchi turi – ikkita chizilgan rasmni namunaga qaramay turib solishtirish, ularni faqat doskadagi yozuvlar asosida qiyoslashni ko‘zda tutadi. Bunda rasm darsning oxirida ochiladi va har bir o‘quvchi o‘zining rasmini mustaqil taqqoslaydi. Bu usul bir muncha murakkabroq bo‘lib, bunda o‘quvchilar javoblar mazmuniga yanada chuqurroq yetishlari zarur bo‘ladi, bu usul ayniqsa yuqori sinflarda yaxshi samara beradi.

Yopiq rasm ustida ishlashni to‘rtinchi bosqichi – uni og‘zaki yoki yozma bayoni. Bunday ish o‘quvchilarning bog‘langan nutqini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

Yopiq rasmlar to‘plami bo‘yicha ishlash. Bu holda ish yuqorida ko‘rsatilgan tartibda quriladi, lekin undan avval o‘quvchilarga o‘qituvchi rasmlar to‘plamini umumlashtirib tushunish ko‘rsatmasini beradi (Rasmda qiz mushukni qutqargani haqida ma‘lumot berilgan). Har bir rasmning mazmuni haqidagi suhbat jarayonida o‘quvchilar javoblarini qisqacha yozib boradilar. Yopiq rasmlar to‘plami asosida ishlashda, har bir rasmning mazmuni bilan shunchaki tanishib chiqish emas, balki xarakterning rivojlanishini tushunish yotadi. Shuning uchun har bir rasmda bolalar eng asosiysini ajratib olishlari muhimdir. Bu esa olingan javoblarni umumlashtirishni, sintez qilishni, matnning asosiy mazmunini aniqlashni va uni sarlavhada qanday aks etishini nazarda tutadi. Sarlavhalar o‘z ichiga rejali tuzilmalarni oladi, u esa o‘quvchilarga yopiq rasmda tasvirlangan holda beriladi. Voqealarning boshlanishini va yakun topishini tasavvur etishga yordam beradi. Bunday reja va har bir rasmda berilgan javoblarga ko‘ra o‘quvchilar haqiqiy rasmni ko‘rgunlariga qadar tuziladi. Har bir rasmni mazmunini aniqlangandan, so‘ng quyidagi umumlashtirish bajariladi:

- Birinchi rasmda nima tasvirlangan.
- Bolalar o‘rmonga ketishyapti.
- Ikkinchisidachi
- Bola o‘rmonda tipratikan topib oldi.
- Uchinchisidachi
- Bolalar tipratikanni ovqatlantirishyapti.

Shunday qilib, yopiq rasm bilan ishlash jarayonida bolalar rasmni mazmunini haqidagi savollarni qat‘iy fikrlash izchiligida berishni, o‘qituvchining og‘zaki javoblariga asoslanib uni rasmda aks ettirishni, ularni rasm bilan solishtirishni o‘rganiladi.

Bolaning hayotidagi yaqin mavzudagi suhbatlar – bu qiziqarli voqealar, bajarilgan ishlar, dam olish kunlari, bayramlar, ta‘til haqidagi suhbatlardir. Bu suhbatlarni quyidagi turlari mavjud:

1. Bolalar ta‘tildan kelgach o‘qituvchi dars boshlangunga qadar ta‘tilni kim – qaerda o‘tkazganini aniqlaydi. Masalan: Kimdir Farg‘onada dam olgan. Darsda esa o‘qituvchi shu o‘quvchiga savol berishni va u qanday, qaerda ta‘til

o'tkazganini belgilab olishni taklif etadi. Pedagog bolalarni oldindan, shu suhbat asosida rasm chizishlarini ta'kidlab o'tadi.

2. O'qituvchi ekskursiya haqida suhbatni tashkil eta turib, ekskursiyaga borolmagan o'quvchilarni borgan o'quvchilarga savollar berishga undaydi. Shunga o'xshash suhbat maktabda o'tkazilgan bayram haqida, ko'rilgan film yoki diafilm va hokazolar haqida bo'lishi mumkin. Suhbatni bu shaklda tashkil etilishida o'quvchilar bilmagan va bilishni istaydigan narsalar haqida savol berishadi. Ularning savollari aniq harakterga ega bo'lib, motivlashtirilgan xususiyatga ega.

Kar bolalar notanish bo'lgan predmet, hodisa bilan duch kelganida ko'p savollar paydo bo'ladi. Ular shu narsa haqida bilishni istaydilar, ammo savol berishni bilmaydilar. Aynan shu vaqtda o'qituvchi yordam bera olsa, bolalarning suhbat yuqori nutqiy faollikda o'tadi. Kar bolalarni so'zlashuv nutqini rivojlantirishda o'qish darslarida o'tkaziladigan o'qilgan hikoya yuzasidan suhbatlar juda samarali hisoblanadi. O'quvchilarni fikrlash va nutqiy faoliyatini faollashtirish ularni tasavvurlarini rivojlantirish, matn bo'yicha savollar berishga o'rgatishda bir necha usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. O'qituvchi o'quvchilarga matnga doir savolli kartochkalarni tarqatadi, ularda savollarning tartib raqamlari yozilgan bo'ladi. Kerakli vaqtda o'qituvchi "Birinchi savol kimda?" deb so'raydi. Bola buni kartochkaga qo'yilgan tartib sonlar orqali aniqlaydi. O'qituvchi bolalarga savol berishni taklif etadi, o'quvchilardan biri savolni qaytaradi, qolgan o'quvchilar esa unga javob berishadi. Qolgan savollar ustidagi ish ham xuddi shunday amalga oshiriladi. Masalan: 1-sinfda o'qish darsida "Qorbobo" matnini o'qish jarayonida bolalar (dars boshlangunga qadar) to'rtta o'quvchiga quyidagicha savollar beriladi.

- Bolalar qorboboni nimadan yasashgan?
- Qorboboni burni nimadan yasalgan?
- Uning ko'zi nimadani yasalgan?
- Bolalar savatga nimalarni solishdi?

Bunday ishni 2-3 marotaba takroran o'tkazgandan, so'ng o'qituvchi savolli kartochkalarni raqamlarni ko'rsatmasdan beradi. Bolalar asosan ularning mazmunini, ketma-ketligini aniqlashadi. Suhbatlarni bunday tashkillashtirish bolalar uchun qiyin bo'lgan, matn yuzasidan savol berishga o'rgatadi.

2. O'qituvchi vazifa qilib bir o'quvchiga – hikoyani o'qib kelishni beradi, tarbiyachi yoki ota-onasidan yordam berishlarini so'raydi yoki o'zi bolani matn mazmunini ifodalab berishga tayyorlaydi. Darsda shu o'quvchi bilan qolgan o'quvchilar orasida suhbat tashkil etiladi, bu jarayonda o'quvchilar savollar orqali hikoya mazmunini aniqlashadi (Hikoya muallifi kim?, Nima sodir bo'ldi?, So'ng nima bo'ldi? va hokazo). O'qituvchi suhbatda faol ishtirok etadi, savollar tuzishda yordam beradi. Savollar mantiqiylikini nazorat qiladi. Suhbat jarayonida zarur bo'lgan lug'at ishlarini ham o'tkazish mumkin. Bunday suhbatdan so'ng o'quvchilar hikoya larni mustaqil o'qishadi va uning mazmunini oson o'zlashtirishadi. Bu esa matn bilan tanishining birinchi darsidayoq murakkab bo'lgan ish turlarini qo'llashga yordam beradi. Applikasiya yoki konstruktiv rasm asosida

matn mazmunini mustaqil ifodalash, qaxramonlarni tasvirlashda matndan soʻz va iboralarni tanlab olish yaxshi natija beradi.

3. Bir vaqtni oʻzida ikki hikoya ni oʻqish bolani faolligini oshiradi. Sinf ikki guruhga ajraladi. Birinchi guruh bitta hikoyani, ikkinchi guruh boshqa hikoyani oʻqiydi. Oʻqib boʻlishgach, bolalarda tabiiyki savollar tugʻiladi:

- Sizlar qanday hikoya ni oʻqidingiz?
- Sizlarchi?
- Sizning oʻqigan hikoya ngizni muallifi kim?
- Siznikichi?
- Sizning oʻqigan hikoya ngiz kim haqida?
- Yana hikoya ngizda nimalar haqida bayon etilgan?

Bolalarga oʻrtoqlari hikoyasida nima haqida bayon etilganini bilish xaqiqatdan ham qiziq. Suhbat yoʻnalishini istalgan yoʻldan olib borish mumkin. Masalan: Hikoyada kim haqida soʻzlangan deb savolga javob bergandan soʻng “U nima qilayapti?” va hokazolarni soʻrash mumkin, hikoya mazmuni aniqlanadi. Shundan soʻng bolalarga oʻz yozuvlariga tayanib rasm chizish taklif etiladi, soʻng oʻz rasmlarini yoki doʻstlarini rasmlarini nomlash taklif etiladi. Rasmlar almashinishi birinchidan muloqot oʻrnatish, ikkinchidan matn mazmunini tushunish maqsadida amalga oshiriladi. Shunday qilib bir vaqtning oʻzida ikki hikoyani oʻqish sinfdagi barcha oʻquvchilarni oʻzaro muloqotlari uchun maksimal real sharoitni yaratib beradi. Suhbatni tashkil etish va uni mazmuniga qoʻyilgan talablar yildan-yilga oʻsib boradi, suhbat mavzulari kengayadi, savollarning tuzilishi va mazmuni murakkablashadi, bolalarni mustaqilligi oshib boradi.

Birinchi sinfda asosan oʻqituvchi bolalar bilan frontal suhbatlar oʻtkazadi. Ikkinchi sinfda tanish mavzular boʻyicha “Kichik muallim” suhbatlarni brigada va juftlik shakllarida oʻtkazish maqsadga muvofiqdir.

Lugʻatdagi soʻzlarni va iboralarni ishlatishda ham oʻquvchilarni mustaqil ishlash darajasi ham oshadi. Agar birinchi sinfda oʻqituvchi tayyor savol va javoblarni doskada yoki kartochkada berib, keyin murakkab boʻlgan soʻzlarni va iboralarni ajratib yozib olgan boʻlsa, 3-4 sinfga kelib oʻqituvchi bolalardan namunaga koʻra mustaqil bajarishlarini talab etadi.

Didaktik oʻyinlar. Kar bolalarning dialogik nutqini rivojlanishini turli didaktik oʻyinlar orqali ham samarali kechishi mumkin. Eng samarali oʻyinlar topishmoqli oʻyinlar boʻlib, ular bolalarda qiziqish uygʻotadi va faolligini oshiradi. “Nima oʻralganini (berkitilganini) top” oʻyini birinchi safar oʻqituvchi tomonidan olib boriladi, keyin esa kichik muallim tomonidan ham olib borishi mumkin. U oʻralgan narsani koʻrsatib “Bu nima” – deb soʻraydi – “Oʻram”, “Oʻramning ichida nima borligini toping” soʻng bolalar bir-birlariga savollar berishadi “Kattami yoki kichik?”, “Rangi qanday?”, “Shakli qanday?”, “Kimniki?”, “Shirinmi, achchiqmi, nordonmi?”, “Eyish mumkinmi?”, “Nima uchun ishlatiladi?”. Javoblarga asoslanib, bolalar berkitilgan jismni topishadi. Oʻqituvchi bolalarga savol tuzishda yordam

beradi, ehtiyoj tug'lsa ularni doskaga yozadi, "Kichik muallim"ga javoblarni to'g'ri tuzish uchun bo'lgan zarur so'zlar berish mumkin.

Uchinchi sinfdan boshlab "Kimligini top" didaktik o'yinini o'tkazish mumkin. Pedagog bolalar men hozir orangizdan biringizni o'yladim. Kimni o'ylaganimni aytmayman. O'zingiz savollar berish orqali toping deb aytadi. O'yin jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni savollarini izchillikda berishga o'rgatish lozim. 1. Qiz bola yoki o'g'il bola haqidaligini aniqlash va keyingi savollarni shunga asoslanib berish. 2. Tashqi ko'rinish va yoshi haqidagi savol. 3. O'qish, xulqi va fe'l atvori haqidagi savollar. Taxminiy savollar: "O'g'il bolami qiz bolami?", "Buyi qanday?", "To'laroqmi yoki ozg'in?", "Sochlarini rangi qanday?", "Ko'zlarini rangi qanday?" "Sochlari kaltami yoki uzun?", "Yoshi nechada?", "Do'sti kim?", "Ozodami yoki yo'q?", "Do'sti kim?".

Bu o'yinni "Kichik muallim" ham o'tkazishi mumkin. Dialog o'quvchilar bilan o'qituvchi yoki "Kichik muallim" bilan to kim o'ylanganini topmagunlariga qadar o'tkaziladi. O'yinning murakkab shakli adabiy qaxramonning kimligini topish topshirig'iga asoslangan bo'lishi mumkin. O'yinni o'tkazishda biror adabiy qaxramon tasvirlangan rasm olinib, uni faqatgina o'yinni olib boruvchi ko'rish mumkin. Bu o'yinni o'qituvchi, "Kichik muallim" va brigadir olib borishi mumkin. O'quvchilar unga qaxramonning tashqi ko'rinishi, fe'li, odatlari xulqiga tegishli savollar berishadi. Agar o'yin guruhlarda, jamoalarda o'tkazilsa har bir guruhga alohida rasm beriladi. Birinchi guruh vakillari ikkinchi guruh vakillariga ular tomonidan o'ylangan qaxramon haqida savollar berishadi.

Mashqlar. Kar bolalarni dialogik nutqini rivojlantirishda mashqlar muhim ahamiyatga egadir. Berilgan vaziyatga ko'ra dialog tuzish mashqlarning qiziqarli turi hisoblanadi. Bu mashqlarni bolani ijodiy tasavvurlari, shaxsiy ta'surotlari asosida insho va bayon yozishdan avval o'tkazish mumkin. Bu esa o'z navbatida mavzu yuzasidan lug'atni faollashtirish va dialogik nutqni og'zaki va yozma shakllarini to'g'ri tuzishga imkon beradi. So'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan mashqlarni barcha darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkazish zarurdir. Bunda tabiiy vaziyatlardan va maxsus vaziyatlardan foydalaniladi. Bu jarayonda qo'shimcha usul mavjud bo'lib, u bolalarni savol berishga undaydi va "O'qituvchining to'liqsiz vazifalari" deb nomlanadi. Bu vazifalarda gapning biror bo'lagi tushurib qoldiriladi. Bu holatlarda tabiiyki bolalarda savollar tug'iladi va o'qituvchi bu savollarni tuzishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan so'zlashuv nutqini shakllantirish usullariga ko'ra kar bolalar maktabida so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar tizimi va usullari turlichadir. Ularning hammasi bolalarda nafaqat o'qituvchi balki o'zaro muloqotni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi kar bolalarga dialogning tayyor sxemasini berish mumkin emasligini doim yodda tutish lozimligi, aksincha uning (dialogni) borishda yo'l qo'yilgan eng kichik o'zgarish ham katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bolalarni dialogni ochib berish mashqiga o'rgatish lozim. Buning uchun ularni jonli muloqot davomida eng asosiy narsani ajratib olishga, bundan so'nggina muhim bo'lmagan narsalarni ajratishga o'rgatiladi. Hozir

nimani so‘rash muhimligini undan keyin nima so‘rash kerakligini bolaga o‘rgatib borish so‘zlashuv nutqini shakllantirishda ijobiy samara beradi.

So‘zlashuv nutqini rivojlantirish jarayoni asosan og‘zaki shaklda olib boriladi. Barcha so‘zlashuv materiali bolalar tomonidan eshituv-ko‘ruv orqali idrok etishish lozim. Bolalarda dialogik nutqni shakllantirish ustida ishlab turib, pedagog og‘zaki nutqning barcha tomonlarini (Og‘zaki nutqning mazmuni, uning to‘g‘ri ifodalanishi, ko‘ruv-eshituv idrokining aniqligi va to‘g‘riligi, nafas olish, ovoz, urg‘u, tovushlar va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish) takomillashtiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Nutq turlarini tavsiflang. Ulardan qaysi biri asosiy nutq shakli sifatida namoyon bo‘ladi?
2. Dars uchun nutqiy materialni tanlashni borishi haqida gapirib bering.
3. O‘qish darsiga material to‘plang va uni jadval bo‘limlari bo‘yicha joylashtiring.
4. Faoliyatni tashkil etish shakllarida muloqotni kengaytirishda o‘qituvchi rolini ko‘rsating.
5. Predmet Amaliy ta’lim darsi mavzusi asosida kichik muallim ishni tashkil etish uchun nutqiy materialli jadvallar tuzing.
6. Kar bolalar maktabida so‘zlashuv nutqining shakllantirish uslubiyoti mohiyatini ochib bering.
7. Nutqiy materialni tanlash va uni bolalar nutqiga kiritish qayday tarzda amalga oshadi?
8. So‘zlashuv nutqini shakllantirish bo‘yicha ish munosiblarini tavsiflab bering.
9. VI-VII sinf kar o‘quvchilar so‘zlashuv nutqini shakllantirish yo‘nalishlari borasida gapirib bering. Bu ishning o‘ziga xosligi nima bilan belgilanadi?
10. V-VII sinflarda so‘zlashuv nutqini shakllantirish uslubiyatining o‘ziga xosligi nima bilan belgilanadi?
11. So‘zlashuv nutqini shakllantirish bo‘yicha ish turlarini tasvirlab bering. Yopiq rasm asosida ishlash ko‘zda tutilgan dars ishlanmasini tuzing.
12. Suhbatga o‘rgatish uslubiyati mohiyatini yoritilishi. Ulardan biri asosida reja tuzing.
13. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bolalar so‘zlashuv nutqini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tizim mazmunini yoriting.
14. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bolalar so‘zlashuv nutqini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tizim komponentlari tavsiflang.

V – BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni bog‘langan nutqni rivojlantirish uslubiyati

V.1-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni bog‘langan nutqni rivojlantirish mazmuni va maqsadi

Hozirda kar o‘quvchilarning bog‘langan nutqini rivojlantirish zamonaviy maxsus ona-tili o‘qitish metodikasini eng dolzarb muammolaridan biridir. Bog‘langan nutq mantiq, grammatika, kompozitsiya qonunlari asosida tuzilgan bo‘lib, o‘zida bir butunlikni aks ettiradi, u mavzuga ega ma‘lum vazifani bajaradi. Yozma va og‘zaki nutqni tuzilishi va vazifalari ularni rivojlantirish yo‘llari haqidagi psixologik ma‘lumotlar kar bolalarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘llanilishi shart.

Karlar maktabida bog‘langan (monologik) nutqni rivojlantirishni asosiy vazifasi - bolalarni o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini istaklarini bir nechta gaplarda ifodalab berishga o‘rgatish, shuningdek bolalarni o‘z taasurotlari, kechinmalari, ko‘rgan filmini, bajargan ishlari va hayotlaridagi barcha hodisalar haqida bir muncha kengaytirilgan monologni qurishga, ya‘ni matn tuzishga, fikr bildirishga o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Bunda monologik nutqni asosiy 3 turi ishlatiladi. Bayon etish tasvirlash, mulohaza. Ommaviy maktablarda ham maxsus maktablarda ham boshlang‘ich sinflarda aralash shakl ustunlik qiladi, unda tasvirlash va bayon etish elementlari, bayon etish va mulohaza elementlari birgalikda uchraydi, chunki kichik o‘quvchilardan faqat tasvirlash yoki mulohazani talab qilib bo‘lmaydi, bayon etish, tasvirlash mulohaza bir-biridan tuzilishi, mazmuni va tili bilan farq qiladi.

Bayon etishda o‘zaro bog‘langan izchil voqealar haqida gapiriladi. Lavhaga ega voqealar bayonining izchilligini odatda ularning tabiiy yo‘nalishi bilan aniqlanadi. Asosiy diqqat faktlarga, ishtirok etayotgan shaxslarning harkatlariga ajratiladi, shuning uchun bayon etish matn fe‘l va ot turkumiga oid so‘zlarga, insho boy bo‘ladi. Bolalar uchun eng hayotiy va eng qulay bog‘langan fikrlar janridir. Shuning uchun Thomas Arnold e‘tiroficha, voqeani bayon etishdan ishni mustaqil yozma insholardan boshlashini tavsiya etadi.. Tasvirlashda - lavha, ishtirok etayotgan shaxslar, voqealar bo‘linmaydi. Ularda tabiat rasmlari, alohida predmetlar va hodisalar, harkatlar va jarayonlar tasvirlanadi. Tasvirlash ma‘lum kompozitsion sxema asosida quriladi: avval odatda predmetga nisbatan umumiy taasurot beriladi, so‘ng uning alohida belgilari nomlanadi, ular bu umumiy taasurotni tasdiqlaydi va nihoyat baho beriladi. Muallifni tasvir ob‘ektiga nisbatan munosabati bildiriladi. Tasvirlash uchun iboralarning, sifatlarning mavjudligi, ko‘pligi xosdir.

Mulohaza - bu matn, unda biron bir ta‘kidni isboti uchun mulohaza ishlatiladi, misollar keltiradi solishtirish va xulosa amalga oshiriladi, yangi mulohazalarga yetaklovchi va oxir tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi boshlang‘ich ta‘kid tezis nomi bilan keladi. Mulohaza - bog‘langan matnni ancha qiyin murakkab shaklidir²⁴.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikr bildirishda mulohaza faqatgina

²⁴ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -66 p.

predmetlarni, hodisalarni, qilmishlarni, taqqoslaganda va solishtirganda, sabablarni tushintirganda, xulosa qilganda uchraydi.

Fikr bildirish, iboralarni turli turlari bilan tanishuv boshlang'ich maktabdan aynan amaliy yo'l bilan mos topshiriqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Shunday qilib, bayon xarakteridagi matnni analizida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini voqealar ketma-ketligiga qaratadi: "Avval nima bo'ladi? Keyinchi? So'ngidachi?" tasvirlashni analiz qilib (masalan qo'g'irchoqni) u diqqatini qo'g'irchoqni qandayligiga jamlaydi. Mulohaza - o'zida mujassamlashtirgan matnni tahlilida (masalan "Mening sevimli faslim") pedagog bolalarni voqealarni sababi va o'zaro bog'liqligini aniqlashga o'rgatadi, Bolalar diqqatini "chunki", "shunga asoslanib" va hokazo so'zlarga qaratadi.

T.A.Ladijenskaya, N.I.Jimkinning bog'langan nutq nazariyasiga tayanib o'quvchilar matn tuzish jarayonida egallab olishlari zarur bo'lgan quyidagi bilimlarni ajratadi:

- Matn mavzusini yoritish.
- Matnning asosiy fikrini yoritish
- Matn uchun ma'lumot yig'ish
- Yig'ilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish.
- Ma'lum kompozitsion shaklga ega matnlar qurish
- Fikrlarini to'g'ri ifodalash

Adabiy til normalariga ko'ra aniq tushunarli va iloji boricha yorqin matn tuzish uchun birinchi uchta bilimlarni shakllantirish matn mazmuni ustida ishlash bilan bog'liq, qolgan uchta esa - uning tuzilishi va nutqiy "bezatilishi" ishlari bilan bog'liq.

Mavzuni va matn (iboralarni) asosiy mazmuni yoritib berish bilimlari kar bolalar maktabida nutq rivojlantirish dasrlarida shakllantiriladi va shu birinchi navbatda matn sarloviyasi mazmuni bilan bog'langan bo'ladi. So'zlab berish va bayon etish ishlarida o'quvchilar matn mazmunini uning sarlavxasi bilan solishtiradi va nima uchun bunday nomlanganini aytishadi bu bilan ular matnning asosiy mazmunini umumiy ajratib beradilar so'ng uning qismlarini ham. Insho yozishda o'quvchilar mavzuni nomini o'qib, unda mo'ljal olishi, uning chegaralari va mazmunini aniqlashni asosiysini ajratib uni yoritib berishi o'rganiladi. Matnlar uchun ma'lumot yig'ish bilimlarini shakllantirish bolalarini faol fikrlash va nutqiy faoliyati bilan bog'liq. Rasmlar mazmunini yoki o'qib bo'lingan matnni, o'zlarining tabiati kuzatishlari natijalari va hokazolarni analiz qilib, ular bilimlar, taasurotlar bilan boyishadi bularning bari esa ularga mavzuni yoritishda yordam beradi. Ammo birgina ma'lumot to'plash bilimlarini o'zi kamlik qiladi, chunki hali kar o'quvchilarning mustaqil monologik nutqi rivojlanmagan. Aynan shuning uchun kar bola material to'plab ham, "atrof-muhit haqida ko'p narsani tushinib, uni so'zida ifodalab bera olmaydigan" holatiga tushib qoladi. Kar va eshita oladigan uquvchilarni bog'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha olib oriladigan ishda eng qiyini va eng asosiysi - umumiy hikoyaga taaluqli bo'lgan fikrni yetkazishga o'rgatishdir. Hikoyaning mazmuni rejalashtirish jarayonida boshi, asosi va oxiri ajratib olinadi. Ma'lumotlarni tizimlashtirish bilimlari va ma'lum kompozitsion shaklga ega matnlarni tuzish reja

ustida ishlash bilan bog‘liq, reja matnning turiga ko‘ra tuziladi (tasvirlash bayon etish, mulohaza).

Matnda gaplarni va ularni alohida qismlarini bog‘lashda leksik va morfologik vositalar ishlatiladi (bog‘lovchilar qo‘shimchalar, so‘zlar va kirish o‘rnida keluvchi iboralar va uzining ahamiyatiga ko‘ra bog‘lovchilarga yaqin bo‘lgan so‘zlar).

Fikrlarni taqqoslashda pedagog doimiy ravishda bolalar diqqatini hikoya qismlarini, gaplarni o‘zaro bog‘lanishga qaratadi, ikkita gapni o‘zaro to‘g‘ri bog‘lash uchun gaplardagi so‘zlarni qanday joylashtirish kerakligiga ham loqayd bo‘lmaydi, sintaksis tuzilmalarni boyitishga e‘tibor qaratadi, chunki bir turdagi gaplar tuzilishi bog‘langan nutq uchun xos bo‘lgan mantiqni chegaralaydi. O‘quvchilar ishlarini analiz qilayotganda, olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llanilishi inobatga olinadi. Natijada bularning bari matn tuzishda o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida bir necha gaplarni o‘ylab olishga va ikki gaplar orasidagi bog‘liqlikni aniqlashga matnni to‘g‘ri tuzishga yordam beradi.

L.M.Bikova boshlang‘ich sinflardagi kar o‘quvchilarni bog‘langan nutqini xususiyatlari tavsiflab beradi.

Bu alohida xususiyatlarni sanab o‘tamiz:

1. Matnning asosiy mazmuni va mavzusini to‘liq yoritilmasligi yoki umuman yoritilmasligi, ayniqsa yozma bayonlarda ko‘zga tashlanadi.

2. Reja tuzishda va unga asosan matn tuzishda mantiqni buzilishi (voqea bayonidagi uzilishlar, voqealar izchilligi buzilishi, sabab oqibat bog‘liklarini o‘rnatishdagi xatoliklar); matnni asosiy elementlari orasidagi munosabatlarni buzilishi; rasmdagi mavjud komponentlarni ajratishda bilimlarni yetarli emasligi namoyon bo‘ladi. Individual va guruh fikrlashlari bu o‘quvchilarni tayyorgarligiga va nutqiy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

3. O‘z fikrlarini ifoda etishda o‘ziga xos sintaksis tuzilmalarni eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning ishlatilishida ko‘p miqdorda nutqiy va grammatik xatolarni mavjudligi ko‘zatiladi.

4. Bog‘langan matnni yozilganlarni mukammallashtirishda o‘zini nazorat qilish va o‘zini tekshirish bilimlarini mavjud emasligi ko‘riladi.

5. Mustaqil ishlar yozma ishlarning sifat saviyasining pastligi ularni bajarishda individual va guruhlarda mustaqillik darajasida farqlanishlarning mavjudligi namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarni bog‘langan nutqini rivojlantirishdagi guruh va individual farqlanishlar o‘qitish jarayonida differentsiallashtirish yondashuvni tashkil etishni talab etadi, bu esa har bir o‘quvchiga qulay ish tempini yaratishga, uning mazmunini mustaqillik darajasini, shuningdek birinchi bosqichdan keyingisiga o‘tishini, rivojlanishini ta‘minlaydi. Bog‘langan nutqni rivojlantirish tizimlashtirilgan bo‘lishi va bilim beruvchi tushda bo‘lishi kerak, faqat shundagina o‘quvchilar yuqorida sanab o‘tilgan bilimlarni egallab olishlari mumkin. Kar bolalar maktabida o‘qitish predmet faoliyat va ehtiyojlar asosida Ushbu faoliyatdan kelib chiqib amalga oshiriladi. Kar bolalar maktabida tilga o‘rgatishning amaldagi tizimini talablariga ko‘ra bog‘langan nutqni rivojlanish dasturi uning uch xususiyatini inobatga olgan holda quriladi.

Birinchi xususiyati shundan iboratki unda bog'langan nutqni shakllantirish asosida kommunikatsiya tamoyili yotadi. Bog'langan nutqni muloqot quroli sifatida rivojlantirish avvalambor predmet amaliy ta'lim darslarida amalga oshiriladi, bu darslarda o'quvchilar tayyorlov I-sinfidanoq konkret ishni bajarilganligi haqida bitta-ikkita to'liq tuzilmali gaplar orqali hisobot beradilar. Keyin ular tugallangan bajarib bulingan qism haqida ma'lumot berishga o'rgatiladi, so'ng esa ishning umumiy bajarilgani haqida bayon etadilar. Natijada biron-bir bo'limni tayyorlash jarayoni tasvirlangan hikoya vujudga keladi. Bu hisobotlar aniq odamga yo'naltirgan bo'ladi (O'qituvchiga, brigadirga, yetakchi o'quvchiga). Avval o'quvchilar navbatma-navbat og'zaki-daktil shaklida hisobot beradilar. Ularning mustaqilligini va o'quv soatidan to'laqonli foydalanishni oshirish uchun hisobotning yozma shakli kiritiladi. Hisobotni tayyorlashga o'quvchilarni diqqatini jalb qilish uchun, o'qituvchi ularga bajarilgan ish natijalarini u yozma hisobotga ko'ra baholanishini aytadi. Yo'lovchi odamni mavjudligi hisobotni yozishga, bolalarni berilgan vazifani bajarilishini zarurligini tushunishlari uchun oson bo'ladi bu esa ularni ko'zida bog'langan nutqni ahamiyatini oshiradi.

Kar o'quvchilarni bog'langan nutqini rivojlantirishni xususiyati rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirish zarurligidan iboratdir.

Kar o'quvchilarni nutqiy faoliyatini rejalashtirishga mavjud dasturlarda ham ko'p ahamiyat berilgan. Ammo 1972 yilgacha ya'ni PAT ni joriy etilishiga qadar karlar maktabida rejalashtirish faqat II-sinfidan ko'zda tutilgan. Mustaqil reja tuzishga o'rgatish faqat V-sinfidan boshlangan u tasvirlash, hikoyalar, bayonlar rejasini boshlangan.

T.S.Zikova kar bolalarni reja tuzishga o'rgatishni amaliy faoliyatdan boshlash maqsadga muvofiqligini isbotlab berdi. Kar bola mantiqan o'zi bajaryotgan harakatlarni ketma-ketligini ko'rsatib aytib turadi, Bunda PAT darslari katta ahamiyatga ega. Bunda bolalar brigadir boshlovchi rolida chiqishadi, o'z o'rtoqlari faoliyatini tashkil etishadi, deyarli ular ishini rejalashtirishadi. Reja tuzishga o'rgatish tayyorlovchi sinfidan, jamoa va individual ravishda kerakli ma'lumotga topshiriq vazifalar tuzishdan boshlanadi.

Reja tuzish bo'yicha asosiy ish birinchi sinfnig birinchi choragidan boshlanadi. Bu davrda bolalar jamoa bilan ish ustida reja buzishga kirishadilar. I-sinf o'quvchilari bir-biri bilan mantiqan bog'langan ko'rsatmalar, faoliyatining rejani va hisobot tuzishni o'rganadilar. Ushbu reja asosida ular ishni bajarishadi va bajarilganligi haqida hisobot berishadi. Ushbu tarzda predmet faoliyati rejasi nutqiy faoliyat rejasiga aylanadi.

Shunday qilib, boshlang'ich maktabning har bir sinfida reja tuzishga o'rgatish o'zida o'zaro bog'langan bir necha yo'nalishlarni ko'zda tutadi. Ko'rsatmalarni tuzish va bajarish zaruriy material va asbob-uskunalar uchun ariza yozish, kelayotgan faoliyatning rejasini tuzish, bajarilgan ish haqida hisobot yozish, kar o'quvchilarni bog'langan nutqini birinchi turi hisoblanadi.

Bog'langan nutqni rivojlantirishni uchinchi xususiyati shundan iboratki, u boshidanoq nutqiy faoliyatning spesifik shakli sifatida rivojlana boshlaydi.

Predmet-amaliy faoliyatning kiritilishiga qadar bog'langan nutqni rivojlantirish

asosida soʻzlashuv nutqi vositasida bolalarga savollar berilgan (masalan rasm yoki rasmlar toʻplami yuzasidan) ular javob berishgan. Javoblar yozuvlari shakliga koʻra hikoyaga oʻxshash boʻlgan, haqiqatda esa bu bogʻlangan hikoya emas edi, chunki monologik nutq tuzilishidan ancha farq qiladi. Matn savollarga olingan javoblar yigʻindisikoʻrinishida boʻlib, faqat ustki koʻrinishidan bogʻlangan nutqni eslatadi. Aslida esa bu yerda bogʻlangan bayon bilan hech qanday umumiylik yoʻq. Axir, bolaning fikri avvalambor maʼlum savollarga javob axtarishda toʻplanadi, u ular orasida mos bogʻlanishlarni oʻrnatmaydi va bir butunlikdagi hikoyani tuzish kerakligini koʻzda tutiladi. 1972 yildan eʼtiboran kar oʻquvchilarni bogʻlangan P.A.T. darslarida reja asosida bajarilgan ishga hisobot tuzishda mantiqiy izchillikka rioya qilishga oʻrgatiladi. shakllangan bilimlardan boshqa darslarda ham foydalaniladi, bular qatoriga bogʻlangan nutqni rivojlantirish darslarini ham kiritishimiz mumkin. Masalan III-sinfda oʻquvchilar velosiped rasmini chiziladi soʻng uni konstruktor detallaridan yigʻib berishlari kerak. Rasmni tahlil qilib ular velosipedni yigʻish rejasini tuzadilar, shuningdek ish uchun zarur boʻlgan kerakli konstruktor detallarni oladilar. Bunda oʻquvchilar mazmuni keng yoritilgan gaplardan foydalanishlari zarur.

Keyinchalik nutqni rivojlantirish darslarida bolalarga jamoa bilan rasmga qarab reja tuzishni taklif etish mumkin, soʻng hikoyaniham rasm mazmunini ham savollarga koʻra ajratmasdan amaliyotda qoʻllaniladigandek tuzish taklif etiladi.

Demak, hozirda mavjud boʻlgan amaldagi maktab dasturi kar oʻquvchilarni bogʻlangan nutqini rivojlantirish boʻyicha olib beriladigan ishlarini maqsadga yoʻnaltirilishini nazarda tutadi. Birinchidan P.A.T. darslarida va ikkinchidan nutqni rivojlantirish darslarida. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar bogʻlangan nutqni rivojlanadi.

Maxsus darslarda bogʻlangan nutqni rivojlantirishda dastur talablarining tahlili shuni koʻrsatadiki, ish turlarining barchasini ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

1) Kommunikativ vazifani amalga oshiruvchi ishlar. (voqealarni tasvirlash, kundalik tutish, devoriy gazetaga xat va lavhalarni yozilishi)

2) Bogʻlangan nutq boʻyicha olib boriladigan barcha ishlar. (predmetni tasvirlash, rasm ustida ishlash, bayon, insho ...).

Kichik sinflarda nutqni rivojlantirish darslarida asosiy eʼtiborni birinchi guruh ishlariga ajratish lozim, chunki aynan ularni bajarish jarayonida bolalar keyingi oʻqish uchun zarur boʻlgan nutqni egallab boradilar.

Dastur shunday tuzilganki unda oʻquvchilarga boʻlgan talab asta sekinlik bilan oshib boradi, yaʼni yildan-yilga nutqni rivojlantirish boʻyicha olib boriladigan ish turlarining soni oshib boradi, ularning mazmuni va tuzilishi murakkablashadi. Masalan agar birinchi sinfda voqealarni tasvirlash, rasmlar ustida ishlansa, IV sinfda ularga devoriy gazeta maqola yozish, tasvirlash va mulohaza yuritish elementlari bilan insho yozish kabi ish turlari qoʻshiladi.

Bundan tashqari IV-sinf oʻquvchilari sinf majlisi, maktab boʻyicha navbatchilik raportlarini tuzadilar hamda oʻqituvchidan mamlakatda boʻlayotgan qiziq voqealar haqida soʻrashadi soʻng ularni tasvirlashadi. Shuningdek IV sinfga kelib oʻquvchilarni bogʻlangan nutqini shakllantirish borasida ishlashdagi mustaqillik darajasi ortadi.

V-VII sinflarda nutqni rivojlantirish ishlarida asosiy o‘rin bog‘langan monologik nutqni shakllantirishga qaratilgan, bu keyingi dialogik nutqni shakllantirishga asos yaratadi. Karlar maktabining o‘rta sinflarida boshlang‘ich sinflaridagi kabi tilga o‘rgatishni asosiy samarador sharti bo‘lgan kommunikativ tamoyil amalga oshiriladi. Bunda nutqiy rivojlanishni boshqa faoliyat turlari bilan uzviy bog‘langanligi ko‘zda tutiladi, bu o‘z navbatida muloqotga bo‘lgan ehtiyojni charxlab turadi va bog‘langan nutqni egallashni tezlashtiradi. Lekin agar kichik sinflarda nutqni rivojlantirish ishlari predmet faoliyatini tashkillashtirish sharoitida o‘tsa, V-VII sinf o‘quvchilari keyingi faoliyat turlari uchun ishning natijalarini ma‘lum qilish uchungina zarur bulgan nutqiy materialni o‘zlashtiradilar. Bunda boshlang‘ich sinflarga qaraganda yangi ish turlari kiritiladi: Nutqning kommunikativ vazifasini amalga oshiruvchi e‘lonlar, kitoblar asosida yozuvlar olib borish (V-sinf), bayonnoma, ariza, tushuntirish xati yozish (VI-sinf) avtobiografiya yozish, anketa va poso‘lka blanklarini to‘ldirish (VII-sinf) yozma nutqning ayniq shu shakllari maktab bitiruvchilarining keyingi hayotida zarur bo‘ladi.

O‘rta sinflarda boshlang‘ich nutqni monologik shaklini shakllantirish davom ettiriladi (savollarga tayangan holda) ammo talablar nisbatan ortadi. Bayon ustida ishlashni mazmuni va turi mukammallashadi. V-sinfda o‘quvchilar va tasvirlash turidagi hikoyalar bayonini tayyor yoki jamoa bilan tuzilgan rejaga asosan yozishadi. Hikoya hajmi 80-100 so‘z, VII-sinfda 150 ta so‘z gacha bo‘lgan hajmdagi hikoya beriladi. Unda metaforalar, solishtirishlar, iboralar ishlatiladi, bu berilgan yoki mustaqil reja asosida amalga oshiriladi. V-sinfda o‘quvchilar matnni asosiy fikrini aniqlashga o‘rganadilar, matn tuzilishi o‘zlashtiriladi (boshi-kirish, asosiy qism, oxiri) O‘rta sinflarda o‘qilgan kitoblar yuzasidan (6-sinfda) erkin va adabiy mavzudagi (VII-sinf) adabiy qahramonlarning fe‘li haqidagi insholar yozish ko‘zda tutiladi (VI-sinf), o‘rta sinflarda yangi ish turlari birga boshlang‘ich sinfda foydalanilgan ish turlari ham qo‘llaniladi: tasvirlash, predmetlarni solishtirish, ish va dam olish kunlarini voqealarni, ekskursiyalar o‘quvchilar hayotiga yaqin bo‘lgan mavzular yuzasidan (tabiat, o‘yin, bayramlar, tag‘til va hokazo haqida) seriyali rasmlar ustida insho yozish amalga oshiriladi.

Kar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish bo‘yicha qo‘yilgan barcha talablar bog‘langan nutqga ham aloqador shuningdek bu talablarni amalga oshirish uchun ish turlari zarurdir. Ularning bari maktab dasturida bayon etilgan. Kar o‘quvchilarni bog‘langan nutqga o‘rgatishning barcha bosqichlari asosiy maqsadga bo‘ysunadi: ularda mustaqil, ijodiy mantiqan qurilgan fikrlashni va shu asosida aniq ifodali bog‘langan nutqni rivojlantirish (og‘zaki va yozma). Bunday katta va murakkab maqsadga erishish yo‘lida o‘qituvchi bog‘langan nutqni rivojlantirish bo‘yicha butun ish tizimini chuqur va oldindan o‘ylab olish lozim, uni rejalashtirishi talab etiladi (yarim yilga yoki bir yilga) Tizim o‘z ichiga bolalarni yosh xususiyatlariga ega bo‘lgan barcha ish turlarini olishi lozim. Bog‘langan nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlarini rejalashtirishda o‘qituvchiga insholar klassifikatsiyasi (tasnifi) yordam beradi.

V.2-§. Insholar tasnifi

Maktabdagi insholar – bu og‘zaki yoki yozma ijodiy ish bilan bo‘lib unda o‘quvchi o‘zining xayollari va qiziqishlarini bayon etadi, o‘z tasavvurlariga yoritadi. Shu bilan birga bu o‘quv ishi bo‘lib matn tuzishda, bog‘langan nutqni rivojlantirish maqsadida o‘tkazilgan mashqdir.

Insholar keng turkumdaligi bilan ajralib turadi. Insholarning har bir turi alohida metodik tayyorgarlikni va qo‘llanilishini talab etadi, to‘g‘ri metodikani tanlash uchun esa ular tasnifini bilish zarurdir. Ona tiliga o‘rgatish metodikasida quyidagi insho tasniflari mavjud. M.R.Lvov insholarni to‘rt xususiyati bo‘yicha tasniflaydi. Kelib chiqishiga ko‘ra, mustaqillik darajasiga va insholarni yozuvga tayyorgarlik usullariga ko‘ra, matn turiga, uslubiga ko‘ra insholar tasniflanadi.

1. Kelib chiqishiga ko‘ra:

a) Aynan o‘quvchilarni tajribalariga asoslanib – o‘quvchilarni boshdan kechirganlari, o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganlari ya‘ni sayohatlar, sayrlar, ekskursiyalar, mehnat jarayonlari va kuzatuvchilari haqidagi insholar.

b) Kitobdan olingan ma‘lumotlarga yoki o‘qituvchining hikoyalariga asoslanib, shuningdek diafilm, kinofilmlarga, spektakl, o‘qilgan kitoblar asosidagi insholar.

v) O‘quvchilarning tasavvurlariga asosan – bitta yoki rasmlar to‘plami bo‘yicha insho yozish. Bunga tayanch so‘zlar asosida yozilgan insholarni kiritishimiz mumkin.

g) Kelib chiqishi turlicha bo‘lgan ma‘lumotlarga ko‘ra masalan, o‘quvchi o‘zining kuzatishlari natijalarini kitoblardan olingan ma‘lumotlarni jamlagan insholar.

2. Mustaqillik darajasiga, insholarni yozuvga tayyorgarlik usullariga ko‘ra:

a) Jamoa insholari, ular butun sinf bir mavzu bo‘yicha o‘tkaziladi, ular umumsinfiy tayyorgarlikni talab etadi.

b) Individual, mustaqil insholar.

3. Matn tiplari yoki janriga ko‘ra

a) Bayon inshosi.

b) Tasvirlov inshosi.

v) Mulohaza inshosi.

M.R.Lvov kuzatuvlarida shunga ahamiyatini qaratadiki, insholar ko‘p hollarda aralash janrda uchraydi: bayonda tasvirlash elementlari bo‘lishi mumkin, tasvirlashda mulohaza elementlari uchrashi mumkin.

4. Uslubiga ko‘ra.

a) emotsional – obrazli, badiiy asarlarni eslatuvchi; bu turli voqealar tabiatni tasvirlashda insholar.

b) ishchi maqola tipidagi insholar. (ishchi ilmiy uslubiga yaqinlik) bu rejalar, bajarilgan ish haqida hisobot berish, e‘lonlar va hokazo. Boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilari hikoyalar va insholar ustida ishlashda uslubni va janr xususiyatlarini ularning nazariy anglamasdan egallaydilar. Aytib o‘tilgan to‘rt guruhdan tashqari insholar og‘zaki va yozma, sinf va uydagi va sinf-uydagi (bajarish shartlariga ko‘ra) o‘rgatuvchi va tekshiruvchi (o‘tkazilish maqsadiga ko‘ra) bo‘linadi. Va, nihoyat insholar mavzular guruhlarini bo‘yicha tasniflashi mumkin. («Vatanimizning tabiati»

«Kattalar va bolalar mehnati va hokazo») Har bir inshoga Lvov tomonidan ishlab chiqilgan tasnifni qo'llashimiz mumkin. Masalan: «Bizning qishki o'yinlarimiz» mavzusidagi inshoda bolalar o'zining shaxsiy taasurotlari va kechinmalari haqida ma'lumotlarni olishimiz mumkin, u individul va jamoa bilan ishlanishi mumkin. (bu o'quvchilarni tayyorgarligiga o'qituvchini mahoratiga, o'yinlar shartlariga bog'liq. Aynan shular insho uchun ma'lumot bo'la oladi) tuzilishiga ko'ra emotsional obrazli, chunki inshoning g'oyasi yoqimli xursandchilik voqealarini ko'rsatish, janri bo'yicha esa tasvirlash mavjud bo'lgan bayondir.

V.3-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'langan nutqni o'rgatishga qo'yilgan pedagogik talablar

Bog'langan nutqni o'rgatish jarayonida quyidagi pedagogik talablarga rioya qilish zarurdir.

1. Istalgan turdagi bog'langan matnlar tuzishda savollar bo'yicha ishlashdan voz kechish.

Istalgan turdagi matn ustida ishlashda o'qituvchi o'quvchilarni qat'iy mantiqiy izchillikdagi voqealarni bayon etishga undaydi. U rejani aniq qismi ustida yoki to'liq matn ustida – amalga oshiriladi. Bayoni etayotgan o'quvchini savollar bilan bo'lmasdan, o'qituvchi shu vaqtni o'zida unga yordam beradi, bola tomonidan aytilgan so'nggi gapni takrorlaydi, keyingi fikrini aytib turadi yoki kerakli so'zni (yangi so'zni) yangi iborani doskada yozilgan namunasiga diqqatini qaratadi va hokazo. Bu yo'l bilan o'quvchilar alohida savollarga javob berishga emas, balki aynan bog'langan matn tuzishga o'rganishadi.

2. To'liq matnlar qurish asosida yozma nutqni shakllantirish.

Yozma monologik nutq o'z mohiyati va funksiyalariga (vazifalariga) ega bo'lgan nutqning spesifik shakli bo'lib, uning o'qitishning birligi matn hisoblansa, kar bolalar maktabida esa yozma nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor ajratiladi. Boshlanishidan boshlab, uni to'liq matn qurish bilan shakllantirish maqsadga muvofiqdir. U ikki faoliyatni tashkil etadi: Matn tuzishga kelishi va uni ifoda etilishi. Birinchi faoliyatning maqsadi insho, hikoyani qo'lyozma variantlarini olish ikkinchisini maqsadi – matnni unga qo'yilgan talablarga muvofiqlashtirish (bog'langanlik, ifodalilik...) Birinchi faoliyat ko'rsatmasi – qo'lyozmada mavzu bo'yicha aytilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarni yozish – o'quvchilarni uyatchanligini yo'qotadi, ijodiy qobiliyatlarini oshiradi, asosiysi, o'quvchilarga o'z fikrlarini to'liq ma'lum izchillikda ifodalash imkonini beradi²⁵.

Kar bolalar maktabida matn tuzishdan avval mavzu bo'yicha lug'at ustida ishlash ishlari, mavzu nutqiy materialini qo'llash bilan leksik va grammatik mashqlar o'tkaziladi.

Ikkinchi faoliyatning ko'rsatmasi – o'z matnini mutaolachi sifatida o'qish, uni to'g'rilashdir. O'quvchilar tomonidan qo'lyozmalar tekshirilgandan so'ng o'qituvchi ulardagi xatolarni ko'rib qo'yadi, lekin ularni to'g'rilamaydi. Yozma ishlarning so'nggi to'g'rilash ishlarini o'quvchilar o'qituvchi tekshirgandan so'ng o'tkazadilar.

²⁵ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -76 p.

To'g'rilash va tekshirish davomida o'quvchilar o'qituvchi yoramida o'z hikoyalaridagi bir xillikni yo'qotadilar, buning uchun ular ba'zi so'zlarni ularning sinonimlari yoki iboralari bilan almashtiradilar. Bunday ish ularga yozma nutqni xususiyatlarini tushunishga yordam beradi, o'zini nazorat qilish malakalarini shakllanishiga yordam beradi.

Nutqni rivojlantirish darslarida o'zaro va o'qituvchi bilan aloqada bo'lishni ta'minlaydigan turli tashkilish shakllardan foydalanish ko'zda tutiladi. Frontal ish olib borishda o'qituvchi o'quvchilar bilan birga hikoya tuzadi va o'zgartirishlar kiritadi. Juftliklarda, brigadalarda yetakchi o'quvchi bilan ishlashda bolalar hikoyani jamoa bilan tuzadilar, bunda har biri ish turi o'rtoqlari tomonidan shu zahotiy oq baholanadi, bu esa uning faoliyatini faollashtiradi.

Yetakchi o'quvchi bilan ish olib borishda istalgan turdagi matnni tuzishni butun dars davomida yoki uning alohida davrlarida tashkil etish mumkin. Yetakchi o'quvchi bilan ishlash usulini «mening oilam» mavzusida, bajarilgan ishni ta'tillarni tasvirlashda, rasmlarni solishtirishda va hokazolarda qo'llash mumkin. Juftliklarda ishlash usulini darsning alohida davrlarida samarali qo'llanilishi mumkin, ko'p hollarda – savollarga javob berishda avval frontal javoblardan boshlab so'ng juftliklarda ishlashga o'tish mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilari bilimlariga ishongan bo'lsa u darhol juftliklar bilan ishlashni tashkil qilishi mumkin. U ko'p diqqatini zaif o'quvchilar javoblariga qaratadi.

Brigadalarda hikoyalar tuzishda tashkil qilish mumkin. Masalan II-sinfda birinchi darsning o'zida bolalar ikkita matn tuzadilar: birinchi brigada – «Do'stlar» hikoyasini, ikkinchisi esa – «Jonli burchakda» hikoyasini. III-sinfda birinchi brigada «Erta kuz» applikatsiyasi bo'yicha boshqasi – «Kech kuz» applikatsiyasi bo'yicha hikoya tuzadilar.

Fikrlash va nutqiy faoliyatni faollashtirish maqsadida o'quvchilarning har biriga differensiallashgan yondashuv. Amalga oshiriladi shunga muvofiq sinfdagi o'quvchilarni nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra to'rt guruhga bo'lish mumkin:

I guruhga nutqiy faolligi past va yozma hamda og'zaki nutqda ham mustaqil fikrga ega bo'lmagan o'quvchilar kiradi. Ularning yozma ishlarida quyidagi xatoliklar kuzatiladi. Alohida mavzularda xulosalarning bo'lmasligi bu esa hikoyaning asosiy mazmuni to'liq yoritilmaganligidan dalolat beradi. Bayon etish jarayonida mantiqiy buzilishlarga yo'l qo'yiladi, ko'pgina nutqiy va grammatik xatolar kuzatiladi.

II guruhga o'quvchilari yuqori nutqiy faolligi bilan xarakterlanadi, ammo ularda og'zaki va yozma nutqda mustaqil, qoidalariga asosan matn tuzish kichik foizni tashkil etadi. Yozma ishlarida ular doim ham hamma mikromavzularni yoritmaydilar, shunga ko'ra hikoya mavzusini ham, uning asosiy mazmunini ifodalash bilan kifoyalanadilar, lekin mantiqiy va asosiy elementlarni o'zaro munosabatida buzilishlarga yo'l qo'yadilar, xulosa qiladilar, lekin ko'pgina nutqiy va grammatik xatolarga yo'l qo'yadilar.

IV guruhga kiruvchi o'quvchilar yuqori nutqiy faollikka ega ham yozma ham og'zaki nutqi mustaqil rivojlangan, imlo qoidalariga muvofiq matn tuza oladilar. Yozma ishlarida ular berilgan barcha mikromavzularni qa'tiy mantiqiy izchillikda

yoritadilar, shuningdek hikoyani asosiy mazmunini ham, asosan hikoyani barcha qismlarini bir tekisda ochib beradilar, xulosa qiladilar, lekin nutqiy va grammatik xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Shuni aytib o‘tish lozimki, agar sinfda nutqiy rivojlanish darajasiga ko‘ra I guruhga mos o‘quvchilar bulmasa sinf uch guruhga bo‘linadi.

O‘quvchilar guruhlariga bo‘linayotganda pedagog ularning har biri bilan olib boradigan ishlarning pedagogik maqsadini aniqlaydi. Birinchi guruh bilan ishlaganda (zaif o‘quvchilar) bu vazifalar quyidagilardir: lug‘at boyligini oshirish, gaplarni to‘g‘ri tuzishga o‘rgatish va voqealar bayon etishda izchillikka rioya qilishga o‘rgatish. Ikkinchi guruh bilan ishlashda: mustaqil og‘zaki va yozma nutqning rivojlantirish, darslarda og‘zaki ishlashda nutqiy faollikni oshirish, voqealarni ifoda etishda mantiqqa rioya etishga o‘rgatish, so‘z boyligini oshirish, yozilganlarni mukammallashtirish, mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish; uchinchi guruh bilan ishlashda: mustaqil og‘zaki va yozma bog‘langan nutqni rivojlantirish, yozilganlarni mukammallashtirish, mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish. To‘rtinchi guruh o‘quvchilari bilan ishlashda (kuchli o‘quvchilar) mustaqil og‘zaki va yozma bog‘langan nutqini rivojlantirish, yozilganlarni mukammallashtirish bilimlarni shakllantirish, o‘z nutqida turli sintaksis tuzilmalarni qo‘llash, individual reja asosida ishlash malakasini shakllantiriladi.

Qo‘yilgan vazifalarga muvofiq o‘qituvchi bog‘langan nutqni rivojlantirish bo‘yicha differensiallashgan o‘qitishni tashkil etishi mumkin. Shu maqsadda nutqni rivojlantirish bo‘yicha ishlash, u har bir guruh uchun barcha turdagi ishlarda yordamchi yo‘llarni aniqlaydi, bu sekin-asta o‘quvchilarni mustaqilligini oshirish uchun zarurdir.

Differensiallashgan ta’limni tashkil etish quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

A) o‘z-o‘zini nazorat qilish, xatolarni to‘g‘rilash malakalarini ishlab chiqish maqsadida mashqlar (masalan qo‘lyozmadagi xatolarni to‘g‘rilash, ular o‘qituvchi tomonidan tagiga chizilgan ammo to‘g‘rilanmagan); B) o‘quvchilar orasida o‘zaro yordam berishni tashkil etish maqsadidagi mashqlar, (masalan kuchli o‘quvchi zaif o‘quvchiga hikoyaga reja tuzishda yordam beradi); V) o‘qitishda o‘z kuchini nazorat qilishni tashkil etishga yo‘naltirilgan mashqlar, (masalan, ikki o‘quvchi o‘zaro ishlari bilan almashib, ularni tekshiradilar); G) Mashqlarni vaqtinchalik osonlashtirish (masalan, tayyorlav mashqlari, rasmlar bilan ishlash) tayyor reja bilan ishlash; D) ishni turli metodik (uslubiy) variantini qo‘llash (masalan binoni tasvirlashda zaif o‘quvchilar uni reja asosida, tayyor namunali analizdan so‘ng tasvirlashadi, kuchli o‘quvchilar esa mustaqil tarzda shu rejaga mos keluvchi ob’ektlarni ham tasvirlab berishadi).

Nutqni rivojlantirish bo‘yicha darslarni tashkil etishda berilgan har bir mavzu ustida ishlashni shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin. Shunga ko‘ra ularni oldindan differensiallashgan mashqlar va o‘quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lgan yordam turlari ishlab chiqiladi.

Birinchi bosqich – o‘quvchilarni yozma ishga tayyorlovchi differensiallashgan mashqlar va hikoyalar rejasini tuzishda o‘quvchilarni og‘zaki bayon etishlarida zaruriy yordam turlari ko‘rib chiqiladi.

Ikkinchi bosqich – yozma ishni o‘tqazish. O‘quvchilarning turli darajadagi mustaqillikni talab etuvchi topshiriqlar rejalashtiriladi.

Uchinchi bosqich – yozilganlarni mukammallashtirish, yozma ishlar tahlili. Yozilganlarni mukammallashtirishda, o‘quvchilar ishlarini o‘zaro tekshirishlarda va xatolarni tahlil qilishdagi turli yordamchi usullar ko‘rib chiqiladi.

Tabiiyki mashqlar tizimi o‘quvchilarda sinfdan sinfga o‘tishlariga ko‘ra murakkablashib boradi, ya’ni ularda sekin-asta mustaqillik darajasini oshib borishini va o‘qituvchi tomonidan yordamni qisqartirishni ko‘zda tutadi.

Bog‘langan nutqni rivojlantirish bo‘yicha olib boriladigan ish rejasini uzoq davrga tashkillashtirish (yarim yilga, bir yilga) Bu yoshdagi bolalarni barchasi uchun qulay bo‘lgan va dastur bo‘yicha tavsiya etilgan holda tashkil etiladi. Bunday rejalashtirish yuqorida yoritilgan insholar tasnifini inobatga olgan holda o‘tkaziladi va o‘quvchilarda har tomonlama fikrlashni rivojlanishiga asos bo‘ladi, chunki ishning har bir turi ma’lum fikrlash operatsiyasini bajarishni boshqaradi. Masalan: predmet yoki hodisani tasvirlashda mavjud belgilarni ajratib ko‘rsatish va qismlarini ajratib qurish, aniqlik va kuzatuvchanlik shakllanib boradi.

Ishning bir turidan doimiy foydalangan o‘qituvchi ishni noto‘g‘ri tashkil etadi (masalan rasm bo‘yicha ishlash). Uning o‘quvchilari bir yoqlama rivojlanib boradi, ular xat, maqola yozishni bilishmaydi, o‘z kuzatishlarini bog‘lab aytib bera olmaydi. Nafaqat ish turlarini balki uning tematikasini ham boyitish zarur chunki har bir mavzuni yoritishda shunga mos so‘zlar va iboralar qo‘llaniladi.

Bir yilga yoki yarim yilga rejalashtirishda u yoki bu ish turlarini qanday oraliqda o‘tkazilishi zarurligini o‘ylab chiqish kerak. Kar o‘quvchilar insho yozishda turli ma’lumot manbalardan foydalanishni o‘rganishlari zarur: shaxsiy kuzatishlar va taasurolarga asoslanib, rasm yoki rasmlar to‘plamiga asoslanib, diafilm va filmga, kitob bo‘yicha.

Kar bolalar fikrlashining konkretligi va ular ruxiyatida hissiyotning ustunligini hisobga olgan holda, bog‘langan nutq ustida ishlashda ko‘proq o‘qituvchilarning hayotiy tajribalariga va kuzatishlariga tayanish lozim. Ayniqsa maqsadga yo‘naltirilgan, tashkillashtirilgan kuzatuvlar muhimdir.

Rasm va rasmlar to‘plami bo‘yicha ish olib borishni tez-tez amalga oshirish zarur, chunki ular ko‘p ma’lumot beradi. Bolalar hissiyotiga sezgilariga ta’sir etadi va shuning uchun eng qulay axborot manbai hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda manbalardan foydalanish bilan chegaralanmasligi kerak – kitoblar, diaflmlar ma’lumotlaridan foydalanish zarur chunki insholarda avvalambor bor o‘quvchilar hayoti, qiziqishlari va shaxsiy tajribalari aks etishi zarur. Bundan tashqari, bayon vaziyati o‘quvchining og‘zaki nutqini vujudga kelish jarayonini ma’lum darajada tormozlaydi va chegeralab qo‘yadi, uning matn bezashda va mazmunini ko‘rsatib berishdagi faolligini chegaralaydi. Ammo shu vaqtda ayniqsa IV sinfdan ayniqsa shunday ish turlarini rejalashtirish va o‘tkazish kerakki, ularda o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy tajribalarini kitobdan oliygan ma’lumotlar bilan moslashtirishlari kerak. Masalan, IV sinf o‘quvchilari «qish» mavzusida insho yozishyapti ular inshoni shaxsiy kuzatuvlariga, o‘qigan matnlarga va ko‘rilgan filmlariga asoslanib yozadilar. Bir yilda yozilishi zarur bo‘lgan insholarni yarmini

o'quvchilarni shaxsiy tajribalariga asoslanib tuzishni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir, qolganlarini esa boshqa manbaalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib tuzish talab etiladi (rasmlar, kitoblar, filmlar va boshqalar).

Bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan ish tuzilishi jamoa bilan ishlashning asta-sekinlik bilan mustaqil ishlashga o'tkazishni nazarda tutadi. Kar bolalar maktabida bog'langan matn ustida jamoa bo'lib ishlash muhimdir, uning davomida bolalar hikoya rejasini tuzishga, voqealarni bayonida mantiqqa rioya etishga, zaruriy so'z va iboralardan foydalanishga o'rganishadi.

Boshlang'ich sinflarda hikoya ustida ishlashni jamoa shakllari ustunlik qiladi, lekin shu bilan birga individual ijodga va mustaqillik elementlari kiritiladi: chizmalar va ular bo'yicha hikoyalar, kichik og'zaki va yozma hikoyalar ular bolalar hayotidan olinadi. (masalan, IV sinfda «Ta'tilimdagi eng qiziq kun» mavzusidagi hikoyalar)

Nutqiy faollikni va o'quvchilar mustaqilligini rivojlantirish uchun I sinflardan oq turli tusdagi lekin o'zaro bog'liq nutqiy rivojlantirish bo'yicha mustaqil ish olib borish zarur. Sekin-asta ularning hajmini va mazmunini murakkablashtirib boriladi: 1) o'qituvchi faoliyatini aynan ko'rsatuvchi ishlar 2) o'qituvchi qo'l ostida o'tkazilganlarga aynan o'xshash bo'lgan ish 3) ijodiy ish.

Tayyorlov va I sinflarda o'qituvchining yetakchi faoliyati ustunlik qiladi, lekin u doim rivojlanish va o'sishni kuzda tutishi lozim.. O'quvchilar bilimlarini, ko'nikmalarini shakllanganligida 2-3 turdagi mustaqillik ishlarning o'rni shunchalar yuqoridir. Shunday qilib, I sinfdan boshlab o'quvchilar o'qilgan matn bo'yicha og'zaki va yozma javob berishadi, javoblar doskada bir necha variantlarda yoziladi. So'ng bolalar ularni doskadan ko'chirishadi yoki mustaqil yozishadi. Shundan yozma bayonga tayyorgarlik boshlanadi. III sinfda o'quvchilar o'qituvchi yordamida to'liq va qisqa bayonlar yozishadi, sekin-asta o'qituvchi yordami kamayadi. Mustaqil ishni yana bir turi o'quvchilar hech kimning yordamisiz bo'lajak hikoya rejasini tuzishadi.

Mustaqil ishlarni ushbu uch turi darsda differentsiallashgan ta'limni tashkil etish uchun ham qo'llanilishi mumkin. Bunda o'quvchilarni individual imkoniyatlarini inobatga olishadi. O'rta sinflarda o'qituvchi qo'l ostida bajarilgan ishlarga aynan o'xshash mustaqil ishlar ustunlik qiladi.

Bilimlar va yuqorida keltirilgan talablar o'qituvchilarga kar o'quvchilar bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlar tizimini to'g'ri va maqsadga yo'naltirilgan qilib tashkil etishga yordam beradi.

V.4-§. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari

Tilga o'rgatishni kommunikativtizimi talablariga muvofiq kar bolalar maktabida barcha bosqichlarda o'zida kommunikativ vazifani amalga oshiruvchi ish turlariga ko'proq murojaat etish zarurdir. Avvalambor bu P.A.T. darslaridagi ish turlaridir. (ish haqida hisobot, reja, asboblarni uchun bildirgi, voqealarni tasvirlash, xat, devoriy gazetaga maqola, ish qog'ozlari ariza, bildirgi, avtobiografiya, e'lon yozish). Bu ish

turlariga o'rgatish boshlang'ich va o'rta sinflarda amalga oshiriladi.

Predmet-amaliy ta'lim darslarida bog'langan nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ish turlari. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bog'langan nutqli rivojlantirish bajarilgan ish haqida hisobot tuzish, zaruriy material va asboblarni uchun bildirgi yozish, bajariladigan faoliyat uchun reja tuzishga o'rgatishni ko'zda tutadi.

Har bir inson o'z faoliyati davomida ariza, hisobot, ish rejasini, avtobiografiya, bildirgi va boshqalarni yozish zaruriyatiga duch keladi. Turli ish qog'ozlarini to'g'ri to'ldirish uchun tilning ish usulini xususiyatlarini, ish qog'ozlari mazmunini va yozilish shaklini talab etiladi.

Kar bolalar maktabida ish usuli bilan tanishtirish amalda P.A.T. darslarida amalga oshiriladi u hech qanday nazariy ma'lumotlarsiz, bayonisiz amaliy jihatdan o'tkaziladi.

Ish haqida hisobot P.A.T darslarida o'quvchilar tizimli tarzda bajarilgan ish haqida hisobot berishadi. Shu bilan birga hisobot tuzish malakalarini o'zlashtirib borish jarayonida hisobot tuzishga bo'lgan talablar sekin-asta o'sadi: hisobot hajmi oshadi, (qisqa yoki to'liq) shakli murakkablashadi. O'quvchilarning mustaqillik darajasi oshadi. Ta'limning boshlang'ich bosqichlarida bolalar tayyorlangan predmetni bir so'z bilan nomlashadi. Tayyorlov sinflarida so'z boyligini o'sishi bilan ular tayyorlangan predmetning tayyorlashni har bir bosqichi haqida hisobot bera boshlaydilar. Hisobot qismlarga bo'linib, amalga oshiriladi. Bu ish ko'rsatmalarni berishdan va ularni jadvalda ko'rsatishdan boshlanadi. So'ng o'qituvchi predmetni tayyorlashni harakatlarni o'zi ko'rsatib beradi va ularni bajarishda hisobot berib o'tadi. O'quvchilar unga qarab aynan shu harakatlarni bajarishadi va ular ham hisobot berishadi. Bunda dars boshlangunga qadar doskada yozib qo'yilgan yozuvlardan foydalanishadi: «Men oldim... Men uni ezdim... men uzib oldim...» O'qituvchi o'quvchilar keyingi bosqichga o'tishlaridan avval oldingisini sharhlab berishlarini nazorat qiladi. Ular avval og'zaki daktilda hisobot berishadi, so'ng kesma alifbodan hisobot iboralari so'zlarini terishadi, yozuvni o'zlashtirib borishlariga ko'ra daftarlarida hisobot yozishni boshlashadi.

Birinchi sinf o'quvchilarini biror narsa tayyorlashda hisobotni murakkab usuliga o'tishadi, - tayyorlash jarayoni haqida qismlarga bo'lib emas, balki boshidan oxirigacha hisobot berishadi, to'liq hisobot tuziladi. Bunda buyum tayyorlash jarayonini va jarayonni barcha bosqichlarini to'liq eslab qolish zarur bo'ladi. Shuningdek, jarayonlarni ma'lum izchilikda tasvirlab berish talab etiladi. Ikki, uchinchi sinflarda bolalar hisobotlarni hikoya tarzida yozadilar. Unda kim nima qilganligi va tuzilgan rejadan qanday chetga chiqishlar ko'rsatilganligini yozishadi. Bu hisobotlarda bolani ishga nisbatan munosabati ifodalanadi, do'stlari faoliyati baholanadi. Buyumlarni tayyorlash murakkablashishiga ko'ra hisobot shakli ham o'zgaradi. Agar buyum bir nechta darslarda yasalsa, tayyorlansa unda ishning so'ngida o'quvchilarga uning asosiy bosqichlari haqida qisqa hisobot yozishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Reja asosida yoyiq va qisqa hisobotlarni tuzish uchinchi sinfdan boshlab o'tkaziladi.

Hisobot tuzishni usullari quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

- yozma ko‘rsatmalar va tayanch so‘zlarga asosan;
- tayyor buyum va har bir bosqich bo‘yicha ko‘rsatmalarga asosan;
- tayanch so‘zlarga asosan;
- buyum namunasiga o‘qituvchi tomonidan harakatlarni aytib turilishiga asosan;
- buyumni tayyorlash rejasiga asosan.

Faoliyatni rejalashtirish bolalarni faollashtirish vositasi hisoblanadi, barcha o‘quv mashg‘ulotlarida ularni mustaqilligini oshiradi. Psixolog va metodistlarning fikrlariga ko‘ra rejalashtirish bilimlari bolalar nutqini va fikrlashini rivojlanishiga asos bo‘ladi, hamda ular rivojlanishidagi nuqsonlarini bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi.

Kar bolalar ilk bor «reja» tushunchasi bilan P.A.T. darslarida duch keladilar va o‘z faoliyatlarini rejasini tuzishni o‘rganadilar. Ular rejani mazmuni va shakli bilan, uning turlari, usullarining xususiyatlari bilan tanishadilar. Reja tuzish bo‘yicha ishni tashkil etish shakllari sekin-asta murakkablashib boradi, reja turlari ham o‘zgaradi. Kar bolalarni o‘qitishda uch tashkiliy shakl qo‘llaniladi: tayyor reja bo‘yicha ishlash, o‘qituvchi yordami bilan rejani jamoada tuzish va o‘quvchilar tomonidan mustaqil reja tuzish.

Birinchi sinfda o‘qituvchi tayyor rejani taklif etadi va undan foydalanishni, reja qismlariga mos barcha jarayonlarni bajarish, izchillikka qat’iy rioya etish va ishning qaysisini oldin bajarish lozimligini o‘rgatadi.

Bu mashg‘ulotlar davomida pedagog bolalarni «reja», «reja qismlari» so‘zlarning ma’nosi bilan tanishtiradi. Bugun ular reja bo‘yicha ishlashlarini e’lon qiladi va oldindan doskada tayyorlab qo‘yilgan buyumni tayyorlanish rejasini ochadi. O‘quvchilar o‘qituvchilar bilan birgalikda rejaning birinchi qismini o‘qitishadi. Uning asosida doskaga chiqarilgan o‘quvchi ko‘rsatma tuzadi. Ko‘rsatmani bajarib bo‘lgach o‘quvchilar hisobot berishadi va rejani 2-qismiga o‘tishadi va hokazo.

Keyinchalik o‘quvchilarga qo‘yilgan talablarni ortishi bilan, tayyor reja bo‘yicha ishlash variantlari murakkablashadi.

- Tayyor rejani to‘ldirish. Tayyor rejada bir nechta qism yoki alohida so‘zlar tushirib qoldirilgan. Ularni tanlab olish zarur, buyumni u yoki bu qismini qaerga joylashtirishni topish zarur va hokazo. O‘qituvchi bilan birgalikda buyumni namunasini yoki uni tasvirlashda analiz qilishda, o‘quvchilar tushirilib qoldirilgan, to‘liqsiz bo‘lgan reja qismlarini to‘ldiradilar.

- Tayyor rejani aniqlashtirish. Bu yanada murakkabroq ish turi hisoblanadi. Rejada jarayonlar keta-ketligi buzilgan yoki ba’zi muhim jarayonlar tushirib qoldirilgan bo‘ladi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda rejani o‘qib, buyum namunasini ko‘rishadi, rejada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etiladi.

O‘quvchilar reja nimaligini, undan qanday qilib, foydalanish kerakligini uni qanday yozilishini bilganlaridan so‘ng pedagog ularni reja tuzishga o‘rgatadi. P.A.T. darslari dasturiga muvofiq o‘quvchilar uch tarzdagi reja tuzishga o‘rganishadi: jarayonlarga mos, qisqa va murakkab.

Jarayoniga ko‘ra reja tuzishni har bir qismi alohida harakatlarga yoki buyumni

tayyorlash jarayoniga mos keladi. Jarayonga ko‘ra reja tuzishni jamoa bilan amalga oshirish o‘quvchilar tomonidan birinchi sinf ikkinchi choragidan boshlanadi. Bunda buyumni tayyorlashning birinchi jarayoni rejalashtiriladi u darhol bajariladi. So‘ng ikkinchi bosqich belgilanadi va bajariladi. Shu tarzda bu jarayon davom etadi.

T.S.Zikova kar o‘quvchilarni «qisqa» rejalashtirishga moyilligi sababini «kar o‘quvchilarda mavhum fikrlash yetarlicha rivojlanmaganligi, ularda bajariladigan ish tarkibiga kiruvchi jarayonlar xayolan tasavvur etishga imkon bermaydi» - deb e‘tirof etadi.

Bolalar «qisqa» rejalashtirishni egallab olgandan so‘ng o‘qituvchi barcha jarayonlar aks etgan reja tuzishga o‘rgatadi. Shu maqsadda 3-5 ta jarayon asosida tayyorlanadigan buyumni tanlaydi. O‘qituvchi bolalarga bajarilishi zarur bo‘lgan ish rejasini taklif etadi. Doskaga «Reja» so‘zini yozadi va bir sonini qo‘yadi (rejaning birinchi qismi). So‘ng bolalar o‘qituvchi savollarga javob berishadi. Avval nima qilish kerak? Keyin nima qilish kerak? Keyin nima qilish zarur? shu tarzda reja tuziladi, o‘qituvchi uni doskaga yozadi. Birinchi sinfni 3-choragida o‘quvchilar jarayonga ko‘ra reja tuzishni mustaqil bajarishadi. Buyumlarni tayyorlashni murakkablashishi darajasiga ko‘ra bajariladigan jarayonlar soni oshadi va jarayonning har bir bosqich reja tuzish maqsadga muvofiq bo‘lib qoladi. Ikkinchi sinfni birinchi choragidan unda predmetni qismlarini tayyorlashning asosiy bosqichlari aks ettishi lozim. Har bir qism bir necha harakatlarni bajarishni nazarda tutadi. Masalan «O‘rindiqlik» mavzusida metal konstruktor bilan ishlashda o‘quvchilar quyidagi rejani tuzishadi.

1. O‘rindiqlikni o‘tirish joyini yasash
2. O‘rindiqlikni suyanadigan joyini yasash
3. O‘rindiqlik qismlarini birlashtirish.

Qisqa rejalarini tuzish bolalarga predmet qismlarini ko‘rishga, ularning qaysi asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlari aniqlashga yordam beradi? Qisqa rejalashtirish asosan maketlar, applikasiyalar yasashda qo‘llaniladi. Qisqa reja bo‘yicha ishlashda har bir o‘quvchi predmetning faqat bir qismini yasaydi, lekin uning yasalishi uchun u o‘z faoliyatini rejalashtirishi kerak, qisqa rejaning ushbu qismini amalga bajarish talab etiladi. Masalan, uycha yasash kerak. O‘quvchi reja tuzadi. 1) uycha yasash kerak. 2) uycha tomini yasash kerak. Qisqa rejani kengaytirish ikkinchi sinfning ikkinchi choragidan jamoalarda amalga oshiriladi, uchinchi sinfda esa mustaqil amalga oshiriladi. Qisqa reja qismlarini kengaytirish bilimlarini egallab borish o‘quvchilarni murakkab reja tuzishga tayyorlaydi. Murakkab rejaga ko‘ra o‘z ichiga qisqa va jarayoniy rejalarini qamrab oladi. Avval uchinchi sinfning uchinchi choragida u jamoa bo‘lib tuziladi. Murakkab rejani asosiy qismlari buyumni ishlab chiqarishda ish bosqichlarini izchillikda ko‘rsatib beradi. Bunday reja o‘quvchilarga murakkab buyumlarni yasashda voqealar izchilligini to‘liqligicha tasavvur etishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda buyumni ko‘zdan kechirishadi; uni tashkil etuvchi qismlarini aniqlashadi, ularni yasashni qisqa rejasini so‘ng esa to‘liq rejasini tuzadilar. Jamoa bo‘lib ma‘lum tarzdagi reja tuzish malakalarini egallab bo‘lgandan so‘ng, o‘quvchilar o‘z faoliyatlarini mustaqil rejalashtirishga o‘rganadilar. Xuddi jamoa bilan reja tuzishdagi

kabi ular avval o'qituvchi bilan birgalikda buyumni ko'zdan kechirishadi, uni qanday qismlardan tuzilganligini aniqlashadi, ammo endi alohida qismlarni og'zaki shakllantirmaydilar balki har birlari daftarda o'z rejalarini yozib boradilar. So'ng jamoada so'nggi variantni ishlab chiqishadi va uni daftarga yozishadi. Keyinchalik o'quvchilar rejani faqat mustaqil tuzishga o'tishadi.

Reja tuzishda turli ish variantlari qo'llaniladi:

1. Buyumni ishlab chiqish jarayonini o'qituvchi tomonidan bajarilishi.

2. Buyum, rasm, eskiz namunasi analizi. O'quvchilar namunani (rasm, eskiz) ko'zdan kechirishadi va jamoada buyumni tayyorlash jarayonini rejalashtirishadi.

3. Buyumni namunasi tahlili va bajarilgan ish haqidagi dustlari tomonidan tuzilgan hisobot tahlili. Bu vaziyatda bolalar namunani ko'zdan kechirishadi va buyumni yasash jarayoni tasvirlangan hisobotni o'qishadi. Namunani o'rganish asosida va hisobot asosida ular jamoa bilan kelgusi ishlar rejasini tuzadilar.

4. Buyumni so'zlar orqali tasvirlash yoki u haqidagi hikoyaning tahlili. Reja asosida ushbu turdagi ish juda muhim hisoblanadi, chunki uning yordamida kar o'quvchilar o'qilgan matnni tushunishga va unga reja tuzishga o'rganishadi, bu ularga o'qish va nutqni rivojlantirish darslari uchun zarur.

Oxirida shuni belgilab o'tish zarurki, P.A.T. darslarida o'tkaziladigan barcha ish turlari (hisobot tuzish, rejalar) o'zida yorqin ifoda etilgan kommunikativ faoliyatni ko'zda tutadi, o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Shunday qilib P.A.T. darslarida kar o'quvchilar buyumni tasvirlashda, bajarilgan ish haqida hisobotlarda, keyingi faoliyatlarini rejalashtirishda mantiqiy izchillika rioya etishga o'rganiladi. Zaruriy material va asboblarni Aniqlashga va rasmlar, namunalar bo'yicha bildirish yozishga shuningdek tayyor bo'lgandan so'ng buyumni tasvirlashga o'rgatiladi. Sanab o'tilgan barcha bilimlar va malakalar o'qituvchi tomonidan nutqni rivojlantirish darslarida ishlatilishi kerak.

Nutqni rivojlantirish darslarida kommunikativ yo'naltirilgan ish turlari.

Zaif eshituvchi bolalar maktabida nutqni rivojlantirish darslarida, katta e'tibor shunday ish turlariga qaratiladiki ular davomida nutqning kommunikativ vazifasi amalga oshiriladi. Bu voqealarni tasvirlash bo'yicha ishlash, xatlar yozish, devoriy gazeta, maqolalar, nomalar yozish ishlari har bir tur o'z xususiyatlariga ega, bu quyida bayon etiladi. Shu bilan birga barcha bog'langan matnlar o'zlarining qabul qiluvchisiga ega, bunga asosan ular ustida ishlash motivlashtirilgan bo'ladi, bu esa bolalarda uni bajarishga bo'lgan qiziqishni orttiradi ularni nutqiy va fikrlash faoliyatlarini faollashtiradi.

Voqealarni tasvirlash bo'yicha ishni ijtimoiy ahamiyatini oshirish maqsadida ularni tez-tez xatlarga va devoriy gazeta maqolalariga xat va maqolalarni tuzish va yozishga esa bog'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha ishni umumiy tizimiga qoidaga binoan mavzuni o'rganishni so'ngida kiritish lozim. Bu vaqtgacha o'quvchilarga bu mavzu bo'yicha ma'lum bilimlar bo'ladi, so'zlar va iboralar

zaxirasi to'ldiriladi, shuning uchun xat va maqolalar matnini tuzishda ular yuqori mustaqillikni namoyon etishadi, uz fikrlarini erkin va to'g'ri bayon etishadi, ularni yetarlicha uquvli tuzishadi.

Nomi keltirilgan ish turini istalganiga o'rgatish dialogik nutqga tayanmagan holda amalga oshiriladi. O'quvchilarni Yangi ish turi Bilan tanishuvidan va namunasi chuqur tahlilidan sung o'qituvchilar ularni reja tuzishga va jamoa Bilan og'zaki bayon etishga yo'naltiriladi. (maqola, tasvirlash va hokazo) rejaga ko'ra, keyin esa o'quvchilar uni daftarga yozishadi. Hikoyani og'zaki bayon etishda o'qituvchi bir o'quvchiga umumiy rejani qismlari bo'yicha so'zlab berishga imkon beradi. O'qituvchi uni bo'lmaydi, savollar bermaydi, aksincha hikoya mantiy izchilligini boshqarib turadi, so'nggi iborasiga diqqatini qaratadi. Ishning bu uslubida o'qituvchi haqiqatdan ham o'quvchilarni bog'langan nutqini nutqiy faoliyatini spesifik shakli sifatida rivojlantiradi.

Xat, maqola va boshqa turdagi bog'langan bayonlarni yozishdan avval albatta orfografik tayyorgarlik o'tkazish zarur. Bu tayyorgarlik jarayonida o'quvchilar diqqati keyin so'zlarni va iboralarni to'g'ri yozishga qaratiladi.

Bog'langan bayon yozishdan avval o'qituvchi tayyorgarlik Mashqlarini o'tkazish mumkin. Uning davomida o'quvchilar aynan shu nutqiy materialga doir grammatik vazifalar bajarishadi (so'z birikmasi tuzish, o'qituvchi tomonidan berilgan mavzu bo'yicha gaplar tuzish, so'zlarni fonetik tahlili, qo'shimchalar tagiga chizish va h.k.). Bu Mashqlarni darslarda va darsdan tashqari vaqtlarda bajarish mumkin. Bajarilganligini tekshirib bo'lgandan so'ng o'quvchilar ushbu mashqlarning nutqiy materialini o'z yozma ishlarida qo'llaydilar. Bu ularga berilgan vazifani osonlashtiradi va muhimi vazifani o'quv bilan bajarishga yordam beradi.

Yozib bo'lganlaridan so'ng o'quvchilariga o'qib chiqish va xatolarni to'g'irlab chiqish taklif etiladi. Chunki kar o'quvchilarda boshlang'ich sinflarda o'zini nazorat qilish malakasi bo'lmaydi, shuning uchun o'qituvchi xatolarni ko'rsatadi, o'quvchilarni o'zlari esa ularni to'g'rilashadi. qiyinchilik tug'lsa o'qituvchi yordam beradi.

Bular ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va fikrlarni va nutqiy faoliyatni faollashtirish uchun o'qituvchi turli tashkiliy ish shakllarini qo'llaydi, - juftlik – brigada (jamo) yetakchi o'quvchi Bilan birga. Masalan, IV sinf o'quvchilari Yangi yilga devoriy gazeta chiqarmoqchi bo'lishdi: Uni nomini va maqolalar mavzularni aniqlashdi. Ishni bajarish uchun juftliklarga bo'linishadi. Ularni har biri maqola mavzusini tanlab unga reja tuzishdi va unga matn yozishdi. Bunda juftlikdagi har bir o'quvchi o'z fikrini bayon etadi. O'qituvchi o'quvchilarga differensiallashgan yordam ko'rsatadi. O'quvchilar tomonidan maqolalarni qayta ko'rib chiqilganidan so'ng devoriy gazeta chiqarildi.

Bog'langan nutqni muloqot quroli sifatida rivojlantirish bo'yicha ish turlarini o'qitish uslubining umumiy xarakteristikasi shundan iborat. Quyida konkret ish turlari bo'yicha o'qitish uslubini keltiramiz.

Voqealarni tasvirlash. Tasvirlash nutqiy faoliyatning bir turi sifatida kar bolalarni o'qitishni umumiy tizimida muhim o'rin egallaydi. Ular o'z xayotlaridagi asosiy voqealarni, qiziqarli vaziyatlarni, turli predmet va hodisalarni tasvirlashga

o'rgatiladi. O'quvchilarni o'z hayotlari haqidagi hikoyalari asosiy o'rinni egallaydi, chunki bolalar doimiy ravishda o'z do'stlari, ota-onalari va pedagoglarni o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan narsalardan xabardor qilib turishni istashadi.

Kar bolalar maktabida o'qituvchi ishlarini ko'p yillar davomida kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, voqealarni tasvirlash metodikasida sezilarli kamchiliklar mavjud. Avalambor o'qituvchining o'zi doim ham tasvirlashni aniq differensiallashtirmaydi, ular turli voqealarni ifodalashi mumkin (ish kuni, bayram kunlari, ta'til kunlari). Ko'p o'qituvchilarishni savollar bo'yicha tuzishadi, matnda qo'llanilgan til vositalariga yetarli e'tibor qaratishmaydi, ularning nutqiy rivojlanish darajasidagi farqlarni inobatga olishmaydi. Amaliy o'qitishdagi mavjud kamchiliklar buni ushbu savolga to'liqroq javob berishga undaydi. O'z hayotidagi voqealarni tasvirlashda o'quvchilar ular oldida o'tib berish dinamikasi bilan kechayotgan real vaziyatni so'zlab berishadi, uning barcha elementlari ular uchun muhayyo. Aynan shuning uchun real vaziyatni, rasm mazmuniga ko'ra ifodalab berish osonriq.

Real voqealarni so'zlab berishda qiyinchiliklar shu bilan bog'likki, u birinchidan hayot boy bo'lgan ko'p miqdordagi detallar orasidan bola asosiy joylarini ajratib olishga bola qiynaladi; ikkinchidan : o'z hayotidagi voqealarni tasvirlashda o'quvchi avvalroq sodir bo'lgan vaziyatni so'zlab beradi, vaziyatni xayolan tasvirlash qabul qilib tasvirlashdan ko'ra murakkabroq. Uchinchidan rasmda chizilgan tasvirni bola voqeada ishtirok etish jarayonida qiziqib qabul qiladi, hayotiy voqealarni esa u birmuncha maqsadga yo'nalmagan, aniq bo'lmagan tarzda qabul qiladi.

Uning butun e'tibori rasmdagi tasvir bilan uning kechishi va natijasi bilan band bo'ladi, uning keyingi og'zaki so'zlab berilishi haqidagi fikrlar bo'lmaydi. Shu bilan birga bola hayotida sodir bo'lgan voqealar uchun katta ahamiyatga ega, u rasmda tasviri keltirilganlarga ko'ra ko'proq emotsional boyitilgan, bu esa ishga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi.

Ko'rinib turibdiki, real voqealarni so'z orqali ifodalab berish o'z xususiyatlariga ega. Bu bilimlarni rivojlantirish bo'yicha dastur talablarining ahamiyati ko'zda tutadi. O'quvchilar alohida o'z hayotidagi, sinf hayotidagi, maktab hayotidagi voqealarni tasvirlashga, ish, o'qish, ta'til, bayram kunlarini tasvirlashga o'rganishadi. Bu tasvirlash turlari bir-biridan murakkablik darajasiga ko'ra ajratiladi.

O'quvchilar uchun eng osoni oddiy kunni tasvirlab o'tishdir, chunki maktabinternat sharoitida kunlar bir-biriga o'xshash bo'ladi va kunning qat'iy tartibiga rioya etiladi. Bu tasvirlashda o'quv faoliyati va ovqatlanish haqidagi hikoya ustunlik qiladi.

Dam olish kunlarida bolalar asosan dam oladilar va tartib bilan bog'liq vaziyat oddiy kunlarga qaraganda birmuncha kamroq bo'ladi. Bundan tashqarii dam olish kunlari ajoyib voqealar sodir bo'lishi mumkin (teatr, kino, sirka va boshqa joylarga safar uyushtiriladi). Bundan kelib chiqqan holda dam olish kunlari haqida yozish qiziqarliroq, murakkabroq chunki tasvirlashning bu turi o'quvchilardan ijodiy yondashuvni talab etadi. Bayramlarni tasvirlash albatta kunning yorqin voqealarini ifodalab berishi lozim. Ta'tillarni tasvirlashda dam olish kunlarini tasvirlash kabi o'quvchilar o'z hordiqalari haqida yozadilar, faqat u birmuncha uzoqroq bo'ladi. Buning uchun ular ko'pgina faktlar orasidan kerakli ma'lumotlarni ajratib ola

bilishlari lozim. Faktlarni ajratib olish shu bilan murakkablashadiki, ular sodir bo'lgandan so'ng bir qancha vaqt o'tgandan so'nggina ifodalashadi. Bundan tashqari ta'til haqidagi hikoyalarda dam olish kunlari hikoyalardan farqli ravishda turli voqealar haqidagi ma'lumotlarni differensiallashgan tarzda berib borish kerak, shuni hisobga olish kerakki ulardan biri epizodik bo'ladi, boshqalari ko'p bora takrorlanadi, uchinchilari – doimiy bo'ladi. Bu farqlanishlar tasvirlashda o'z ifodasini topishi zarur. Ta'tillarni tasvirlashda xronologik izchillikka rioya qilish qiyin, chunki ularda umumlashgan tarzda ko'p bor turli vaqtlarda takrorlanadigan mashg'ulotlarni ifodalab berish kerak. (o'yinlar, mehnat va boshqalar). Avvalambor o'quvchilar ta'tillarni davomiyligi haqida ular asosan qanday o'tganligi haqida bu vaqt orasida qiziqarli nima sodir bo'lganligi haqida xabar berishadi.

Ko'rib chiqilgan har bir tasvirlash turining o'z xususiyatlariga qaramasdan, ularga va boshqa bog'langan bayonlarga qo'yiladigan umumiy zaruriy talablarni ham belgilab o'tishimiz lozim: ular mazmunini to'liq ifodalab berish zarur, ortiqcha ma'lumot bo'lmasligi lozim, bayonning mantiqiy izchillikka saqlanish zarur, fikrlar so'zlar orqali to'g'ri ifodalanishi kerak. Kar bola tasvirlash haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishi va aynan qanday tasvirlashni bajarish va aynan qanday tasvirlashni bajarish lozimligini aniq tushunish lozim.

O'quvchilarni voqealarni tasvirlashga o'rgatish uchun ma'lum izchillikka rioya qilish zarur: tasvirlash namunasi analizi unda berilgan ma'lumot hajmini va uning joylashishi ko'rsatmasi bilan berilgan namunasi jamoa bilan reja tuzish mutanosibligi, avval tasvirlangan voqeaga o'xshashligi kam bo'lgan boshqa voqeani tasvirlash, turli voqealarni tasvirlash.

Yuqorida keltirilgan voqealarni tasvirlash ustida olib boriladigan ish izchilligida o'quvchilarga qo'yilgan talablarni sekin-asta ortib borish kuzatiladi, bunda o'qituvchi yordami qisqaradi, o'quvchilarning mustaqqiligi ortadi. Voqealarni kundaliklarda tasvirlanishi. Ikkinchi sinfdan boshlab kar o'quvchilar kundalik yurgizishga o'rgatiladi, unda ular hayotlaridagi turli voqealarni yozadilar. Quyidagi tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish bilan ish boshlash maqsadga muvofiqdir.

1. Darslarda o'quvchilar uyda va maktabdagi voqealar haqida og'zaki so'zlab berishadi, so'ng jamoa bilan ularni tasvirlashadi va uni doskaga yozishadi.

2. Dars boshlangunga qadar navbatchiga doskaga kun davomidagi yangiliklarni yozish taklif etiladi. Dars boshida o'quvchilar birgalikda bu yozuvlarni o'qishadi, muhokama qilishadi, xatolarni to'g'rilashadi. O'z xabarlariga navbatchilar yangi so'zlarni qo'shadilar, ular bilan o'quvchilar o'tgan darslarda tanishgan bo'ladi, bu esa so'zlarni ma'nosini chuqurroq anglashga va ularni esda saqlab qolishga yordam beradi. Alohida ahamiyat ko'p faktlar qatoridan eng qiziqarli va ahamiyatli bo'lganlarini tanlab olish bilimlariga va o'zidan oldingisini so'zni takrorlanishiga qaratiladi.

Misol uchun ikkinchi sinf navbatchisining yozma bayonini keltiramiz «Kecha tushlikdan so'ng biz sayr qildik, qorbo'ron o'ynadik, keyin dars tayyorladik. Kechki ovqatdan so'ng biz archa uchun o'yinchoq yasadik. Qiziq bo'ldi». Yuqorida nomi keltirilgan tayyorgarlik Mashqlari o'quvchilarga berilgan ish turining xususiyatlarini

tushunishga yordam beradi. Bunday tayyorgarlik soʻz boyligini, oʻquvchilarda bogʻlangan matn qurish malakasini vujudga kelishiga asos boʻladi.

Ikkinchi sinf oʻquvchilari qanday soʻzlar bilan u yoki bu voqeani yozish kerakligini oʻzlashtirib olganidan soʻng, kundaliklarni toʻldirishga ham oʻtish mumkin. Avvalambor oʻqituvchi oʻquvchilarga kundaliklarda oʻz hayotiga oid yangiliklarni voqealarni yozishlari kerakligini belgilab oʻtishadi. Darsda suhbat qurishadi va u orqali soʻnggi vaqtda sodir boʻlgan qiziq voqealar aniqlanadi. Oʻquvchilar bir biridan eng ahamiyatli voqealar haqida soʻrashadi, oʻqituvchi ularni savol va javoblar namunasi bilan tanishtiradi va suhbatda faol ishtirok etadi.

Har bir oʻquvchi mustaqil yozish kerakligini, bir xil yozma bayon yuzaga kelmasligi uchun bir necha mashgʻulotlar yetarli boʻladi. Bu maqsada quyidagi ishni tashkil etsa boʻladi. Oʻqituvchi doskani 2-3 qismga boʻladi va shunga monand 2 yoki 3 ta oʻquvchini chiqaradi, ular oʻzlariga ajratilgan joyga oʻz hayotlaridagi voqealarni quyidagi reja asosida tasvirlashlari kerakligini taklif etadi. 1) Bu qaerda va qachon boʻlgan? 2) Nima boʻlgan? 3) soʻng nima sodir boʻldi? Baʼzi oʻquvchilar doskaga yozgunlariga qadar boshqa oʻquvchilar pedagog chaqirishiga koʻra voqealar haqida ogʻzaki bayon etishadi. Soʻng doskadagi yozuvlar tekshiriladi, xatolar toʻgʻrilanadi. Oʻquvchilarga boʻ yozuvlarni koʻchirib olishlari va yodlab olishlari kerak emasligini tushuntirish kerak. Ular oʻz hayotlari va oʻz maʼlumotlarini yozishlari zarurligini tushunishlari lozim. Bundan soʻng oʻquvchilar kundalikdagi yozuvlarga oʻtishlari mumkin, undan avval kimda qanday voqea sodir boʻlganligi Aniqlab olinadi. Avval dialogni oʻqituvchi olib boradi, soʻng yetakchi oʻquvchi, keyinroq esa bunday suhbatlarni oʻtkazish uchun bolalar juftliklarga ajraladi.

Kundaliklarida bolalar qanday film koʻrganliklarini, qanday kitob oʻqiganliklarini yozishadi, ularga mos rasmlar chizishadi, gazeta va jurnallardan qirqib maʼlumotlar, rasmlar yopishtirishadi va hokazo. Kundalik yozuvlarini oʻqituvchi doim tekshirib xatolarni toʻgʻrilab turishi lozim. Kundalik bilan tizimli ishlash natijasida oʻquvchilar eng qiziqarli faktlarni ajratib olish, oʻz fikrlarini uquvli ifodalash bilimlarini va yozuvlarini chiroyli bezashni oʻzlashtiradilar.

Uchinchi sinf oʻquvchisining kunning asosiy voqealari haqida yozgan tasvirlashidan misol keltiramiz: «Oʻn sakkizinchi yanvar. Kecha tushlikdan soʻng biz katta dumaloq muz ustida kankida uchdik. Bizda II va sinf jamoalari orasida musobaqa boʻlib oʻtdi. Bizning jamoa gʻolib boʻldi. Musobaqa maroqli va qiziqarli edi. Musobaqalardan soʻng biz darslar tayyorladik. Kechki payt biz sayrga chiqdik».

Kundalik yozuvlarining mazmuni sekin-asta koʻpayadi va murakkablashadi. Oʻquvchilar ularning ahamiyatini tushuna boshlaydilar, ularni ota-onalariga va qarindoshlariga koʻrsatadilar, xat, insho, bayon, devoriy gazetaga maqola yozishda keng qoʻllaydilar.

Masalan III-IV sinf oʻquvchilari quyidagi mavzularga hikoya yozishlari mumkin «Eng qiziqarli voqea», «Taʼtilning eng qiziqarli kuni» va boshqalar, faqat bu kundalikdagi soʻzlarning yozuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun oʻqituvchi ularga oldindan taʼtildagi asosiy voqealarni yozib borish zarurligini aytib oʻtadi.

Noma (xat). Xatlarni tuzish va yozish ham bogʻlangan nutqni muloqot qurish

sifatida rivojlantirish bo'yicha ish turlarining biri hisoblanadi. O'quvchilar xatlarni o'z yaqinlariga, do'sti yoki dugonasiga, kasal bo'lib qolgan o'qituvchisiga boshqa maktabdagi tengdoshiga yozishadi. Xam – yozma nutqning o'ziga xos turi bo'lib, Aniq bayon shaklini va spesifik leksikani talab etadi. Kar bolalar maktabida xat yozishga o'rgatish birinchi sinfdan boshlanadi.

O'qituvchi biron bir o'quvchi tomonidan xat olish vaziyatidan foydalanadi (yoki bu vaziyatni o'zi tashkil etadi) bu xatni bolalarga ko'rsatadi, uning sayoxati haqida gapirib beradi. Kar birinchi sinf o'quvchilari xat yozishda katta qiyinchiliklarga uchrashadi va turlicha xatolarga yo'l qo'yishadi. Shuning uchun birinchi-ikkinchi sinflarda o'quvchilarni nafaqat bayon mantiqiga rioya qilish zarurligini, balki xatning boshi va oxirini to'g'ri ifodalashni va turli grammatik xatolardan qochish lozimligini ham o'rgatadi. Bu maqsada o'qituvchi doskaga xuddi biror o'quvchi tomonidan yozilgani xatni yozishi mumkin. Bolalar uni o'qishadi, analiz qilishadi, unda unda asosiy mazmunini topishadi, so'ng jamoa bo'lib doskada shunga o'xshash xat tuzib uni yozishadi. O'qituvchi diqqatini uni asosiy joylariga va keyin so'zlariga qaratadi. Shuningdek har bir o'quvchi xat boshida qanday murojaat yozishini va xat so'ngida qanday imzolanishini aniqlab oladi. Shundan so'ng o'quvchilar xatni namunaga ko'ra yoki mustaqil yozishadi.

Birinchi sinfdan o'qituvchi reja berishi mumkin, unga kura bolalar doskada jamoa bo'lib, xat tuzishadi va yozishadi. So'ng o'qituvchi yordamida ular bir bora rejaning har bir punktini unga mos xat qismi bilan solishtirishadi. Shundan so'ng doskadagi xat namunasi yoziladi. Zaif o'quvchilarga qiyin vaziyatlarda doskadagi yozuvlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Xatlarni yozib bo'lishgandan so'ng o'quvchilarga o'z ishlarini doskadagi yozuvlar bilan solishtirish taklif etiladi va alohida diqqat qiyin so'zlarni to'g'ri yozilganligiga qaratiladi.

Yildan yilga xat yozish ishlarida o'quvchilarga yanada ko'proq mustaqillik beriladi. Shunday qilib IV sinfdan o'quvchilar xatlarni namunaga ko'ra mustaqil yozishadi yoki rejaga ko'ra jamoa bo'lib og'zaki xat tuzishadi, so'ng har bir o'quvchi xatning o'z variantini yozadi.

V-VII sinflarda bolalarda inson hayotida xatlarning ahamiyati haqidagi bilimlari chuqurlashtiriladi. O'quvchilar xatlar mazmunini turli variantlari bilan va uni bayon etish yo'llari bilan tanishadilar, yangi leksika va frazeologiyani (iboralarni) qo'llashni o'rganadilar. Xat matni doskada yoki plakatda yozilgan reja asosida tuziladi.

Xat rejasi: 1. Murojaat (salomlashish) 2. Xat mazmuni (nima haqida xabar bermoqchisan) 3. Savollar 4. Iltimoslar 5. Tugallash 6. Imzo 7. Sana

Reja bo'yicha xat matnini to'zish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga xat boshini namunasini beradi va kattalar va do'stlarga qanday murojaat qilish zarurligini tushuntiradi. Shuningdek qay holatlarda «azizam», «azizim», «Mehribonim» so'zlarini va qay holatlarda «Hurmatli» va hokazo murojaatlarini qo'llash kerakligini aytib o'tadi.

Xatning asosiy qismini tuzishda, o'quvchi nima haqida yozmoqchi ekanligini aniqlab olish muhimdir. Bu qism ko'p hollarda xatlar olinganligi yoki aksincha xatlar olinmaganligi haqidagi xabardan boshlanadi. O'quvchi yo'llovchiga xati uchun minnatdorchilik bildiradi yoki jimjitlikni sababaini aniqlaydi, so'ng o'z haqida

yozadi. Agar xat ustida ishlash umumiy mavzuga kiritilgan bo'lsa va uni tugallasa, unda o'quvchilar xatning asosiy qismi haqida hayotlaridagi turli voqealar haqida osonroq va mustaqilroq xabar berishadi.

O'qituvchi xatning asosiy qismini qanday tugallash zarurligini aytib beradi. Endi siz mening xabarim haqida bilasiz (mening xatim, yutuqlarim...) Men sizga so'nggi xabarni yetkazdim va hokazo. U taxminan iltimoslar, savollar, xayrlashuv so'zlari turli variantlarini bilan tugallanadi.

Ma'lum insonga (qabul qiluvchiga) tez-tez xat yozib turish natijasida xat tuzish malakasini shakllantirish mumkin. Buning uchun o'quvchilarni nafaqat yaqinlari bilan balki boshqa maktabdagi tengdoshlari bilan xat yozishib turishlarini yo'lga qo'yish kerak. Buni o'qituvchi tashkil etadi, buning uchun u boshqa maktab hamkibi bilan kelishib bolalarni xat yozib turishlarini, va xatlar mavzusini haqida kelishib oladi. Tizimli xat almashishni tashkil etish yozma nutqni muloqot quroli sifatida rivojlantiradi.

Devoriy gazetaga maqola yozish – bu yeng kichik gazeta janri. Maqola – bu mutoala qiluvchilar uchun qiziq bo'lgan biror muhim, yangi voqea-faktlar haqidagi ma'lumotdir. Maqola muallifi qachon, qaerda kim bilan, qanday nima uchun nima sodir bo'lganini ko'rsatadi. Maqolaga qo'yiladigan asosiy talablar: faktning haqiqiyliigi, uning yangiligi, nomini ajralib turishi, bayonning qisqa va aniq bo'lishi. Devoriy gazetadagi maqolalar sinfdagi, maktabdagi do'stlariga murojaatini nazarda tutadi. Devoriy gazetaga maqola tuzish va yozish ishlari III sinfdagi o'tkaziladi. Oldin o'quvchilar sinf va maktab devoriy gazetalari bilan tanishadilar, ulardagi maqolalarni o'qishadi taxminiy mavzularni ajratishadi. So'ng biror bir maqolaning chuqur analizi o'tkaziladi: mavzu aniqlanadi, o'qituvchi bergan reja punktlariga ko'ra uni har bir qismini solishtirishadi va nihoyat shu rejaga ko'ra jamoa bilan maqola tuzishadi.

O'qituvchi III sinfdagi maqola yozish bo'yicha bir necha ish turini qo'llashi mumkin.

1. Devoriy gazeta eskizi tahlili, berilgan bosh qismi va savollarga ko'ra maqola yozish.

O'quvchilar devoriy gazeta qanday voqeaga bag'ishlanganini aniqlashadi va unga nimalar yozish mumkinligini muhokama qilishadi. So'ng ular turli vazifalarni bajarishadi: asosiy qismi yoki uning mazmuniga ko'ra savollarga javob beradilar, keyin maqola yozadilar.

2. Rasmlarning tahlili va mavzulariga maqola yozish o'quvchilarning faol fikrlash va nutqiy faoliyatini talab etadigan bu murakkab ish variantini frontal amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avval rasmlar bo'yicha lug'at ishlari tashkil etiladi, so'ng bolalar jamoa bo'lib, maqola variantlarini o'ylab topishadi, maqola mavzusini tanlashadi va o'z variantlarini og'zaki bayon etishadi. Lug'at ustida ishlash va og'zaki hikoyalar davomida doskada qo'llanilayotgan so'zlar va iboralar yozib boriladi. So'ng orfografik tayyorgarlik o'tkaziladi. Uning davomida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini qiyin so'zlar va iboralarni yozilishiga qaratadi. Bundan so'ng o'quvchilar maqolalarni daftarlariga yozishadi.

Ularning nutqiy rivojlanganlik darajasiga ko'ra o'qituvchi ularga differensiallashgan yordam ko'rsatadi.

3. Devoriy gazeta eskizini berilgan og‘zaki tasvirlash bo‘yicha chizish, mavzu bo‘yicha maqola yozish, devoriy gazeta chiqarilishi, devoriy gazeta ustidagi ish hisobotini savollar bo‘yicha tuzish.

4. Berilgan bosh qismi va o‘qituvchi yordamida maqolani tugatish.

Sanab o‘tilgan variantlar III sinfda devoriy gazetaga maqola yozish ishlarining asta-sekin murakkablashib borishini ko‘rsatadi. Devoriy gazeta bilan tanishuvdan boshlab va og‘zaki tasvirlash bo‘yicha gazeta eskizlarini tuzish, o‘qituvchi yordami bilan mavzu bo‘yicha maqola yozish va uni chiqarish.

IV sinfda o‘quvchilarning mustaqillik darajasi oshadi: ular o‘qituvchi tomonidan taklif etilayotgan maqolalar mazusini o‘zlari tanlab olishlari, mustaqil reja tuzishlari va kundalik yozuvlarini qo‘llagan holda maqola yozishlari mumkin. V-VII sinflarda o‘quvchilar devoriy gazetaning eskizini, uning mazmunini oldinroq muhokama qiladigan redkollegiyaning o‘rni haqida ma‘lumot olishadi. V sinfda o‘qituvchi doskada yoki plakatda yoriladigan maqolaning taxminiy tuzilishi rejasini beradi.

Maqola rejası: 1. Nomlanishi 2. Kirish. 3. Asosiy qism 4. Tugallash va xulosa 5. Imzo

Aniq mavzu bo‘yicha maqolaning asosiy qismini ochish uchun o‘qituvchi tayyor reja yoki uni o‘quvchilar bilan tuzishi mumkin. VII sinf o‘quvchilari o‘zlari mustaqil maqola mazusini tanlashadi, asosiy qismga o‘zlari reja tuzadilar va unga ko‘ra o‘qituvchi yordamisiz maqola yozadilar.

O‘rta sinflarda IV sinfda boshlangan ish devoriy gazetadagi maqola bilan xat nima bilan farq qilishi aniqlanadi. Bu ularni o‘qish, matn va rejalarini solishtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. O‘qituvchi alohida e‘tiborni maqolani bayon etishda asosiy qismini mazmunini turlanishi mumkinligiga qaratadi: Kirish va yakunlash. Masalan: u o‘quvchilarga yakunlash variantlarini taklif etadi va xulosani shaklini beradi «Men sizlarga ushbu filmni kurishni tavsiya etaman», «Yumshoq o‘yinchoqlar to‘garagi juda qiziqarli. Men u yerda ko‘p narsalarni o‘rgandim», «Dugonamning bu ishi meni qoyil qoldirdi. Bilmadim, men bunday qila olar edimmi» va hokazo.

V-VII sinflarda devoriy gazetaga maqola yozish mavzusi turlichadir: «Mening dugonam (do‘stim)», «Mening oyim», «Qiziqarli film», «Bayramga qanday tayyorgarlik ko‘rdik», «Teatrga bordik», «Mardlar ishi» va boshqalar.

Qisqa xatlar, hayotda zarur bo‘lgan yozma nutqning alohida shaklidir. Kar bolalar maktabida bolalar V sinfdan boshlab eng oddiy qisqa xatchalarni yozishni o‘rganishadi. Unda ular savollarni, iltimoslarni, xabarlarni, uzrlarni, tilaklarni va hokazolarni ifoda etishlari mumkin.

Avvalambor o‘qituvchi turli qisqa xat namunalarini ko‘rsatadi, ular qisqaligiga e‘tiborni qaratadi, ular qanday vaziyatlarda zarurligini tushuntiradi, bunday vaziyatlarni konkret namunasini keltiradi.

Karlarning qisqa xatlar tuzishga o‘rgatishda I.V.Koltunenکو quyidagi izchilliklarni tavsiya etadi:

1. Hayotda zaruriy bo‘lgan kichik xatlarni yozma nutq shakli sifatida tanishtirish (xat mazmuni tahlili va ularni qo‘llash vaziyatlari).

2. Biror harakatni bajarishga undaydigan turli mazmundagi kichik xatlarni tushunish mashqlari.

3. Kichik xat yozishni mashq qilish (savol, iltimos, istak xabar va hokazo).

4. Olingan xatlarga javoblar yozishni mashq qilish.

5 sinf o'quvchilariga doskada yoki plakatda kichik xat yozish rejasi taklif etiladi.

Bu uning tuzilishini tushunishga yordam beradi. Kichik xat rejasi: 1. Murojaat (murojaat etilayotgan shaxsning ismi) 2. Savol, iltimos, vazifa, xabar. 3. Imzo 4. Sana.

Turli bahonalar orqali tez takrorlanadigan tizim mashqlari orqali o'quvchilarni qisqa xat yozishga o'rgatishi mumkin. Bolalar olgan vazifalariga ko'ra kichik xat yozishni o'rganishadi. «Dugonangizga kichik xat yozing va uni yangi yil archasiga taklif eting».

Ta'tilga qachon chiqishingiz haqida ota-onangizga xabar bering. O'quvchilar olingan savollarga javob berishga ham mashq qilishadi.

Ish qog'ozlarini to'ldirish uni pochtaga yuborish, e'lon, bildirgi, tilxat, ariza, avtobiografiya yozish.

Ishchi nutqi yuqori darajada standartlashganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun bu uslubiyatni egallab olish avvalambor bu uslubiyatni o'ziga xos xususiyatlarini, standartlarini va unda qabul qilingan shtamplarni o'zlashtirishdan boshlanadi. O'quvchilar alohida so'z va iboralar sintaktik tuzilmalar, tayyor matnning umum qabul qilingan shakllarini qo'llashni o'rganishadi. Turli hujjatlarni o'rganishda ularning har birida mavjud bo'lgan umumiylikni belgilab o'tish zarur. Nomlanishi asosining bayoni sana va muallif imzosi(shax syoki tashkilot). O'qituvchi hujjatlari haqida gapirib berishi lozim: o'z mazmuniga ko'ra u nimani anglatadi; o'rganilayotgan hujjatning har birini shakl tipi, qanday aniq tipdagi hujjat qanday ko'rinishga ega, qachon va qanday maqsada yoziladi.

Har bir hujjat ustida ish olib borish uslubi o'xshash. Avval namunani analiz qilish va tuzatish mashqlari o'tkaziladi, so'ng uning vazifasi aniqlanadi, keyin tayyor matnni aniq chiqarishga yo'naltirilgan Mashqlar o'rin oladi, so'ng biroz o'zgartirishlar kiritiladi va nihoyat bu tipdagi o'z matnlarini tuzish bo'yicha mashq o'tkaziladi.

Konvertni to'ldirish. Bu ishchi uslubining birinchi namunasi va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun eng qulay usul hamdir, chunki pochta konvertlari odatda standart shaklga ega. Manzil – bu pochta ustiga (konvert, posilka va b.) yoziladigan yozuv, unga eltib beriladigan manzil (qaerga) qabul qiluvchi (kinga) va yo'llovchi (manzili) yozilgan bo'ladi. Konvertning chap tomoniga indeks yoziladi. U oltita sondan iborat bo'ladi va umumdavlat pochta bo'limlaridagi ro'yxatdan yo'llovchining pochta nomerini anglatadi.

E'lon – bu biror narsa haqida xabar, malumot beruvchi hujjat. U gazetada yozilgan yoki biror joyda ilingan bo'lishi mumkin.

E'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

1. Hujjat nomi.
2. Tadbirni qayerda o'tkazilishi
3. Tadbirni qachon o'tkazilishi
4. Tadbir nima uchun o'tkazilishi
5. Uning muallifi

Kar o'quvchilar e'lon yozishni V sinfdan boshlab o'rganishadi. O'qituvchi reklama tusida tuzilgan e'lon namunalari beradi. Ular mutoalachilarni qiziqtirib tuzilgan bo'lishi lozim (hazil elonlari). E'lon namunalari nutq o'stirish bo'yicha darsliklarda berilgan.

Tilxat. Tilxat – biror narsa olinganligini tasdiqlovchi hujjat.

U quyidagi shaklga ega:

1. Hujjat nomi
2. Kim olganligi
3. Kimdan olganligi
4. Nima olganligi (narxlari yoziladi ularning soni ham yoziladi.)
5. Olishdan maqsad
6. Sana
7. Olgan inson imzosi

Kar o'quvchilar tilxat yozishni beshinchi sinfda o'rganishadi. O'qituvchi malakalarni mustahkamlash maqsadida tilxatni har bir qulay vaziyatda yozdiradi (daftar olganlarida, kitob berganlarida va boshqalar).

Ariza. Ariza – bir yoki bir necha odamlarning biror tashkilot yoki mansabdor shaxsga shaxsiy malumotlarini iltimoslarini o'zida mujassam etgan hujjat.

Ariza shakli:

1. Kimga
2. Kimdan
3. Hujjat nomi
4. Xabar iltimos bayoni
5. Arizaga qo'shimcha hujjatlarning nomi
6. Sana
7. Imzo

Hozirda arizaning juda ko'p xillari tarqalgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'rta, yuqori sinflarda xat, tilxat, ariza, e'lonning murakkab turlarining yozish malakasiga ega bo'ladilar.

Savol va topshiriqlar

- 1.** Bog‘langan nutqni shakllantirishga quyilgan pedagogik talablarni tavsiflang.
- 2.** Nutqni rivojlantirish darslarida o‘quvchilarga differensial yondashuv yo‘nalishlarini yoriting.
- 3.** Bog‘langan nutq rivojlantirish bo‘yicha ish turlarini yoriting.
- 4.** Devoriy gazetaga maqola yozish uslubiyatini tavsiflang.
- 5.** Insholar tasnifini yoriting.
- 6.** Bayon va insho yozish bo‘yicha ish turlariga misol keltiring.
- 7.** Tanlangan matn asosida bayon zish bo‘yicha dars ishlanmasini tuzing.

III –BO‘LIM ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MAKTABIDA O‘QISH METODIKASI

I –BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni o‘qishga o‘rgatish uslubiyati

I.1-§. Maxsus maktabda o‘qish darslarining vazifasi va ahamiyati

Amaliy nuqtai nazardan adabiyotshunoslikning asosiy qoidalaridan biri – badiiy asarning yaxlitligi tushunchasi favqulodda qimmatlidir. Badiiy matnni ko‘p darajali va ayni paytda yaxlit tuzilma siatida o‘rganayotib, zamonaviy tadqiqotchilar unda qator o‘zaro bog‘langan turli xarakterdagi va umumlashtirish darajasidagi fikrlarni ajratadi. Y.B.Boreyevning fikricha, badiiy asar dunyoning ko‘p qatlamliligini saqlab qoladi, biroq undan nusxa ko‘chirmaydi, balki o‘z modelini yaratadi²⁶. Obraz plastikasining o‘zida dunyoning badiiy manzarasi elementlarini qayta guruhlash ro‘y beradi, asar strukturasi tashkil qiladigan qatlamlar (plastlar) iyerarxiyasi tarixan o‘zgaradi [Boreyev 2002: 234]²⁷. Olim oltita qatlamni farqlaydi. Birinchi qatlamda insonning o‘z-o‘zini shaxs sifatida anglashi, insonning o‘zi haqidagi o‘z tasavvurlari badiiy tasvirlanadi. Bu plast asarda “ko‘ngil dialektikasi”ni ochib beradi. Ikkinchi qatlam insonning boshqa inson bilan kommunikatsiyalarini ochib beradi. Uchinchisi – asardagi bosh ijtimoiy-siyosiy muammoni (problematikani) o‘zida jamlaydi. To‘rtinchi qatlam – shaxs va ijtimoiy muhit. Beshinchisi – shaxs va uni o‘rab turgan “qo‘lda yaasalgan, ikkinchi” dunyo. Oltinchisi – inson va koinot. Bu plast – falsafiy problematika tashuvchisi. Bunda to‘rtinchi, beshinchi va oltinchi plastda makon, vaqt va rang dunyoning badiiy konsepsiyasini konkretlashtirish (aniqlashtirish) usullari sifatida gavdalanadi.

Badiiy asarning yaxlitligini tushuntirishda L.I. Timofeyevning yondashuvi, bizningcha, qimmatlidir [1959]²⁸. Olim ta’kidlaydiki, obraz – bu inson hayotining muayyan (konkret) va ayni paytda umumlashma manzarasi bo‘lib, to‘qima yordamida yaratiladi, estetik ahamiyatga ega bo‘ladi. Asarning o‘zi murakkab yagona fikr, asarning bosh g‘oyasi bilan tashkil qilingan g‘oyaviy butunlik, yozuvchi umumlashmalari zanjiri, uning voqelik bilan bog‘liq kuzatishlari qatoridir [Timofeyev 1959: 122]²⁹. Badiiy asarda insonlar, ularning o‘zaro munosabatlari, murakkab butunlikni hosil qiladigan hodisalarning murakkab tizimi tasvirlanadi. Badiiy asarning yaxlitligi voqelikni obrazli aks ettirish tabiatidan kelib chiqadi.

V.YE. Xalizevning qarashlagriga muvofiq, estetikfaoliyat qandaydir tugallangan va yaxlit (narsa) sifatida tushuniladigan yakkalik predmetlar sifatida ta’riflanadi³⁰. Muallif aynan idrok qilinadiganlarning yaxlitligi uni estetik bilishning

²⁶ Боров Ю.Б. Эстетика. — М.: Высшая школа, 2002. - 511 с.

²⁷ Боров Ю.Б. Эстетика. — М.: Высшая школа, 2002. - 234 с.

²⁸ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - М.: 1959, 122 с

²⁹ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - М.: 1959, 122 с

³⁰ Хализев В.Е. Теория литературы. - М.: Высшая школа, 2002. — 437 с.

asosiy manbasini tashkil qilishini ta'kidlaydi. V.YE. Xalizev bildirgan nuqtai nazar V.I. Tyupaning yaxlitlik predmetning idrok qiluvchida unga nisbatan yagona reaksiyani va umumiy taassurotni keltirib chiqaradigan qiyin belgilanadigan sifati ekani haqidagi quyidagi fikrlari bilan mos keladi³¹: nimaning bo'lmasin yaxlitligi o'zi uchun yetarlilik, tugallanganlik, individual to'liqlik va ortiqcha emaslik holatidir... Yaxlitlik obyektning uni tushunib yoqtirishga moyillik uyg'otadigan holati [V.I. Tyupa 1987: 20].

Shunday qilib, badiiy asarni faqat maqsadli va yaxlit idrok qilishgina estetik kechinmalar paydo bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotimiz doirasida bu qoida badiiy asarning mohiyatini tushunish uchun favqulodda muhimdir. Fikrimizcha, darslarda asarni tahlil qilishdagi ortiqcha ratsionalizm idrokning yaxlitligi buzilishi va estetik kechinmalarning kamayishiga olib keladi.

Adabiy asarning murakkabligi va yaxlitligini tushunish uchun shakl va mazmunning uzviy aloqadorligi masalalari muhim. M.S. Kagan [1978], L.I. Timofeyev [1959], V.YE. Xalizev [2002] tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, mazmun shaklning mazmunga o'tishi va shakl mazmunning shaklga o'tishidir³².

L.I. Timofeyev, asar mazmunining murakkabligini ta'riflab, uning uchta komponentini ajratib ko'rsatadi. Bular: keng ma'noda obyektiv-tarixiy mazmun; g'oyaviy mazmun, ya'ni adibning tasvirlanayotgan hodisaga nisbatan faol, subyektiv munosabati; asarda bevosita mustahkamlangan bevosita mazmun, ya'ni xarakterlar va hodisalar, qahramonlarning xatti-harakatlari va kechinmalari. Tadqiqotchining fikricha, shakl faqat bevosita mazmunga daxldor va uning barcha tomonlarini qamrab oladi³³.

M.S. Kagan san'atning ichki (uning mazmunini obrazli konkretlashtirish usuli) va tashqi (badiiy obrazlarning moddiy jismi) shaklini farqlaydi³⁴. Har ikkala shakl o'zaro bog'liq, bir necha rivojlanish bosqichini bosib o'tadi, biroq ichki va tashqi shaklning harakatlanish mantiqi turlicha. Ichki shakl asarni yaratish jarayonida mazmun bilan uzviy bog'liq. U asar mazmunini tashkillashtiradi va faqat u bilan birga o'zgaradi, shu tarzda mazmunga bevosita bog'lanadi. Tashqi shakl yozuvchiga g'oya tug'ilgan vaqtdayoq ko'rinadi, biroq asarni yaratishning oxirgi bosqichida u ma'lum bo'ladi. Tadiiy asarda mazmun, ichki va tashqi shakl birlikda mavjud bo'ladi. Rasmiylashtirish (bezash) vositasida mazmun aniqlik kasb etadi, shakl esa mazmunli ko'rinish hosil qiladi. Mazmun va shaklning bu kabi bir-biriga o'zaro kirib

³¹ Тюпа В.И. Художественность литературного произведения. Красноярск: Изд-во Красноярского университета, 1987. — С. 217.

³²Каган М.С. Социальные функции искусства. — Л: Знание, 1978. - 34 с.


Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - М.: 1959, 122 с

Хализев В.Е. Теория литературы. - М.: Высшая школа, 2002. — 437 с.

³³ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. - М.: 1959, 122 с

³⁴ Каган М.С. Социальные функции искусства. — Л: Знание, 1978. - 34 с.

borishi asarni yaxlit va tugallangan qiladi. Mazkur asosda adabiy ta'lim — eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni kitobxonlik kompetentligini shakllantirish va shaxsiy intellektual, ma'naviy va estetik rivojlantirishga qaratilgan nutqiy, kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatining integratsiyasi degan xulosaga kelish mumkin. Tadqiqot natijalari asosida maxsus ta'lim tizimida adabiy ta'limning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi- korreksion, dunyoni maqsadli hissiy anglash, g'oyaviy, estetik, vazifalari tavsif qilindi.



ta'lim jarayonida zaif eshituvchi o'quvchilarni nutqini rivojlantirishga san'atning imkoniyatlarini hisobga olgan, adabiy asarning murakkabligi va yaxlitligi hamda ayniqsa badiiy idrok jarayoni xususiyatlarini tushungan holda yondashish imkonini beradi. Adabiy ta'limning bola rivojlanishidagi ijobiy samarasi qator tadqiqotchilar tomonidan e'tirof qilingan. Buyuk pedagoglaridan biri V.A. Flerov adabiy ta'lim vazifalarini quyidagicha ifodalaydi³⁵: bizning vazifamiz— bolalarni o'qish – fikrlash, o'qish – his qilish, o'qish – yashashga o'rgatish. Ta'limning zamonaviy bosqichida o'qishning bola rivojlanishining vositasi sifatidagi roli ortib bormoqda. O'qishning o'quvchi shaxsi shakllanishiga rivojlantiruvchi va o'rgatuvchi ta'sirining kuchayishi adabiy rivojlanish muammosi bilan bog'liq. V.I. Fleri [1835] og'zaki nutqni

³⁵ Флеров В.А. Как не надо учить читать // Чтение в начальной школе. Сб. трудов методистов конца XIX и начала XX века /Под. ред. С.П. Редозубова. -М.: Учпедгиз, 1949. - 262 с.

egallashni nutqning qulay bo'lgan shakllari sifatida o'qish va yozishning rivojlanishi bilan bog'ladi. O'qishga o'rgatish surdopedagog ko'rgazmali vosita deb baholagan to'rtta vosita: predmet, rasm, belgi va yozuvni ko'rgazmali namoyishdan foydalanish bilan savod egallash asosga quriladi. Shubha yo'qki, V.I. Fleri ta'lim tizimida mutolaaga asosiy o'rinlardan birini ajratadi, u kar-soqovni takomillashtiradi, uning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, deb biladi. Surdopedagogning fikricha, o'qishga o'rgatish savod o'rgatishdan keyinroq kichik hikoyalardan boshlanib, asta-sekinlik bilan o'qish uchun nutqiy material hajmi orttirib boriladi. Tilga olingan yondashuv doirasida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, lug'atni va undan nafaqat og'zaki, balki yozma nutqda ham foydalanishni boyitish haqidagi masalalar dolzarflik kasb etadi. Georgiy Aleksandrovich Gurovning (1778-1858) yondashuvlarila o'qishga o'rgatish ta'limning asosiy vositasi sifatida ajratib ko'rsatiladi. Imo-ishora nutqini og'zaki nutq bilan muvofiqlashtirish zarur deb hisoblagan G.A. Gurov [1838] boshlang'ich bosqichda bu ikki shakl birlashishi va ularni bir-biridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Asta-sekin imo-ishora nutqida o'zlashtirilgan tushunchalar yozma nutqqa ko'chiriladi va o'qish jarayonida o'zlashtiriladi. Keyingi bosqichlarda yozma nutq va o'qish tilga va muloqotga o'rgatishning asosiy vositalariga aylanadi. I.Y. Seleznevning [1859, 1866, 1867, 1868] o'qish uchun matnlarni tanlash kar o'quvchilarga "moslashtirilmaligi", balki aksincha, savod o'rganayotgan kar o'quvchilar savollar yordamida ularning mazmuniga kirib borishi kerakligini ta'kidlagan nuqtai nazari bizga yaqin. Aleksandr Fedorovich Ostrogradskiy o'zining "sof og'zaki metod" tizimida o'qishga alohida o'rin ajratadi. A.F. Ostrogradskiy [1889, 1901] she'r yodlash va hikoyalarni eslab qolishdan nutqning leksik va grammatik qurilishini o'zlashtirish hamda o'zining nutqiy ifodalarini yaratish malakalarini ishlashda foydalanishni tavsiya qiladi. o'qiladigan matnlarga savollardan keng foydalanish va ular bo'yicha javoblar tuzish, surdopedagogning fikricha, o'quvchilarni "so'z bilan o'ylash" va sodda gap strukturasi egallashga odatlantiradi. A.F. Ostrogradskiyning o'qishga o'rgatish metodikasi o'sha davr uchun ilg'or hodisa ekani shabhasiz, chunki u kar bolalar talaffuzini takomillashtirish va lug'atini boyitishga ko'maklashadi³⁶. Pay F.A., Lagovskiy N.M., Basova A.G. kar bolalar rivojlanishida o'qishning ahamiyatini doimiy ta'kidlagan³⁷. U o'qish birinchi o'ringa qo'yilishi kerakligi uqtirgan, chunki badiiy matnlar, uningcha, bolalarni "hayot bilan muloqot"ga kirishtirishga ko'maklashadi, ularga ona tilining jonli shakllariga misollar beradi, qolaversa, maktabdan tashqarida kar bola u yoki bu darajada izolyatsiyalangandir. Bunday izolyatsiyalangan holat bolaning lisoniy ta'limi va umumiy rivojlanishiga katta zarar yetkazishi mumkin. N.M. Lagovskiy og'zaki nutqni egallaganlikning turli darajalari uchun maxsus darsliklar va o'qish kitoblarini yaratish zarurligi haqidagi masalani kun tartibiga qo'ygan birinchi

³⁶ Pay Ф.А., Лаговский Н.М., Басова А.Г. Методика обучения глухонемых: Учеб.пособие для высш. Пед. учеб. Заведений, для пед. техникумов и для учителей школ глухонемых. Вып. 1. - М.: Учпедгиз, 1934.- 168 с.

³⁷ Pay Ф.А., Лаговский Н.М., Басова А.Г. Методика обучения глухонемых: Учеб.пособие для высш. Пед. учеб. Заведений, для пед. техникумов и для учителей школ глухонемых. Вып. 1. - М.: Учпедгиз, 1934.- 168 с.

surdopedagoglardan biri, kar bolalar uchun bunday kitoblarni u“moslashtirilgan” ya’ni adaptatsiyalangan deb nomlaydi. Maxsus pedagogika tarixini tadqiq qilganlar [A.G. Basova, S.F. Yegorov, 1984; N.M. Nazarova, G.N. Lenin, 2007; H.H. Malofeyev, 2009] ta’kidlashicha, o’qish ko’nikmasining tavsiflar tizimi va o’qish darsini o’tkazish metodikasini ishlab chiqishda N.M. Lagovskiyning xizmatlari katta³⁸. N.M. Lagovskiy [1931] darsning umumiy maqsadini nazarda tutib (o’quvchilar maqola yoki hikoyani avvalroq o’qib olishi mumkin – oldindan o’qish) o’qituvchi qayerda va qanday qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini, bolalarga nimani va qanday tushuntirishini bilishi kerakligini ta’kidlagan. N.M. Lagovskiy metodikasida o’qituvchi nazorati ostida kechadigan sinfdan tashqari o’qishga alohida e’tibor qaratiladi. Surdopedagog maktab kundalik voqealarni yoritadigan o’zining kichik gazetasiga ega bo’lishi zarurligini uqtirgan. Fikrimizcha, N.M. Lagovskiyning pedagogik qarashlari karlarni o’qitishning og’zaki metodi sharoitida rivojlangan bo’lsa ham, olim yozma nutq va o’qishning roli kuchaytirilishini ko’ra bilgan, bu talaffuz ustida maqsadli ishlanganda qar bola rivojlanishidagi qiyinchiliklarni yengishga ko’maklashgan. Shunday qilib, maxsus pedagogikaga oid tarixiy tadqiqotlarda A.F. Ostrogradskiy va N.M. Lagovskiyning o’qishga o’rgatishga nisbatan qarashlarida o’xshashdik qayd etiladi. Surdopedagogar o’qishni kar bola nutqini rivojlantirish va o’z-o’ziga ta’limning vositasi, deb hisoblaydi. N.M. Nazarova va G.N. Peninning [2007] tadqiqotlarida qayd etilishicha, XX asrning boshlari karlarni og’zaki nutqqa boshlang’ich o’rgatish metodikasining takomillashtirilishi bilan tavsiflanadi³⁹. Karlarni og’zaki nutqqa o’rgatishda boshlang’ich vosita sifatida yozma nutqning rolini tan olish bilan belgilangan yo’nalishlar paydo bo’ldi. nutqiy materialni, o’quvchilar uni talaffuz qila oladigan bo’lishidan oldin, xabar qilishning shakllaridan biri sifatida yozma nutq rossiyalik yana bir surdopedagog I.A. Vasilyevning (1867-1940) tizimida ham o’z aksini topgan. Karlarni o’qishga o’rgatishni og’zaki nutqqa o’rgatishdan kam darajada muhim bo’lmagan muammo sifatida tan olgan surdopedagogning pozitsiyasmi bizga juda yaqin. Fikrimizcha, karlarni o’qishga o’rgatishning metodik tizimini yaratishga urinishda I.A. Vasilyevning xizmatlari katta, bu tizimga muvoiq, o’qishga o’rgatish mazmuni birinchidan beshinchigacha darajaga bo’lingan. Birinchi darajada sodda gaplar, tavsifiy va bayon qilish xarakteridagi kichik matnlarni tushunishga erishish lozim bo’lgan. Beshinchi darajada o’quvchilar istalgan maqolani mustaqil o’qishi va uning mazmuni bilan bog’liq hamma savollarga javob bera olishi kerak. I.A. Vasilyev asarlari [1900, 1910, 1928, 1933] tahlili ta’kidlash imkonini beradiki, olim Rossiya surdopedagogikasida birinchi marta hikoya ustida ishlash metodikasini

³⁸ Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогике. - М.: Просвещение, 1984. - 295 с.; Назарова Н.М., Пенин Г.Н. Специальная педагогика. В трех томах. Том 1. История специальной педагогике. -М.: Академия, 2007. — 351 с.; Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа. - М.: Просвещение, 2009. - 319 с.

³⁹ Назарова Н.М., Пенин Г.Н. Специальная педагогика. В трех томах. Том 1. История специальной педагогике. -М.: Академия, 2007. — 351 с.

batafsil yoritgan, bunda u o'qish davomida lug'at ishiga katta e'tibor qaratgan; o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha maxsus mashqlarni ishlab chiqqan; mustaqil o'qish va kar o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlarini shakllantirishga katta ahamiyat qaratgan. Tarixiy-pedagogik manbalar tahlili o'sha davrda ilmiy-pedagogik jamoatchilikning surdopedagogika muammolariga qiziqishi ortganidan dalolat beradi [A.I. Dyachkov, 1956; N.M. Nazarova, G.N. Penin, 2007; H.H. Malofeyev, 2009; O.M. Potapova, 1982; F.F. Pay, 1973]⁴⁰. Nazarimizda, 1895-1896 yy. kesishuvida bo'lib o'tgan texnik va kasbiy ta'lim bo'yicha arboblarning II syezdi surdopedagogika rivojida muhim voqea bo'lgan, uning doirasida ko'zi ojiz, kar va aqli zaif bolalarning umumiy va kasbiy ta'limi masalalari bilan shug'ullangan seksiya (XII) faoliyat ko'rsatgan. Moskva Arnold-Tretyakov kar-soqovlar bilim yurti o'qituvchisi F.F. Tomkeyeva va vrach S.S. Preobrajenskiyning ma'ruzalari o'qishga o'rgatish muammolariga bag'ishlangan, ularda kar bolalarda o'qish vaqtida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf qilishning aniq usullari taklif qilingan. O'qish malakasi deganda pedagoglar o'quvchilarning alohida so'z va jummalarni, obrazli birikmalarni, ko'chirma (o'zganining) nutqini tushunishi, gaplar o'rtasidagi aloqadorliklarni ko'ra bilishi va asarning umumiy g'oyasini ajrata olishini tushungan. Tarixiy materiallarni o'rganish ko'rsatadiki, 1903 yilda bo'lib o'tgankar-soqovlar o'qituvchilarining II syezdi karlar uchun maxsus ta'lim muassasalarida og'zaki va yozma nutqqa, o'qishga o'rgatishamaliyotining kengayishi va boyitilishiga ko'maklashgan. Syezdda so'zga chiqqan S.G. Yakovenko, H.A. Pay, H.K. Patkanova, N.M. Lagovski, P.D. Yenko yozma nutq va o'qishning bolalarni o'qitish va ularning umumiy rivojlanishi uchun ahamiyatini ta'kidlagan. Fikrimizcha, bu syezdda bizni qiziqtirgan muammo bo'yicha H.H. Patkanovning maktabgacha yoshdagi kar bolalarni maxsus o'qitish zarurligi haqidagi ma'ruzasi eng katta qiziqish uyg'otgan. U olti yoshga yetgan bolalarni o'yinlar orasidagi vaqtda o'qish va yozishga o'rgatishni taklif qilgan. Natijada, bolalar bog'chasida tarbiyalanadigan vaqt oxiriga kelib, bola kichik matnlarni o'qish va tushunish, o'z fikrini qog'ozda to'g'ri bayon qilishni uddalagan. Aynan shu g'oyani H.A. Pay qo'llab-quvvatlagan. Afsuski, N.K. Patkanovning taklifi va H.A. Payning amaliy tajribasi keng qo'llab-quvvatlanmagan. Karlarni o'qitish, tarbiyalash bo'yicha II syezd 1910 yilda Moskva shahrida bo'lib o'tdi. H.A. Kotelnikova, S.G. Yakovenko, P.D. Yenko, M.V. Bogdanov-Berezovski, YE.G. Lastochkina, N.K. Patkanova, N.M. Lagovski, I.A. Vasilyev, A.G. Chensov ma'ruzalarida karlarni tilga, o'qish va yozishga o'rgatish zarurligi haqidagi g'oya yanada rivojlantirildi.⁴¹ Maxsus pedagogikaga oid tarixiy

⁴⁰ Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогика. - М.: Просвещение, 1984. - 295 с.; Назарова Н.М., Пенин Г.Н. Специальная педагогика. В трех томах. Том 1. История специальной педагогика. -М.: Академия, 2007. — 351 с.; Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа. - М.: Просвещение, 2009. - 319 с.

⁴¹ Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогика. - М.: Просвещение, 1984. - 295 с.; Назарова Н.М., Пенин Г.Н. Специальная педагогика. В трех томах. Том 1. История специальной педагогика. -М.: Академия, 2007. — 351 с.; Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа. - М.: Просвещение, 2009. - 319 с.

tadqiqotlarda ko'rsatiladiki, o'qish metodikasini rivojlantirishning bu bosqichida F.A. va H.A. Pay tomonidan hamkorlikda ishlangan "Bukvar dlya shkol gluxonemix"(Kar-soqovlar maktablari uchun alifbo) [1939] katta qiziqish uyg'otadi, unda savod o'rgatishning analitik-sintetik prinsiplari aksini topgan [A.G. Basova, S.F. Yegorov, 1984; A.I. Dyachkov, 1956]⁴². Shu alifbo bo'yicha savod o'rgatish metodikasi tahlili S.A. Zikovga bu metodni harfiy analitik-sintetik metod sifatida ta'riflash imkonini berdi. A.G. Basova, S.F. Yegorov [1984]; A.I. Dyachkov [1956] tadqiqotlarida o'tgan asrning 30-40-yillarida yaratilgan ko'plab o'qish kitoblari tushuntirib o'qish prinsipiga qurilgan. Matnlarning badiiy mazmuni qashshoq, ular kar o'quvchilar yaxshi tanish bo'lmagan lug'atni o'z ichiga olgan, natijada, o'qish so'zlarni talqin qilishga aylanib ketgan. O'qish metodikasining rivojlanishiga karlar uchun maktablar direktorlari va ilmiy bo'lim mudirlarining Butunrossiya yig'ilishi katta hissa bo'lib qo'shildi [1938]. Unda sinfdan tashqari o'qish muammolari muhokama qilindi. Yig'ilishda sinfdan tashqari o'qishning asosiy maqsadi kar o'quvchilarni o'qiganini tushunishga o'rgatishdan iborat ekani tan olindi. Matnlarni tanlashda osondan qiyinga izchil o'tish umumdidaktik prinsipiga rioya qilish tavsiya etilgan. Ilmiy-tarixiy adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, bu yillarda kar bolalarni ularning aqliy va nutqiy rivojlanishining mavjud xususiyatlari va imkoniyatlariga real mos keladigan sharoitlarda o'qishga o'rgatishning ilmiy asoslarini aniqlashga qaratilgan jadal tadqiqotchilik ishlari olib borildi [A.G. Basova, S.F. Yegorov, 1984; N.M. Nazarova, G.N. Penin, 2009; H.H. Malofeyev, 2009]. Bu say-harakatlarning natijasi maktablar amaliyotiga 1958 yilda asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich joriy qilingan yangi dasturning yaratilishi bo'ldi 1958, 1960, 1962, 1965 gg. [P.M. Boskis, S.A. Zikov, M.I. Glebova, K.V. Nechayeva, A.M. Pereshivkina, A.F. Pongilskaya, M.I. Straxova va boshq.]⁴³.

⁴² Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогике. - М.: Просвещение, 1984. - 295 с.; Назарова Н.М., Пенин Г.Н. Специальная педагогика. В трех томах. Том 1. История специальной педагогике. -М.: Академия, 2007. — 351 с.; Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа. - М.: Просвещение, 2009. - 319 с.

⁴³ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-336 с.

Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. - М.:

Просвещение, 1988 - 128 с.

Боскис Р.М., Фингерман Л.Е. Развитие письменной речи в начальных классах школы слабослышащих. -М.: Просвещение, 1978. - 143 с.

Зыков С.А. Обучение глухих детей языку. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1959.-272 с.

Зыков С. А. Обучение глухих детей языку по принципу формирования речевого общения. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1961. - 258 с.

Зыков С.А. Методика обучения глухих детей языку. - М.: Просвещение, 1977. - 200 с.

Понгильская А.Ф. Чтение / Обучение глухонемых русскому языку. -М.: Учпедгиз, 1950.

Понгильская А.Ф. Чтение и развитие речи // Обучение глухих детей русскому языку (1-4 классы). - М.: АПН РСФСР, 1963 - С. 256-308

1962-1965 yillardagi dasturlarda ongli (tushunib) o'qish ko'nikmasini shakllantirishga katta e'tibor qaratildi, biroq o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularni umumta'limiy bilimlar bilan qurollantirishga urg'u berildi. Darslar tushuntirib o'qish darslari deb nomlangani ham tasodifiy hol emas, ya'ni o'qish bolalarga tabiat va jamiyatdagi hodisalar, insonlarning xatti-harakatlari va xulq-atvorini tushuntirishi kerakligi nazarda tutildi. 60-yillarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tilga o'rgatish metodikasi rivojlanishiga S.A. Zikovning, o'qish darslariga yetakchi o'rin berilgan, maqsadli va batafsil ishlab chiqilgan didaktikizimi katta hissa bo'lib qo'shildi. Maxsus pedagogika tarixini tadqiq qilganlar XX asrning 60-80 yillarida karlar uchun maktablarda o'qishga o'rgatish metodikasi bilan parallel ravishda zaif eshituvchi bolalarni o'qishga o'rgatish metodikasi shakllangani va rivojlanganini ta'kidlaydi [A.G. Basova, S.F. Yegorov, 1984; N.M. Nazarova, G.N. Penin, 2009; H.H. Malofeyev, 2009]⁴⁴.

Amalga oshirayotgan tadqiqotimiz uchun P.M. Boskisning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega, olim hali o'tgan asrning 30-40 yillaridayoq zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama va chuqur o'rganishni boshlagan. Surdopsixologiya va surdopedagogikaga mutlaqo yangi "zaif eshituvchi bolalar" ta'rifi kiritildi. R.M. Boskisning tasnifiga muvofiq, bu toifaga maxsus ta'limdan tashqarida loaqal minimal hajmda nutqiy zaxirani egallash imkonini beradigan darajada eshitish qobiliyatini saqlab qolgan bolalar kiritiladi [Boskis, 1963: 297]⁴⁵.

Zaif eshituvchi bolalarning, bir tomondan kar, boshqa tomondan eshituvchi bolalardan ajratilishi ularni o'qitishga o'ziga xos talablarni nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi. Zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo'lib qolganlar uchun maktab dasturida [1962] o'qish darslarida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab berildi. Unda ta'kidlanishicha, bu tipdagi maktablarda o'qish lug'at zaxirasini to'plash, o'quvchilar nutqining grammatik qurilishi, atrofdagilarning og'zaki nutqini tushunishni shakllantirishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarni o'qishga o'rgatish metodikasining rivojlanishiga surdopedagoglar K.G. Korovin [1961] va K.V. Komarov katta hissa qo'shgan [1964]. K.G. Korovin, K.V. Komarov ishlarini o'rganish surdopedagoglar tomonidan zaif eshituvchilarga savod o'rgatishga yangicha yondashuv taklif qilingani haqida gapirish uchun asos bo'ladi⁴⁶. Savod o'rgatish darslari nutqiy

.Понгильская А.Ф. Обучение глухих детей русскому языку. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1963. - 309 с.

⁴⁴ Басова А.Г., Егоров С.Ф. История сурдопедагогике. - М.: Просвещение, 1984. - 295 с.; Назарова Н.М., Пенин Г.Н. Специальная педагогика. В трех томах. Том 1. История специальной педагогике. -М.: Академия, 2007. — 351 с.; Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире. Европа. - М.: Просвещение, 2009. - 319 с.

⁴⁵ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-336 с.

⁴⁶ Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К. Г. Коровина. — М.: Просвещение, 1995.- 160 с.

rivojlanishning yagona jarayoni tarkibiga kiritildi. Grammatik ko‘nikmalarni egallash (jumladan o‘qish) talaffuz ko‘nikmalarini ishlashga bog‘liq bo‘lmay qoldi. shlobal o‘qishning (analitik o‘qish bilan bir qatorda) joriy qilinishi savod o‘rgatish amalga oshiriladigan nutqiy material hajmini sezilarli darajada kengaytirish imkonini berdi.

Pedagogik adabiyotlar tahlili o‘rganilayotgan tarixiy davrda zaif eshituvchibolalarni o‘qishga o‘rgatish masalalari A.I. Dyachkov [1963] va P.M. Boskis [1968] tomonidan o‘rganilganini ko‘rsatadi⁴⁷. Chunonchi, A.I. Dyachkov zaif eshituvchi birinchi sinf o‘quvchilariga savod (o‘qish va yozishni) o‘rgatishning ahamiyatini ta’kidlab, bu og‘zaki nutqni tez va samarali o‘zlashtirishga ko‘maklashishini uqtiradi. O‘qilayotgan matnni yaxshiroq tushunish uchun A.I. Dyachkov, P.M. Boskis ko‘rgazmali namoyish, dramalashtirish, illyustratsiyalardan keng foydalanishni tavsiya etadi⁴⁸.

M.I. Nikitina o‘z tadqiqotida [1978] XIX asrning 70 yillarida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yo‘nalganlik saqlangani holda o‘qish darslarida o‘quv vazifalarining nisbati o‘zgargani – shakllanayotgan shaxsning ma’naviy ibtidosiga axloqiy-estetik ta’sirning kuchayganini ta’kidlaydi. Bunday sharoitda “tushuntirib o‘qish” tushunchasi “o‘qish va nutqni rivojlantirish” tushunchasi bilan almashtirildi⁴⁹.

Bu tarixiy davrda badiiy adabiyotning ma’naviy-estetik imkoniyatlaridan kengroq va to‘liqroq foydalanishni nazarda tutadigan tarbiyaviy vazifalar oldingi planga chiqdi. M.I. Nikitina pedagog, muayyan asar lug‘atini tushuntirayotib, qahramonlar xulqi va xarakterini baholash, tasvirlanayotgan vaziyatlarni tushunish uchun ma’naviy-axloqiy leksikani qo‘shimcha ravishda kiritishini ko‘rsatib o‘tadi. M.I. Nikitining o‘qish darsida asarni o‘rganish nafaqat bilimlarni kengaytirish,

Комаров К. В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. — М.: 1988. — 223 с.

Комаров К. В. Особенности обучения слабослышащих детей. - М.: Просвещение, 1985. - 85 с.

⁴⁷ Дьячков А.И. Дидактика школы глухих. - М.: АПН РСФСР, 1968-247 с. 167 с.

Дьячков А.И. Системы обучения глухих детей. - М.: АПН РСФСР, 1961.- 198 с.

Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-336 с.

Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. - М.: Просвещение, 1988 - 128 с

⁴⁸ Дьячков А.И. Дидактика школы глухих. - М.: АПН РСФСР, 1968-247 с. 167 с.

Дьячков А.И. Системы обучения глухих детей. - М.: АПН РСФСР, 1961.- 198 с.

Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-336 с.

Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. - М.: Просвещение, 1988 - 128 с.

⁴⁹ Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1983.-333 с.

balki idrok qilingan materialga o'z munosabatini shakllantirishni ham nazarda tutishi haqidagi qarashlari biz uchun yaqin.

Zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalar uchun maktablarning 1974 yilda ishlab chiqilgan dasturida 1-4-sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish izchilligi ifodalangan. 1-sinfdan boshlab, dasturda "savod o'rgatish" bo'limi ajratilgan. 2-sinfda "O'qish va nutqni rivojlantirish" bo'limi kiritilgan. Unda to'g'ri, ravon, ongli (tushunib) va ifodali o'qish ko'nikmalarini egallash bo'yicha vazifalar shakllantirilgan. Dasturning uqtirish xatida ta'kidlanganki, o'qish darslari bolalar nutqini shakllantirishda ham, korreksiyalashda ham, bilish jarayonlarini takomillashtirishda ham muhim rol o'ynashga chaqirilgan.

80-90 yillar davri o'qish darslarida o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini takomillashtirish, ularning mazmuni va tashkiliy shakllari samaradorligini oshirish yo'llarini izlash davom ettirilgani bilan tavsiflanadi.

O'qish metodikasining keyingi rivojlanishi 1986 yilda ishlangan dasturga to'g'ri keladi. Dastur tahlili dalolat beradiki, zaif eshituvchi va keyinchalik kar bo'lib qolgan bolalarga rus tili o'qitishda bu toifadagi o'quvchilar nutqiy rivojlanishining o'ziga xosliklari e'tiborga olingan. 1-sinf o'quvchilari uchun dasturda "Savod o'rgatish" bo'limi nazarda tutilgan bo'lib, u ikkita "O'qish" va "Yozuv" kichik bo'limlarini o'z ichiga olgan. "O'qish va nutqni rivojlantirish" bo'limi dasturda 2-sinfdan kiritilgan va bajarilishi o'quvchilarning to'g'ri, ravon, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini egallashini ta'minlaydigan talablar tizimini o'z ichiga olgan.

Dasturda o'quvchilarning nutqini, so'z-mantiqiy tafakkurini shakllantirish va korreksiyalash, ularning kitoblardan atrof olam haqidagi bilimlarni olish, bu axborotni anglash, matnlar bilash ishlashda o'qilganni shaxsiy tajribaga tayanib mustaqil baholash imkoniyatlarini kengaytirishdop o'qishga muhim rol ajratilgani ta'kidlanadi. Dasturga muvofiq, bu bo'limga talablar maxsus darslardagi kabi, sinfdan tashqari, jamoaviy va yakka tartibda o'qish jarayonlarida ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, sinfdan tashqari o'qish eshitib idrok qilish va talaffuzni rivojlantirish darslari, nutqiy muloqotni shakllantirish – lug'atni boyitish va korreksiyalash, tilning grammatik qonuniyatlarini, imlo, to'g'ri talaffuz, og'zaki va yozma bog'lanishli nutqni egallash tizimi bilan uzviy aloqadorlik o'rnatilgani holda o'quvchilarni nutqiy va aqliy rivojlantirishning umumiy tizimiga kiritilgan.

Kichik sinflarda o'qish boshlang'ich ta'lim predmeti sifatida qaralgan va o'rta sinflar o'quv rejasiga kiritilgan o'quv fanlari asoslariga (adabiyot, biologiya, geografiya, tarix) nisbatan propedevtik vazifa bajargan. Shu sababli dasturda o'quvchilarning o'qish texnikasini egallashi va o'qilganlarni faktik mazmun darajasida tushunishi, shuningdek, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning turli sohalariga oid elementar ma'lumotlarni izchil to'plab borishi nazarda tutilgan. Dasturning asosiy qoidalari "O'qish kitobi" darsliklarida o'z aksini topgan. O'sha davr barcha o'quv kitoblarining asosiy maqsadi –kichik yoshdagi o'quvchilarni mafkuraviy tarbiyalash jamiyatning hayotiy qadriyatlarini aks ettirgan.

Tadqiqotimiz uchun, avval aytilganidek, M.I. Nikitining ishlari [1983, 1995, 1996] katta qiziqish uygʻotadi⁵⁰, ularda zaif eshituvchilarning tomonidan badiiy matnlarni idrok qilishning xususiyatlari ochib berilgan va bu toifa bolalarda oʻqish bilan bogʻliq qiyinchiliklarni bartaraf qilishning asosiy yoʻllari belgilab berilgan. Tadqiqotimiz uchun M.I. Nikitining oʻqish koʻnikmalarini shakllantirishning har bir bosqichi oʻz xususiyatlariga ega ekani, ularni maxsus qoʻshimcha oʻrganish lozimligi toʻgʻrisidagi xulosalari katta ahamiyatga egadir.

Fikrimizcha, koʻrib chiqilayotgan tarixiy davrda oʻqishga oʻrgatish metodlarini tanlash alohida oʻrin tutadi [K.V. Komarov, 1988; M.I. Nikitina, 1995]⁵¹. M.I. Nikitining fikrini qoʻllab-quvvatlagan holda, taʼlimda ilgarilagani sari reproduktiv, qayta yaratish xarakteridagi topshiriqlar bilan bir qatorda evristik va ijodiy plandagi mashqlar sonini orttirib borish kerakligini taʼkidlashni istardik. Tilga olingan metodlarni optimal birlashtirish oʻquvchilarning tobora keng aqliy va nutqiy faolligi, oʻqish texnikasining rivojlanishi, oʻqilgan matn haqidagi va u bilan bogʻliq oʻz fikrlariniqurish malakalarini egallashiga koʻmaklashadi.

M.I. Nikitina tomonidan [1998] eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda kitobxonlik idrokini aniqlash usuliga eʼtiborni jamlagan diagnostik topshiriqlar ishlab chiqilgan⁵². Asosiy mezonlar sifatida surdopedagog tomonidan badiiy matn mazmunini anglash; oʻqilayotganning faktik mazmunini ochib berish; asosiy epixodlarni ajratish, jiddiy belgilarni jiddiy boʻlmaganlaridan ajratish, epizodlar orasidagi sabab-oqibat aloqadorliklarini aniqlash; qahramonlarni baholash bilan bogʻliq malakalarilgari surilgan.

⁵⁰ Nikitina M.I. Психолого-педагогическая характеристика детей младшего школьного возраста с недостатками слуха // Nikitina M.I., Пенин Г.Н., Пономарева З.А. Воспитание младших школьников с нарушением

слуха. - СПб.: 1996. - с. 5 - 17.

Никитина M.I. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих учащихся. Дисс. ... докт. пед. наук. - JL, 1983 - 362 с.

Никитина M.I. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 43.

⁵¹ Комаров К. В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. — М.: 1988. — 223 с.

Никитина M.I. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих учащихся. Дисс. ... докт. пед. наук. - JL, 1983 - 362 с.

Никитина M.I. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 43.

⁵² Nikitina M.I., Красильникова О.А. Развитие речи на уроках чтения. - СПб.: Образование, 1997. - 170 с.

XXI asr boshlari jamiyat hayotida tub o'zgarishlar, xalqning o'tmishi va bugunini hisobga olgan holda madaniy rivojlanishga urg'u berilishi bilan bog'liq. Zamonaviy sharoitda ta'limning asosiy vazifasi shaxs madaniyati, uning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi hisoblanadi. II tar maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarining amaldagi dasturlari [2003, 2005] aynan shunday kitobxonni tarbiyalashga qaratilgan. Dasturlar tahlili ko'rsatadiki, birinchi marta boshlang'ich maktabning I va II bo'lim o'quvchilari uchun ikkita ta'lim marshruti ko'zda tutilgan: I obo'lim –1-4-sinflar (I variant) va 1-5-sinflar (II variant); II bo'lim –1-4 sinflar (I variant) va 1-6 sinflar (II variant). Birinchi marta rus tili dasturi "Til va adabiyot" deb nomlangan. Birinchi marta dasturda zamonaviy o'qish metodikasi o'z maqsad va vazifalari, talablari bo'yicha adabiyot darslariga yaqinlashtirilishi lozimligi, o'qish va adabiyot darslari zaif eshituvchi o'quvchilar adabiy rivojlanishining yagona tizimini tashkil qilishi ta'kidlangan.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, olimlar "o'ylamasdan o'qish" ni korreksiyalash va uning oldini olish yo'llarini faol izlamoqda. Chunonchi, YE.L. Goncharova tomonidan [2001] rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning kitobxonlik faoliyati sifatini baholash uchun matn matritsalaridan foydalanilgan maxsus metodik yondashuv ishlab chiqilgan. Yondashuv mohiyati quyidagilardan iborat⁵³. Bir-ikkita original matndan foydalanish o'rniga maxsus ishlab chiqilgan sun'iy, matritsalarda tashkil qilingan modelli matnlardan foydalanish taklif qilinadi, bu matnlar turli darajadagi murakkablikdagi matnlar (nisbatan oddiylaridan nisbatan murakkablari tomon) kabi bitta murakkablik darajasi doirasidagi modulli material variantlarini ham o'z ichiga olgan. Biroq bu yondashuv eshitishida nuqsoni bo'lgan kitobxonning o'zini so'z bilan ifodalash, asarning g'oyaviy mazmunini boshidan kechirish, o'qilganlarni umumlashtirish qobiliyatini hisobga olmaydi.

Adabiyot – so'z san'ati kitobxonga tilning ifodali voisitalari yordamida ta'sir ko'rsatadi. Ularni tushunish uchun kitobxondan tegishlicha nutqiy rivojlanganlik talab qilanadi. Maktab yoshidagi zaif eshituvchi o'quvchilarning yetarlicha nutqiy rivojlanmaganligi bola rivojlanishining borishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Surdopedagoglarning [P.M. Boskis, 1966; A.G. Zikeev, 1976, 2000; K.V. Komarov, 1985, 1988; K.V. Korovin, 1995] tadqiqotlarida eshitish qobiliyatining buzilganligi bilan nutqiy rivojlanmaganlik o'rtasidagi, o'z navbatida, bolaning boshqa psixik funksiyalari yetarlicha rivojlanmasligiga sabab bo'ladigan murakkab o'zaro aloqadorlik yoritib beriladi⁵⁴. Olimlar tomonidan zaif eshituvchi o'quvchilar

⁵³ Гончарова Е.Л. Методики оценки сформированности базовых компонентов читательской деятельности у детей с различными нарушениями в развитии // Дефектология. - 2001. - № 3 - с. 81 — 95.

⁵⁴ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-336 с.;Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышащих школьников. - М.: Просвещение, 1976. - 240 с.;Зикеев А.Г. Развитие речи учащихся специальных (коррекционных) образовательных учреждений. - М.: Академия, 2000. — 199 с.;Комаров К. В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. — М.: 1988. — 223 с.; Книга для учителя школы слабослышащих.

nutqining rivojlanishidagi og‘ishlar: talaffuzning uzilishi, lug‘at tarkibining va nutqning grammatik qurilishining o‘ziga xos rivojlanishi hamda o‘qilayotgan matn mazmunini idrok qilishdagi qiyinchiliklar aniqlangan. Bu xususiyatlarning hammasi o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining ma‘lum darajada o‘ziga xos o‘zlashtirilishiga olib keladi. Nutqning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda olimlar tomonidan til o‘rgatishning korreksion yo‘nalganlikka ega maxsus tizimi yaratilgan. Bu tizimning boshlang‘ich, asosiy prinsiplari: nutqiy amaliyotni maksimal boyitish, nutqning lug‘at zaxirasini tilning grammatik qurilishini egallash bilan uzviy aloqadorlikda shldirib borish, bolaning tilning grammatik qonuniyatlarini amaliy o‘rganishi nihoyatda muhim hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadli ustanovkalarini hal qilish uchun maktab yoshidagi zaif eshituvchi o‘quvchilar tomonidan leksikani va o‘qilayotganlarning mazmunini tushunish aspektlarini o‘rganish zarurati yuzaga keladi.

P.M. Boskis [1963, 1978, 1988] o‘zining fundamental tadqiqotlarida aniqlashicha, zaif eshituvchi bolaning nutqni eshitib to‘liq idrok qila olmasligi tufayli yuzaga keladigan nutqiy tajribasining cheklanganligi so‘z boyligining miqdor jihatidan yetishmasligi va undan juda o‘ziga xos foydalanishga olib keladi⁵⁵. Bolalarning buzilgan va miqdor jihatidan cheklangan lug‘at boyligi ma‘nolarning yetarlicha farqlanmasligi bilan ham ajralib turadiki, bu turlicha almashtirishlarga olib keladi. P.M. Boskis [1963] zaif eshituvchibolalar nutqiga xos bo‘lgan quyidagicha almashtirishlarni ajratib ko‘rsatadi⁵⁶:

- butun predmetni atash o‘rniga uning bitta xarakterli belgisini ifodalash;
- butun predmetni uning qismi bilan almashtirish;
 - predmet bilan vaziyatli bog‘langan boshqa predmetni atash;
 - predmet bog‘liq bo‘lgan umumiy vaziyatni atash;
 - vazifasiga ko‘ra o‘xshash predmetni atash;
 - tashqi ko‘rinishi o‘xshash predmetni atash.

Hamma almashtirishlar bolalar nutqida ma‘lum so‘zlarning yo‘qligi va boshqa, bolaning kundalik turmushi, uning nutqiy amaliyotdagi ehtiyojlariga yaqin so‘zlarning mavjudligidan dalolat beradi.

Tilning lug‘at boyligini o‘zlashtirishning o‘ziga xosligini qayd qilib, P.M. Boskis cheklangan nutqiy zaxira va tilning grammatik qurilishini yetarlicha egallamaganlik o‘qilayotgan matnni tushunishda tabiiy to‘siq ekanini ta’kidlaydi.

Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К. Г. Коровина. — М.: Просвещение, 1995.- 160 с.

⁵⁵ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-336 с.;Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. - М.:Просвещение, 1988 - 128 .4Боскис Р.М., Фингерман Л.Е. Развитие письменной речи в начальных классах школы слабослышащих. - М.: Просвещение, 1978. - 143 с.

⁵⁶ Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. - М.: Изд. АПН РСФСР, 1963.-36 с

Ko'plab so'zlar, alohida birikmalar, so'z yoki jumlaning ko'chma ma'nosini tushunmaslik, tanish so'zni uning yangi grammatik shakli tufayli taniy olmayslik anchagina oson matn zaif eshituvchilarning uchun qiyin bo'lib chiqishiga sabab bo'ladi. O'qishni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni P.M. Boskis zaif eshituvchi o'qituvchilarning quyidagi xususiyatlari bilan izohlaydi:

-so'zning tovush tarkibi haqida yetarlicha bo'lmagan, ba'zan xatto buzuk tasavvur;

-so'z zaxirasining cheklanganligi va uning ma'nosini aniq tushunmaslik;

-nutqning grammatik qurilishi yetarlicha rivojlanmaganligi va grammatik shakllar ma'nosini tushunmaslik.

P.M. Boskis [1968, 1971] o'z tadqiqotlarida xulosaga keladiki: zaif eshituvchilarning so'zlarni va ularning tovush tarkibini maxsus o'rgangani sari o'qish chog'ida so'zlarni tanish imkoniyati ortadi. Baribir o'qish bilan bog'liq qiyinchiliklar uzoq vaqt saqlanadi, bunga sabab faqat tovush tarkibini tanib olmaslik emas, balki ko'plab so'zlarning ma'nolari va grammatik shakllari o'qituvchilar tomonidan aniq tushunilmasligi ham. O'qituvchilar, ayniqsa ta'limning boshlang'ich bosqichlarida gap strukturasi qayta yaratish va grammatik aloqalarni rasmiylashtirishda ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yadi.

Zaif eshituvchi bolalar nutqida grammatik qurilishning buzilish sabablari shunchaki ayrim morfemalarni eshitmaslik emas, balki avvalo, turli grammatik kategoriya va shakllar ma'nolarida mujassam umumlashmalarni egallash bilan bog'liq qiyinchiliklar sanaladi. Bu, birinchi navbatda, ma'no munosabatlarining grammatik vositalar bilan ifodalanishiga taalluqli. P.M. Boskis [1966] zaif eshituvchi bolalar otlarni turlashni bilmasligi, asosiysi ularning turli kelishiklar ifodalagan ma'nolarini tushunmasligini ta'kidlaydi.

A.G. Zikeyevning tadqiqotlarida [1976, 1981, 2000, 2002] shu kabi qiyinchiliklar zaif eshituvchi o'qituvchilarda so'z yasovchi morfemalar ma'nolarini farqlashda ham kuzatilishi aytiladi⁵⁷.

Ayni vaqtda tadqiqotlar zaif eshituvchilarning ta'lim jarayonida grammatik shakllarni shunchaki mashqlarda ko'p marta takrorlash yo'li bilan emas, balki ko'rgazmali umumlashmalardan nutqiy asosdagi umumlashmalarga asta-sekinlik bilan o'tib faol va ongli ravishda o'zlashtirishdan dalolat beradi [A.G. Zikeyev, 1976, 2000; YE.YE. Vishnevskaya, 1982]⁵⁸.

Tadqiqotimiz uchun zaif eshituvchilarning ularga qaratilgan nutqi va o'qilayotgan matnni tushunishini aniqlash muhim hisoblanadi. Tushunish leksik material va unga qaratilgan nutqning zaif eshituvchi bola uchun qanchalik qulay (oson, tushunarli) ekaniga bog'liq. Shubhasiz, ko'p so'zlarni bilmaslik o'qituvchi

⁵⁷Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышащих школьников. - М.: Просвещение, 1976. - 240 с.;Зикеев А.Г. Развитие речи учащихся специальных (коррекционных) образовательных учреждений. -М.: Академия, 2000. — 199 с.;Зикеев А.Г. Работа над лексикой в начальных классах специальных (коррекционных) школ. М.: Академия, 2002. — 170 с.

⁵⁸ Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышащих школьников. - М.: Просвещение, 1976. - 240 с.

chog'ida matnni umuman tushunmaslik yoki o'qilayotganlarning ma'nosini buzishga olib keladi.

1-3-sinf o'quvchilari bilan tadqiqotlar olib borgan M.I. Nikitina [1978, 1991, 1997] zaif eshituvchi bolalar uchun xarakterli bo'lgan o'qilayotgan matnlarni tushunishdagi qiyinchiliklarni ajratib ko'rsatadi⁵⁹:

- ayrim so'z, birikma va butun frazalarni tushunishdagi qiyinchiliklar;
- matnda qo'llangan olmoshlarni tushunmaslik;
- matnda yo'nalganlik ola bilmaslik, muayyan savolga javob berish uchun butun xatboshini so'zma-so'z takrorlash.

Shunday qilib, zaif eshituvchibolalar o'qish vaqtida yaxlit kontekstga emas, balki o'zlari hikoya, uning qismi yoki alohida jumladan izolyatsiyalangan (ayri) holda tushunadigan ayrim so'zlargagina yo'nalganlik oladi. Leksikani tushunishdagi bu barcha o'ziga xosliklar sabab-oqibat bog'lanishlarini anglashga ta'sir o'tkazadi.

Shubhasiz, bolaarning nutqiy rivojlanish darajasi pastligi o'qilayotganlarni tushunishni qiyinlashtiradi, ammo N.G. Morozovaning [1964] ta'kidlashicha, karsoqovlar uchun matn so'zlarini tushunarli qilish, fakt va fikrlarni tobora tushunarli tilda bayon qilish hali asarni tushunarli qilish degani emas [Morozova 1964: 121]⁶⁰. N.G. Morozovani qo'llab-quvvatlagan holda so'zlarni bilmasdan turib, o'qilayotganlarni tushunish qiyin va xatto mumkin emas, ammo so'zlarni bilish ma'noni bilish uchun shart xolos, deb hisoblaymiz. O'quvchilar nafaqat hikoya matnini, balki uning matn ostini ham tushunishi kerak, buning uchun esa nisbatan murakkab aqliy operatsiyalar kerak. N.G. Morozova kichik yoshdagi karbolalarning matn va matn soti (ma'no)ni tushunishini o'rganib, o'qilganlarni anglashning uchta darajasini farqlaydi⁶¹:

- so'z, jumla, parchaning bevosita faktik ma'nosini tushunish;
- muallif g'oyasini, gapda, hikoyada bevosita ifodalanmagan, ma'nolar ostida yotgan fikrni tushunish;
- hodisalar, ularning qahramon uchun ahamiyatini, xatti-harakat motivlarini, kechinmalarni tushunish. Tasvirlanganlarga o'z munosabatini bildirish.

N.G. Morozova matn ostidagi ma'noni tushunishni tadqiq qilib xulosaga keladiki, kar o'quvchilar qahramonlarning xatti-harakati va ularning kechinmalarini

⁵⁹ Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1983.-333 с.;Никитина М.И. Пути совершенствования литературного образования слабослышащих учащихся. - JL: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1979. -64 с.Никитина М. И. Уроки чтения в школе слабослышащих. - М.: Просвещение, 1991. — 143 с.;Никитина М.И., Красильникова О.А. Развитие речи на уроках чтения. - СПб.: Образование, 1997. - 170 с.

⁶⁰ Морозова Н.Г. Воспитание сознательного чтения у глухонемых школьников. -М.: Учпедгиз, 1953. - 184 с.

⁶¹ Морозова Н.Г. Воспитание сознательного чтения у глухонемых школьников. -М.: Учпедгиз, 1953. - 184 с.

tushunishda qiynaladi. Soʻz, jumla maʼnosi, fabulani tushunish – bu faqat “maʼnolar” planini tushunish, u esa oʻquvchilarning nutqiy rivojlanishiga bogʻliq. Biroq badiiy matnni oʻqish nafaqat anglashning intellektual jarayoni va xatto emotsional kechinmalarni, u yoki bu hissiyotni qayta yaratishni, balki insoniy munosabatlarning motivatsiya sohasiga kirishni talab qiladi... boshqacha aytganda, badiiy asarni tom maʼnoda tushunish asar mazmuniga kirish demakdir [Morozova 1964: 193]. Oʻquvchilar tomonidan “maʼno” planining tushunilishi butun shaxsning rivojlanish darajasiga bogʻliq. N.G. Morozovaning bu xulosasi E.JI. Goncharova [1998, 2000, 2006], O.I. Kukushkina [2003, 2005], M.I. Nikitina [1978, 1991] va E. Matinning [1987] taqiqotlarida oʻz tasdigʻini topgan⁶². Bu xulosa zaif eshituvchi oʻquvchilarni adabiy rivojlantirish pedagogik tizimini ishlab chiqishda ham dolzarb va muhim. Oʻqish darslarida badiiy asarni oʻrganish va nutqiy muloqotni tashkil qilish boʻyicha ishlar oʻquvchilarning umumiy va kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash bilan birlashtirilishi lozim.

N.G. Morozova tomonidan aniqlangan kar bolalar oʻqishda duch keladigan qiyinchiliklar zaif eshituvchi oʻquvchilarda ham aniqlangan [P.M. Boskis, 1988; A.G. Zikeyev, 1976, 2002; M.I. Nikitina, 1978, 1991]. Oʻqish darslarini kuzatishlarimiz podtekstni tushunish bilan bogʻliq qiyinchiliklar zaif eshituvchi oʻquvchilar boshlangʻich maktabda oʻqishining butun davri mobaynida saqlanishini koʻrsatmoqda.

Zaif eshituvchilar maktablarida oʻqish darslarida lugʻat ishi alohida oʻrin tutadi. Bu ishga zarur lugʻatni tushuntirish va aniqlashtirish hamda oʻqiganining mazmunini tushunishni taʼminlashning sharti sifatida katta ahamiyat qaratiladi. A.G. Zikeyev [1961, 1968, 1975, 1976, 1981, 2000], M.I. Nikitina [1978, 1983, 1991, 1997], L.V.

⁶² Гончарова Е.Л. Методики оценки сформированности базовых компонентов читательской деятельности у детей с различными нарушениями в развитии // Дефектология. - 2001. - № 3 - с. 81 — 95.; Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Набор упражнений для оценки сформированности читательской деятельности ребенка младшего школьного возраста из компьютерной коррекционно-диагностической среды «Мир за твоим окном» // Дефектология. — 1997. — № 6 — с. 34 — 42; Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Дневник событий жизни ребенка: первая рабочая тетрадь к курсу «Внутренний мир человека» // Дефектология. -1998.-№5.-С. 26-38.; Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Внутренний мир человека как предмет изучения в специальной школе: опыт проектирования нового содержания обучения // Дефектология. - 1998. - № 3 - С. 3 — 14.; Никитина М.И. Воспитание эстетического восприятия художественной картины слабослышащими учащимися 5-7 классов II отделения: Автореферат ... канд. пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1970.- 21 с.

Никитина М.И. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 43.; Никитина М.И. Пути совершенствования литературного образования слабослышащих учащихся. - JL: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1979. -64 с.; Никитина М. И. Уроки чтения в школе слабослышащих. - М.: Просвещение, 1991. — 143 с.

Матыня Э. Влияние организации учебного процесса на сознательное чтение глухих учащихся 1-4 классов. - Дисс. ... канд. Пед. наук.-Д., 1987.-189 с.

Nikolayeva [1981], A.F. Pongilskayaning [1971, 1975] ishlarida lugʻatni tushuntirishning rasm, koʻrgazmali vaziyat, predmetni namoyish qilish, soʻz maʼnosini ogʻzaki tushuntirish, soʻz ishtirokida gaplar tuzish kabi usullari ajratib koʻrsatiladi. Zaif eshituvchi oʻquvchilar uchun notanish soʻzlarni tushuntirishning sanab oʻtilgan usullari lugʻat ishiga murojaat qilishga toʻgʻri keladigan barcha darslarda oʻtkazish uchun tavsiya qilinadi.

Lugʻat ishini psixologik-pedagogik ish sifatida baholab, A.G. Zikeyev [1976, 1981, 2002] bolani nimani qa qanday oʻzlashtirganinigina emas, balki u yoki bu lugʻat tarkibini bola qaysi fikrlash operatsiyalari yordamida oʻzlashtirganini ham bilish muhim, deb hisoblaydi⁶³. Bunda lugʻat zaxirasi zaif eshituvchi oʻquvchilar tomonidan umumlashtirishlar asosida oʻzlashtirilishi kerak. Lugʻatni toʻplash soʻzning nominativ unksiyasini aniqlashtirish planda emas, balki koʻproq tilda voqelikni, aloqalarda mavjud real munosabatlarni aks ettirish imkonini beradigan umumlashmalar planida kechishi kerak [Zikeyev 2002: 16]. A.G. Zikeyev tomonidan rus tili darslariga nisbatan ilgari surilgan bu qoida oʻqish darslarida lugʻat ishi uchun ham muhim, chunki soʻzni umumlashtirish sifatida ochib berish oʻqilganlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Oʻqilganlarni yaxshiroq tushunishga qaratilgan metodlar orasida oʻqishga oʻrgatish metodikasida suhbat, reda tuzish, sahnalashtirish, koʻrgazmali material bilan ishlash, turlicha qayta hikoya qilishlar tavsiya etiladi [M.I. Nikitina, 1978, 1996, 2006]⁶⁴.

Tadqiqotimiz uchun M.I. Nikitinaning [1978, 1991] oʻqish darslarida taʼlimning ijodiy metodlarining yetakchi roli haqidagi xulosasi juda muhim, chunki eshitishida nuqsoni boʻlgan oʻquvchilarni adabiy ijodga jalb qilish nutqning ifodalilik, boylik kabi sifatlarini birinchi planga olib chiqishni talab qiladi.

Tadqiqotimiz uchun surdopedagoglar A.G. Zikeyev [2000], M.I. Nikitina [1991], N.YE. Grashning [2000] lugʻat ishini oʻtkazish sifati haqidagi xulosalari muhim. Shubha yoʻqki, oʻqilayotgan matnni tushunishgina emas, balki uning

⁶³ Зикеев А.Г. Развитие речи слабослышащих школьников. - М.: Просвещение, 1976. - 240 с.;Зикеев А.Г. Развитие речи учащихся специальных (коррекционных) образовательных учреждений. -М.: Академия, 2000. — 199 с.;Зикеев А.Г. Работа над лексикой в начальных классах специальных (коррекционных) школ. М.: Академия, 2002. — 170 с.

⁶⁴ Никитина М. И. Воспитание младших школьников с нарушением слуха.-М.: 1996.-160 с.; Никитина М.И. Воспитание эстетического восприятия художественной картины слабослышащими учащимися 5-7 классов II отделения: Автореферат ... канд. пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1970.-21 с.Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1983.-333 с.Никитина М.И. Пути совершенствования литературного образования слабослышащих учащихся. - JL: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1979. -64 с. Никитина М. И. Уроки чтения в школе слабослышащих. - М.: Просвещение, 1991. — 143 с.

mazmunini to‘g‘ri qayta yaratish – g‘oya, asosiy qahramonlar xarakterini tushunish, asarni emotsional bo‘yoqdorligini adekvat baholash ham shunga bog‘liq⁶⁵.

O‘qish darslarini kuzatishlarimiz, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik faoliyati tahlili nutqiy yetarlicha rivojlanmaganlik adabiy asarning g‘oyaviy-mazmuniy va badiiy boyligini anglashda jiddiy to‘siq ekanidan dalolat bermoqda.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning badiiy matnni tushunishini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda nutqiy rivojlanishning zaif eshituvchilarning kitobxonlik madaniyatiga ta‘siri ochib beriladi. Biz uchun V.M. Boldirevaning [1978] maktabning kachik va katta sinflarida asar ustida ishlashda uzviylik, adabiyotning tizimli kursini o‘qishni boshlashdan avval ham asarni o‘ylab (tushunib) o‘qish malakasiga e‘tibor qaratish zarurligi haqidagi xulosasi qiziqarli va muhim. V.M. Boldirevaning ishlarida boshlang‘ich maktabdagi ko‘plab kamchiliklar yuqori sinflarda ham saqlanib qolishi va adabiy asar ustida ishlashdagi qiyinchiliklarni kuchaytirish ta‘kidlanadi.

M.I. Nikitinaning tadqiqotlarida [1982] zaif eshituvchi kichik o‘quvchilarning yana bir xususiyati – adabiy personajlar obrazlarini yetarlicha anglamaslik va axloqiy tushunchalar bilan operatsiyalay olmaslik natijasi sifatida asarlarning g‘oyaviy mazmunini tushunmaslikni aniqlash imkonini berdi⁶⁶. Hodisalar va asar qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qilib, o‘quvchilar, avvalo, hodisalarning tashqi tavsifi: personaj qayerda bo‘lgani, nimalar qilgani, qayerga borgani, kim bilan uchrashganiga e‘tibor qaratadi. Qahramon xarakterining hamma qirralari ham o‘quvchilar nigohiga tushadi, odatda, ular yorqinroq ifodalargan yoki muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora qilgan jihatlarni ajratib ko‘rsatadi. Mazmunning faktik tomonini ochib beradigan aniq savollar boshlang‘ich maktabni tamomlash vaqtiga kelib qiyinchilik tug‘dirmaydi, ammo sabab-oqibat va baholashga oid savollar o‘quvchilar uchun qiyinligicha qoladi. M.I. Nikitina zaif eshituvchilarning fikrni ifodalashga faol intilishi va ularning bir muncha sodda bayon qilishi o‘rtasidagi tafovutga e‘tibor qaratadi. Bu nomuvofiqlikni tadqiqotchi zaif eshituvchilarning potensial imkoniyatlari bilan ularning so‘z vositalari cheklanganligi o‘rtasidagi farq bilan izohlaydi. Bu xulosa o‘qish darslarida badiiy asar bilan ishlashni yaxshilashning imkoniyatlariga optimistik qarash, axloqiy tushunchalar bilan maxsus ishlar esa matn tahlili bilan bog‘liq fikrlashga oid masalalarni hal qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi.

⁶⁵ Граш Н.Е. Изучение лирики в школе для детей с недостатками слуха (2-6 классы). - СПб.: РГПУ им. А. И. Герцена, 2000. - 157 с.; Никитина М. И. Уроки чтения в школе слабослышащих. - М.: Просвещение, 1991. — 143 с.;

⁶⁶ Никитина М.И. Воспитание эстетического восприятия художественной картины слабослышащими учащимися 5-7 классов II отделения: Автореферат ... канд. пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1970.-21 с.; Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1983.-333 с.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan adabiy asarlarning tushunilishini o'rganishlar [YE.A. Gorbunova, 2002; M.I. Nikitina, 1996, 2006; A.F. Pongilskaya, 1963] badiiy obrazlarni aniq va to'liq qayta yaratishning kitobxonning umumiy rivojlanishi, uning nutqiy rivojlanishi va badiiy asarni tahlil qilish malakasiga bog'liqligini ko'rsatdi⁶⁷. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun qahramonlarning real ma'naviy qiyofasiga adekvat bo'lmagan assotsiatsiyalar xos [L.A. Golovchits, 1975]. Tadqiqotchilar eshitishida nuqsoni bo'lgan 4-5-sinf o'quvchilarida adabiy qahramonning shaxsiy xususiyatlarini badiiy matnning muayyan elementlari bilan nisbatlay olmaslik, keltiriladigan misollarning haddan ziyod vaziyatliligi va detallashtirilishini ta'kidlaydi. Zaif eshituvchi o'quvchilar matnda ifodalangan muayyan vaziyatnigina umumlashtira oladi, kontekstdan tashqariga chiqqa bilmaydi. Hikoyalar syujetini eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar turli darajada to'liq, chuqur va izchil anglab yetadi. Personajlar xatti-harakatlar tartibini qayta yaratish va faktlarni ma'lum mavzu atrofida tizimlashtirishda qo'rol xatoliklar, asosiy va ikkinchi darajalilarni farqlay olmaslik, muayyan obyekt yoki personaj haqida fikr yuritish uchun zarur faktlarni guruhlay bilmaslik qayd etiladi. M.I. Nikitining ta'kidlashicha, zaif eshituvchi o'quvchilar personajlarning emotsional holatini tushunmasligi ko'p jihatdan ularni tasvirlash usuliga bog'liq⁶⁸. Fe'llar yordamida tasvirlangan kechinmalarni bolalar ancha aniq idrok qiladi. Fe'llar bilan ifodalangan bayonning dinamikligi va aniqligi epizodni yaxshiroq anglash va muallifning qahramonga munosabatini tushunishga ko'maklashadi. Personajlarning hislari bir muncha yomon anglanadi. Zaif eshituvchi o'quvchilar ichki holatni tasvirlash ko'rinishida berilgan adabiy qahramonlarning kechinmalarini tushunishda hammasidan ko'p qiyinchilikka duch keladi. Shu bilan birga, M.I. Nikitina tadqiqotlari natijalari bo'yicha xulosaga keladiki, maqsadi ta'lim zaif eshituvchi o'quvchilarga 4-5-sinfga kelib o'qilayotgan adabiy asarlarni ancha yuqori darajada anglash imkonini beradigan aqliy va nutqiy rivojlanishgi erishishda ko'maklashishadi.

Tadqiqotimiz uchun YE.L. Goncharova, O.I. Kukushkinaning [1997] tadqiqoti katta qiziqish uyg'otadi. Katta va kichik maktab yoshida bola rivojlanishining turi mazmuniy liniyalariga nisbatan rivojlanish va ta'lim o'rtasidagi disbalansni aniqlash

⁶⁷ . Никитина М. И. Уроки чтения в школе слабослышащих. - М.: Просвещение, 1991. — 143 с.; Никитина М.И. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 43.; Никитина М.И. Пути совершенствования литературного образования слабослышащих учащихся. - Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1979. -64 с.; Понгильская А.Ф. Чтение и развитие речи // Обучение глухих детей русскому языку (1-4 классы). - М.: АПН РСФСР, 1963 - С. 256-308.; Понгильская А.Ф. Обучение глухих детей русскому языку. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1963. - 309 с

⁶⁸ Никитина М.И. Воспитание эстетического восприятия художественной картины слабослышащими учащимися 5-7 классов II отделения: Автореферат ... канд. пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А.И. Герцена, 1970.-21 с.; Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышащих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1983.-333 с.

va bartaraf qilishning pedagogik instrumentariysini yaratish g'oyasiga amal qilib, surdopedagoglar uni kitobxonlikni rivojlantirish misolida realizatsiyalaydi⁶⁹. YE.L. Goncharova, O.I. Kukushkina kitobxonlik faoliyatini shakllantiish va bolaning, o'qiganini tushunishini ta'minlaydigan, aqliy faoliyatiga talablarni asta-sekin murakkablashtirishga talablarni ishlab chiqdi (matnning ma'lum tipi – aqliy faoliyatning ma'lum usuli). Bu kompyuter dasturida ishlash matnlarni tushnmaslikning ehtimoliy sabablarini (kitobxonlik faoliyati omillarining shakllanmaganligini) istisno qiladi. Dastur asosiy kitobxonlik qobiliyati – matn mazmunini yaxlit bir butun idrok qilishga intilish va malkasini baholash bilan tugaydi [Goncharova, O. I. Kukushkina 1997: 34-42]⁷⁰.

Ishonchimiz komilki, zaif eshituvchi bolaning adabiyrivojlanishi o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi ifoda qilish va adresatga ta'sir vositasi sifatida nutqqa e'tiborni ko'chirishni talab qiladi. Shu sababli tadqiqotimiz uchun surdopedagoglarning o'qish darslarida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, shuningdek, ijod, matnlarni badiiy talqin qilishni rivojlantirishga oid tavsiyalari qiziqish uyg'otadi [YE.A. Gorbunova, 2002; M.I. Nikitina, 2006]. Maxsus tashkil qilingan ta'lim va darsdan tashqari vaqtda faol nutqiy amaliyot natijasida internat va oila sharoitida zaif eshituvchi bolalar so'zlarning eshitish, eshitish-ko'rish va yozma obrazlarini xotirada to'plab boradi, bular bolalarda ichki nutq mexanizmlarini shakllantirish va so'z-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun asos vazifasini o'taydi. Zaif eshituvchio'quvchilar nutqiy malakalarni tobora ongli egallab boradi: ular o'zining og'zaqi va yozma jumllarini prognozlash, rejalashtirish va grammatik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirishga o'rganadi.

Amaliyot tahlili ko'rsatadiki, hanuzgacha maxsus maktabda o'qitish natijaviyligining yagona ko'rsatkichi o'qish texnikasi hisoblanadi. Fikrimizcha, bunday yondashuv to'g'ri emas, zero u zaif eshituvchi o'quvchilarning kitobxon sifatida shakllanishiga zamonaviy talablarga javob bera olmaydi.

Afsuski, hozirgi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga zrgatish metodikasida boshlang'ich ta'lim sharoitida zaif eshituvchio'quvchilarni adabiy rivojlantirish masalasi hali o'rganilmagan. Bu holat II tur maxsus (korreksion)

⁶⁹ Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Набор упражнений для оценки сформированности читательской деятельности ребенка младшего школьного возраста из компьютерной коррекционно-диагностической среды «Мир за твоим окном» //Дефектология. — 1997. — № 6 — с. 34 — 42

⁷⁰ Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Набор упражнений для оценки сформированности читательской деятельности ребенка младшего школьного возраста из компьютерной коррекционно-диагностической среды «Мир за твоим окном» //Дефектология. — 1997. — № 6 — с. 34 — 42.;Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Дневник событий жизни ребенка: первая рабочая тетрадь к курсу «Внутренний мир человека» // Дефектология. -1998.-№5.-С. 26-38.;Гончарова Е.Л., Кукушкина О.И. Внутренний мир человека как предмет изучения в специальной школе: опыт проектирования нового содержания обучения // Дефектология. - 1998. - № 3 - С. 3 — 14.

ta'lim muassasalari dasturlarining [2003, 2005] asosiy qoidalarinizaif eshituvchi o'quvchilarni o'qitish amaliyotida to'liq realizatsiyalash imkonini bermayapti, bu o'qituvchi- surdopedagoglarni o'qish darslarida ma'lim mazmuni haqidagi masalani va darsliklar tanlovini mustaqmil amalga oshirishga majbur etyapti, tabiiyki, bu zaif eshituvchi o'quvchilarni rivojlantirishda ijobiy natijalar berishi mumkin emas.

Shunday qilib, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili o'qishga o'rgatish mazmunini boyitish zarurligi haqidagi muhim xulosalarga kelish imkonini berdi. Bu badiiy asarlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish va o'z fikrlarini ifodalash uchun zarur lug'atni egallashga taalluqli. Zaif eshituvchi bolalarni o'qishga o'rgatishga oid ma'lum pedagogik va metodik tavsiyalar mavjudki, ular bolalarning bu toifasini adabiy va nutqiy rivojlantirish masalalarini tadqiq qilish uchun zamin yaratadi. Zaif eshituvchilarning nutqiy rivojlanishi va zaif eshituvchi bolalar uchun maktablarning 2-5-sinflarida o'qishga o'rgatish amaliyotini kuzitish boshlang'ich nuqtalar hisoblanadi. Bular zaif eshituvchi bolalar uchun maktablarda adabiy rivojlantirish masalalarini batafsil o'rganish talab qilinishi haqida farazni ilgari surish imkonini beradi.

Shunday qilib, tarixiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish mamlakatimiz surdopedagogikasi tiklanishi bosqichlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatish masalasi doimo markaziy o'rin tutib kelganidan dalolat beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatish metodikasi rivojlanishining zamonaviy bosqichida olim-surdopedagoglar bolalarni badiiy adabiyotni idrok qilishga tayyorlash; metodlarni optimal tanlash; evristik va ijodiy xarakterdagi topshiriqlar sonini orttirish; o'qisha o'rgatish natijaviyligini aniqlash bo'yicha diagnostik topshiriqlarni ishlab chiqish bilan bog'liq samarali o'qishga o'rgatishning yangi yo'llarini izlash bilan band. Bu eksperimental tadqiqot va adabiy rivojlantirishning pedagogik tizimini yaratish uchun asos va metodologik omillarni yaratadi.

Kar bolalarni maktab tizimida hayotga tayyorlashda va ularning nutqini o'stirishda o'qish darslari katta ahamiyat kasb etadi. Badiiy va ilmiy ommabop adabiyotlar, insonlarning ruhiy boyligi sifatida, zaif eshituvchilarning bilim doirasini kengaytirishni, hayotiy va axloqiy tajribalarini to'ldirishga yordam beradi.

O'qish darsi orqali bolalar, o'zlarida mujassam bo'lgan tasavvur va tushunchalarni yangi fakt, ma'lumot va obrazlar bilan boyitadilar. O'qish darslarida olgan dastlabki bilimlar boshqa o'quv o'quv darslarini (geografiya, tarix adabiyot, tabiyotshunoslik) o'zlashtirishda poydevor sifatida xizmat qiladi.

Kitoblarni o'qish ahamiyati, kitobxonlarni insonlarning xulq atvori, xatti-harakati, hayotiy yo'li, sodir bo'lgan voqealar, ularga baho berishda, ularning his-hayajon doirasini kengaytirish bilan ifodalanadi. O'qish mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda etik tushunchalar, axloqiy e'tiqodlar, estetik idealar tarbiyalanadi. O'qish darslarida kitobga nisbatan emotsional munosabatlar va kitob bilan ishlash bilimlari shakllanadi. O'qish darslari korreksion yo'nalishga ega. O'qishga o'rgatish jarayoni kommunikativ tizim tamoyillari orqali tashkil topgan. Mashg'ulotlarda

bolalarning soʻzlashuv nutqini talaffuz qilish, leksik, grammatik jihatlari, qoldiq eshitish qobiliyati rivojlantiriladi. Oʻqish darslarida ona tili darslaridagi kabi nutqni oʻstirish uch yoʻnalish boʻyicha olib boriladi: Nutqiy qobiliyatini rivojlantirish, nutq faoliyati va nutqning tuzilish tizimi bilan tanishish.

Nutqiy qobiliyat bu darslarda butun matn maʼnosini oʻzlashtirish soʻzlarning maʼnosini boshqa matnlar bilan bogʻlangan holdagi oʻrni orqali rivojlanadi. Nutqiy faoliyatning turlaridan eng avvalo oʻqish bilan bir qatorda gapirish, eshitish-koʻrish, yozish, daktillash malakasi rivojlanadi. Oʻqish darslarida oʻquvchilarni tilning tuzilish tizimi bilan tanishtirish, ularning oʻz fikrlarini ifoda qilishda, koʻz oldida matn va parchalardagi soʻz va gap namunalari turganligi asosida amalga oshadi. Shakllangan va mazmunan turli – tuman boʻlgan materialni oʻqish jarayonida soʻzlashuv va bogʻlangan nutq oʻqilganni, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, xotira, diqqat kabi psixik jarayonlarni korreksiyalash ustida ishlash uchun keng imkoniyat tugʻiladi⁷¹. Darslarning yuqorida aytib oʻtilgan taʼlim-tarbiyaviy, korreksiyalash rivojlantirish funksiyalari, qachonki agar oʻquvchi oʻqib, oʻqiganlarini tushungan sharoitdagina amalga oshirilishi mumkin. Shuning boshlangʻich va oʻrta sinflardagi oʻqish darslarini bolalarni toʻgʻri, ongli ravishda tez va ifodali oʻqishga oʻrgatish, asosiy vazifalardan hisoblanadi. I-IV sinflar bolalar tomonidan oʻqish texnikasini egallash va soʻz obrazlarini anglash shakllantirish va ular orqali real predmetlar, harakat, voqea, faktlarni koʻra bilish, tushunish malakasini shakllantirishda yetakchi davr hisoblanadi. Toʻgʻri oʻqish, soʻzlarni bugʻinlarga boʻlmasdan oʻqish orqali amalga oshiriladi. Boʻgʻinlab oʻqish faqat talaffuzi qiyin boʻlgan soʻzlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Birinchi sinf oʻquvchilarida soʻzlarni harfiy tarkibini erkin tanish va ularni tovush nutqiga aylantirish qobiliyati mustahkamlanadi. Dastlab fonemalarning qisqartirilgan sistemasiga mos ravishda yaqinlashtirilgan ovoz chiqarishga yoʻl qoʻyiladi. Ikkinchi sinfdan boshlab esa mavjud barcha harflar va ularning soʻz birikmalaridagi talaffuzini aniqlash boʻyicha ish olib boriladi. Oʻquvchilar oʻqish vaqtida nafaslarini yoʻlga solish, pauza va tinish belgilarini soʻz va mantiqiy urgʻularga, orfo-epik normalarga, ifodali oʻqishning baʼzi elementlariga rioya qilishga oʻrgatiladilar. Nutqni qabul qilish sharoitlarida maʼlum bir tempda ovoz chiqarib oʻqishni shakllantirishga dastur talabi asosida amalga oshiriladi. Birinchi sinfdan oʻquvchilar bir minut davomida 20 tadan koʻproq soʻz oʻqishlari mumkin, bu koʻrsatkich ikkinchi sinfdan 30 tani, uchinchi sinfdan 50 tani tashkil qiladi. Toʻrtinchi sinfdan oʻqish tempi minutiga 60 taga yaqinlashadi. Kichik sinflarda oʻqilgan material haqida fikr yuritishga yoʻnaltirilgan bilimlar doirasi shakllantirildi. Bu bilimlar doirasiga oʻqilgan narsalarga tayyor rasmlar va oʻzlari chizgan rasmlar bilan ilyustatsiya tayyorlash, oʻqilganlarni ogʻzaki aytib borish ham kiradi. I-II sinflarda oʻqituvchi yordamida, III-sinfdan esa mustaqil ravishda rasm asosida rejalar tuzishadi. Tuzilgan rejalar boʻyicha oʻquvchilar oʻqiganlari haqida gapirib berishadi. III-sinfdan esa oʻqituvchi yordamida batafsil, qisqacha, tanlab gapirib borish mahoratini egallashadi. IV – sinfdan asar qahramonlari nomlari va voqea vaqtini oʻzgartirib

⁷¹ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -101 p.

gapirib borish formasi ham ko‘zda tutiladi. Birinchi sinfdayoq o‘quvchilar matndagi illyustratsiyalarni ko‘rib chiqish natijasida, matn mazmuniga tegishli savollarga javob berishga (Kim va nima haqida o‘qingiz?) javobdagi voqealarni jamlash (Bolalar hovlida nima qilishdi?), sodir bo‘lgan hodisalar sababini ko‘rsatishga (Qizcha nega yig‘ladi?) o‘rganadilar. Ikkinchi sinfda bolalar javoblarning qisqa va to‘liq formalarini o‘zlashtirishadi. Savolga javob berishda, tanlab o‘qish usulini egallaydilar. Uchinchi sinfga kilganda tushunishganlarini o‘qituvchi yoki o‘rtoqlariga berilgan savol yordamida aniqlashni o‘rganishadi. O‘quvchilar asarda qatnashgan kishilarning xatti – harakati, xulq – atvoriga baho berish, tushuntirish, ularga xarakteristka berish uchun asardan (o‘qituvchi yordamida) so‘z va iboralar topish bilimni egallashadi. V-VI sinf o‘quvchilari, o‘zlaridan kichik o‘rtoqlaridan bilishga bo‘lgan qiziqishlarini o‘sganligi, yangi ko‘rinishdagi faoliyatlari, ancha keng bo‘lgan nutqiy va fikriy imkoniyatlari bilan farqlanib (ajralib) turadilar.

Bu sinflarda to‘g‘ri o‘qishga o‘rgatish mustahkamlanadi va takomillashtiriladi. Bunda ovoz talaffuzini korrreksiyasiga doimiy e‘tibor beriladi. Ifodali o‘qish elementlari (intonotsiya, mantiqiy urg‘u, temp) ustida olib borilayotgan ish davom ettiriladi. Ovoz chiqarmasdan (ichida) o‘qish tezligini oshirishga e‘tibor beriladi, chunki o‘qishning bu turi kitob bilan bo‘lgan muloqotning asosiy ko‘rinishi hisoblanadi. Avvalgidek, ongli ravishda mustaqil kitob o‘qishni rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qoladi. Chunki o‘quvchilarning ongli mustaqil o‘qish bo‘yicha malakalari, yanada kengroq va murakkabroq materialni tushunish uchun yetarli bo‘lmaydi. Bu sinflardagi o‘qish darslari, mustaqil o‘qish predmetlari birinchi navbatda adabiyotni o‘rganishga bo‘lgan propedevtik yo‘nalish ko‘rinishini oladi. O‘qish yozuvchilar va ularning asarlari haqidagi bilim doirasini kengaytiradi, badiiy asar janrlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi. O‘rta sinflarda badiiy adabiyot asarlaridan berilgan parchalar salmog‘li o‘rin egallaydi. Ongli tarzda o‘qishni rivojlantirish o‘quvchilarda oldingi sinflarda olingan bilimlarni mustahkamlash va yangi dastur talablarini amalga oshirish yo‘li bilan olib boriladi.

Beshinchi sinfda o‘quvchilardan hikoyani mustaqil o‘qish, gapirib berish, turli formalarda plan tuzish, bosh qahramonlarni ajratib ko‘rsatish, ularni tashqi ko‘rinishini tasvirlab berishi harakatlarini baholash, matnni turli formalarda gapirib berish, o‘qilgan hikoya mavzusini anglash kabi ishlarni bilish talab qilinadi. Oltinchi sinfda umumlashtiruvchi savollarga javob berish, muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarni ajratib ko‘rsatish, matnni oldindan tahlil qilmay asar mazmunini ochib berish orqali avval egallangan bilim va ko‘nikmalar ustidagi ishlar davom ettiriladi. Mavzuni aniqlash va janrni farqlash asarning asosiy g‘oyasini talqin qilish, asar qahramonlariga elementar tasnif berish kabi yangi bilimlar shakllantiriladi.

O‘qishga bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashning xususiyatlari. O‘qish murakkab analitik – sintetik jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga ko‘z bilan ko‘rish va harf belgilarini tanish hamda ularni nutqning tovushli qatoriga o‘tkazish va o‘qilgan so‘z, gap, matnni tafakkur qilishni o‘z ichiga oladi. O‘qish protsessini o‘quvchilar asta-sekin egallaydilar, avval analitik (bo‘g‘inlab o‘qish), so‘ngra sintetik (butun so‘zlar) va nihoyat avtomatik o‘qishni o‘rganadilar.

O‘qish malakasini egallashni o‘ziga xosligi. Zaif eshituvchi bolalarning to‘liq

o'qish malakasi eshituvchi bolalarga nisbatan uzoqroq va qiyinroq shakllanadi. Bu ularning og'zaki nutqi va eshitish qobiliyatiga o'zaro bog'liqdir. Tilni o'zlashtirish fikr yuritish qobiliyatiga, bilim va sotsial-moslanishga bog'liqdir. Tilni o'zlashtirish – samarali o'qish qobiliyati uchun shartdir. Eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqiy muloqotga maxsus pedagogik jarayonda maxsus dastur asosida uzoq vaqt davomida amalga oshiriladi. O'qish texnikasini shakllantirishda (to'g'riligi, tez va ifodali o'qish) va o'qiganini anglashda talaffuz, og'zaki va yozma nutqni o'zlashtirish, lug'at boyligi va grammatik tuzilish katta o'rinni egallaydi. Eshitishda nuqsoni bor bolalarni o'qitish texnikasi tovushlarni talaffuz qilish, nafas mashqlari, tovushni tiklash, urg'u, nuqta, vergulda to'xtab o'qish malakasini rivojlantirish bilan parallel olib boriladi. Tovush talaffuzi bilan qayta ishlash saqlanib qolgan analizator asosida olib boriladi va asta-sekinlik bilan o'qish malakasi shakllantiriladi (F.F.Rau va N.F.Slezina). Shunga mos ravishda to'g'ri, tez va ifodali o'qish ishlari bajariladi. To'g'ri o'qish malakasida nafaqat kichik sinflarda balki o'rta sinflarda ham qo'yidagi xatolarga yo'l qo'yiladi:

- So'z obrazidagi tovushni noto'g'ri talaffuz qilish (g, s, j, ch, sh) tovush so'zlari o'rtasida noto'g'ri talaffuz qilinadi, so'z oxirida tushurilib qoldiriladi;
- Tanish so'zlarda urg'uni noto'g'ri qo'yish;
- Orfoepik qonunlarga amal qilmaslik, bu qonun o'quvchilarga tanish bo'lsa ham undoshlarni o'rnini almashtirish, so'z oxirida undoshlarni noto'g'ri talaffuz qilish.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar analitik o'qishda tutilib o'qiganliklari, sababli so'z birligi va so'zlarni qo'shib o'qishda xatoga yo'l qo'yadilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'qish tempi eshitishi normadagi bolalarga nisbatan sekinroq bo'lsa ham, ular o'qish amaliyotida o'qigan matnini tezroq anglab yetadi. Ulardan nutqining yo'qligi tez o'qish ko'nikmalari shakllanishiga xalaqit beradi. N.G. Morozova, A.F.Potilskaya, S.A.Zikovlarni psixologik-pedagogik tajribalari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni nafaqat g'oyaviy-tematik mazmunini tushunib yetishda balki matnning syujetik-voqeaviy tomonlarini tushunishidagi qiyinchiliklarini ko'rsatib o'tadi. Predmetlarni to'g'ri ma'noda ifoda qiluvchi notanish so'zlar (xona, ombor, guldasta), predmetdan ma'nosi bildiruvchi so'zlar (qizg'anchiq, dangasa, namunali), yangi grammatik formadagi so'zlar (Yulduzning uyi – Yulduzga berdim, qatorma qator - joylashgan).

Firklash tushunchasida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlardan ma'noviy va grammatik birligini ajrata olmaganliklari sababli qiyinchiliklarga duch keladilar. Qurilish maydoni, sumalaklar yig'lamoqda, qalin o'rmon, yaxshi fazilat, daryo muz bilan qoplanishi, yozgi ob-havo singari so'z birikmalari ular uchun tushunarsizdir. So'z birikmalarida ma'nosi yaxshi anglab yetilmaganligi sababli ular ba'zi fakt va tushunchalarni anglab yetmaydilar, matn ma'nosini to'liq o'zlashtira olmaydilar. Umumiy tarixiy xarakterga ega bo'lgan matnlarni eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'zlashtirishida ularning ko'rgazmali hissiyoti yetishmaganligi sababli qiyinchiliklar vujudga keladi. O'qiyotgan matnни anglab yetmaslikda matnning janri va formasi ta'sir qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun she'riy matnни

o‘zlashtirish, xalq og‘zaki ijodi matnini o‘zlashtirish qiyinroq. Masal, xalq og‘zaki va asarlari, maqollar, sehrli ertaklar, topishmoqlarni eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda tushunishda qiyinchiliklarga vujudga keladi. Yuqoridagi faktlarga asoslanib eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qigan narsalarini to‘liq o‘zlashtira olmasligini keltirib chiqadi.

Matnni asosiy mazmuni, kaxramonlar va ularni xarakteri, voqealar tasviri eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bayon qilingan voqealar tushunarsiz bo‘lib qoladi. O‘qigan matnlarni ma’nosini gapirishda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘zlarining hayotiy-ruhiy tajribalariga tayanadilar. Axloqiy mavhum tushunchalarni shakllanmaganligi, ularning axloqiy so‘z ko‘nikmalarining kamligida ham ko‘rinib turadi. Shaxsning sifatini ifodalovchi terminlarni eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar anglay olmaydilar. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning nutqini rivojlanmaganligi va nuqsonlari ularni psixologik va anglash faoliyatida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Matnning ma’nosini to‘liq tushunish fakt va voqealarning bayoni qaxramonlarni xulqi atvorini to‘liq bayon eta bilishi eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning matnini to‘liq o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi. O‘qilgan matnlarni yaxshi o‘zlashtirish uchun matnni to‘g‘ri va anglab o‘qilish katta ahamiyatga ega. Matnni o‘qish shakli (temp, ritm, urg‘u, ohang) ma’nosini tushunishda yordam beradi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘qish tempini pastligi, ma’noviy to‘xtalish, nutqiy intonatsiyani ishlata olmasligi ular o‘qishidan qoniqish hosil qilinganda ham tipik xatolarni uchratish mumkin. Ularni tovushi past va sekin yoki xaddan tashqari baland, so‘zlar talaffuzi noaniq bo‘ladi. O‘qish darslarida matn ustida ishlashda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qish jarayonida ko‘proq maxsus sifatlarni egallashni talab qiladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning o‘qiganini anlab yetishi, o‘qish darsining vazifasi va maqsadi to‘liq bajarilishini ko‘rsatadi.

I .2-§. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qishga o‘rgatishga zamonaviy yondoshish

1938 yildagi eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktablarida “Sar og‘zaki metod”ning olib tashlanishi o‘qish metodikasining rivojlanishida ikki xil yo‘nalishni tashkil qildi. Birinchisi (1940-1960 yillar) sintetik metod – qismlardan butunga o‘tish asarning mazmunini ustida ishlash, so‘zlarning mazmunini tushunish, so‘z birikmalari, matnlarni tushunishga yordam beradi. Bu metodlar A.F. Pongilskaya ishlarida to‘liq yoritilgan. Lug‘at boyligini chegaralanganligi, frazeologiyani qashshoqligi, so‘zlarni o‘zaro yaxshi bog‘lay olmaslik o‘qilgan matnlarni mazmunini so‘zlarini yaxshi tushunmaslikda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qishda katta qiyinchiliklarga duch keltiradi. Bu so‘zlarni mazmunini tushuntirishi ustida ko‘proq ishlashga olib keldi. Bu o‘qitish metodikasi, o‘qilganni mazmunini o‘zlashtirishga, matnning asosiy elementlarini (lug‘at, fakt, voqea, obrazlar, voqeaviy bog‘lanish) butun asarni o‘zlashtirishda katta qiyinchiliklarni vujudga keltirdi.

1970-1980 yillarda eshitishda nuqsoni bo‘lgan maktablarida o‘qish metodikasiga katta o‘zgartirishlar kiritildi. Surdopedagogikaning tilni o‘qitishda qabul qilingan kommunikativ tizimi va undan so‘ng o‘quv-tarbiyaviy ishlarida

didaktik tamoyilini qabul qilinishi bolalarning faoliyatini rivojlantirishga katta ta'sir qildi. Bolaning fikrlash doirasi kengayishi, dialogik va o'zaro bog'lanish nutqini o'sishi, lug'at boyligi o'sib o'qilgan matnlarni o'zlashtirishga yordam bermoqda.

Predmet-amaliy ta'lim darslari matnlarni o'zaro bog'lab o'qitilishga yordam bermoqda. O'quvchilarning ko'z o'ngida bu darslarda matnlar mazmuni (Biron predmetni yasash) ularning asosiy qismlarini (so'z, gap) amaliy faoliyatni tashkil qilish orqali predmetlarni xarakatlari orqali tashkil qilinadi. Bu usul o'qish darslarida matnni o'zlashtirishda bo'lgan yondoshishni o'zgartirdi. Ko'rsatilgan sharoitlarda bo'laklardan butun matnga emas, butun matndan uning tarkibiy bo'laklariga o'tiladi.

O'qilgan matnni mazmunini tushunish impressiv nutq bazasida qurilgan bo'lib, u ekspressiv bazaga nisbatan kengroqdir. Bu nutqning asosini tashkil qiladi. Yuqorida qayd qilingan holatlar o'qish metodikasining asosini tashkil qiladi. Ongli ravishda tushunib o'qitishda sintaktik o'rniga anolitik-sintetik o'qish maydoniga keladi. Bunda bolalar matn mazmuni bilan to'liq tanishib, ularni sxematik rasmlarda ifoda etadilar. So'ngra ularni qismlar bo'yicha o'qilganni tushunish va ayniqsa butun matnni fikrlashga hamda analiz qilishga olib keladi. Quyi sinflarda o'qilgan matnni tushunishda amaliy-predmet faoliyatlari katta o'rin egallaydi, u o'qilganni o'zlashtirishda samarali metod hisoblanadi.

S.A.Zikov, T.V. Nesterovich, L.A.Novoselova, T.S. Zinovalar amaliy- predmet sharoitida o'qitish metod va usullarida ishlab chiqishda katta hissa qushdilar. Hozirgi davrda eshitishda nuqsoni bo'lgan maktablarida o'qish darslarida o'quv-tarbiyaviy protsessni shakllantirishda katta ishlar olib borilmoqda. Kitob bilan ishlash, ongli ravishda tushunib o'qish, o'qilganni o'zlashtira bilish, bolalarning matn bilan ishlash harakterini o'zgarishda katta ahamiyat kashf etdi. O'qish darslarida qo'llaniladigan usullar uch guruhga tasniflanadi.

Reproduktiv – butun o'qish, zanjir bo'lib o'qish, o'qilganlar yuzasidan suxbat, lug'atni tushuntirish, illyustrativ materialni ko'rish, to'liq so'zlab berish, o'qituvchi tomonidan so'zlab berish, diafilm yoki film ko'rish, evristik yoki qisman qidirish metodidir. Ifodali yoki tanlab o'qish, umumiy suhbat, plan tuzish, tanlab gapirib berish, leksik-grammatik vazifali, ijodiy materialni tizimli topshirig'i, ilmostratsiya, aplekatsiya maket, nutqiy rasm, matn asosida o'rtog'iga savol berish, matnlarni solishtirish, leksik mashqlar eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatishda qo'llaniladi. Ijodiy metod – xikoyani davomi, personaj taqdirini ifodalash, xikoyaga yangi nom berish, topshiriqlar ustida ishlash, o'qilganga baho berish, mustaqil baholashni ko'zda tutadi.

O'quvchilarni matn ustida mustaqil ishlashda yuqorida ko'rsatilgan metodlar aktivlik va mustaqilligini oshiradi. Reprodukativ topshiriqlar yonida evristik va ijodiy rejadagi mashqlar soni oshib boradi. Bular eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning aqliy va nutqiy faolligini oshirib, o'qilganni to'liq tushunish, o'qish texnikasini, o'zlari o'qilganni gapirib bera olishlariga yordam beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida o'quv-tarbiyaviy ish jarayonida quyidagicha xarakterga ega: o'quv darslarini rolini oshirishda umumta'limiy, tarbiyaviy, korreksial rivojlantirish masalalarini bog'lanishni kuchaytirish, ularning sotsial-axloqiy yo'nalishini, lug'at boyligini boyitishda nutqiy muloqotni rivojlantirish nutqiy frazeologiya va

bogʻlangan nutqiy bilimlarni oshirishda vosita sifatida foydalaniladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarning oʻqiganini mazmunini tushunish va qabul qilish bilan cheklanmay, balki nutqiy va tushunish faoliyatini oshirish masalalari oʻrin egallagan. Bular reproduktiv metodlardan evristik metodlarni elementlariga evristik metodlarga reproduktiv va ijodiy elementlarga, oʻqish darslarida PAT faoliyatlarini ishlatish orqali erishiladi.

Oʻqish va nutqni rivojlantirishni shakllantirishda turli reproduksiyalar oʻqitishni kuchaytirish, kashfiyot va ijodiy topshiriqlarni oʻzlashtirish matnlarni tushunishda katta oʻrin tutadi. Oʻqish darslarida ogʻzaki nutqni barcha etaplarini rivojlantirishda ularni leksik, grammatik va sintaksis tomonlarini oʻzlashtirish kiritilgan. Matnni har bir etapi ustida ishlash masalasi, oʻqilgan materialni spesifikasini hisobga olgan holda tuzish koʻzda tutiladi. Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalar maktablarida oʻqish darslari maxsus yozilgan kitoblar asosida olib boriladi. Matnlar tematik gʻoyalar asosida boʻlib, ular oʻqitish bosqichiga asoslanib, kichik va katta darajada boʻlib, oʻquvchilarning nutqi hisobga olingan holda tuziladi.

Matnlarni tematikasi kengaytirish, sinfdan-sinfga berilgan tavsiyanomalar murakkablashib boradi va oʻquvchilarning oʻqish qobiliyati, mustaqil darslarni oʻqitilishiga bevosita bogʻlanadi. I-IV sinflar darsliklarda berilgan matnlar ancha soddalashtirilgan. V-VI sinflarda berilgan matnlar hajm jihatdan kengaytirilgan, mazmunini murakkablashgan, ularda badiiy asarlardan lavhalar ishlatilgan. Oʻqish kitoblarida badiiy adabiyotlar qatorida ilmiy-ommabop adabiyotlardan matnlar olingan. Asarlarning mazmuni turlicha koʻrinishda boʻladi. Badiiy adabiyotlar hayotida hayot obrazlar orqali ifodalanib, uni markazida insonlar tabiat va jamiyat bilan bogʻlangan holda ifodalanadi. Shuningdek badiiy adabiyotlarda haqiqiy mazmun bilan birgalikda oʻylab topilgan xarakter va mazmunlar boʻladi. Badiiy adabiyot kitoblarda sheʼriy, masal, ertak, hikoya, topishmoq va maqollar asosida koʻrsatiladi. Ilmiy-ommabop adabiyotlarda matnlarida obrazlar boʻlmay, ular avtorni fikrini ketma-ketlik bilan toʻgʻridan-toʻgʻri ifoda qiladilar. Shuning uchun oʻqish darslarida oʻquvchilarga berilgan bilimning chuqurligi matn mazmuni va turiga bogʻliqdir. Materiallarni mazmuni va formasi matnlarni tahlilida hisobga olinadi. Oʻqish darslarida kichik adabiy asarlar matnni oʻzlashtirish orqali ularni mazmunini toʻliq tushunish, kaxramonlar, ularning xarakteri, qiliqlariga nisbatan qiziqish uygʻota bilish, ilmiy – ommabop asarlarni oʻqib real hayotga toʻgʻri tushuncha hosil qilish koʻzda tutiladi.

I .3-§. Maxsus maktabda oʻqish darslarida ishni asosiy yoʻnalishlari

Oʻqish darslarida uchta asosiy yoʻnalishni koʻrsatish mumkin. Bu oʻqish texnikasi, mazmun ustida ishlash, lugʻat ishlari.

Oʻqish texnikasini oʻrganish. Oʻqish darslarida, oʻqitish koʻnikmalarini shakllantirishda, matnlar ustida turli xil ish jarayonlari olib borishda oʻqish texnikasidan foydalaniladi. Oʻqishni oʻrgatishning har qanday metodi sifatli boʻlishni talab etadi. Toʻgʻri oʻqish va uni rivojlantirish uchun koʻproq turli xil mashqlar va ovozini chiqarib oʻqishni qoʻllash katta ahamiyatga ega. Bu narsalar oʻquvchilarni

talaffuz nutqini (tovush, nafas, orfoepik normalar) soʻzlarini tovush strukturalari egallash uchun talab etiladi. Toʻgʻri oʻqish – bu xarf va tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilib, boʻgʻinlarni tushurib qoldirmasdan, boʻgʻinlarni soʻzlarda oʻrnini almashtirmay, tushurib qoldirmay, nafas olish qoidasini buzmay, soʻzlardagi urgʻu, pauza, orfoepik normalarga javob bergan holda oʻqishdir. Eng avvalo nafasni toʻgʻri olish, boʻgʻin va soʻzlarni bir nafasda oʻqishga katta axamiyat talab etadi. Kuzatishlar shuni koʻrsatdiki, eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarni toʻgʻri oʻqishida yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar turlichadir. Bu tovushlarni notoʻgʻri qoʻyilishi, soʻzlarning artikulyatsiyani notoʻgʻriligi, yozilishida oʻxshash xarflarni farqlay olmaslik, orfoepik qoidalarga rioya qilmaslikdir. Eng asosiy sabab eshitish analizatorining yoʻqligidir. Toʻgʻri oʻqish uchun matnning turli etaplarida turli xil mashqlarni amalga oshirish talab etiladi. Tovushni oʻqituvchi nazorati ostida baland ovozda oʻqish, xatolarini oʻz vaqtida koʻrsatish va toʻgʻrilash samarasi kattadir. Buning uchun quyidagi talablarni bajarish zarur:

1. (Matnni oʻqishdan oldin) Yangi xarf va soʻzlarning, soʻz birikmalarini analiz qilish va maʼnosini tushuna bilish. Soʻz va soʻz birikmalari orfoepik belgi va urgʻulari qoʻyilgan holda doska yoki kartochkalarga yoziladi. Ular avval oʻqituvchi bilan soʻngra mustaqil oʻqitiladi (ya – sa – moq, yasa – moq, yasamoq, da – nak, danak). Soʻzlarni qoʻshimchalari bilan qoʻshib oʻqishga ham axamiyat berish kerak.

2. Oʻqituvchining namunasi asosida matnni ovozni chiqarib oʻqish.

3. Oʻqituvchi boshchiligida yangi soʻz va soʻz birikmalarini bir necha marotaba mashq qilib ovozni chiqarib oʻqish. Bunda (bugʻinlarga boʻlib oʻqish, tanlab va rollar asosida oʻqish) yaxshi natija beradi. Nafaqat oʻqish darslarida balki, biron boshqa darslarda matnlarni oʻqishda ovozini chiqarib oʻqish maqsadga muvofiqdir.

4. Oʻquvchilarni oʻqish sifatini kollektiv boʻlib muhokama qilish. Oʻquvchilar eshitish va koʻrish orqali oʻrtogʻining oʻqiganini qabul qiladilar va oʻz fikrlarni bildiradilar va baholaydilar.

5. Oʻqishda xatolarni oʻz vaqtida toʻgʻrilash. Nafas, tovush, tovush talaffuzi notoʻgʻriligi, oʻz vaqtida soʻz va matnlarni oʻqish jarayonida toʻgʻrilab borish. Soʻngra oʻquvchi oʻqilgan materialni oʻqituvchi yordami toʻgʻrilab boradi. Talaffuzdagi xatolar ustida darsdan soʻng ham ishlash kerak.

6. Doskaga yozilgan katta boʻlmagan matnlarni avval maʼnosini tushunib ovoz chiqarib oʻqish, soʻngra oʻqituvchi talabi va nazorati ostida ovoz chiqarib oʻqiladi. Oʻqituvchining topshirigʻi asosida oʻqish, oʻquvchilarning moyilligi asosida oʻqish.

7. Rasm, maket, applikasiya asosida ayrim soʻzlarni va matnlarni boʻlaklarini ovozni chiqarib oʻqish.

Tez oʻqishni yaxshi yoʻlga qoʻyish – toʻgʻri oʻqishga olib keladi. Tez oʻqish – bu temp asosida oʻqish, bir minutda talaffuz etilgan soʻzlarning soni bilan harakterlanadi. Tez oʻqishni toʻgʻri va tushunib oʻqilgan holda ajratilib baholab boʻlmaydi. Oʻquvchilarda mexanik holda oʻqish jarayoni boʻlmasligi uchun ularni oʻqiganlarni mazmunini tushunganliklarini tekshirib turish kerak. Temp avval sekin

o'qishdan boshlanadi. U asta o'quvchilarni ovozini chiqarib o'qish va mazmunini tushuna bilish orqali ham bajariladi. O'qish jarayonini sifatli bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilinishi kerak:

1. Dars davrida ovozni chiqarib o'qishga ko'proq vaqt sarf qilinadi, so'ngra sekinlik bilan ichida o'qishga o'rgatiladi. Ma'lum vaqt davomida o'qitishga o'rgatish. Bu bir so'zni o'qish, matn bo'lagini savol va javob asosida o'qish, matndagi qiyin joylarini takrorlab o'qish, o'qituvchining tempni o'zgartirib bergan (sekin, mayin, tez) holda xor bo'lib o'qish.

2. Matnda uchraydigan so'z va so'z birikmalarini talaffuzi ustida ishlash. Tez o'qish – o'quvchilar matn mazmunini tushunishi va o'qish tempiga ham ahamiyatga ega.

Ifodali o'qish. – Grammatik va logik pauzalarga, logik urg'uga, tempiga, ritmini o'zgarishiga etibor o'qishdir. Bunda albatta aniq, ravon va tabiiy o'qishni, malakasini shakllantirish talab qilinadi. Boshlang'ich sinflarda ifodali o'qish talablari bir muncha soddadir. Bular darak, undov va so'roq gaplarni o'qishdir. Ular nuqta, vergul asosida so'zlarning logik ma'nosida to'xtalib o'qishlari mumkin. Ulardan aniq talaffuzni, tovushlarni, boshida o'qitishda o'zgarishini, orfoepik normalarni saqlashni talab qilish mumkin. To'g'ri o'qish – ifodali o'qishning asosiy shartidir. Ifodali o'qishga nafasni to'g'ri olish, qaerda va qachon pauza qilish, qaysi so'zni ajratib o'qish mashqlarini ko'proq bajarish orqali erishish mumkin. Bularni hammasi o'qituvchi boshchiligida olib boriladi. Talaffuz ustida ishlashda matnni mazmunini muhokama qilish, sahifalastirish va o'quvchilar rollarni o'zlari bajarishlari ham natija beradi. Talaffuzni to'g'ri amalga oshirishda surdopedagog matn mazmunini, vaqealarni, ishtirokchilarni xarakterini muhokama qilish orqali ifodali o'qish shartlariga erisha oladi. Ifodali o'qishning quyidagi shartlari mavjud:

1. O'qishni turli vazifalar orqali bajarish (Ovozini past, baland qilib, tez, sekin o'qish);

2. Maxsus yodlash uchun berilgan (she'r, masal, topishmoq, maqollar) matnlarni ovozini chiqarib, mazmunini tushuntirib o'qish;

3. O'qituvchiga taqlid qilib, matn va so'zlarning ma'nosini tushuna bilish;

4. Ovozini chiqarib, orfoepik belgi va urg'ular qo'yilgan kichik asarlarni yoddan bir necha marotaba takrorlab o'qish.

Ifodali o'qish o'quvchilarning jamoa va mustaqil o'zi bajargan vazifalari, matn mazmuni tushungan holda, keng qamrovli amaliy o'qish mashg'ulotlari orqali bajariladi. O'quvchilarni o'qish texnikasini egallash so'z ma'nosini, o'qilganni tushunishga bog'liq. O'quvchi qanchalik o'qigan matnini mazmunni tushunsa, matnni yoddan mag'zini chaqmay o'qimasa shunchalik o'zlashtirish yaxshi natija beradi. Tushunib o'qishda o'quvchilar matnning voqeaviy – syujetini, ishtirokchilarning obrazlarini, matnini tili va mazmunini chuqur o'zlashtira olishlari kerak. O'qilgan matnning mazmunini tushunish va uni qabul qilish matn to'la o'zlashtirishda ahamiyatga ega.

Matn mazmuni ustida ishlash. Bu o'qish darslaridagi ikkinchi asosiy boshqaruvchi yo'nalishdir. O'qilganni mazmunini to'liq o'zlashtirishda didaktikadan

ma'lum bo'lishicha uchta o'zaro bog'liq bo'lgan bilimni shartli yo'nalishidan iborat. Bular qabul qilish, tushunish, yodlash, o'qiganni umumlashtirish va tizimlashtirish. O'quv-tarbiyaviy jarayonni o'zlashtirish bosqichida vazifalari uch etapdan iborat. Eng avvalo badiiy adabiyot o'qish, so'ngra o'qilganni analiz va sintez qilish jarayonidir. Har bir etap o'z vazifalarini bajaradi. Asarga qiziqish uyg'otish, mazmunini to'liq o'zlashtirish, mazmuni faktlar asosida o'zlashtirish **birinchi etapdir**. **Ikkinchi etap** – maqsadning aniqligi va o'qilgan matnning mazmunini konkretligi va chuqurligidir. Bu etapning yutug'i voqealarning ketma-ketligi erishish, til mazmuni ifodasi, voqealarning uzviy bog'liqligi, syujetning rivojlanishi, ularning xulqi-atvori, o'quvchilarning yozilganga munosabatlari orqali erishiladi. **Uchinchi etapda** – o'qiganini umumlashtirish, g'oyaviy yo'nalishini umumlashtirish, (badiiy asarlarda), bilim sistemasi (ilmiy – ommabop matnlarda) ikkilamchi sintez umumlashtirish orqali bajariladi. Uchinchi etapni asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: asar mazmunni asosiy maqsadini aniqlash, ishtirokchilarga baho va xarakteristika berish, asarning tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash, olingan bilimni o'zlashtirilgani bilan solishtirish o'qiganni mazmunini tushuna olish. O'qilgan materiallarni tushunishda matn ustida ishlash, ko'rsatilgan etapdagi tushunchalarni ma'nosini tushuntirishda maxsus tayyorgarlik, yakuniy mashg'ulotlarni o'tkazish o'qilgan asarlarning umumlashtirish mashqlari amalga oshiriladi. O'qilgan matnlarni qiyinligi va katta – kichikligiga qarab maxsus mashqlar belgilanadi. Darsning har bir bosqichi matnni o'zlashtirishda aniq ish turlari, bolalarning o'qituvchi bilan muloqoti, o'qitishning turli xil metodlari, o'quvchi mustaqil ish faoliyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Matn ustida ishlashda, matn bilan tanishish, matn tahlili, umumlashtirish darslari muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnni so'zlab berish. Bu uslub bolalardagi matnni o'zlashtirishi va mustahkamlashini tekshirishdagi eng yaxshi tekshirish uslubi, hamda nutqni o'zlashtirishi bo'yicha yana bitta ish turidir. O'qish darslarida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar dastur talabiga asosan so'zlab berishni turli formalaridan o'zlashtiradilar: to'liq, qisqa, ijodiy. To'liq va qisqa so'zlashuv hajmi bo'yicha farqlanadi. Ikkalasi ham matnga yaqin o'z so'zlari asosida bo'lishi mumkin. Ijodiy so'zlab berish ancha murakkab variant bo'lib, matni qayta ishlash, gapirib beruvchini shaxsini o'zgartirish, ish xarakatini vaqtini o'zgartirish, matnni to'ldirish, matni to'liq emas, balki tanlab qismlarini gapirib berishni ko'zda tutadi. Amaliyotda o'quvchilarni ko'proq matnga yaqin qilib so'zlab berishadi. Bu esa eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ko'proq yodlab olishga undaydi, bunday hollarda o'quvchilar fikr yuritmaydilar. So'zlab berish bu usulda juda zerikarli bo'ladi. So'zlab berishning har bir usuliga o'quvchilarni o'rgatish kerak. So'zlab berishning birinchi usuli – matnga yaqin rasmlar, aplikatsiyalar, asosidadir. Buning uchun aniq syujet asosida matnlar tanlab olinadi. O'qitish birinchi sinfdan boshlanadi va so'zlab berish uchun matndan tayyor namunalar olinadi. Ular vazifani "Ko'rsat va gapirib ber" ko'rsatmasi asosida bajaradilar.

Nutq asosida so'zlashda o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan leksik materiallardan foydalanib qolmasdan, balki yangi so'zlarni ishlatishi orqali o'qiganni so'zlab berishi va nutqiy lug'atini boyitib borishi kerak. Yangi so'zlar doskaga

yoziqib, so‘zlab berishda qo‘llaniladi. So‘zlash jarayonini yanada faollashtirish uchun o‘quvchilarga kitobdan foydalanishga ruxsat beriladi va iborani boshqacha qilib so‘zlab topshirishga beriladi. Masalan, “Qish boshlandi. Qor qalin yog‘di”. Bu iborani o‘quvchilar “Qish keldi, juda ko‘p qor yog‘di” deb o‘zgartirishlari mumkin. Uchinchi sinfda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘qiganini qisqa qilib gapirib berishlari kerak. Qisqa qilib gapirishda o‘quvchilar matnga lug‘atli rasm planini tuzishi, matnni qismlarga bo‘lib gapirib berishi osonlashtiriladi. Har bir bo‘lak ikkita-uchta gap bilan to‘ldiriladi va natijada qisqa qilib gapirib beradi. Bo‘laklarni to‘ldirish hikoya qilish o‘qituvchining savollaridan foydalaniladi. Qisqa qilib so‘zlab berishdan to‘liq so‘zlashga o‘tiladi. Buning uchun kollektiv bo‘lib qismlar tuziladi va yozib boriladi. So‘ngra o‘quvchilarga bo‘laklardagi asosiy ma‘noni anglab so‘zlab berish topshiriladi. O‘qituvchi yordami asosida har bir qismini qisqa qilib gapirib beriladi va yozib boriladi. Qisqa qilib so‘zlab berish eng asosiy ma‘noni so‘zlash ekanligi o‘quvchilarga yetkaziladi.

Ijodiy so‘zlab berishda so‘zlashuvchini, shaxsni harakat vaqtini o‘zgartirish eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda ancha qiyinchiliklar tug‘diradi, chunki ulardan nafaqat tasavvur, balki grammatik va stilistik jihatdan gapirish to‘g‘ri suhbat talab qilinadi. Bunday so‘zlashuv ancha tayyorgarlikni talab qiladi: ifodalangan voqealarni tahlil qilish, ishtirokchilar haqida aniq tushunchaga ega bo‘lish ko‘zda tutiladi. O‘quvchilarga so‘zlashuvni tahliliy namunalarni berish kerak. Ijodiy gapirib berishni yana bir varianti to‘ldiruvchi so‘zlarni ishlatish usulidir. Bu usul IV sinfda qo‘llaniladi, yanada kengroq qilib esa o‘rta sinflarda qo‘llaniladi. So‘zlab berishni ayniqsa ijodiy so‘zlab berishning turlari matnni bir necha bor diqqat bilan o‘qish va ma‘nosini tushunib borishga bog‘liqdir. O‘quvchilarda so‘zlab berishni faollashtirish, bilimni oshirish rejani o‘zgartirib bayon etish (ya‘ni rejani xohlagan nuqtasidan boshlab so‘zlash) ham ijobiy natija beradi.

O‘qiganni umumlashtirish. O‘qigan matnni ustida ishlashdan eng oxirgi bosqichi umumlashtirish, bunda biz o‘quvchilarni bilimni umumlashtirib, g‘oyaviy-tematik yo‘naltirib, g‘oyaviy-estetik, tushunchalarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlar masalasi qo‘yishimiz kerak. Ilmiy ommabop adabiyotning mazmunini o‘zlashtirishda tajribalarga suyangan holda aniq sistemaga olib kelinadi. Bular aniq tushunchalarni boyitib, o‘quvchilarda tabiatga, mehnatga muxabbat, jangovar jasoratlar bilan faxrlanish, ona-Vatanga muxabbat uyg‘otadi. Badiiy adabiyotlarni o‘qish orqali o‘quvchilar ulardagi qaxramonlarning obrazini muhokama qilib, tabiat rasmlarni chuqur o‘rganishi orqali uning ma‘nosini tushuna biladilar.

Obrazlar ustida ishlash matnning turli etaplari ustida ishlash orqali bajariladi. Asar bilan tanishish jarayoni ularga kaxramonlar haqida dastlabki tushunchani beradi. Bu esa noaniq va mavhum tushunchadir. Bu o‘qilganni matnni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Yakunida kaxramonlarga tavsif beriladi.

Kaxramonlarga tavsif berish.. Kaxramonlarga tavsif berish o‘quvchilarda sekin rivojlanadi. O‘qish darslarida ulardan tashqi ko‘rinishlariga baho berish orqali, ular ichki dunyosi va xarakterlarini aniqlaydi, hamda leksik lug‘atlarini boyitib boradilar. Birinchi sinfdan boshlab kaxramonlarning asarda tutgan o‘rni aniq o‘rgana boshlaydilar. Qaxramonlarni asarda tutgan o‘rni degan savollar chuqur mulohaza

qilishga undaydi, (u qanday edi?) degan savolga javob topishga xarakat qiladilar. O'quvchilar qaxramonlarning obrazlariga qarab ularga baho beradilar. O'qish va nutqni o'stirish orqali ular o'zlariga yaqin bo'lgan insonlarga baho berishni o'rganadilar. VI sinf o'qish darslarida yanada qaxramonlarga murakkabroq qilib xarakteristka beradilar. Qaxramonlarga xarakteristka berishda ularni tutgan o'rni tahlil qilinadi: Qachon va qaerda sodir bo'ldi? Nima qildi? Nima uchun? Nega? Savollariga javob izlanadi. Yakuniy darsda asar qaxramoniga umumiy baho beriladi:

1. Asar qaxramonini aniqlang (Askar, o'quvchi, o'g'il bola, ishchi);
2. Qaxramonning tashqi ko'rinishini ko'rsatib bering;
3. Uning jasorati haqida yozing (Nima qildi?);
4. Qaxramonga munosabatingizni ifoda qilib bering.

Asar qaxramonining tashqi ko'rinishi yozilmasada, uning ayrim psixologik tomonlari haqida tushuncha paydo bo'ladi. Umumlashtirishning asosiy metodi – uning ijodiy elementlari orqali bo'ladigan evristik suxbatdir. O'qituvchi yoki kichik o'qituvchi orqali beriladigan savollari (Kim haqida? Nima haqida? Bahor haqida nima bildingiz?) matn qaxramon matnning mazmuni, voqealar bo'yicha aniq javob berishni talab qiladi. Savollarga o'quvchilar matnga murojaat qilish orqali, ayrim epizodlarni o'qib so'zlab berish, ko'rgazmali qurollardan foydalanib qaxramonlarning ayrim xulqi va xarakterlari orqali javob tayyorlaydilar. Yakuniy darsda ayrim asarlarning asosiy g'oyasi aniqlanadi. O'quvchilar o'qigan lirik she'rlarida insonlarning yashagan hayoti emas, balki tabiat, umumiy-siyosiy va sotsial tuyg'ular orqali uyg'ongan xis-hayajonlari ifoda etiladi. Yakuniy darsda matnning asosiy mazmuni aniqlanadi.

Ilmiy-ommabop matnlarni o'qish va yakunlash umumiy savollarga javob berish va co'zlab berish orqali yakunlanadi. Yakuniy darslarni lug'atliy-stilistik mashqlar kiritib, ular o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, lug'at boyligini oshirish (gaplar tuzish, matndan ayrim jummalarni topish, gaplarni to'ldirish) kabi vazifalar kiritiladi. Yakuniy etapda mavzuga oid maqol topishmoqlarni topish va mazmunini aytib berish topshiriladi. Shuning uchun uyga berilgan yozma mashqlar ham o'qilgan matnlarni mustahkamlashda yaxshi natija beradi.

Quyida ixtisoslashtirilgan maktabda o'qish darslarida shu maqsadga yo'naltirilgan bir necha usullarni keltirib o'tamiz.

Esse

Maqsadi:

- Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- Norasmiy fikr va ko'rinishlarni qayd qilish;
- Firknlarni har tomonlama ko'rib chiqilmaguncha saqlab turish ;
- Diqqatini bir joyga jamlay olishga o'rgatish;
- O'z fikrlarini qog'ozga tushira olish malakalarini shakllantirish;

Tarifi:

Esse (fransuzcha tajriba, dastlabki loyiha) shaxsning biror mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri.

Mazmuni:

Bunda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar o'zining mavzu bo'yicha ta'ssurotlari, g'oyasi va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi.

Qo'llanilishi:

Esse yozishda hayolga kelgan dastlabki fikrlarini zudlik bilan qog'ozga tushirish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog'ozdan uzmasdan – to'xtamasdan yozish, so'ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo'lishi e'tirof etilgan. Esseni muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag'ishlab yozish tavsiya etiladi. Ba'zan, ayniqsa tarbiyaviy soatlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda o'zlariga yoqqan mavzu (tushuncha) bo'yicha esse yozdirish ham yaxshi natija beradi.

Namuna:**Do'stlik muqaddas tuyg'u**

Do'stlik- insonning eng muqaddas va bir-biriga, odamlarga bo'lgan ishonchni oshiruvchi omil hisoblanadi. Insonlar do'stlarining ko'p bo'lishi shu insonlarning ham ziynati va ularning olijanobligidan dalolat beradi. Xalqimizda bir naql bor: "Do'stingni kimligini aytsang, men senga kimligingni aytaman." Darhaqiqat, Do'stlik nafaqat yaxshi kunlarda bir-biriga ko'maklashish, balki kulfatda ham birga hamdard bo'lish ham do'stlik tushunchasida o'z aksini topadi. Do'stlik xalq maqollarida, ertaklarida ham keng yoritilgan. Masalan, "Do'st kulfatda bilinar", "Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib", "Do'sting uchun zahar yut" kabilar shular sirasiga kiradi.

Klaster**Maqsad:**

- Mavzu yuzasidan ko'p variantli fikrlashni, o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea) lar o'rtasida aloqa o'rnatish malakalarini rivojlantirish;
- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni erkin va ochiqdan-ochiq fikrlashga o'rgatish;
- Og'zaki nutqini rivojlantirish;
- Yangi fikrlarni uyg'otish va muayyan mavzu bo'yicha yangicha fikr yuritish;
- Esga tushirish va mustahkamlash.

Tarifi:

Klaster - "axborotni yoyish". "Klaster" so'zi g'uncha, bog'lam ma'nosini anglatadi. Klasterlarga ajratish interfaol pedagogik strategiya.

Mazmuni:

Klaster tuzishda guruhdagi barcha eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ishtirok etishi, bu guruhda paydo bo'lgan g'oyalarning o'zagini aniqlashni ta'minlaydi. Metod guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Qo'llanilishi;

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Ular mavzu yuzasidan nimaniki o'ylagan bo'lsalar, shuni qog'ozga yozadilar. Fikrlarining sifati to'g'risida o'ylab o'tirmaydilar, ularni shunchaki yozib boradilar. Beriladigan vaqt tugamaguncha, yozishdan to'htamaydilar, imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ifoda etish va o'zaro aloqadorlikni ko'rsata berishi kerak. Klasterda turli hildagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan, quyosh, bulutlar, xarita, gul, daraxt va hokazolar.

Bosqichda qo'llanilishi;

Klaster tuzishni mashg'ulotni anglash fazasida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu fazada eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi o'quv materialini nafaqat mustaqil va faol o'zlashtirishi, balki o'z tushunishlarini ham kuzatib borishlari hamda klaster tarkibidagi asosiy tushuncha va munosabatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ham aniqlashi zarur bo'ladi

Venn diagrammasi

Maqsadi;

- Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda bilimlarni puxta o'zlashtirishiga erishish;
- Eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda ikki yoki undan ortiq tushunchalarni o'ziga xos va umumiy tomonlarini tahlil qilish va umumlashtirish;
- Og'zaki nutqini rivojlantirish;
- Analiz va sintez, solishtirish va umumlashtirish jarayonlarini rivojlantirish;
- Eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni biror bo'lim yuzasidan baholash;

Mazmuni:

Ushbu strategiya eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hasil qilishga yo'naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakillantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Qo'llanilishi:

Bunda o'ng va chap doiralarga tushunchalarning o'ziga xos jihatlari, doiralarning kesishgan sohasiga esa, ular uchun umumiy bo'lgan jihatlari yoziladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga o'qituvchi doskaga 2 ta aylanani bir-biriga kesishgan xolda chizadi va tushuntiradi. 2 ta aylanaga o'rganilayotgan asardagi ijobiy va salbiy qahramonlarning o'ziga xos xususiyatlarini yozadilar, o'rtasidagi kesishmaga esa o'rganilayotgan asardagi ijobiy va salbiy qahramonlarning o'xshash yoki umumiy xususiyatlarini yozishlari yozadilar.

Bosqichda qo'llanilishi:

Venn diogrammasi tuzishni mashg'ulotni mustahkamlash bosqichida qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi o'quv materialini yanada puxtaroq mustahkamlaydi.

Kubik

Maqsadi:

- Bu usul ko'rilayotgan masalani turli tomondan, qadamba-qadam, oddiydan murakkabga tomon yo'nalishda tasavvur etish;
- Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- Eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilarni faollikka undaydi;
- Tafakkurni operatsiyalarini rivojlantirish;
- Og'zaki nutqini rivojlantirish;
- Idrok etish qobiliyatini rivojlantirish;

Mazmuni:

- mavzu (tushuncha) haqida e'lon qilinadi.
- eshitishda nuqson bo'lgan o'quvchilar yakka tartibda ishlaydilar.

Kubik har bir tomoni uchun topshiriq berilib, 40-60 sekund vaqt ajratiladi.

- yakka tartibda ishlash tugagandan so'ng guruhlarda muhokama qilinadi.
- "kubik" ni har bir mikroguruxdan bir vakil(sardor) taqdimot qiladi.

Qo'llanilishi:

Kubikning har bir tomoni muayyan topshiriqni ifodalaydi:

- bu nima? Ko'rayotgan narsani rangi, o'lchamlari, shaklini tasavvur eting, eslang va yozma ravishda ta'riflang?
- taqqoslang: u nimaga o'xshaydi, nimadan farq qiladi?
- assotsiatsiya. Ta'surotingizni izohlang? U sizni nima to'g'risida o'ylashga majbur qildi? Hayolingizga nima keldi?
- tahlil qiling. Nimalardan tashkil topgan? Nimaga o'xshaydi yoki nimadan farq qiladi?
- qo'llang: bu nimaga yaraydi? Uni qaerda qo'llash mumkin?
- "ha" va "yo'q" larni asoslang. Bunda ishonchli dalillar va asoslovchi fikrlarni ayting.

Bosqichda qo'llanilishi:

O'tilgan mavzuni takrorlash darslarida va mustahkamlash bosqichlarida qo'llaniladi.

Sinkveyn (axborotni yig'ish)

Ta'rifi:

Sinkveyn -fransuzcha besh qatorli o'ziga xos, qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan, turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish - murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni birnechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir.

Maqsadi:

- sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni puxtroq anglashga yordam berish ;
- eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilarning kritik fikrlash qobiliyatini yuqori darajada rivojlantirish;
- eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilarda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish;
- eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish;

Mazmuni:

Besh qator she‘r

1-qator ;Mavzu bitta so‘z bilan bayon etiladi.

2-qator; Mavzu ikkita so‘z bilan bayon etiladi.

3-qator; Mavzu doirasidagi harakatni uchta so‘z bilan bayon etilishi.

4-qator; To‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan va mavzuga munosabatni ko‘rsatib beradigan jumla.

5-qator; Bitta so‘zdan iborat bo‘lgan va mavzuni mag‘zini takrorlayotgan sinonim.

Eslatma;

1-qator – nomlanishi,

2-qator - tavsiflash,

3-qator – harakatlar,

4-qator – his etishi,

5-qator – mohiyatni takrorlanishi

Namuna:

1. Vatan.
2. Ona zamin.
3. Bag‘ringni o‘pib, surtaman ko‘zga.
4. Sajdagohim.
5. Kindik qonim to‘kilgan tuproq.

Qo‘llanilishi:

Strategiyani qo‘llash o‘qituvchi uchun ham o‘quvchi uchun ham qiziqarli. Bu strategiyani qo‘llashimizda eshitishda nuqson bo‘lgan o‘quvchilar o‘z qobliyatlarini ko‘rsatishga xarakat qiladilar.Bu strategiyani boshlang‘ich sinfda ham yuqori sinfda ham qo‘llash mumkin.

Bosqichda qo‘llanilishi:

Bu strategiyani darsning fikrlash bosqichida, takrorlash va mustahkamlash bosqichlarida qo‘llanilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hamma hammaga o'rgatadi metodi

Maqsad: Katta matnni oz vaqt ichida o'rganish va o'quvchilarni juftliklarda ishlashga o'rgatish, bundan tashqari o'quvchilarni aqlini charxlashga yordam beradi.

Mazmuni: Katta matn mayda bo'laklarga bo'linadi va o'quvchilarga tarqatiladi. Bunda o'quvchilar juftlikda ishlashlari kerak bo'ladi. Ya'ni, bitta o'quvchi o'ziga berilgan matnni o'qib, keyin boshqa bolaga borib gapirib beradi.

Qo'llanilishi: O'qituvchi dars o'tishdan oldin katta matnni mayda bo'laklarga bo'ladi va o'quvchilarga tarqatadi. O'quvchi o'ziga berilgan matnni o'qib, keyin boshqa bolaga borib gapirib beradi. Endi eshitgan o'quvchi o'zini o'qigan bo'lagini mazmunini birinchi gapirgan o'quvchiga gapirib berishi zarur. Endi birinchi gapirgan o'quvchi boshqa o'quvchining oldiga borib yana o'zining bo'lagini gapirib beradi va x.k. Agar sinfda 20-25 nafar o'quvchi bo'lsa, u holda matn 20-25 bo'laklarga bo'linadi va barchaga tarqatiladi. Bunda matn bo'laklaridagi mazmuniga ham etibor berish zarur. Masalan, yaxshi o'qiy oladigan o'quvchilarga matnning qiyinrok, kattaroq bo'lagini berish maqsadga muvofiqdir. O'zlashtirishi past, o'qish malakasiga ega bo'lgan o'quvchilarga esa, tushunish oson bo'lgan, kichikroq bo'lakning berilishi ko'proq samara beradi

To'xtab o'qish metodi

Maqsad: Yangi matn bilan tanishtirayotganda o'quvchilarning diqqatini jamlab turish, ularni mavzuga qiziqtirish, turli holatlarni shaxsan his qilishlariga imkon yaratish, ma'lum bir voqea va hodisaga munosabatini bildirish, og'zaki nutqni o'stirish, muammoli vaziyatlarga uchrash va har-xil holatlardan chiqib keta olish malakalarini shakllantirish.

Mazmuni: Bu usuldan o'quvchilarning sinfda an'anaviy o'tirgan holatlarida ham foydalanish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga matn va ertaklar o'qiydi, hamda o'qish jarayonida tez-tez to'xtab savollar berib turadi.

Qo'llanilishi: O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojat qiladi. Savollarni shunday tuzish kerakki, ular o'quvchilarni matn qahramonlari obraziga kirib ketishlariga va ular nomidan o'z fikr mulohazalarini aytishga undaydi. O'quvchilarni har bir javobi, o'qituvchi tomonidan qo'llab- quvvatlanib, rag'batlantirib turilishi kerak. O'quvchi qanday javob berishidan qa'tiy nazar, "Rahmat, bu sening fikring edi, qani qolganlarnikini ham eshitaylikchi" – deb imkon qadar ko'pchilikning javoblarni eshitishga intilishi zarur. Ana shundan keyingina, "Qani, davomini eshitaylikchi, nima bo'ldi ekan" – deb matn davom ettiriladi.

Qaysi darsni qaysi bosqichida: Bu metoddan o'qish, adabiyot darslarini yangi mavzuni o'zlashtirish bosqichida keng va samarali qo'llash mumkin.

Afzalligi: O'quvchilarni diqqatini jamlashga yordam beradi, o'quvchilarni og'zaki nutqini o'stiradi, o'quvchilarni har xil holatlardan chiqib keta olish malakalarini shakllantiradi.

Namuna

“Mushuk bilan kuchuk” ertagi.

Kunlardan bir kuni mushuk bilan kuchuk bitta suyakni talashib janjallashib qolishibdi. Mushuk kuchukga dedi:

O'qituvchi to'xtab, pauza qiladi va savol beradi:

Bolalar nima deb o'ylaysiz, keyin nima bo'ldi?

O'quvchilar o'z mulohazalarini bildirishlari kerak, ayniqsa tez chal- g'iydigan o'quvchilarning diqqati tortilishi lozim. Bir necha javoblar olingandan keyin, " Qani, eshitaylikchi, davomini!" deydi.

- Arzimagan narsaga janjal qilmagin, hademay boy buvaning oti kasal bo'lib o'ladi, keyin go'sht ham, ustixon ham serob bo'ladi.

Boybuva hayvonlarning tilini bilar ekan. Bu gapni eshitibdi va o'sha zahotiyiq otini olib borib bozorda sotib yuboribdi.

Kuchuk bilan mushuk yana janjallashib qolishibdi. Shunda mushuk debdi:

O'qituvchi to'xtab, pauza qiladi va savol beradi:

Bolalar nima deb o'ylaysiz, mushuk kuchukga qanday savol bergan ekan?

Bir necha javoblar olingandan keyin " Qani bilaylikchi, mushuk nima degan ekan? " deb davom ettiradi.

Boybuva otini sotgan bo'lsa ham, g'am yema, sigiru buzoqlari kasal bo'lib o'ladi, go'shtu ustixon ko'p bo'ladi.

Boybuva mushukni bu gapini eshitib, o'sha kunning o'zidayoq sigir va buzoqlarini olib borib sotibdi. Ertalab kuchuk bilan mushuk qarasaki, Boybuva allaqachon sigiru buzoqlarini olib borib sotibdi. Shunda mushuk kuchukga debdi:

-Mayli, sen g'am yema, sigiru buzoqni sotgan bo'lsa, o'zi o'ladi. Janoza kunlari qo'y so'yishadi, go'shtu ustixon ko'p bo'ladi. Qorningga siqqanicha yeyaverasan.

Bu gapni eshitgan Boybuva nima qilarini bilmay qolibdi.

O'qituvchi to'xtab, pauza qiladi va savol beradi:

Bolalar nima deb o'ylaysiz, Boybuva qanday ahvolga tushibdi?

Bir necha javoblar olingandan keyin " Qani endi davomini bilaylik- chi! " deb davom ettiradi.

Boybuva vahimayu qo'rquvga tushibdi. Ahir vahimayu hasratdan kasal bo'lib o'lib qolibdi. Boybuva o'lgan kuni qanchadan-qancha qo'y so'yishibdiyu kuchuk to'ygunicha ustixon chaynabdi.

Ta'limni motivlash o'qish faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. U tafakkur faollashishiga, tanqidiy mushoxada qilishga, nutqning rivojlanishiga, u yoki bu vazifani bajarishga qiziqish uyg'otadi. Kar bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini faollashtirish, ularning yangi materialni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir. Ixtisoslashtirilgan maktabda o'qish darslarida kar bolalarning nutqini o'zaro muloqotlar orqali rivojlantirishda shaxsiy munosabatlarni hisobga olgan holda o'qituvchi va o'quvchilar guruhi (o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi) faoliyat ko'rsatishlari zarurligi ma'lum. Chunki guruhdagi faoliyatlar o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro

muloqot kar bolalarda fikr almashish va so‘zlashuv malakasini shakllantirishga imkon yaratadi. Ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qish darslarida kar bolalar shaxsiy sifatleri shakllanishida, nutqiy muloqotni amalga oshirishda interfaol o‘yinlarning ahamiyati katta. Ma’lumki, ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qish darslarida mavzu bo‘yicha rolli o‘yinlar ob’ektiv olamdagi inson amaliy faoliyatini shartli ravishda aks ettirishda, ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Rollarga asoslangan o‘yinlar kar bolalar nutqini faollashtiradi va motivlashtiradi. O‘yin o‘quvchilarning tabiiy va sevimli faoliyatidir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya berish, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishda mashg‘ulotlarni yosh hususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtirishga e’tibor berilmokda. Haqiqatan ham, bola har kandy mashg‘ulotga qaraganda, o‘yinga tez intiladi va qiziqadi. Ixtisoslashtirilgan maktabda o‘qish darslarida rollarga asoslangan o‘yin ta’lim usuli sifatida o‘quvchilarni uyushtiradi va bilim imkoniyatlarini kengaytirib, shaxs sifatida shakllantiradi. Rolli o‘yinlar bolaning erkin fikrlashi, suhbatdoshiga nimanidir aytishi, so‘rashi, isbot qilishi, tushuntirishiga imkoniyat yaratadi. Dialogdan farkli ravishda, rolli o‘yinlar nimaga (motiv) va nima uchun (maqсад, sabab) kabi savollarga javob beradi. Shunday qilib, o‘yinda qatnashayotgan o‘quvchilarning asosiy diqqatini suhbat mazmuniga qaratadi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida suhbatni boshlash, suhbatdoshi nutqini labidan, imo-ishoralaridan o‘qish, savollar berish, savollarga javob berish kabi malakalarni egallaydilar. Maxsus ta’lim tizimidagi o‘qish darslarini jarayoni darslarini shu tipda tashkil etish o‘qish malakasini shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Zero, bu metodlar sama rali va effektiv metod ekanligi tajribalarda o‘z isbotini topmoqda. Ayni paytda har bir o‘qituvchi pedagogik texnologiyalarga ko‘r-ko‘rona emas, balki ijodiy yondashish kerakligini ta’kidlab o‘tish joiz.

I .4-§. Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bolalar so‘zlashuv nutqini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tizim komponentlari tavsifi

Adabiy ta’lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bolalar so‘zlashuv nutqini rivojlantirish metodlarni tanlashda Y.K. Babanskiy tomonidan taklif qilingan tasnifga (o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari; o‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlash va motivatsiyalash metodlari; o‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘zidan o‘zi nazorat qilish metodlari) asoslandik. Bu tasnif “faoliyatga yaxlit yondashuv metodologiyasiga” asoslanildi⁷². Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning so‘zlashuv nutqini rivojlanishini ta’minlaydigan metodlarni ishlab chiqishda u yoki bu muayyan metodni tanlash qator shartlar: o‘quv fanining xarakteri va mazmuni, didaktik vazifalar, o‘quvchilarning tayyorgarlik

⁷² Бабанский Ю.К. Методы обучения в современной общеобразовательной школе. — М.: Просвещение, 1985. - 207 с. Подласый И. П. Педагогика начальной школы. М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2000. -М.: Владос, 2001.- 398 с.

darajasi, ularning nutqiy rivojlanishiga bog‘liq ekani haqidagi qoidani e‘tiborga olindi. Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishni ta‘minlaydigan metodlarga o‘qilgan asar mazmunini qayta tiklashga qaratilgan perseptiv metodlar kiritildi. Gnostik metodlar mustaqil intellektual, nutqiy faoliyat rivojini belgilaydi, aqliy rivojlanishga ko‘maklashadi va bolalarda ijodiy tasavvurni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu guruh metodlari ichida *bolani ijodiy rivojlantirish metodiga* alohida ahamiyat qaratamiz. Bu metod o‘qituvchi o‘qitishning turli vositalari yordamida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi; o‘quvchilar fikr yuritadi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar qiladi, to‘qiydi; ta‘lim kitobxonlik faoliyatiga qiziqishning yuqoriligi bilan kechadi; ta‘lim o‘quvchilarning estetik, bilishga oid va o‘zini o‘zi rivojlantirish motivlarini belgilaydi va yo‘naltiradi, bular kitobxonlik fikrlash doirasining rivojlanishi va shaxsiy rivojlanishga ko‘maklashadi. Ajrati ko‘rsatilgan tavsiflar o‘qitish amaliyotida kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatiga o‘quvchilarni jalb qilishning turli usullarini muvaffaqiyatdan quvonch hissini tuyish uchun sharoit yaratashda qo‘llash imkonini beradi. Bolani ijodiy rivojlantirish metodini qo‘llashda individual kechinmalar, kuzatishlar, tahliliy fikrlar, kitobxonlik taassurotlari, badiiy iqtidorni, nutqiy ijodni, o‘quvchilarning adabiy matnlar bilan ishlashga ehtiyojini rivojlantirish imkoniyatini ko‘ramiz. Metodlarning bu guruhida *muloqotning nutqiy vaziyatlarini yaratish* metodi ahamiyatli hisoblanadi. Bu metod o‘quvchilarga o‘qish vaziyatlariga yo‘nalganlik olish (nima uchun ular o‘qishga o‘rganyapti, o‘qish ularga nima beradi, kitob tanlashda nimalarga rioya qilish kerak) imkonini beradigan o‘quv vaziyatlarini yaratish; o‘zining shaxsiy hayotiy taassurotlarini anglash, til vositalari, qahramonlarni mustaqil tanlash, ular harakat qiladigan vaziyatni o‘ylash, o‘z jumlasini kompozitsiyasini qurish bilan mustaqil jumla qurishga istakni hosil qilishga qaratilgan. Shu guruhga kiritilgan boshqa bir metod – *prognozlash metodining* mohiyati nafaqat asarni bevosita idrok qilish vaqtida uning mazmuni va muallif g‘oyasini tushunish, balki hali boshlanmagan hodisalar, xatti-harakatlar, voqealarni oldindan faxmlash va ko‘ra bilishdan iborat. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan kitobxonning prognostik faolligi bilan birga kechadigan mutolaa uning tasavvurida asarning yaxlit tasviri, o‘z fabulasi yaratilishiga olib keladi. Asarning nomi, illyustratsiyalar ustida ishlash, notanish so‘zlarga e‘tibor qaratish, matnda yashirin savollarni izlash orqali o‘quvchilarda matn mazmunini oldindan faxmlash imkonini beradigan va matnning keyingi idrokini boshqaradigan ustanovkaning shakllanishiga erishamiz. Metodlarning bu guruhida *loyihalar metodi* ajratildi, uning asosini o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati u yoki bu nazariy yoki amaliy muammoni hal qilishda olinadigan natijaga yo‘naltirilganligi haqidagi g‘oya tashkil qiladi. Loyihalar metodi o‘quvchilarga bilim va malakalarni topshiriqlarni rejalashtirish va mustaqil bajarish jarayonida egallash imkonini beradigan o‘quv-bilish usullari yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Savodli tarzda tashkil qilingan loyihalash faoliyati eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning rivojlanishi bilan bog‘liq sezilarli pedagogik samara beradi. Tajriba-sinov o‘qitish doirasida loyihalash metodi adabiy o‘qish darslarida (asarlarni qiyoslash) va sinfdan tashqari o‘qish darslarida (qo‘lyozma va elektron kitobchalar chiqarish, multfilmlar yaratish, fotoalbomlar tuzish, teatr tomoshalari sahnalashtirish) qo‘llandi.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishni ta'minlaydigan metodlar guruhini realizatsiyalashning asosiy usuli *tayanch ko'rgazmalilik* hisoblanadi. Adabiy ta'lim jarayonida nutqiy rivojlantirish pedagogik tizimida bu usulga o'qishga o'rgatishning an'anaviy metodikasi bilan solishtirganda yangicha yondashamiz. Mazkur usuldan ta'limda savollar yoki frazalar strukturasiidan foydalanish, asosiy aloqa va munosabatlarni ifodalash, mikromavzularni, turli tipdagi matnlarni, fikrlar, dialoglarni tuzish va sxemalarini ajratish imkonini beradigan asoslarni konstruksiyalashga asoslangan bilimlar manbasi sifatida foydalaniladi.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni shakllantirish, rag'batlash va motivatsiyalashga qaratilgan metodlarning ikkinchi guruhida *bilishga qiziqishni shakllantirish metodi* yetakchi o'rin tutadi. Bu metodni ta'limda amalga oshirish kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatga, uning mazmuni, amalga oshirish shakl va metodlariga nisbatan ijobiy hislar shakllanishini ta'minlaydi. Emotsional holat hamma vaqt to'liqlanish, hayajon: javob, hamdardlik, quvonch, jahl, hayrat kabilarni kechirish bilan bog'liq. Ta'kidlash muhimki, o'quvchilarni chuqur ichki kechinmalarga diqqat, ularni eslab qolish, anglash jarayonlariga jalb qilish bu jarayonlarning kechishini erishiladigan natijalar nuqtai nazaridan yanada jadal qa samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bilishga qiziqishni shakllantirishning asosiy usullari: muvaffaqiyat, yangilik, qiziqarlilik, hayratlanish vaziyatlarini yaratish, o'yinli vaziyatlardan foydalanish sanaladi.

Adabiy-ijodiy faoliyat ustidan nazoratni ta'minlovchi metodlar guruhiga *matnni mukammallashtirish metodi* kiradi. Bu metodni realizatsiyalashning asosiy usuli *tahrirlash* bo'lib, uning ahamiyatliligi usul fikrlash, emotsional-irodaviy sohani rivojlantirishning faol vositasi ekani bilan belgilanadi⁷³. O'z jumllarini tahrirlash davomida o'quvchilar sarlavha jumlasini g'oyaga muvofiq to'g'rilash; mavzuga va aytilayotgan asosiy fikrga mos bo'lmagan bir yoki bir necha gapni istisno qilish; mavzu va asosiy g'oyani ochib berishga ko'maklashadigan gaplarni qo'shishga oid mashqlarni bajaradi. Tahrirlash usulini qo'llashning ahamiyati uning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'z nutqi rivojlanishi yo'lida ilgari olib borishi bilan belgilanadi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish mazmunini o'zgartirish o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning yangi shakllaridan foydalanishga ham olib keladi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining faoliyatli komponenti doirasida an'anaviy frontal darslar kabi, qiziqarli: "dars-bayram", "dars-konsert", "dars-viktorina", "dars-sayohat", "dars-taqdimot" dars-o'yinlar ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tizimda adabiy o'qish darsi bilan darsdan tashqari faoliyat o'rtasida qat'iy chegaralashning mavjud emasligi tamoyili yangilik hisoblanadi. Fikrimizcha, adabiy o'qish darslarida va sinfdan tashqari paytda o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning turli shakllaridan foydalanish adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimini qo'llash

⁷³ Никитина М.И. Психолого-педагогические основы совершенствования литературного образования слабослышающих школьников. Диссертация ... д-ра пед. наук. — Л.: ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1983.-87 с.

uchun optimal sharoit yaratadi, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatida yuqori darajalarga erishish imkonini beradi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining strukturaviy komponentlarini ishlab chiqishda navbatdagi qadam *baholash-natijaviy komponentini* ishlab chiqish bo'lib, uning mohiyatini pedagogik jarayonning samaradorligini aks ettirish va qo'yilgan maqsadga muvofiq erishilgan siljishlarni namoyon qilish bilan ifodalandi. Baholash-natijaviy komponentni ishlab chiqishda adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish darajasi ko'rsatkichlarini kompleks diagnostikalashga tayanamiz, diagnostika nafaqat o'qish texnikasi, balki asarni idrok qilish darajasi, mustaqil jumla yaratish, bibliograif kompetentlik hamda kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatining motivatsion bahosini aniqlashni nazarda tutadi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida o'qitish natijalari diagnostik xulosalarning aniqligi, to'liqligi va o'z vaqtida qilinganiga to'g'ridan to'g'ri va bevosita bog'liq. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar psixik rivojlanishi o'ziga xosligini (bilish jarayonlari kechishining sekinlashuvi, sabab-oqibat aloqalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar, o'zlashtirilgan faoliyat usullarini uning yangi turariga ko'chirishning qiyinligi, emotsional sohaning o'ziga xosligi) hisobga olib, natijalarning eshitadigan o'quvchilar bilan qiyoslaganda bir muncha kechroq ko'zga tashlanishini taxmin kildik. Ishlab chiqilgan adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining (maqsadli, mazmunli, faoliyatli va baholash-natijaviy) komponentlari bir-biriga o'zaro bog'liq, birgalikda tizimning ahamiyati va mazmunini hamda kommunikativ, kitobxonlik va adabiy-ijodiy malakalarning shakllanishini belgilaydigan elementlarni o'z ichiga olgan tizimdir.

Tadqiqotning maqsadli vazifalarini hal qilishni ta'minlashda navbatdagi qadam adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining asosiy *maqsadli, mazmuniy, faoliyatli, baholash-natijaviy* komponentlarini (tarkibiy qismlarini) ajratishdan iborat bo'ldi. Tizimning asosiy elementi *maqsadli komponent* hisoblanadi. Maqsadli komponent umumpedagogik adabiyotlarda o'quv fanini o'rganish, har bir bo'lim va dars maqsadi va vazifalarining pedagog tomonidan anglanishi va o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini anglatadi. Dars va o'quv jarayonini tashkil qilish muammolari bilan shug'ullanadigan olimlarning fikricha [Y.K. Babanskiy, 1992; T.D. Kirilova, 1996; P.I. Pidkasistiy, 1996; I.P. Podlasiy, 2001; A.P. Tryapitsina, 1997], aniq belgilangan maqsad pedagogga dars natijasini oldindan ko'ra bilish, bilim, malaka va ko'nikmalarning "o'sishini" belgilash, dars tipi, uni olib borish usullarini aniqlash imkonini beradi⁷⁴. Maqsadli komponentni ishlab chiqishda ta'lim jarayoni

⁷⁴Подласый И. П. Педагогика начальной школы. М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2000. -М.: Владос, 2001.- 398 с.; Казакова Е.И., Тряпицына А.П. Диалог на лестнице успеха (Школа на пороге нового века). - СПб.: СПб-XXI век, ЗАО Пресс-атташе, 1997. - 160 с.

rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga asoslandik. Avvalo, bugun umumiy va maxsus pedagogikada avtoritar subyekt-obyekt munosabatlari o'rniga insonparvar shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kelgani, unda o'quvchi shaxsi ta'lim jarayonida eng asosiy qadriyat sifatida qaralayotganidan [M.P. Voyushina, 2002; N.M. Nazarova, 2001; M.I. Nikitina, 2006] kelib chiqdik. Bu yondashuv ta'lim va tarbiya jarayonlarini birlashtirish imkonini beradi va diqqat markazida badiiy matn, turlicha kitobxonlik qarashlarining o'zaro ta'siri, o'quvchilarning mustaqil fikrlari turadigan adabiy o'qish darslarida o'quvchilarning poyetnsial imkoniyatlari ochilishini rag'batlaydi. Boshqacha qilib aytganda, so'z adabiy materialni nafaqat ongli qayta yaratish, balki badiiy matnni ijodiy talqin qilish darajasini ta'minlaydigan rivojlantiruvchi ta'lim haqida boradi.

Shuning uchun ham taklif qilinayotgan adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimida ta'lim maqsadi aynan nafaqat adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni nutqini rivojlantirish, balki ularni asl mutolaaga o'rgatish, badiiy so'z olamiga olib kirish, badiiy til qonuniyatlarini egallash, badiiy asarlarni to'laqonli idrok qilish malakalarini shakllantirish, muloqot va kommunikativ madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirish, kitobga nisbatan mehr, mustaqil mutolaaga qiziqish uyg'otish sifatida belgilandi. Bundan tashqari, pedagogik tizimning maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning psixologik rivojlanish xususiyatlari bilan belgilangan o'ziga xosliklarga ega. Shuning uchun u bilish va emotsional sohalardagi kamchiliklarni korreksiyalash, kompensator jarayonlarni shakllantirishni ham o'z ichiga oladi va adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining umumiy maqsadini ifodalaydi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining maqsadini qo'yish va uning o'ziga xosligini tushunish o'qishga o'rgatishning quyidagi vazifalarini ustuvor deb belgilashga imkon beradi:

- (ravon, to'g'ri, ongli va ifodali) o'qish ko'nikmasini shakllantirish;
- kitobxonlik va adabiy-ijodiy malakalarni shakllantirish;
- bibliografik bilim va malakalar kompleksini egallash;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan kichik o'quvchilar nutqiy rivojlanishi va nutq madaniyatining yuqori darajasiga erishish;
- eshitish idroki, talaffuz va psixik jarayonlarni korreksiyalash va rivojlantirish;
- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning shaxsiy-motivatsiya sohasini rivojlantirish.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga ta'lim berish muvaffaqiyati shu vazifalarni hal qilishga bog'liq, adabiy o'qish darlarining o'quvchilarning umumiy ko'nikmalari, malakalari va faoliyat usullari shakllanishidagi jiddiy hissassi shundan kelib chiqadi.

Maqsadli komponent umumpedagogik adabiyotlarda [Y.K. Babanskiy, 1992; G.D. Kirilova, 1996; I.P. Podlasiy, 2001] eng ahamiyatlilaridan biri, o'quv

jarayonining boshqa, aynan esa: mazmuniy, faoliyatli va baholash-natijaviy komponentlari o‘ziga xosliklarini belgilaydigani sifatida ta’riflanadi⁷⁵.

Pedagogik tizimning *mazmuniy komponentini* ishlab chiqishda I.Y. Lernerning M.N. Skatkin [1980] ishlarida o‘z rivojini topgan ta’lim mazmuni tarkibida to‘rtta o‘zaro bog‘liq elementni ajratish zarurligi haqidagi g‘oyasiga asoslandik⁷⁶. Bu to‘rtta element quyidagilar hisoblanadi:

a) jamiyat tomonidan bilimlarning to‘planishi;

b) faoliyat usullarini amalga oshirish tajribasini gavdalantiradigan malaka va ko‘nikmalarning yig‘indisi;

v) jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilish bo‘yicha ijodiy, izlanishli faoliyat tajribasi;

g)emotsional-baholash faoliyati tajribasi.

Fikrimizcha, bu elementlarning har biri mazmun ham mansub bo‘lgan nisbatan yuqori darajadagi tizim doirasida kichik tizimlarni hosil qiladi. Bizning holatimizda – bu kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni shakllantirish bo‘yicha ish mazmuni. O‘z navbatida, bu har bir kichik tizim ichida tizim hosil qiladigan, uning yaxlit faoliyatini ta’minlaydigan komponentni ajratish imkonini beradi. Taklif qilingan pedagogik tizim mazmuni tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) kitobxonlikka oid va nutqiy malakalar;
- 2) matnni mazmuniy tahlil qilish usullari;
- 3) nutqiy muloqot va ijodiy faoliyat tajribasi;
- 4) kitobxonlik va emotsional-baholash faoliyat tajribasi.

Mazmuniy komponentning birinchi elementi *kitobxonlikka oid va nutqiy malakalar*. Malakalarni biz maqsadlar va harakat qilishga to‘g‘ri kelgan sharoitlarga muvofiq harakatlarni tobora samarali bajarishga tayyorlik sifatida tushunamiz⁷⁷. Maxsus ta’lim muassasalari Dasturida [2015] malakalarning uchta turi: matnlarni o‘qish bilan bog‘liq; matn ustida ishlash va nutqiy malakalar ajratilgan. Dasturda sanab o‘tilgan malakalar tahlili xulosaga kelish imkonini beradiki, ayrim malakalar

⁷⁵Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. — М.: Просвещение, 1982. - 191 с.; Подласый И. П. Педагогика начальной школы. М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2000. -М.: Владос, 2001.- 398 с

⁷⁶ Лернер И .Я. Дидактические основы методов обучения. - М.: Педагогика, 1981. - 185 с.;Скаткин М.Н. Проблемы современной дидактики. - М.: Педагогика, 1980.-95 с.

⁷⁷ Воюшина М.П. Формирование умения анализировать художественное произведение как средство литературного развития младших школьников. Диссерт. на соиск. канд. пед. наук, Л., 1989. — 65с.; Воюшина М.П. Методические основы литературного развития младших школьников // Методические основы языкового образования и литературного развития младших школьников / Под ред. Т.Г. Рамзаевой. — Спб.: Изд-во «Специальная литература», 1997. - С. 40- 86.

aniqlashtirilmagan, mutolaa qilinadigan asarlarni idrok qilish, fikrlar tuzish va bibliografik kompetentlikni egallash xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmagan.

O'qiladigan asarlarni yaxlit badiiy idrok qilish, badiiy bilish (ijodiy tasavvur, tafakkur, emotsional kechirish, o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi) jarayonlari birligi konsepsiyasidan kelib chiqqan holda o'zaro aloqadorlikda amal qiladigan, biroq har biriga alohida o'rgatishni talab qiladigan malakalarning bir necha guruhini ajratdik. Adabiy asarni idrok qilish xususiyatlari bilan bog'liq malakalarning birinchi guruhida shartli ravishda o'qish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan intellektual, emotsional-baholash malakalarini ajratib ko'rsatdik.

Asar tahlili bilan bog'liq intellektual malakalar: epizodlarni tahlil qilish; o'qilganlarda asosiy fikrni ajratish; matnni mazmuniy qismlarga bo'lish; o'qilganga reja tuzish; qahramonlar xatti-harakatini tushuntirish; qahramonlarni solishtirish; savollar yordamida matndagi tushunarsiz o'rinlarni aniqlash; sabab-oqibat munosabatlarini tushunish; harakalar rivoji mantiqini ko'ra bilish; personajni yaxlit idrok qilish; muallif nuqtai nazarini ko'ra bilish; turli janrlardagi asarlarni farqlash;

emotsional-estetik xarakterdagi malakalar: til vositalarining ifodaliligini kuzatish; so'zlarning ma'nolarini tushunish, so'zlarni ma'nodoshlari yoki qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan almashtirish; muallif tomonidan qo'llangan obrazli so'z va ifodalarni tushunish; muallif tasvirlagan hayot tasvirlarini tasavvurda qayta yaratish; turdosh san'at turlari bilan ishlash, tasavvurdagi tasvirlarni xayolan oxiriga yetkazish;

o'qish ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq malakalar: to'g'ri, ravon, anglab va ifodali o'qish.

Bibliografik kompetentlikni egallash bilan bog'liq ikkinchi guruh malakalar kitob, o'qish gigiyenasi, bibliografik yordamning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun tushunarli (qulay) bo'lgan asosiy elementlari (kartoteka, kitob ko'rgazmalari, alfavit, tematik, elektron katalog) asosida shakllantiriladi. O'quvchilarning kitob olamida yo'nalganlik olishiga ko'maklashadigan malakalar sirasiga quyidagilar kiritildi: kitob muallifi va nomini qayta yaratish; asosiy elementlarni aytib berish; nomi, illyustratsiyalari, mundariyasi, annotatsiyasiga qarab mazmunni bashorat qilish; kataloglardan foydalanib kitobni topish; ma'lum mavzuga oid kitoblarni tanlash; katalog katorchkaga qarab kitob tavsifini tushunish; mavzu bo'yicha sinfdan tashqari o'qio'sh uchun kitoblar ro'yxatini tuzish; navbatdagi dars mavzusi o'yicha kitob ko'rgazmalarini jihozlash; qulay ma'lumotnomalardan foydalanish.

Malakalarning eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar nutqini rivojlantirish bo'yicha doimiy korreksion ishini talab qiladigan nutqiy rivojlanishning o'ziga xosligini hisobga oladigan uchinchi guruhi o'qilgan asar bo'yicha fikrlarni yaratish bilan bog'liq. Malakalarning bu guruhida quyidagilarni ajratdik: fikr mazmunini belgilash; nutqning ma'lum tipi uchun xos bo'lgan til konstruksiyalaridan foydalanib, mazmunni berish; bayonning mavzuli, mazmuniy birligi va mantiqini saqlagan holda mavzu bo'yicha hikoya qilish; fikr elementlarini muallif g'oyasiga bo'ysundirish; nutqda tilning tasviriy ifoda vositalarini qo'llash.

Darsda ishlanishi lozim bo'lgan malakalarni aniq ajratish va belgilash ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion vazifalarni hal qilish uchun muhim.

Mazmunning ikkinchi elementi strukturasi (tuzilmasini) *matnni mazmuniy tahlil qilish usullari* tashkil qiladi. Bu elementni ajratish avvalgi element bilan bog'liq. Matnni mazmuniy tahlil qilish usullari deganda badiiy asarni tahlil usullarini, ya'ni kitobxon asar g'oyasini o'zlashtirish jarayonida bajaradigan muayyan operatsiyani tushunamiz. O'qitish jarayonini tashkil qilishda hisobga olish muhimki, tahlil usuli – badiiy asarni tushunish (anglash) vositasi, shuning uchun uning tanlovi badiiy matnning xususiyatlari, tahlilda hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar bilan belgilanadi. faqat shu vazifani hal qilish jarayonida usul o'zining ikkinchi vazifasini bajaradi – tahlil malakalarini shakllantirish, adabiyotshunoslikka oid tasavvurlar va kitobxonlik tajribasini egallash vositasiga aylanadi⁷⁸. Ta'limning boshlag'ich bosqichida kichik o'quvchilar kitobxonlik malakalarini endigina egallayotgan bo'lishi bois ular tahlil usullariga maxsus o'rgatishga muhtoj. Usulni tanlash o'qish malakasining shakllanish bosqichi, uning murakkablik va kitobxonlik malakalari bilan nisbatlanganlik darajasiga bog'liq. O'qishni egallashning tahliliy darajasi uchun idrok va anglash mexanizmlari bilan vaqtinchalik uzilish tartibi xos ekanini e'tiborga olgan holda, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar asarni mazmuniy tahlil qilishning operatsion tomoniga o'rgatiladi, uning muayyan usullarini egallaydi. Masalan, hodisa va voqealarning aniq tavsifi keltirilgan tayanch (kalit) so'z yoki gaplarni izlash va ajratish⁷⁹.

Sintetik darajada butun so'zlar bilan o'qish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va talaffuz qilish uning ma'nosini anglash bilan mos keladi [T.G. Yegorov, 1953, 2006]. Bu darajada o'qish kunikmasini egallashning sintetik usullari tiklanishi ro'y beradi, so'z birikmasi yoki gap tarkibidagi so'zning ma'nosini tushunish uni talaffuz qilishdan oldin keladi, ya'ni o'qish mazmuniy faxmlash orqali amalga oshiriladi. Nutq – fikr mexanizmlari jiddiy tarzda murakkablashadi: eshitiladigan talaffuz qilinadigan va ko'riladigan so'z assotsiatsiyalariga “mazmuniy” so'z qo'shiladi, bolalar endi so'z-tushunchalar bilan operatsiyalaydi. Tahlilning operatsion tomoni murakkablashadi, chunki matnlar murakkablashadi. Usul tahlil asbobiga aylanadi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bola ko'nglidagi natijaga erishish uchun undan foydalanishga o'rganadi. Bu darajada o'quvchilarning voqea yoki hodisalarning ikkinchi darajali tavsiflarini ifodalagan so'z yoki gaplarni izlash va ajratish bilan bog'liq faoliyati tashkil etiladi.

Gap (jumla) lar bo'yicha o'qishga o'tishda idrok birligi frazagacha kattalashadi, ayni paytda jarayonning abstrakt-mantiqiy tomoni ortadi va tahlilning operatsion

⁷⁸Воюшина М.П. Формирование умения анализировать художественное произведение как средство литературного развития младших школьников. Диссерт. на соиск. канд. пед. наук, Л., 1989. — 73с.;

⁷⁹ Егоров В.В. Особенности понимания глухими учащимися нравственных сторон литературно-художественного образа: Автореферат ... канд. пед. наук - М.: НИИ Дефектологии, 1976. - 74 с.

tomoni avtomatlasha boshlaydi⁸⁰ [T.G. Yegorov, 1953, 2006]. Bu jarayonning o'zi o'quvchi tomonidan kam anglashilishi va birinchi o'ringa matni: uning faktologik mazmuni, kompozitsiyasi, qo'llangan tasviriy vositalarni anglash chiqadi, deganidir. Bu darajada o'quvchilar matnning turli qismlaridagi axborotni jamlaydi, aynan bitta frazani turli kontekstlarda tushunishga, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, matnda tasvirlangan voqealar kontekstini tiklash, voqealar rivoji haqida o'z farazlarini bildirish, o'z nuqtai nazarini o'z tajribasi bilan asoslashga o'rganadi.

Shunday qilib, o'qish malakasini shakllantirishning har bir darajasida bolalar faoliyatini tahlil usuli matni yaxlit idrok qilish, turli janrlarga xos badiiy asarlarni anglab o'qish, muallifning asosiy fikrini tushunish va muallif g'oyasini aniqlash malakalarini shakllantirish usuliga aylanadigan tarzda tashkil qilish asosiy vazifa bo'lib qolaveradi.

Mazmunning ikkinchi komponenti tizimlilik adabiy o'qish darslarida asar tahlili o'qish malakasiga tayanishi bilan belgilangan, shuning uchun ta'limning vazifalaridan biri o'qish ko'nikmasining texnik tomonini shakllantirish hisoblanadi. O'qitish davomida ravon va to'g'ri o'qishni ishlashga qaratilgan mashqlarga katta e'tibor qaratamiz, fikrimizcha, o'quvchi o'qishning bu tavsiflarini egallashda qanchalik tez ilgariyasa, uning o'qiishi shunchalik ifodali va anglashilgan bo'ladi, bu. O'z navbatida, o'quvchilarga matni mazmuniy tahlil qilish usullarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Nutqiy muloqot va ijodiy faoliyat tajribasi adabiy rivojlantirish pedagogik tizimi mazmuniy komponentining navbatdagi elementini tashkil qiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning yetarlicha nutqiy rivojlanmaganligi nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va avtomatlashtirish, shuningdek fikrlarni grammatik rasmiylashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi. Tadqiqot davomida o'rganish uchun tanlangan badiiy asarlar o'quvchilar nutqiy zaxirasini aniqlashtirish, kengaytirish, boyitishning muhim vositasi va tilning nisbatan yuqori darajadagi strukturaviy elementlari (so'z birikmalari, gaplar) ni shakllantirish vositasi sanaladi. O'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil va muhokama jarayonidagi birgalikdagi faoliyati ularda nutq madaniyatini, nutqiy ifodalarni muhokama qilish va o'zlashtirish ehtiyoji va istagini rivojlantiradi. Adabiy o'qish darslarida nutqiy-eshitish muhitini yaratish va eshitish diqqatini rivojlantirish zaruratini hisobga olgan holda maxsus eshitish mashqlari uchun nutqiy bibliografik va ma'lumot xarakteridagi materialni tanlashga alohida e'tibor qaratildi. Eshitishni mashq qilish davomida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlari gapirganini diqqat bilan eshitish, frazalar, so'zlarni frazalar va so'zlar bilan birikkanida tanib olish, shuningdek, jarangli notanish so'z va

⁸⁰ Егоров В.В. Особенности понимания глухими учащимися нравственных сторон литературно-художественного образа: Автореферат ... канд. пед. наук - М.: НИИ Дефектологии, 1976. - 16 с.; Егоров Т.Г. Очерки психологии обучения детей чтению. 2-е издание М.: Учпедгиз, 1953.- 174 с; Егоров Т.Г. Психология овладения навыком чтения, - СПб.: Каро, 2006.-304 с.

frazalarni eshitib idrok qilish; fraza va soʻzlarni aniq yoki yavin talaffuz qilib, ularda alohida elementlarni tanib olishga oʻrganadi.

Pedagogik tizim mazmuniy komponentining bu elementini ajratishda juda muhim nazariy omil sifatida M.I. Nikitining oʻqish darslari nutqiy muloqotni rivojlantirish, lugʻatni boyitish, eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilarning ijodiy faoliyatda mustaqil fikr (jumla) yaratish malakalarini rivojlantirish uchun maqbul sharoit yaratishi haqidagi xulosasi xizmat qildi⁸¹. Shu qoidaga muvofiq, oʻqitish mazmuniga adabiy ijodiy faoliyatning turli koʻrinishlari (turkum rasmlar asosida hikoya mazmunini davom ettirish; dialog va monologlarni kiritish hisobiga matni kengaytirish; hikoyani oldin yo keyin keladigan voqealar bilan toʻldirish; hikoyachi shaxsi, voqea joyi, faslni oʻzgartirib matni rekonstruksiya qilish; ertak, topishmoq, sanoqlar toʻqish; diafilm ssenariysini yozish) va loyihalash faoliyati turlari (qoʻlbola kitoblar, fotoalbomlar tayyorlash; multfilm yaratish va ovozashtirish) kiritildi. Ishonchimiz komilki, adabiy-ijodiy va birgalikda loyihalash faoliyatida nutqiy muloqot tajribasi toʻplanadi, oʻquvchilarning faol pozitsiyasi rivojlanadi, toʻqish, fantaziya qilish, oʻylash, fikr almashish istagi paydo boʻladi va oʻz ish natijalarini omma oldida taqdim qilish malakasi shakllanadi.

Mazmuniy komponentning toʻrtinchi elementini *kitobxonlik va emotsional-baholash faoliyati tajribasi* tashkil qiladi. Ushbu komponentni ajratish uchun badiiy asarni idrok qilish jarayonida psixik jarayonlar (tafakkur, tasavvur, hissiyotlar, xotira) ning yetakchi roli haqidagi gʻoya asos boʻldi [T.G. Bogdanova, 2002; T.A. Grigoryeva, 1975; I.A. Mixalenkova, 2002; T.V. Rozanova, 1999]⁸². Anglab oʻqish jarayoni eshitishda nuqsoni boʻlgan bola shaxsini yaxlit, uning jismoniy va maʼnaviy kuchlarini band qilishi, kitobxonlik va emotsional-baholash faoliyatini rivojlantirishini eʼtiborga olgan holda eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilarning bilish va emotsional sohalarini rivojlantirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqdik va oʻqitish mazmuniga kiritdik.

Surdopedagoglar M.M. Nudelman [1971], YE. G. Rechitskaya va YE.A. Soshinaning [1999] tadqiqotlariga asoslangan holda, pedagogik tizimni amalga oshirish davomida eshitishda nuqsoni boʻlgan oʻquvchilar tasavvurini rivojlantirish boʻyicha ishlar ikki yoʻnalishda: birinchidan, badiiy matnni talqin qilish jarayonida;

⁸¹ Никитина М.И. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 32.

⁸²Богданова Т.Г. Сурдопсихология. - М.: Академия, 2002. - 202 с.; Григорьева Т.А. Пути развития причинно-следственного мышления глухих школьников. Методические рекомендации. — Л.: ЛВЦ ВОГ, 1979 - 47 с.; Михаленкова И.А. Коррекция сенсорного и интеллектуального развития школьников с нарушением слуха. — СПб.: Речь, 2003. - 104 с.; Розанова Т. В. Зависимость успешности воспроизведения текста от уровня его понимания глухими школьниками // 6 научная сессия по дефектологии. -М., АПН СССР, 1971. - С. 442-423.;Розанова Т. В. Развитие способностей глухих детей в процессе обучения. -М., Педагогика, 1991. - 176 с.

ikkinchidan, talqinga asoslangan jumalarni yaratishda amalga oshirildi⁸³. Bu kabi faoliyat o'quvchilarga asarni chuqurroq tushunishga ko'maklashadi, kitobxon idrokining moslashish egiluvchanligini rivojlantiraldi, yozuvchi yaratgan tasvirlarni tasavvurda qayta tiklash va badiiy obraz vositasda o'z taassurotini ifodalash malakasini shakllantiradi. Tajriba-sinov o'qitish mazmuniga quyidagi kabi mashqlarni kiritdik: dialoglar tuzish; mizan sahnalar va ishtirok etuvchilar xolatlarini o'ylab ko'rish bilan jonli tasvirlar tuzish; predmetning tashqi ko'rinishini (uning ko'rinishi, shakli, ta'mi, hidi, ovozi) tasavvur qilish; adabiy personaj, kartina, predmetni "jonlantirish"; turli matnlardagi qahramonlarning umumiy tavsiflarini belgilash; hikoyaga og'zaki kartinalarni chizib tugatish va boshq.

O'quvchilar tafakkurini shakllantirish yo'llarini tashlashda surdopedagoglarning tafakkurni faoliyat turlari jarayonida nutqni egallash jarayoni bilan birlikda shakllantirish [T.G. Bogdanova, 2002; YE.G. Rechitskaya, 2004; T.V. Rozanova, 1991; YE.A. Soshina, 1999; L.I. Tigranova, 1978] to'g'risidagi qoidalariga asoslandik⁸⁴. Eksperimental o'qitishda ko'rgazmali-amaliy, ko'rgazmali-obrazi, lisoniy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ajratdik. Bular sirasiga biz quyidagilarni kiritamiz: tayanch so'z va ifodalar bo'yicha matnni tiklash; o'z kuzatishlari asosida topishmoqlarni topish va to'qish; o'qituvchi ovozidan eshitib idrok qilingan gaplarni tamomlash; matndan maqolga mos keladigan jumlani tanlash; illyustratsiyalar bo'yicha asar mazmunini prognozlash; hikoyaga ilova tarzida keltirilgan rasmlarda nomuvofiqlikni topish va xatolarni to'g'rilash; rasmlar turkumini zarur ketma-ketlikda joylashtirish; rasmlardagi farqni topish; qirqib bo'laklangan qismlardan hikoyaga rasmlar tuzish; turli miqdordagi detallardan applikatsiyalar tuzish; taklif qilingan bir necha variantdan to'g'ri javobni tanlash; taklif qilingan materialning matn muvofiqligini anglash; bitta hikoya qahramonlarini taqqoslash; bir necha asar qahramonlarini va boshq.

Kitobxonlik tajribasini shakllantirishda xotiraning roli katta, u tufayli fikrlash, intellektual, bilish faoliyati, nutq va talaffuzni egallash amalga oshiriladi. T.G. Bogdanova [2002], T.A. Grigoryeva [1975], I.A. Mixalenkova [2003], T.V. Rozanova [1999] tadqiqotlariga tayangan holda obrazli, ko'rish, verbal xotira, uning

⁸³ Нудельман М.М. Воссоздающее воображение у глухих детей: Об элементарных формах творческого воображения у глухих школьников // Психология глухих детей / Под ред. И.М. Соловьева и др. — М., Просвещение, 1971. - С. 34-57.; Речицкая Е.Г., Сошина Е.А. Развитие творческого воображения младших школьников в условиях нормального и нарушенного слуха. — М.: Владос, 2000. - 128 с.

⁸⁴ Богданова Т.Г. Сурдопсихология. - М.: Академия, 2002. - 202 с.; Григорьева Т.А. Пути развития причинно-следственного мышления глухих школьников. Методические рекомендации. — Л.: ЛВЦ ВОГ, 1979 - 47 с.; Розанова Т. В. Зависимость успешности воспроизведения текста от уровня его понимания глухими школьниками // 6 научная сессия по дефектологии. -М., АПН СССР, 1971. - С. 442-423.4 Речицкая Е.Г., Сошина Е.А. Развитие творческого воображения младших школьников в условиях нормального и нарушенного слуха. — М.: Владос, 2000. - 128 с.; Тигранова Л.И. Умственное развитие слабослышащих детей. — М., Педагогика, 1987. - 91 с.

aniqligi va hajmi rivojlanishiga ko‘maklashadigan o‘yinli mashqlar ishlab chiqildi⁸⁵. Bular: obrazli so‘z va iboralarni eslab qolish; asarlarda fatnashgan shaxslar, predmetlar, hodisalarni qayta yaratish; zkeyin tavsiflab berish sharti bilan illyustratsiyalarni eslab qolish; matndan taqdim qilingan so‘zlarga og‘zaki chizgilar yaratish va keyin shu so‘zlarni qayta yaratish (aytish); avval ko‘rsatilgan, keyin yopiq turgan rasm bo‘yicha predmet va obyektlarni atash, “Bo‘g‘in yo‘qoldi”, “Eng e‘tiborli kim?”, “Quloqqa shivirla”, “Yugurayotgan to‘lqin”, “Rasmni esla” kabi o‘yinlar. Bunday topshiriqlar nafaqat eshitishda nuqsoni bo‘lgan kichik o‘quvchilar xotirasini rivojlantiradiv balki ularning matni to‘liq qayta yaratish, to‘plangan lug‘atdan faol foydalanish, bunda nutqning tovush madaniyatidan foydalanish, adabiy talaffuz qilish malakalari, ifodalanayotgan fikr va hislarga mos intonatsiyasini shakllantiradi.

T.G.Bogdanova [2002], T.A. Grigoryeva [1988], M.M. Nudelman [1971], V. Petshak [1989], T.V.Rozanova [1999], N.V. Yashkova [1988] tadqiqotlariga asoalangan holda o‘qitish mazmuniga o‘quvchilarga asarda emotsional ton va emotsional tonallikning o‘zgarishini tushunishga ko‘maklashadigan mashqlarni kiritdik⁸⁶. Quyidagi mashqlar shu maqsadga yo‘naltirilgan: emotsional toniga ko‘ra yaqin yoki kontrast bo‘lgan matnlarning qiyosiy tahlili; she‘r yoki nasriy asarni o‘qiganda nutqning emotsional toni, sur‘ati va balandligini aniqlash; o‘qishda ma‘lum kayfiyatni (“quvonchdan go‘yo kuylayapsan”, “yorqin va quvnoq”, “syurpriz his qilinsin” va sh.k.) saqlash, matnga asoslanib, o‘yinli vaziyatlarni o‘ynab ko‘rish, o‘yinning o‘z variantlarini yaratish, kundalikka yozuvlar kiritib borish.

O‘qishga o‘rgatishning an‘anavi metodikasidan farqli o‘laroq darsda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolani erkin qo‘yish, unga o‘zini namoyon qilish imkonini berishga harakat qildik. Shu sababli asarga emotsional-baholash xarakterida taassurot (javob)

⁸⁵ Богданова Т.Г. Сурдопсихология. - М.: Академия, 2002. - 202 с.; Григорьева Т.А. Пути развития причинно-следственного мышления глухих школьников. Методические рекомендации. — Л.: ЛВЦ ВОГ, 1979 - 47 с.; Михаленкова И.А. Коррекция сенсорного и интеллектуального развития школьников с нарушением слуха. — СПб.: Речь, 2003. - 104 с.; Розанова Т. В. Зависимость успешности воспроизведения текста от уровня его понимания глухими школьниками // 6 научная сессия по дефектологии. -М., АПН СССР, 1971. - С. 442-423.;Розанова Т. В. Развитие памяти и мышления глухих детей. - М., Педагогика, 1978. - 246 с.;Розанова Т. В. Развитие способностей глухих детей в процессе обучения. -М., Педагогика, 1991. - 176 с.;

⁸⁶Богданова Т.Г. Сурдопсихология. - М.: Академия, 2002. - 202 с.; Григорьева Т.А. Пути развития причинно-следственного мышления глухих школьников. Методические рекомендации. — Л.: ЛВЦ ВОГ, 1979 - 47 с.;Нудельман М.М. Воссоздающее воображение у глухих детей: Об элементарных формах творческого воображения у глухих школьников // Психология глухих детей / Под ред. И.М. Соловьева и др. — М., Просвещение, 1971. - С. 34-57.;Петшак В. Понимание глухими школьниками эмоций других людей // Дефектология. - 1981. - № 4. - С. 14-2; Розанова Т. В. Зависимость успешности воспроизведения текста от уровня его понимания глухими школьниками // 6 научная сессия по дефектологии. -М., АПН СССР, 1971. - С. 442-423.;Розанова Т. В. Развитие памяти и мышления глухих детей. - М., Педагогика, 1978. - 246 с.;Розанова Т. В. Развитие способностей глухих детей в процессе обучения. -М., Педагогика, 1991. - 176 с.;Яшкова Н. В. Наглядное мышление глухих детей. — М.: Просвещение, 1988.-141 с.

uyg'otadigan savollarga katta e'tibor qaratdik: "Hikoya (she'r) senda qanday kayfiyat uyg'otdi?", "Sen nimadan ajablanding?", "Nima seni kulishga majbur qildi?" Qaysi paytda xafalashib qoling?" Bu kabi savollar o'quvchini o'zini o'zi tahlil qilishga o'rgatadi, o'qib chiqqanlari haqida o'ylantiradi. Shunday qilib, o'quvchilarda o'z munosabatini ifodalash malakasi shakllanadi va o'qigan asariga emotsional baho rivojlanadi.

Eksperimental o'qitish mazmuniga eng muhim psixik funksiyalarni rivojlantirishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi mashqlarning kiritilishi nutqiy va kitobxonlik qobiliyatlarini shakllantirish va badiiy asarni to'laqonli idrok qilishga ko'maklashadi.

Shunday qilib, adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining mazmuniy komponenti bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan, birgalikda kitobxonlik, adabiy-ijodiy, kommunikativ mulakalarning shakllanishini ta'minlaydigan elementlarni o'z ichiga olgan yangi tuzilmani gavdalantiradi.

Faoliyatli komponent o'quv jarayoni mohiyatini tobora to'liq aks ettiradi. Pedagog va o'quvchilar faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi. Pedagogik adabiyotlarda [Y.K. Babanskiy, 1989; P.I. Pidkasistiy, 1996; I.P. Podlasiy, 2001] ko'rsatilishicha, bu komponent o'quv faoliyatini tashkil qilishning ma'lum metod, usul, vosita va shakllari vositasida amalga oshiriladi⁸⁷. Pedagoglar bolaning barcha psixik jarayonlarini rivojlantiradigan va "eng yaqin rivojlanish zonasida" yotadigan ish usullarini tanlashni taklif qiladi. Metodlarni tanlashda Y.K. Babanskiy [1989] tomonidan taklif qilingan tasnifga asoslandik⁸⁸, unda uchta guruh: 1) o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlari; 2) o'quv-bilish faoliyatini rag'batlash va motivatsiyalash metodlari; 3) o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'zida o'zi nazorat qilish metodlari ajratib ko'rsatilgan. Bu tasnif "faoliyatga yaxlit yondashuv metodologiyasiga" asoslangan [Babanskiy 1989: 282]⁸⁹. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning adabiy ta'lim jarayonida rivojlanishini ta'minlaydigan metodlarni ishlab chiqishda u yoki bu muayyan metodni tanlash qator shartlar: o'quv fanining xarakteri va mazmuni, didaktik vazifalar, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning nutqiy rivojlanishiga bog'liq ekani haqidagi qoidani [Nikitina 1995: 24] e'tiborga oldik⁹⁰. Sanab o'tilgan guruhlariga oid metodlarni ko'rib chiqamiz.

⁸⁷ Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. - М.: Педагогика, 1989.-559 с.; Подласый И. П. Педагогика начальной школы. М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2000. -М.: Владос, 2001.- 398 с.

⁸⁸ Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. - М.: Педагогика, 1989.-559 с.

⁸⁹ Бабанский Ю.К. Избранные педагогические труды. - М.: Педагогика, 1989.-559 с.

⁹⁰ Никитина М.И. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 43.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishni ta'minlaydigan metodlarga o'qilgan asar mazmunini qayta tiklashga qaratilgan perseptiv metodlarni kiritdik. Gnostik metodlar mustaqil intellektual, nutqiy faoliyat rivojini belgilaydi, aqliy rivojlanishga ko'maklashadi va bolalarda ijodiy tasavvurni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu guruh metodlari ichida *bolani ijodiy rivojlantirish metodiga* alohida ahamiyat qaratamiz. Bu metodning asosiy tavsiflari, fikrimizcha, quyidagilar: 1) o'qituvchi o'qitishning turli vositalari yordamida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi; 2) o'quvchilar fikr yuritadi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar qiladi, to'qiydi; 3) ta'lim kitobxonlik faoliyatiga qiziqishning yuqoriligi bilan kechadi; 4) ta'lim o'quvchilarning estetik, bilishga oid va o'zini o'zi rivojlantirish motivlarini belgilaydi va yo'naltiradi, bular kitobxonlik fikrlash doirasining rivojlanishi va shaxsiy rivojlanishga ko'maklashadi. Ajratib ko'rsatilgan tavsiflar o'qitish amaliyotida kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatiga o'quvchilarni jalb qilishning turli usullarini muvaffaqiyatdan quvonch hissini tuyin uchun sharoit yaratashda qo'llash imkonini beradi. Bolani ijodiy rivojlantirish metodini qo'llashda individual kechinmalar, kuzatishlar, tahliliy fikrlar, kitobxonlik taassurotlari, badiiy iqtidorni, nutqiy ijodni, o'quvchilarning adabiy matnlar bilan ishlashga ehtiyojini rivojlantirish imkoniyatini ko'ramiz.

Metodlarning bu guruhida *muloqotning nutqiy vaziyatlarini yaratish* metodi ahamiyatli hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarga o'qish vaziyatlariga yo'nalganlik olish (nima uchun ular o'qishga o'rganyapti, o'qish ularga nima beradi, kitob tanlashda nimalarga rioya qilish kerak) imkonini beradigan o'quv vaziyatlarini yaratish; o'zining shaxsiy hayotiy taassurotlarini anglash, til vositalari, qahramonlarni mustaqil tanlash, ular harakat qiladigan vaziyatni o'ylash, o'z jumlasini kompozitsiyasini qurish bilan mustaqil jumla qurishga istakni hosil qilishga qaratilgan.

Taklif qilinadigan vaziyatlarda o'quvchilar badiiy asarlarning leksik materialini o'zlashtiradi, uni o'qituvchi yordamida va mustaqil talaffuz qiladi (gapiradi), natijada, o'quvchilarda nutqiy muloqot, nutq madaniyati, labdan o'qish malakasi rivojlanadi.

Shu guruhga kiritilgan boshqa bir metod – *prognozlash metodining* mohiyati nafaqat asarni bevosita idrok qilish vaqtida uning mazmuni va muallif g'oyasini tushunish, balki hali boshlanmagan hodisalar, xatti-harakatlar, voqealarni oldindan faxmlash va ko'ra bilishdan iborat. Fikrimizcha, eshitishda nuqsoni bo'lgan kitobxonning prognostik faolligi bilan birga kechadigan mutolaa uning tasavvurida asarning yaxlit kartinasi, o'z fabulasi yaratilishiga olib keladi. Asarning nomi, illyustratsiyalar ustida ishlash, notanish so'zlarga e'tibor qaratish, matnda yashirin savollarni izlash orqali o'quvchilarda matn mazmunini oldindan faxmlash imkonini beradigan va matnning keyingi idrokini boshqaradigan ustanovkaning shakllanishiga erishamiz.

Bu metod o'quvchilarni mutolaa qilingan asar asosida jumla qurishga o'rgatishda qo'llanadi. O'quvchilar voqea, xatti-harakatlarni prognozlaydi, leksika, leksik birliklarning grammatik shakllari va yaxlit strukturalarni oldindan belgilaydi.

Prognozlash o'quvchini tamoyili al yangi pozitsiya – adabiy o'qish darsini rejalashtirish, tashkil qilish va o'tkazishda faol ishtirok qiladigan o'quv faoliyati subyekti pozitsiyasiga olib chiqadi.

Metodlarning bu guruhida *loyihalar metodi* ajratildi, uning asosini o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati u yoki bu nazariy yoki amaliy muammoni hal qilishda olinadigan natijaga yo'naltirilganligi haqidagi g'oya tashkil qiladi [V.V. Davidov, 1996; I.I. Ilyasov, 1986; V.D. Shadrikov, 2006]⁹¹. Loyihalar metodi o'quvchilarga bilim va malakalarni topshiriqlarni rejalashtirish va mustaqil bajarish jarayonida egallash imkonini beradigan o'quv-bilish usullari yig'indisini o'z ichiga oladi. Savodli tarzda tashkil qilingan loyihalash faoliyati eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning rivojlanishi bilan bog'liq sezilarli pedagogik samara beradi. Tajriba-sinov o'qitish doirasida loyihalash metodi adabiy o'qish darslarida (asarlarni qiyoslash) va sinfdan tashqari o'qish darslarida (qo'lyozma va elektron kitobchalar chiqarish, multfilmlar yaratish, fotoalbomlar tuzish, teatr tomoshalari sahnalashtirish) qo'llandi.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirishni ta'minlaydigan metodlar guruhini realizatsiyalashning asosiy usuli *tayanch ko'rgazmalilik* hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, adabiy ta'lim jarayonida nutqiy rivojlantirish pedagogik tizimida bu usulga o'qishga o'rgatishning an'anaviy metodikasi bilan solishtirganda yangicha yonlashamiz. Avvalo, usuldan biz ta'limda savollar yoki frazalar strukturasidan foydalanish, asosiy aloqa va munosabatlarni ifodalash, mikromavzularni, turli tipdagi matnlarni, fikrlar, dialoglarni tuzish va sxemalarini ajratish imkonini beradigan asoslarni konstruksiyalashga asoslangan bilimlar manbasi sifatida foydalanamiz. Grafik va savollar sxemalari, tayanch konstruksiyalar va savollar konstruksiyaning asosiy komponentlari joylashishini va ularning jumla tuzish uchun aloqasini belgilaydigan reja sanaladi. O'qitish davomida taklif qilingan ko'rgazmali tayanch konstruksiyalar:

- aloqalarni ko'rsatish;
- mustaqil xabarni ifodalagan bog'lamlar bilan ishlash;
- axborotni uning strukturasini tushunish vaqtidayot "hajmli" tarzda uzatish ("makonlilik");
- mazmunni qayta qurish, uni o'zicha, ijodiy qayta anglash;
- kayta konstruksiyalash (sxemani o'zgartirish);
- to'ldirish (yangi axborot kiritish);
- tayanch matnni qayta joylashtirish (ifodalar, bog'lamlar joyini o'zgartirish) imkonini beradi.

⁹¹ Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. — М.: Новая школа, 1996.- 160 с.; Ильясов И.И. Структура процесса учения - М.: МГУ, 1986. - 200с.; Шадриков В.Д. Интеллектуальные операции. — М., 2006. - 252 с.

Ta'limda ko'rgazmali tayanch konstruksiyalardan foydalanib, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni bilimlarni ular vositasida egallash va nutqiy rivojlanishning nisbatan yuqori darajasini egallashga yo'naltiramiz.

Kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatni shakllantirish, rag'batlash va motivatsiyalashga qaratilgan metodlarning ikkinchi guruhida *bilishga qiziqishni shakllantirish metodi* yetakchi o'rin tutadi. Bu metodni ta'limda amalga oshirish kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatga, uning mazmuni, amalga oshirish shakl va metodlariga nisbatan ijobiy hislar shakllanishini ta'minlaydi. Emotsional holat hamma vaqt to'liqlanish, hayajon: javob, hamdardlik, quvonch, jahl, hayrat kabilarni kechirish bilan bog'liq. Ta'kidlash muhimki, o'quvchilarni chuqur ichki kechinmalarga diqqat, ularni eslab qolish, anglash jarayonlariga jalb qilish bu jarayonlarning kechishini erishiladigan natijalar nuqtai nazaridan yanada jadal qa samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bilishga qiziqishni shakllantirishning asosiy usullari: muvaffaqiyat, yangilik, qiziqarlilik, hayratlanish vaziyatlarini yaratish, o'yinli vaziyatlardan foydalanish sanaladi.

Adabiy-ijodiy faoliyat ustidan nazoratni ta'minlovchi metodlar guruhiga *matnni mukammallashtirish metodi* kiradi. Bu metodni realizatsiyalashning asosiy usuli *tahrirlash* bo'lib, uning ahamiyatliligi usul fikrlash, emotsional-irodaviy sohani rivojlantirishning faol vositasi ekani bilan belgilanadi⁹². O'z jumllarini tahrirlash davomida o'quvchilar sarlavha jumlasini g'oyaga muvofiq to'g'rilash; mavzuga va aytilayotgan asosiy fikrga mos bo'lmagan bir yoki bir necha gapni istisno qilish; mavzu va asosiy g'oyani ochib berishga ko'maklashadigan gaplarni qo'shishga oid mashqlarni bajaradi. Tahrirlar usulini qo'llashning ahamiyati uning eshitishda nuqsoni bo'lgan bolani o'z nutqi rivojlanishi yo'lida ilgari olib borishi bilan belgilanadi.

Adabiy o'qish darslari metodni tanlash darsning vazifalari, o'quv materialining mazmuni va o'quvchilarning tayyorlik darajasi bilan belgilanadi. Metod o'qish darslarida va darslan tashqari vaqtda o'ziga xos til muhitini shakllantirish; test sinovlari va mashq bajarishni tashkil qilish; sinfdagi har bir o'quvchining o'zlashtirishini hisobga olish, ta'limni tashkil qilishda differentsiyalangan yondashuvni amalga oshirish; mustaqil ish jarayonida o'quvchilarga individual yordamni tashkil qilish va pedagogik boshqaruv sifatini oshirish yo'li bilan ta'lim mahsuldorligini (natijaviyligini, samaradorligini) oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, faoliyatli komponentda o'qitish metodlari kompleksini ajratish ta'lim bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro ta'sir jarayonini yangicha ta'minlash imkonini beradi. U yoki bu metodning tanlanishi, birinchidan, pedagogik tizimning umumiy maqsadi, muayyan darsning vazifalari kabi, ikkinidan,

⁹² Никитина М.И. Чтение и развитие речи / Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению / Под ред. К.Г. Коровина — М.: Просвещение, 1995. - с. 18 — 24.

tizimning mazmuni, vuchinchidan, o'qitishning bosqichi, to'rtinchidan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning tipologik va yoshga oid xususiyatlari bilan bog'liq.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish mazmunini o'zgartirish o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning yangi shakllaridan foydalanishga ham olib keladi. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining faoliyatli komponenti doirasida an'anaviy frontal darslar kabi, qiziqarli: "dars-bayram", "dars-konsert", "dars-viktorina", "dars-sayohat", "dars-taqdimot" dars-o'yinlar ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan tizimda adabiy o'qish darsi bilan darsdan tashqari faoliyat o'rtasida qat'iy chegaralashning mavjud emasligi tamoyili al yangilik hisoblanadi. Fikrimizcha, adabiy o'qish darslarida va sinfdan tashqari paytda o'quvchilar faoliyatini tashkil qilishning turli shakllaridan foydalanish adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimini qo'llash uchun optimal sharoit yaratadi, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatida yuqori darajalarga erishish imkonini beradi.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimida surdopedagog faoliyatining predmeti eshitishda nuqsoni bo'lgan kichik o'quvchilarning kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatiga ta'lim jarayoni sharoitida rahbarlik qilish hisoblanadi. Rahbarlik qilish jarayoni deganda biz korreksiyalovchi va shakllantiruvchi xarakterga ega bo'lgan va harakat subyektining o'zini o'zgartirish, unda aqliy, estetik, ijodiy faoliyatning turli strukturalarini shakllantirish maqsadini ko'zlagan pedagogik ta'sirni tushunamiz.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimi doirasida pedagogning rahbarlik faoliyati o'zining va o'quvchilarning faoliyatini rejalashtirish, sha faoliyatni tashkil qilish, o'quvchilarning faolligi va kitobxonlik hamda nutqiy malakalar tizimini o'zlashtirishda ongligigini rag'batlash, ta'lim natijalarini nazorat, tahlil va o'quvchilarning nutqiy rivojlanishdagi keyingi ilgarilashini pronozlashdan iborat.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan ko'rinadiki, faoliyatli komponent adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimi strukturasi alohida o'rin egallaydi va boshqa barcha komponentlar bilan uzviy bog'liq.

Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining strukturaviy komponentlarini ishlab chiqishda navbatdagi qadam *baholash-natijaviy komponent*ni ishlab chiqish bo'lib, uning mohiyatini biz pedagogik jarayonning keish samaradorligini aks ettirish va qo'yilgan maqsadga muvofiq erishilgan siljishlarni namoyon qilishda deb bilamiz.

Baholash-natijaviy komponentni ishlab chiqishda adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish darajasi ko'rsatkichlarini kompleks diagnostikalashga tayanamiz, diagnostika nafaqat o'qish texnikasi, balki asarni idrok qilish darajasi, mustaqil jumla yaratish, bibliograif kompetentlik hamda

kitobxonlik va adabiy-ijodiy faoliyatining motivatsion bahosini aniqlashni nazarda tutadi.

Ishonchimiz komilki, adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida o'qitish natijalari diagnostik xulosalarning aniqligi, to'liqligi va o'z vaqtida qilinganiga to'g'ridan to'g'ri va bevosita bog'liq. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar psixik rivojlanishi o'ziga xosligini (bilish jarayonlari kechishining sekinlashuvi, sabab-oqibat aloqalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar, o'zlashtirilgan faoliyat usullarini uning yangi turariga ko'chirishning qiyinligi, emotsional sohaning o'ziga xosligi) hisobga olib, natijalarning eshitadigan o'quvchilar bilan qiyoslaganda bir muncha kechroq ko'zga tashlanishini taxmin kildik.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish pedagogik tizimining (maqsadli, mazmunli, faoliyatli va baholash-natijaviy) komponentlari bir-biriga o'zaro bog'liq, birgalikda tizimning ahamiti va mazmunini hamda kommunikativ, kitobxonlik va adabiy-ijodiy malakalarning shakllanishini belgilaydigan elementlarni o'z ichiga olgan tizimdir.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qish texnikasini o'ziga xos tavsiflang.
2. O'qish darslaridagi asosiy ish yo'nalishlarini ko'rsating.
3. I va VI sinf o'qish kitobidan matn tanlang. Matn asosida ishlash rejasini tuzing. Ko'rgazmali material tayyorlang, uni matn asosida qo'llash yo'lini aniqlang.
4. Ikki guruh o'quvchilari uchun o'qish kitobidan ikkita matn tanlang. Bu xikoyalarni o'qish bo'yicha dars ishlanmasini tuzing.
5. O'qish darslarida lug'at ishiga tavsif bering.
6. O'qish darslarini eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqini rivojlantirish jarayonidagi o'rnini aniqlang.
7. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qishga o'rgatishga zamonaviy yondoshishni yoriting
8. Adabiy ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bolalar so'zlashuv nutqini rivojlantirish bo'yicha pedagogik tizim komponentlariga tavsif bering.

IV –BO‘LIM ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR MAKTABIDA GRAMMATIKANI O‘RGATISHGA SEMANTIK YONDASHUV

I-BOB. Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni grammatikaga o‘rgatish uslubiyati

I .1-§. Maxsus maktabda grammatikani o‘rgatish uslubiyati

Maxsus maktabda grammatikani o‘rgatish uslubiyatning umumiy tamoyillari umuman maxsus pedagogik jarayon tuzilishini belgilaydi, ularni amalga oshirish til o‘qitishning barcha vazifalarini hal etishni ta‘minlaydi. Xususiy tamoyil ona tili bo‘yicha qilinadigan ishlarning tuzilishiga oid uslubiy talablarni belgilaydi. Ushbu tamoyillarda til tizimidagi har bir komponentning o‘ziga xosliklari, kar va zaif eshituvchilar tildagi leksika, grammatika, nutqning og‘zaki va yozma turlari va shakllarini o‘zlashtirishlarining psixologik xususiyatlari aks etadi.

Zaif eshituvchi o‘quvchilarga ona tilini o‘qitishning uslubiy tamoyillari o‘zaro bog‘langan talablar (yoki qoidalar) tizimidir. Uslubiy jihatdan muhim bo‘lgan ikki qoida ushbu tizimga asos qilib olindi. Bir tomondan, tilni maxsus o‘qitishda meyordagi tilni o‘zlashtirishning eng umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqish, ikkinchi tomondan esa, zaif eshituvchi bolalar nutqining rivojlanishida til umumiy qonuniyatlarining o‘ziga xosligini hisobga olish zarur deb topildi. Zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishi, rivojlanishi kechadigan pedagogik jarayon maxsus ravishda tashkil qilindi. U muqarrar ravishda (tilni o‘zlashtirishning meyorda borishiga nisbatan) sun‘iy, ya‘ni maxsus tashkillashtirilgan jarayon tusiga kiradi. Bunday vaziyatda alohida pedagogik shart-sharoitlar ta‘minlanib, kompensatorlik funksiyalarini bajaradigan pedagogik va texnik vositalardan foydalaniladi.

Sog‘lom bolalarga o‘zbek tilini an‘anaviy o‘qitish tamoyillaridan va kar va zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish umumdidaktik va maxsus tamoyillaridan kelib chiqqan holda biz zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan tamoyillarni R.Rustamova quyidagi tartibda beradi⁹³:

1. Tilga o‘qitishning boshqa ta‘lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta‘lim mazmunining uzviyligi tamoyili.

2. Tilga o‘qitishda ta‘lim mazmunining insonparvarlik tamoyili.

3. Tilga o‘qitishning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalarga tayanish tamoyili.

4. Til o‘qitishdagi kommunikativ yo‘naltirilganlik tamoyili nutqni tildan kommunikatsiya maqsadlarida, ya‘ni matndagi (fikr-mulohazalardagi) ma‘lum qilinayotgan (qabul qilinayotgan, qayta ishlanayotgan) axborot yordamida o‘zaro tushunishni yo‘lga qo‘yish uchun foydalanishdan iborat faoliyat deb tushunishga tayanadi. Bu tamoyil o‘zlashtirish davomida muloqot funksiyasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

⁹³Rustamova R.R. Boshlang‘ich sinflarda zaif eshituvchi o‘quvchilar nutqining grammatik qurilishini shakllantirish Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TDPI. 2009.

Didaktik jihatdan kommunikatsiya tamoyili nutqni muloqot vositasi va fikrlash quroli sifatida shakllantirish maqsadidan kelib chiqadi. U til o'qitish jarayonining amaliy yo'naltirilganligini ta'minlashi lozim. Bu tamoyil til materialini qo'llash jarayonida undan (bevosita va bilvosita, o'qish va yozish tarzida) muloqot qilish, atrof dunyo to'g'risida bilim orttirish maqsadida foydalanish jarayonida o'zlashtiriladi.

Kommunikatsiya tamoyili maxsus maktabda o'qitishning dastlabki paytida zaif eshituvchi bolaning deyarli mutlaqo nutqi bo'lmagan hollarda ayniqsa izchil ifodalanadi. Nutqi nisbatan shakllangan zaif eshituvchi bolalarda kommunikatsiya tamoyili nutqni tuzatish, rivojlantirish va takomillashtirish talabi bilan qo'shib namoyon bo'ladi. Tilni amaliy o'zlashtirib, undan keyingina uni fan sifatida o'rganishga kirishish mumkin. Biroq keyinchalik ham nutq rivojidagi kamchiliklarning o'rnini to'ldiradigan katta ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Nutqning rivojlanmaganligi semantik (ma'noviy) tusdaligi hisobga olinib, til o'qitishdagi kommunikativ yo'naltirilganlik tamoyili o'quvchilarning ongini atrof dunyo to'g'risidagi tasavvur va tushunchalar bilan boyitib boradi, ularning nutqini fikrlashining mazmuniy tomonini rivojlantirish bilan uzviy ravishda bog'lagan holda o'stiradi.

Nutqiy faoliyat eshitmaydigan bolalar o'zlashtirishi uchun murakkab faoliyat bo'lib nutq o'stirish, ona tili, o'qish darslaridagina emas, balki bu faoliyat o'quv rejasidagi barcha fanlarda, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ham shakllantirilishi kerak. Nutqni o'stirish ishining sinfdagi shakllari va sinfdan tashqari shakllarini birga qo'shib amalga oshirish, o'quvchilarning qulog'i eshitadigan tengqurlari va kattalar bilan muloqotda bo'lishlari uchun jamiki imkoniyatlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar faoliyatining barcha turlari ularning nutqini o'stirishga xizmat qilishi darkor.

5. Zaif eshituvchi bolalar passiv va aktiv nutqni o'zlashtirish- laridagi izchillik ularning nutqini o'stirishda alohida rol o'ynashini hisobga olgan holda tilni maxsus o'qitishda nutq faoliyatining reproduktiv, rekonstruktiv va produktiv jihatlarini va bosqichlarini farqlash tamoyili qo'llanildi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarning nafaqat fikr-mulohaza tuzishda, balki o'zgalar fikr-mulohazalarini qabul qilish va tushunishda qiynalishlari tadqiqotda aniqlandi. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish nutq faoliyatining barcha tomonlariga (yoki nutq harakatining barcha komponentlariga: qabul qilishga, tushunishga, so'zlashga) maxsus uslubiy yondashuvlarni talab qiladi.

Uslubiy tizimda nutqni tushunishning dastlabki rivojlanish bosqichi passiv nutqni o'zlashtirishdan boshlanishi ko'zda tutilgan. Bu bosqichdagi pedagogik ish bolaning nutqiy muloqotga qo'shilishini ta'minlaydi, uning nutqiy faolligini o'stirishga ko'maklashadi. Bunda mashg'ulotlar shunday tuzilishi kerakki, avvaliga o'quvchilar o'zlariga qaratilgan nutqni tushunishda aniq vaziyatga tayansinlar. Asta-sekin shunday sharoit yaratilishi kerakki, bunda bolalar og'zaki va yozma fikr-mulohazalarni qabul qilib, so'zli (kontekstli) vaziyatga, ya'ni so'zlar, so'z birikmalari, gaplar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarga qarab mo'ljalni ola biladigan bo'lsinlar.

6. Barcha boshqa nutqiy funksiyalar rivojlanishi munosabati bilan nutqni shakllantirish va tuzatish tamoyili. Ushbu tamoyilga amal qilish pedagogning zimmasiga nutqdan tashqari darajada ham, nutq darajasida ham bolalarning sensorikasi (sezgi organlari)ni rivojlantirishga diqqat-e'tibor qilish (bolalarning qabul qilishiga, kuzatishlariga boshchilik qilish, ularga narsalarning turli xossalari va belgilarini tahlil qilishni o'rgatish) vazifasini yuklaydi.

Talaffuzga o'rgatish, og'zaki nutqni ko'rib-eshitib qabul qilish ko'nikmalarini, eshitish qoldig'ini rivojlantirish va undan foydalanish, ularning barchasi butun bir majmua bo'lib, nutqning sensomotor tayanchini takomillashtirishga ko'maklashadi, bu esa so'zli fikrlashning moddiy negizini mustahkamlashga olib keladi.

Abstrakt tafakkurni rivojlantirish va u asosida bilish jarayonlarini shakllantirishga ko'maklashadigan pedagogik ish usullari (tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish, mulohazalar, xulosalar tuzish) muhim rol o'ynaydi. Ular nutqni sezgi organlari yordamida qabul qilinadiganlarini ham, til vositalaridan foydalanishni talab qiladiganlarini ham aniqlash uchun qo'llaniladi.

Eshitishdagi nuqsoni va uning oqibatida nutqi rivojlanmagan zaif eshituvchi bolalar uchun shunday pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi talab qilinadiki, ushbu sharoitlarda meyorda tilni o'zlashtirishning umumiy qonuniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'la olishi, shu tariqa nutqning rivojlanmaganligini asta-sekin bartaraf etishga, nutq mexanizmlarini shakllantirishga, mustaqil nutq faoliyatining til umumlashmalari jadallashishiga ko'maklashsin; uning amaliy ro'yobga chiqarilishida pedagogik jarayonni tuzishda yuqorida tilga olingan (tilni o'zlashtirishning umumiy qonuniyatlarini aks ettiradigan) qoidalar alohida usullar va vositalardan foydalanish bilan birga kompleks ravishda amalga oshirilsin. Shunda nutq rivojlanishi barcha omillarining ta'sirchanligini ta'minlaydi, nutqi rivojlanmagan zaif eshituvchi bolalarda kuzatiladigan o'ziga xos moyilliklarni, qiyinchiliklarni, tipik xatolarni bartaraf etishga olib keladi. Quyidagilar shularning eng muhimlaridir:

- maxsus ravishda tanlab olingan va tizimlashtirilgan nutq materiali asosida ish olib borish;

- til o'zlashtirish jarayonini alohida-alohida, lekin o'zaro bog'langan (lug'at boyligini oshirish, grammatik qurilishni shakllantirish, og'zaki nutqni ko'rib-eshitib qabul qilishni o'zlashtirish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish, dialog va monologni o'rgatish, savodxonlikni o'rgatish kabi) qismlarga bo'lish;

- nutq amaliyotiga til umumlashmalarini shakllantirish mashqlarini kiritish (bunday qilinishi tilning barcha funksiyalarini o'zlashtirishni tezlashtiradi);

- muloqot qilish ehtiyojini keltirib chiqaradigan vaziyatlarni yaratish (bunday qilinishi nutqqa tabiiy motivatsiyalanganlikni baxsh etadi);

- yozma nutq, yozuv va o'qishdan nafaqat og'zaki nutqqa, balki umuman nutq va fikrlashga ham ijobiy ta'sir etadigan tuzatuvchi, rivojlantiruvchi vositalar sifatida foydalanish;

- bolalarni so'z asosidagi umumlashmalarga olib kelish uchun til o'qitishning ko'rgazmali vositalarini keng jalb etish.

7. O'quvchilar til qonuniyatlarini anglagan holda o'zlashtirishlari asosida nutq ko'nikmalarini avtomatlashtirish tamoyili. Mazkur tamoyilni amalga oshirish

tilni maxsus o'qitishda, normal rivojlanuvchi bolalarda yuzaga keladigan tilni o'zlashtirishdagi psixologik shart-sharoitlar yo'qligining o'rnini bosishini ta'minlaydi.

Nutqning alohida elementlarini, so'zlar o'zgartirilishi va birlashtirilishi usullarini anglangan va ixtiyoriy tarzda o'zlashtirishni ta'minlash tilni maxsus o'qitishning aylanma yo'li deb qaralishi kerak (chunki u normadagi tilni intuitsiyali-anglanmagan tarzda o'zlashtirishga qarama-qarshidir). Anglanganlik o'quvchilar tilidagi ma'nolarni, ularning voqelik bilan bog'lanishini tushunib olishlarida, til vositalaridan ixtiyoriy tarzda foydalana olishlarida ifodalanishi kerak. Nutq ko'nikmalarini avtomatlashtirish tamoyili tilning turli jihatlari uchun maxsus ravishda ishlab chiqilgan qaytariladigan mashqlaridan foydalanishni nazarda tutadi (masalan, grammatik qonuniyatlarni o'zlashtirish uchun o'quvchilar tushuncha-so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni dastlab anglagan grammatik ma'nolari asosida so'z birlashtirish va gaplar tuzish bo'yicha har xil amal va operatsiyalar bajaradilar).⁹⁴

8. Maxsus ravishda tanlab olingan, tashkil qilingan va uslubiy jihatdan ishlangan material asosida shakllantirish tamoyili. Ushbu tamoyil zaif eshituvchi o'quvchilar taqlid qilish, faol ravishda qayta ishlash va o'zlashtirish uchun til materiali olib turishlari kerak bo'lgan sun'iy nutq muhitini yaratish oqibatidir.

Til o'rgatishning maxsus (ya'ni maxsus yaratiladigan) sharoitlarida til materiali nutqqa o'quvchilarning real ruhiy-jismoniy imkoniyatlari, o'quv mashg'ulotlariga ajratiladigan vaqt, darslarda va darsdan tashqari vaqtda tashkil qilinadigan nutq amaliyotining hajmi va xususiyatlariga muvofiq ravishda tartibga solinadigan tarzda kiritilishi zarur.

9. O'quvchilarda til umumlashmalarini shakllantirish jarayonini tezlashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish tamoyili. Nutq psixologiyasidan ma'lumki, til umumlashmalari mustaqil nutq faoliyatining negizini tashkil etadi. Ular til o'zlashtirishning tabiiy sharoitlarida nutqiy muloqotning keng amaliyoti tufayli yuzaga kelib, rivojlanadi va mustahkamlanadi. Bolada ular o'z vaqtida shakllanishi bilish faoliyatining takomillashish jarayoni bilan o'zaro bog'liqlikda nutqni qabul qilish, tushunish va so'zlashish ko'nikmalari tartibli tarzda rivojlantirilishi bilan ta'minlanadi.

Maxsus maktabga ilk bor o'qishga kelgan zaif eshitadigan bolalarda til umumlashmalari mavjud emas, shakllanmagan yoki juda past darajadadir. O'qitishning maxsus ravishda tashkil qilingan sharoitlarida nutqiy muloqot amaliyotining o'zi zaif eshituvchi bolalarda to'la qiymatli til umumlashmalari hosil qilish uchun yetarli bo'lmaydi. Shu sababli dialog, og'zaki va yozma monolog nutqi shaklidagi nutq amaliyotini mumkin qadar boyitish uchun sharoit yaratishga, o'quvchilarda fonetik, leksikaviy va grammatik umumlashmalarni shakllantirishni tezlashtirishga va ularni rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan alohida mashg'ulotlarni kiritish ko'zda tutilgan. Aslida bu mashg'ulotlar ham nutq amaliyotidir. Lekin maxsus ravishda tanlab olingan fonetik, leksikaviy va grammatik

⁹⁴ Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010. -126 p.

material asosida alohida tarzda tuzilgan mashqlar tizimi shaklida tashkil qilingan nutq amaliyotidir.

Maxsus mashg'ulotlar tizimidan foydalanish orqali til umumlashmalari barcha darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda xilma-xil nutq amaliyoti davomida mustahkamlanadi.

10. Tilning turli jihatlarini o'rtasida mavjud bo'ladigan tizimli munosabatlar nutqni rivojlantirish va korreksiya qilish ishida aks ettirilishi tamoyili. Bola til o'zlashtirayotganda asta-sekin til tizimini (yoki til komponentlari o'rtasidagi tizimli munosabatlarni) ham o'zlashtirib boradi. Bunda ushbu jarayon tekis kechmayotganligi ayon bo'ladi. Lekin, masalan, leksikani o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlar fonetikani o'zlashtirishga ijobiy ta'sir etadi, grammatik qurilishni egallash so'zlar ma'nosini aniqlash va kengaytirish, talaffuzni takomillashtirishga ham ko'maklashadi.

11. O'quvchilarni o'qitish va rivojlantirish vositalari sifatida va ularda so'zli nutq va abstrakt tafakkurni shakllantirish vositalari sifatida nutqning xilma-xil turlari, shakllari va usullaridan tartibga solgan tarzda foydalanish tamoyili. Maxsus uslubiyatda nutqning og'zaki, yozma, daktil shakllariga, undov, dialog, tavsif-darak usullariga xos bo'lgan xususiyatlar psixologik, lingvistik, didaktik nuqtai nazarlardan qaraladi. Bunday yondoshishning maqsadi nutqning boshlang'ich shakllarini o'qitishda ulardan foydalanishning izchilligini mumkin qadar maqsadga muvofiq ravishda tanlash masalalarini hal qilishdan, ularning qaysilari nutq va tafakkurni rivojlantirishning u yoki bu maqsadlariga yuqoriroq darajada xizmat qilishini aniqlashdan iborat.

Masalan, bolalarning faoliyatini tashkil etayotganda, ularga zaruriy nutq materialini tabiiy muloqot vaziyatiga nihoyatda yaqinlashtirilgan holda ma'lum qilayotganida pedagog foydalanadigan buyruq, topshiriq, iltimoslar tarzidagi undovli nutq zaif eshituvchi bolalar nutqiy rivojlanishining boshlang'ich pog'onalarida eng qulay va samarali bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Nutqning ushbu turi didaktik jihatdan o'quvchilarni tavsif va dialogik usullarga olib kelish uchun ham qulaydir.

Nutqning daktil shakliga yordamchi rol ajratildi. Undan og'zaki nutqni qabul qilishni yengillashtiradigan, so'zlarning tovush tarkibini aniqlashtiradigan, o'quvchilarning nutqdagi xatolarini tez va samarali tuzatishga yordamlashadigan vosita sifatida foydalanildi.

Zaif eshituvchi bolalarni maxsus o'qitishda yozma nutq muhim o'rin tutadi. Yozma nutq o'quvchilar nutqiy muloqotini shakllantirish vazifalarini hal qilishda katta yuklamani bajaradi, aqliy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida, atrof dunyo to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirish va aniqlashtirishning mukammalroq yo'li sifatida foydalaniladi.

12. Nutq shakllari va turlaridan tabaqalashtirib foydalanish tamoyiliga rioya etib, o'qituvchi til bo'yicha yangi materialni kiritish yo'llarini tanlash, uni dastlab semantizatsiyalash va bolalarni umumlashtirish tomon olib kelish masalalarini hal qiladi. Shu tamoyilga amal qilib, pedagog o'quvchilarning nutqiy faolligini rag'batlantirish uchun, ular so'zlarni aniqroq tushunishlarini nazorat qilish uchun, u

yoki bu nutqiy ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini aniqlash va mustaqil fikr-mulohazalarni tuzatish uchun imkoniyatlar topadi.

13. Zaif eshituvchi o'quvchilar maxsus tashkil etilgan o'quv-tarbiya jarayonidan tashqari, mustaqil ravishda orttiradigan nutq zaxirasini qo'llash, tuzatish va aniqlash tamoyili. Til materialini hatto g'oyat kam miqdorlarda bo'lsa-da, o'zlashtirish imkoniyati zaif eshituvchi bolalar nutqini o'stirishning o'ta muhim omili bo'ladi. Bunday imkoniyatlarning kengaytirilishi nutq ustida maxsus dastur bo'yicha ishlash samaradorligi darajasi bilan ham, o'qituvchi bolalarning mustaqil ravishda til materialini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga doimiy ravishda o'z e'tiborini qaratishi kerakligi bilan ham belgilanadi. Bu e'tibor mustaqil ravishda orttirilgan materialning ma'nolari va shakllarini aniqlashtirishda bu materialni faollashtirishda, bolalarga yordam berishda, undan mustaqil nutqda to'g'ri foydalanishni o'rgatishda ifodalanishi lozim.

Suhbatlar, (muloqotlar) dialoglar jarayonida, jamoa bo'lib tuziladigan og'zaki va yozma hikoyalarda, mustaqil ravishda bajariladigan yozma ishlarda o'qituvchi bolalarning darslardan tashqari orttirgan nutq tajribasidan foydalanishdagi tashabbusini qo'llab-quvvatlashga intiladi, tegishli materialga o'quvchilarning e'tiborini jalb etadi, bu materialni jamoa bo'lib muhokama qilishni tashkil etadi.

14. Eshitish qoldiqlaridan keng miqyosda foydalanishga tayanish tamoyili. Bunda o'tiladigan (yoki takrorlanadigan) material ekran ortidan quloqning o'ziga yoki eshitishni kuchaytirib beruvchi apparatlar yordamida beriladi.

15. O'quvchilar nutqining holatini muntazam o'rganish jarayonida olinadigan ma'lumotlarni hisobga olish asosida o'qitishni tuzish tamoyili. Bu tamoyilga rioya etilmasa, pedagogik jarayonni tuzish o'zining konkretligini yo'qotadi, o'qituvchi uni boshqarish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Bolalar nutqini o'rganish uning tipologik xususiyatlarini ham, shaxsiy xususiyatlarini ham aniqlashga qaratiladi. Ushbu nutqning rivojlanganlik (ayrim jihatlar, ko'nikma va qobiliyatlar, tipik qiyinchiliklar va nutqdagi xatolar), ona tili dasturiy materiali bilimlarini, ulardan nutq amaliyotida foydalanish xususiyatlarini (grammatika qoidalari, tushunchalar, imlo ko'nikmalari va qobiliyatlarini) egallaganlik darajasi o'rganiladi. O'quvchilar nutqining holatini o'rganishning maqsadi yalpi va individual ishlarda uning konkret vazifalari, imkoniyatlari va yanada rivojlantirilish istiqbollari aniqlashdan iborat. Ushbu o'rganish o'qitishning boshlanishidan oldin bolalarni dastlabki imkoniyatlarini tekshirish va ularning nutqini (maxsus o'qitishning zaruriyati va tabiati to'g'risidagi masalani hal qilish maqsadida) o'rganib chiqish shaklida, bolaning muloqot vositasi sifatidagi nutqni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini kundalik kuzatishlar (nutq o'stirishda yo'l qo'yiladigan xato, kamchilik va nuqsonlar tahlili) shaklida, konkret nutq materialini bilan bog'langan holda umuman nutqni yoki alohida nutq ko'nikmalari va qobiliyatlarini nazorat tarzidagi vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tekshirishlar (tekshirish ishlari, nazorat ishlari, o'tilgan material bo'yicha suhbatlar o'tkazish va hokozalar) shaklida amalga oshiriladi.

Bola nutqini o'rganish uchun olingan material belgilab qo'yiladi, tahlil qilinadi, ilgari o'tkazilgan kuzatishlar va tekshirishlar bilan taqqoslanadi. Bunday

tahlil bola nutqi o'sishi jarayonining dinamikasini, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish va binobarin, shu bilan bog'langan holda o'qituvchining uslubiy harakatlari samaradorligini baholash, keyingi ishlar yo'llarini belgilab olish imkonini beradi. Nutq o'stirishning va til to'g'risida bilim orttirishning borishiga ta'sir etadigan omillarning murakkabligini, nutq o'stirish jarayoni o'zining murakkabligi va ko'p tomonlamaligini, unda ushbu jarayonni tarkib toptiruvchi turli tomonlar o'zaro bog'lanishini hisobga olgan holda nutqni o'rganishni sobitqadamlik bilan, uning oldiga goh bir vazifani, goh boshqa vazifani qo'yish yo'li bilan olib borishga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu o'rganish doimiy va muntazam bo'lishi lozim, shundagina u nutq o'stirishdagi umumiy manzarani ham, uning konkret namoyon bo'lishlari to'g'risida zaruriy bilimni ham bera oladi.

I.2-§ Maxsus maktabda grammatikani o'rgatish dasturi mazmuni

R.Rustamova tomonidan ishlab chiqilgan «Tilning grammatik qurilishini shakllantirish» dasturi talablari tildagi asosiy grammatik qonuniyatlarni tizimlashtirish va o'quvchilarning faol nutqini shu asosda shakllantirishni ko'zda tutadi, ushbu dasturda taklif etilgan material shunday grammatik minimum, grammatik hodisalar mikrotizimidirki, uning amaliy o'zlashtirilishi tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishning zaruriy shartlaridan biri bo'ladi⁹⁵.

Zaif eshituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqining grammatik qurilishini shakllantirish ishlari quyidagi besh bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda o'quvchilarga kim? nima? nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar o'rgatilib, lug'at boyligi oshirib boriladi.

Ikkinchi bosqichda zaif eshituvchi o'quvchilar kim? + nima qilyapti?, nima? + nima qilyapti? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar asosida, tuzilmalar yordamida sodda yig'iq gaplar tuzishni amaliy egallaydilar.

Uchinchi bosqichda bolalarning aktiv lug'atlariga qanday?, kim (-ning, -ni, -ga, -da, -dan)?, nima (-ning, -ni, -ga, -da, -dan)?, qaer (-ning, -ni, -ga, -da, -dan)?, nechta?, qachon? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar kiritilib, ular asosida berilgan tuzilmalar yordamida sodda yig'iq gap tuzishdan sodda yoyiq gap tuzishga o'rgatib boriladi.

To'rtinchi bosqichda va, shuning uchun, shu sababli, chunki, ammo, lekin, biroq bog'lovchilari yordamida, berilgan tuzilmalar asosida qo'shma gap tuzishga olib kelinadi.

Beshinchi bosqichda tugallangan mazmuni anglatuvchi 8-12 ta so'zdan iborat gaplardan tarkib topgan qisqa hikoya tuzishga o'rgatildi, keyinchalik 15-20, 25-30 so'zdan iborat mantiqiy jihatdan bog'langan harakatni izchillik bilan bayon etuvchi, sabab, maqsad, intilishni anglatuvchi, voqelikni izhor etuvchi fikrni bayon etish talab qilindi. Qisqa mazmunli hikoyalar yozishda syujetli rasm, rasmlar seriyasidan foydalanildi, tematik suhbatlar O'qitishning boshlang'ich bosqichida tilni amaliy o'zlashtirish vazifasiga muvofiq grammatik munosabat materialni tanlab olish va

⁹⁵ Rustamova R.R. Boshlang'ich sinflarda zaif eshituvchi o'quvchilar nutqining grammatik qurilishini shakllantirish Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TDPI. 2009

tizimlashtirish uchun birlamchi omil sifatida, ifodaning til vositalari esa ikkilamchi omil sifatida qabul qilindi. Bolalarning qobiliyatlariga qo'yiladigan talablarda grammatik kategoriyalarning mazmuni va shakl birligi tamoyilini aks ettirgan holda dastur birinchi navbatda ularning tushuncha-ma'no tomonini o'zlashtirishni ta'minladi. O'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash uchun grammatik vositalarni o'zlashtirishlarini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib, tilning grammatik qurilishini shakllantirish dasturida o'quvchilar bitta grammatik qonuniyatni amaliy o'zlashtirishdan boshqasini o'zlashtirish va nihoyat, ushbu qonuniyatlarni amaliy tarzda tizimlashtirgan holda asta-sekin bog'langan nutqning shakllanishiga olib kelindi.

O'quvchilarda bog'langan nutqdan faol foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish so'zlar grammatik shakllaridagi va so'zlarni o'zaro bog'laydigan grammatik bog'lanishlardagi ma'nolarni ochib berish borasida muntazam ish olib borish asosida amalga oshirib borildi. So'z, so'z birikmasi, gap, matn bilan xilma-xil ish olib borilishi bolalarning o'rganiladigan grammatik birliklarni ishlatishni tushunib olishlariga erishishga va shu tariqa ularning aqliy va nutqiy rivojlanishi darajasini oshirishga imkon berdi.

Dastlabki til birligi sifatida, nutqning leksik hamda grammatik tuzilmasi sifatida ish olib boriladigan so'z birikmasi olingan. Dasturda so'z birikmalarining modellari berilgan bo'lib, ushbu modellar asosida bog'langan fikr-mulohazaning asosiy birligi bo'lgan gap qurilish jihatidan shakllantirildi. Nutq grammatik qurilishini shakllantirish borasidagi ishlarning birinchi davrida bir yo'la gaplar tarkibidagi so'zlar morfologik qonuniyatlarning ma'nolarini aniqlashtiradigan tarzda gap tuzish ko'nikmalari shakllantirildi. Umuman olganda bu otlarga (son, kelishik, egalik), fe'llarga (zamon, shaxs), olmoshlarga (son), sifatlarga, ravishlarga, sonlarga xos bo'lgan qonuniyatlarni qamraydi.

Nutq grammatik qurilishini shakllantirish ishlarining ikkinchi davrida ma'lum til faktlari tizimlashtirildi. O'quvchilar otlar, fe'llar, sifatlar, olmoshlarning ma'no o'zgartirish xususiyatlarini tavsiflaydigan qonuniyatlarning umumlashtirilgan holatini amaliy egallashga yaqinlashtirildilar. Bu grammatikaning boshlang'ich kursini o'rganishga o'tish bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Dastur tilning asosiy grammatik qonuniyatlarini amaliy o'zlashtirish va ularni tizimlashtirish (umumlashtirish) bilan bir qatorda bog'langan nutqqa so'z yasashdagi turli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan so'zlarni ham kiritishni ko'zda tutadi. So'z yasash turli modellarni amaliy o'zlashtirish o'quvchilar so'z boyligini oshirishga ko'maklashibgina qolmay, so'zlarning ma'nosini, ularning o'zaro bog'lanishini yaxshiroq va to'laroq anglab yetish imkonini ham berdi, so'zlarni to'g'ri ishlatadigan bo'lishga ko'maklashadi. Ya'ni zaif eshituvchi o'quvchilar harakat ifodalangan rasmni, belgi sifat ifodalangan rasmni nomlab gap tuzadilar, lekin grammatik kategoriyalar (ot, sifat, fe'l)ga bo'lmaydi.

1-4-sinflarda nutq grammatik qurilishini shakllantirish asosan sodda gap negizida amalga oshirildi. V-sinfdan boshlab murakkab sintaktik tuzilmalar, makon, sabab, maqsad, zamon va ob'ektga oid ma'noviy munosabatlarni ifodalaydigan qo'shma gaplar tuzish o'zlashtirilishi ham ko'zda tutildi.

Tilning grammatik qurilishini o'zlashtirish ishlari jarayonida o'quvchilarda asta-sekin amaliy grammatik umumlashmalar shakllanib bordi. So'zlarni kim?, nima?, nima qilyapti?, qanday? (qaysi?) degan savollar bo'yicha ajratish «predmet», «harakat», «belgi» degan tushunchalarga, keyin esa «so'z turkumi» degan umumiyroq tushunchaga olib kelindi. Gaplarda ot va fe'l birikmalaridagi qo'shimchalar bo'yicha birlik va ko'plik sonlarni ajrata olish «son» grammatik tushunchasiga negiz yaratdi (Masalan, *O'quvchi yozyapti. O'quvchilar yozyaptilar.*). Fe'llarning zamonlar bo'yicha o'zgarishini kuzatish o'quvchilarni «tuslash» tushunchasini o'zlashtirishga, gap tarkibidagi otlar grammatik shakllari ma'nolar o'zgarishiga qarab o'zgarishini kuzatish esa «turlash» tushunchasini o'zlashtirishga tayyorladi.

Tuslanish to'g'risidagi tushuncha fe'llar va kishilik olmoshlari leksik-grammatik tavsifini to'ldirdi va ushbu so'z turkumlarining grammatik xususiyatlarini aniqlashtirdi.

Asta-sekin «ot», «sifat», «fe'l» (4-sinfda), «olmosh», «qo'shimcha» (5-sinfda) atamaları kiritildi. Shu tarzda 1-5-sinf (birinchi bo'lim), 1-6-sinf (ikkinchi bo'lim) zaif eshituvchilar dasturi meyordagi 1-4- sinflar standart talablariga tenglashdi. Bunda jumladan, o'quvchilar nutq ko'nikmalarini va amaliy grammatik umumlashmalarni o'zlashtirish bilan bir qatorda imlo borasidagi bilim va qobiliyatlarni, chiroyli yozuv ko'nikmalarini o'zlashtirib borishlari ham ko'zda tutildi. Dasturda «Grammatika va imlo» bo'limida taqdim etilgan material quyidagilarni o'z ichiga oldi:

1. Imlo va punktuatsiya- to'g'ri yozish ko'nikmalari (1-4-sinflar);
2. Yozuvning grafika tomoniga qo'yiladigan talablar, husnixat (1-5-sinflar).

Nutq grammatik qurilishini shakllantirish darslarida orttirilgan nutq ko'nikmalari o'quvchilarning kundalik o'quv amaliyoti va sinfdan tashqari nutq amaliyotida ishlatilishi kerak. Bir tomondan, bu dasturdagi o'rtalarida davomiylik mavjud bo'lgan bo'limlarga taalluqlidir; ikkinchi tomondan, nutq grammatik qurilishi darslarida o'quvchilar nutq o'stirish va o'qish darslarida o'zlashtirgan leksik materialdan foydalanishlari lozim.

Umuman o'quvchilar alohida bo'limga ajratilgan «Grammatika va imlo» boshlang'ich kursini o'zlashtirishga tayyorlab boriladi .

Grammatika va imlo

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish bilan birga ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va maktab o'quvchisini shaxs sifatida shakllantirish: uning fuqarolik sifatlarini tarbiyalash, bilimga qiziqishini, mustaqilligini, mehnatsevarligini, mas'uliyatligini, ish uchun javobgarligini, qiyinchiliklarni yenga borish qobiliyatini tarbiyalash boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosiy maqsadidir.

Kichik yoshli maktab o'quvchilarini aqliy va nutqiy rivojlantirishning samaradorligi ularning barcha o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarini yanada muvaffaqiyatli o'zlashtirib borishlariga bog'liq bo'ladi.

Fonetika, grammatika, imlo boshlang'ich kursi o'rta maktabda o'tiladigan

o'zbek tili fanining mazmuni bilan uzviy bog'langan va o'zbek tilining turli jihatlariga taalluqli bo'lgan keng ma'lumotlar doirasini qamraydi. O'quvchilar so'zning fonetik tarkibi, so'zning bo'g'inlarga va ma'noli qismlarga bo'linishi, deyarli barcha so'z turkumlari va ularning muhim shakllari, gaplarning eng oddiy turlari, gap bo'laklari va qator imlo qoidalari bilan tanishdilar. Dastur shuningdek o'quvchilarning so'zning leksik ma'nosi bilan omonimlar, sinonimlar, antonimlar bilan amaliy tanishishlarini nazarda tutadi.

Fonetika, leksika, grammatika va imloga oid eng oddiy ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida bolalarda fikrlash qobiliyatlari: til materialini tahlil qilish, taqqoslash, guruhlashtirish va umumlashtirish, adabiy nutq qobiliyatlari va ko'nikmalari shakllandi; asosiy til birliklari - so'zni, gapni ishlatish munosabatlari yuzaga keldi.

O'zbek tili boshlang'ich kursida «Tovushlar va harflar», «So'z», «Gap» bo'limlari eng muhim bo'limlardan hisoblanadi.

Tovushlar va harflar

Shu bo'lim bo'yicha asosiy bilim, qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'quvchilar 1-3-sinflarda orttiradilar. Ular tovushlar va harflar hamda ularning o'zaro bog'lanishi, unli va undosh tovushlar, bo'g'in, urg'u, jarangli va jarangsiz tovushlar to'g'risida ma'lumot oladilar, ko'rgazmali chizmalarga tayangan holda so'zlarning oddiy tovush-harf tahlilini amalga oshirishni o'rganadilar.

4-5-sinflarda ushbu bo'lim bo'yicha qobiliyat va ko'nikmalar yanada rivojlantiriladi. So'zlarning tovush-harf tahlili takomillashtiriladi (so'zlar orfogramma bilan birgalikda olib qaraladi), o'quvchilarning nutqni eshitish qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor kuchaytiriladi. Bu ish avvalo o'quvchilarning xatosiz ko'chirib yozish, aytib turiladigan matnni yozish, yozilganlarni tekshirish, savodxonlik darajasini oshirish usullarini o'zlashtirishga yo'naltirilishi kerak. Ushbu bo'lim bo'yicha muhim dasturiy talab shundan iboratki, bolalar nutq tovushlarini eshitganda farqlay olishlari va ularni yozuvda o'zbek grafikasining qoidalariga muvofiq ravishda belgilashlari kerak.

Bolalar o'zbek tili imlosiga xos bo'lgan, ya'ni yozish va talaffuz bir-biriga ko'pincha to'g'ri kelmasligi fakti bilan tanishadilar. Ular so'zlardagi jarangsiz va jarangli undoshlar talaffuzi va yozilishidagi farqlarni bilib oladilar.

"Tovushlar va harflar" mavzuida olib boriladigan ish, shuningdek kichik yoshdagi maktab o'quvchilari og'zaki nutq madaniyatini takomillashtirishga tovushlarning aniq talaffuz qilinishiga, so'zlarning to'g'ri aytilishiga qaratilishi kerak.

So'z

Dasturda so'z leksik va grammatik jihatdan ko'riladi.

Barcha o'quv yillari mobaynida so'z (leksika) borasida ish olib borishga katta ahamiyat berilishi lozim. Bu mashqlar amaliy tusda bo'lib, grammatika va to'g'ri yozishni o'rganish bilan bog'lab bajarib borildi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilariga leksika bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilmaydi. O'qish, grammatika, to'g'ri yozish va nutq o'stirish darslari materiali asosida kuzatuvlar olib borilib, bu kuzatuvlar jarayonida o'quvchilar so'zlar u yoki bu narsalar va voqelikdagi hodisalarni

belgilashini, ma'nolari jihatidan o'zaro yaqin yoki teskari bo'lishini, gapda matnda bir yoki bir necha ma'noda ishlatilinishi mumkinligini anglab oldilar.

Bolalar fikrlarini aniq ifodalash uchun ma'no jihatidan eng mos keladigan so'zlarni tanlashni o'rgandilar. Asta-sekin ularning so'z boyligi ko'payib, kengayib va faollashib bordi.

1-sinfda o'quvchilarga so'z tarkibi to'g'risida tushuncha-tasavvur berib borildi. O'zak, bir o'zakli so'zlar to'g'risida tushuncha kiritildi va ular so'z yasashning eng oddiy hollari, bilan amaliy tarzda tanishtirildilar.

So'z tarkibini o'rganish asosida jarangli va jarangsiz, talaffuz qilinmaydigan undosh harflar, unilarni to'g'ri yozish o'zlashtirildi. 2-3 sinfda bolalar tekshirishning fonetik usuli (urg'u qo'yilishi) bilan bir qatorda bir o'zakli so'zlarni tanlab olish yo'li bilan amalga oshiriladigan morfologik usullarini ham o'zlashtirdilar. Sinfdan sinfga yuqorilab borgan sayin til materiali ham murakkablashib bordi.

Maktab o'quvchilarining to'g'ri yozish ko'nikmasining shakllanganlik darajasi so'zlarni tarkib jihatidan tez va to'g'ri tekshirib chiqish, so'zlarda o'zakni aniqlash, urg'usiz unli tovushni to'g'ri topish, tekshiruv so'zlarini tanlab olish, so'zlarning o'zaklaridagi unli tovush yozilishini taqqoslash qobiliyatlariga bog'liq bo'ldi.

Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlari: ot, sifat, fe'l, qo'shimcha, kishilik olmoshlari o'rganildi. Maktab o'quvchilari ularni umumiy leksik ma'no, savollar, so'z o'zgartish shakllari (turlash va tushlash) asosida ajratishni o'rgandilar. So'z turkumlarini o'rganishga tayyorgarlik nutq grammatik qurilishini shakllantirish darslarida boshlandi, bu darslarda bolalar kim?, nima?, qanday (qaysi?)?, nima qilyapti? kabi savollarga javob beradigan predmetlarni (narsalarni), belgilarni, harakatlarni bildirgan so'zlar bilan tanishdilar.

O'quvchilar so'roq olmoshi, ko'rsatish olmoshi, birlik va ko'plik sondagi 1-, 2- va 3-shaxs kishilik olmoshlari bilan, olmoshlarning o'zgarishi, ularni to'g'ri yozish, nutqda ishlatilishi bilan amalda tanishdilar.

Qo'shimcha atamasi V-sinfda kiritildi. Bog'lovchilar amalda har bir sinfda «Gap» bo'limini o'rganishda ko'rildi.

IV-sinfda o'quvchilar kelishiklarda otlarning o'zgarishini o'rgana boshladilar (turlanish), asosan savollar va qo'shimchalar bo'yicha kelishiklarni ajratishni o'rgandilar.

Bolalar otni son, egalik va kelishik kategoriyalari bo'yicha o'zgartirishni, kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishni o'rgandilar (V- sinf).

O'quvchilar 1-5 -sinfda sifatlar predmetning rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, ruhiy holati, o'rin yoki vaqtga munosabati kabi belgilarini anglatishini, sifat darajalarini o'rgandilar (sifat darajalari atamasi kiritilmaydi).

O'quvchilar fe'lning o'tgan, hozirgi va kelasi zamondagi tuslanishi (shaxslar va sonlar bo'yicha o'zgarishi) haqida ma'lumot oldilar.

O'tgan va kelasi zamon fe'li amalda bo'lishli (ish-harakatning bajarilganligi yoki bajarilajagi), bo'lishsiz (ish-harakatning bajarilmaganligi yoki bajarilmasligi) ko'rinishida: nima qildi?, nima qilmadi?, nima qilmoqchi?, nima qilmoqchi emas? savollari bo'yicha o'rganildi, bu keyingi sinflarda fe'l xususiyatlarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Fe'lning ravishdosh, sifat-dosh, harakat nomi kabi

maxsus funksional shakllari savollar orqali amaliy o'rganildi (ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi, o'timli, o'timsiz, bo'lishli, bo'lishsiz fe'l atamaları, qoidalari kiritilmaydi).

Boshlang'ich sinflarda ravishlar bilan tanishish amaliy tarzda kechdi. «Ravish» atamasi ishlatilmadi. O'quvchilar eng ko'p tarqalgan ravishlar to'g'ri yozilishini lug'at tartibida o'zlashtirdilar. Bolalarning og'zaki va yozma nutqda ravishlar ishlatishlarini rag'batlantirib borish kerak.

So'z tarkibi va gap bo'laklarini o'rganish jarayonida barcha sinflarda turli gap bo'laklariga tegishli so'zlarning xilma-xil ma'nolarini o'zlashtirish hamda ularni gaplarda, so'z birikmalarida to'g'ri, aniq, o'rinli ishlatish bo'yicha leksik tusdagi mashqlar, shuningdek lug'at-imlo tusidagi mashqlar o'tkazildi. Bolalarni darslikdagi lug'at va maktab o'quvchilariga mo'ljallangan imlo lug'atidan foydalanishga odatlantirib borish kerak.

Gap

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga: gaplarning turlari (darak, so'roq, undov); gap bo'laklari; gapdagi so'zlar orasidagi bog'lanish; gap bo'lingandagi so'z birikmalari to'g'risida ma'lumot berildi. Ushbu ma'lumotlar boshlang'ich ta'lim beriladigan jami yillar mobaynida ma'lum tartib bilan asta-sekin kiritildi.

1-sinfda o'quvchilar nutq oqimidan, matndan gapni ajratib olishni, uni alohida so'zlardan farqlashni, talaffuz qilish va o'qishda gapning oxiridagi ohangga rioya etishni, gapni (dastlab tahlil qilingandan keyin) xat boshida katta harf bilan yozishni, oxirida esa nuqta qo'yishni o'rgandilar.

2-sinfda o'quvchilar grammatik qonuniyatlarga amal qilgan holda, tuzilmalar yordamida gap tuzishni bildilar. Gaplarning oxirida nuqtadan tashqari, so'roq va undov belgilari ishlatilishini bilib oldilar. Bolalar o'qish va grammatika darslarida gap kim haqida? va nima haqida? borayotganligini, nima gapirilayotganligini ajratishni o'rgandilar.

3--sinfda esa bolalar grammatik qonuniyatlarga amal qilgan holda, tuzilmalar yordamida gap tuzishni bildilar, gapning bosh bo'laklari bilan tanishdilar, ma'nosi jihatidan kerakli so'zlarni ovozlari yordamida ajratishni, tinish belgilarga muvofiq ravishda to'g'ri ohangga rioya etishni o'rgandilar. Ular endi «ega» va «kesim», «hozirgi zamon», «o'tgan zamon», «kelasi zamon» tushunchalari va atamalarini o'zlashtirdilar hamda fe'l zamonlarini farqladilar.

4-sinfda darak, so'roq gaplar (fikir-mulohaza bildirishning maqsadiga qarab), undov gaplar (intonatsiya – ohangga qarab) kabi gap turlari to'g'risida tushunchalar berildi. Bolalar nutqiy muloqotda ulardan o'rinli foydalanishni (og'zaki va yozma shaklda) o'rgandilar. IV-sinfda gapda bosh bo'laklardan tashqari, gapning ikkinchi darajali bo'laklari ham bo'lishini bilib oldilar.

5-sinfda o'quvchilarga uyushiq bo'laklari bo'lgan (va, hamda, ammo, lekin, biroq, kabi bog'lovchilar ishlatilgan va bog'lovchilar ishlatilmagan) gaplar to'g'risida ma'lumotlar berildi. O'quvchilar bu gaplarni sanab o'tish ohangida, og'zaki va yozma nutqda ishlatish, yozuvda uyushiq bo'laklarini bog'lovchi bo'lmagan taqdirda vergul yordamida ajratishni o'rgandilar.

O'quvchilar avvalo, so'z birikmasi bilan nutq grammatik qurilishini

shakllantirish darslarida tanishdilar. Sintaktik mavzularni o'rganishda, shuningdek so'z turkumlarini o'rganishda gapdagi so'zlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, ulardan so'z birikmalarini ajratish, so'z birikmalari tuzish bo'yicha muntazam ravishda ish olib borish lozim.

Sinfdan sinfga yuqorilagan sayin sodda gaplarning sintaktik tahlili murakkablashadi, xilma-xil turdagi gaplarni tuzishda, ayniqsa ularni yozishda o'quvchilar mustaqil ishining hissasi ko'payib boradi.

Bolalar tomonidan imlo qoidalari anglangan holda o'zlashtirilishi uchun, imlo (to'g'ri yozish) ko'nikmalari orttirilishi uchun fonetika va grammatika sohasidagi bilimlar asos bo'lib qolishi kerak.

Bolalarni o'rganilgan imlo qoidalarini qo'llashga o'rgatish yuzasidan kun sayin izchil va xilma-xil ish olib borilishi zarur. Bular ko'chirib yozish, ijodiy ish yozish kabilardir. Shu bilan birga, bolalarda yozilganlarni tekshira olish qobiliyatini yuzaga keltirish kerak.

To'g'ri yozishni o'rgatish lug'at-imlo, grammatika-imlo mashqlardan faol ravishda foydalanishni nazarda tutadi, bu mashqlarga imlo ko'nikmalarini asta-sekin avtomatlashtirish maqsadida, yozilishi eng qiyin bo'lgan so'zlar kiritilishi zarur.

Fonetika va grammatika sohasidagi bilimlar, har bir darsda maktab o'quvchilariga darslik bilan ishlashni, darslikni bemalol ishlata bilishni (o'rganiladigan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni tez topishni, mashqqa oid barcha topshiriqlarni izchil bajarishni) o'rgatish lozim. O'quvchilar bajariladigan mashqlardan ko'zlanadigan maqsadni (ular qanday maqsadda bajarilishini, nimalarni o'rgatishini) tushunadigan bo'lib olishlari kerak. Bolalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish maqsadida didaktik o'yinlarni jalb etgan holda turli-tuman o'quv vazifalarini qo'llash tez-tez qiziqarli mashqlar va o'yinlar kiritish, o'qitishning ko'rgazmali va texnik vositalaridan foydalanish zarur.

Dasturdagi talablar tizimi uni amalga oshirish negizida dasturda keltirilgan grammatik shakllardan har birining asosiy ma'nosini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini mo'ljallagan holda ishlab chiqildi. Ularning nutqlarida o'zlashtirilgach, ushbu shakllar (tuzilmalar, ifoda etishning til vositalari) grammatik tushunchalarning, xuddi tildagidek, o'zaro bog'langan ma'nolarning tashuvchisiga aylandi. Shu tariqa o'quvchilarga tildagi grammatik kategoriyalar majmui sifatida grammatik qurilishni o'zlashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi ta'minlandi.

Zaif eshituvchi o'quvchilarda grammatik ko'nikmalarni rivojlantirilishining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturda amaliy ishning quyidagi ikki: tildagi asosiy qonuniyatlarni amaliy o'zlashtirish (1-3 sinflar) va ushbu qonuniyatlarni tizimlashtirish asosida grammatik umumlashmalarni amaliy o'zlashtirish (4-5 sinflar) davrlari ajratildi. Birinchi davrda bir yo'la gap tarkibidagi grammatik so'zlar ma'nosini aniqlashtirgan holda gap tuzish ko'nikmalarini shakllantirish o'qitish mazmunining asosi bo'ldi. Dastur talablari narsa va harakat to'g'risidagi tushunchalar, ular o'rtasidagi munosabatlar (makoniy, vaqtga oid va ba'zi boshqa munosabatlar) atrofida jamlandi. O'quvchilar ushbu tushunchalar va munosabatlarni dasturda ko'rsatilgan vositalar bilan ifodalashni o'rgandilar. Meyorda

bolalar buni 3-4 yoshida egallaydi. Grammatik qonuniyatlarni amaliy o'zlashtirish ba'zi morfologik kategoriyalarni farqlashni va gapda tegishli shakllardan foydalanishni talab qilishi sababli, birinchi davrda, ish mazmuniga o'quvchilarning ot, sifat, son, fe'ldagi zamon bilan tanishishlari kiritildi.

Butun ana shu materialni o'zlashtirish o'quvchilarga nutqning asosiy qismiga taalluqli bo'lgan so'zlarning qator grammatik ma'nolarini bilib olish va shu tariqa o'zlashtirilgan ma'no va munosabatlar ot, sifat, olmosh va fe'l atrofida maxsus ravishda guruhlanadigan ikkinchi davrning materialini o'zlashtirishga yondoshishlariga imkon berdi. O'zlashtirib bo'lingan ma'nolar va munosabatlarga 4-5 sinflar dasturi yangilarini qo'shdi. Natijada nutq qismlari o'zgarishining asosiy grammatik qonuniyatlari tizimlashtirildi. O'quvchilar ikkinchi bo'limning yakunlovchi talabini bajarishga: nutqning asosiy qismlari, ularning leksikaviy va grammatik belgilari to'g'risidagi umumiy tushunchani o'zlashtirishga yondashtirildilar. Bu meyordagi 6-8 yoshli bola yoki 1-2-sinf dasturi talablariga yaqinlashdi.

Birinchi-beshinchi sinf o'quvchilari boshlang'ich sinfning grammatika kursini o'rganishga nafaqat tilning grammatik qurilishini amaliy tarzda egallaganlik jihatidan, balki shuningdek ba'zi eng oddiy grammatik-orfografik bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtirganlik jihatidan ham tayyorlangan bo'lishlari kerak. Shuning uchun dasturga «Grammatika va imlo bo'yicha ma'lumotlar» degan sarlavha ostida jamlangan maxsus talablar kiritildi. Qator orfografiya va punktuatsiya qoidalarini o'zlashtirishga, nutq qismlari, ularning leksikaviy va grammatik belgilari, gap va uning tarkibi bilan tanishishga taalluqli talablar shular jumlasidandir. Nutqning yozuv jihatiga (husnixatga) va ba'zi grammatik atamalarni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar ham shunga kiritilgan.

Dastur talablari o'quvchilarda «Tilning grammatik qurilishini shakllantirish», nutq o'stirish va korreksiyalashga yo'naltirilgan dars va mashg'ulotlarda shakllantirilgan ko'nikmalar va qobiliyatlarni hisobga olgan holda belgilandi. Ayni chog'da ularning amalga oshirilishi nafaqat grammatika va imloni o'rganish jihatidan, balki nutqning barcha tomonlari ustida ishlab borishni ko'zda tutdi.

Umuman dastur tilning turli jihatlarini aks ettiradigan ma'lumotlarning nisbatan keng doirasini qamraydi, quyidagilar: fonetika va grafika (yozuv), leksika, so'zning morfem tarkibi va so'z yasalishi, so'z turkumlari va ularning xususiy morfologik kategoriyalari, sodda va qo'shma gap sintaksisi, imlo va punktuatsiya bilimlari, ko'nikma va qobiliyatlar shular jumlasiga kiradi.

Maxsus maktab-internat darslarida ta'lim- tarbiya, rivojlantirish va korreksion maqsadlar ko'zda tutiladi. Hozirgi zamon darsiga qo'yiladigan quyidagi muhim talablar bizning ishda ham amalga oshirildi, ya'ni dars mavzusini yoritishdan avval darsdan ko'zlangan maqsad hamda o'quvchilar imkoniyati hisobga olindi, mavzuning hajmi belgilandi va uning murakkabligi aniqlandi, avvalgi o'rganilgan mavzu bilan bog'landi, o'quvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning

ketma-ketligi aniqlandi, darsda kerak bo‘ladigan jihozlar belgilandi va ko‘rgazmali qurollar bilan boyitilishi lozim.

Savol va topshiriqlar:

1. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni grammatikaga o'qitishning mazmunini yoriting.
2. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni grammatikaga o'qitish bosqichlari va tamoillariga tavsif bering.
3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni grammatikaga o'qitish bo'yicha ish qanday tashkil etiladi?
4. Grammatika darslaridagi asosiy ish yo'nalishlarini ko'rsating.
5. 1 va 5 sinf ona tili darsligidan grammatikaga oid mashqlar tanlang.
6. Mashq asosida ishlash rejasini tuzing.
7. Ko'rgazmali material tayyorlang, uni mashq asosida qo'llash yo'lini aniqlang.
8. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ona tili darslarida nutqiy qobiliyatini rivojlantirish jarayoniga umumiy tavsif bering.
9. Grammatika darslarini eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni og'zaki nutqini rivojlantirish jarayonidagi o'rnini aniqlang.
10. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida grammatikani o'rgatishga semantik yondashuv o'qitishning mazmunini yoriting.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Sh.M. Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b.
2. O‘zbekiston Reyespublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami.– T., 2017. – B.39.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni, 1999.
4. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.: O‘zbekiston , 2005.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998.
6. Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
7. Alimxo‘jayeva F.J. Kar bolalar eshitish qobiliyatini rivojlantirishda didaktik materiallardan foydalanish. P.f.n. diss...avtoref. –M., 1992.
8. Thomas Arnold A method of teaching the deaf and dumb speech, lip-reading, and language – London , 2010.
9. Белтюков В.И. Взаимодействие анализаторов в процессе восприятия и усвоения устной речи (в норме и патологии) – М.: Педагогика. 1997.
10. Богданова Т.Г. Сурдопсихология. –М., 2002.
11. Боскис Р.М. Письмо слабослышащих детей. - М., 2004.
12. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушенным слухом. – М.: Просвещение, 1998.
13. Боскис Р. М., Фингерман Л.Е. Развитие письменной речи в начальных классах школы слабослышащих. –М., 1998.
14. Боскис Р.М. Развитие смысловой стороны речи у глухих и слабослышащих детей. –М., 1991.
15. Быкова Л.М. Методика обучения русскому языку в школе для глухих детей. – М.: Просвещение, 1991.
16. Быкова Л.М. Развитие связной речи глухих учащихся начальных классов. – М.: Просвещение, 1999.
17. Зыкеев А.Г. Формирование и коррекция речевых навыков и умений в употреблении сложносочиненных предложений младшими школьниками с нарушениями в развитии //Дефектология. -2005. - №3. – с. 67-75.
18. Kristin Snoddon - American sign language and early literacy - Gallaudet University Press , 2012.
19. Коррекционное обучение как основа личностного развития аномальных дошкольников / Под ред. Л.П.Носковой. – М.: Педагогика, 1999.

20. Книга для учителя школы слабослышащих. Обучение русскому языку, чтению, произношению /Под ред. Коровин К.Г. –М., 1995.
21. Колшанский Г. В. Логика и структура языка. –М., 1995.
22. Комаров К.В. Методика обучения слабослышащих детей грамоте. –М.: Просвещение, 1990.
23. Комаров К.В. Методика обучения русскому языку в школе для слабослышащих детей. –М.: Просвещение, 1998.
24. Rustamova R.R. Boshlang'ich sinflarda zaif eshituvchi o'quvchilar nutqining grammatik qurilishini shakllantirish Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – T.: TDPI. 2009.
25. Mamarajabova Z.N. Ona tili o'qitish maxsus metodikasida pedagogik texnologiyalar - T., 2004
26. Mamarajabova Z.N. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 3 -sinflari uchun ona tili fanidan darslik– T.: O'qituvchi, 2010.
27. Mamarajabova Z.N. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 5 -sinflari uchun nutq o'stirish fanidan darslik– T.: O'qituvchi, 2010.
28. Mamarajabova Z.N. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 6 -sinflari uchun nutq o'stirish fanidan darslik– T.: O'qituvchi, 2010.
29. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped. fan. nomz. dis. avtoref... – T.: TDPU. 2009.
30. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'limini takomil lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiy-amaliy echimlari. Xalqaro ilmiy- amaliy konferensiya materiallari. – T., 2007. – B. 60-63.
31. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni oilada maktab ta'limiga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo'llanma. –T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007.–
32. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1999.
33. Николаева Л.В. Особенности усвоения первоначальных временных географических понятий слабослышащими учащимися. В кн.: «Изучение слабослышащих детей в процессе обучения». – М.: Педагогика, 1992.
34. Никулина Л.В. Работа с речевым материалом на уроках развития речи в начальных классах в школе слабослышащих // Дефектология. - 1990. -№ 4. – с. 32-34.
35. Новая модел обучения в специальных общеобразовательных учреждениях . / Под ред. А.М. Щербаковой. М.: Издательство НС ЭНАС, 2001.
36. Садовникова И.Н. Нарушение письменной речи у младших школьников. - М., 1993.

37. Садовникова И. Н. Нарушения письменной речи и их преодоление у младших школьников. – М., 1995. - 146 с.
38. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речицкой. – М.: Владос, 2004.
39. Шматко Н.Д., Пелымская Т.В. Если малыш не слышит.– М.: Просвещение, 2003.
40. L.Mo‘minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -Т.: Fan va texnologiyalar .2013.
41. P.Po‘latova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova Maxsus pedagogika -Т.: Fan va texnologiyalar .2014
42. Qodirova F.U. Boshlang‘ich sinf kar o‘quvchilar nutqini shakllantirish.: Ped. fan. nomz. dis. avtoref...– Т.: TDPU.2006
43. Fayzieva U.Yu. Zaif eshituvchilarni savodga tayyorlash va savod o‘rgatish.: Ped. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Т.: TDPI. 1994.
44. Fayzieva U.Yu. Nutq o‘stirish. O‘quv qo‘llanma. – Т.: O‘qituvchi, 2001.
45. Fayzieva U. Maktabgacha yoshdagi eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar ta’limi. – Т.: Ilm ziyo, 2006.
46. Fayzieva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 0,1-5 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta’lim talablari va dasturi– Т.: O‘qituvchi, 2014
47. Fayzieva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 6-10 sinflari uchun ona tili fanidan davlat ta’lim talablari va dasturi– Т.: O‘qituvchi, 2014.
48. Fayzieva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 5 -sinflari uchun ona tili fanidan darslik– Т.: O‘qituvchi, 2010.
49. Fayzieva U. Kar bolalar maxsus maktab-internatlarining 6 -sinflari uchun ona tili fanidan darslik– Т.: O‘qituvchi, 2010.
50. Henry Walter Edward Klopping Language understanding of deaf students under three auditory-visual stimulus conditions — The University of Arizona, Arizona USA , 2012.

GLOSSARIY

O‘zbekcha	lizcha
<p>Adaptatsiya– lotincha <i>adapta</i> – moslashtiraman, muvofiqlashtiraman so‘zidan olingan bo‘lib, quyidagilarni bildiradi: organizmlarning yashash sharoitlariga moslashishi;</p>	<p>Adaptation - The action or process of adapting or being adapted. The process of change by which an organism or species becomes better suited to its environment.</p>
<p>Analiz – (yunoncha <i>apalusi</i> – parchalash, bo‘lish so‘zidan) tahlil narsa va hodisalarni fikran, tarkibiy qismlarga ajratishni aks ettiruvchi aqliy operatsiya. A. (tahlil qilish) jarayonida butunning bo‘laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi.</p>	<p>Analysis -is the process of breaking a <u>complex topic</u> or substance into smaller parts in order to gain a better understanding of it. The technique has been applied in the study of <u>mathematics</u> and <u>logic</u> since before <u>Aristotle</u> (384–322 B.C.), though <i>analysis</i> as a formal concept is a relatively recent development.</p>
<p>Anamnez –yunoncha <i>anamnesis</i> (eshlash) so‘zidan olingan bo‘lib, tashxisni qo‘yish va aniqlash, korreksion-tarbiyaviy tadbirlarni belgilash maqsadida tekshirish jarayonida kasal shaxsning o‘zi va yaqinlaridan kasallikning yuzaga kelishi va kechishi, o‘sishi haqidagi ma’lumotlarni to‘plash jarayonini anglatadi.</p>	<p>Anamnesis - a preliminary case history of a medical or psychiatric patient.</p>
<p>Audiologiya – eshitish va uning buzilishlari haqidagi fan.</p>	<p>Audiology -is a branch of science that studies hearing, balance, and related disorders.</p>
<p>Anomal – yunoncha <i>apotalos</i>– noto‘g‘ri, notekis so‘zidan olingan bo‘lib, umummayordan o‘zgacha bo‘lgan holat ma’nosida qo‘llanadi.</p>	<p>Abnormal -eviating from the normal or average.</p>
<p>Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar –tug‘ma, irsiy, ega bo‘lingan kasalliklar yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan jarohatlar asoratlari oqibatida hayotiy</p>	<p>Children with intellectual and physical developmental problems -A developmental delay is any significant lag in a child's physical, cognitive, behavioral,</p>

<p>faoliyat(lar)i cheklangan jismoniy va (yoki) psixik kamchilikka ega bo'lgan 18 yoshgacha bolalar (bola). Bu defektlar tug'ma yoki tug'ildandan ke-yin paydo bo'lishi mumkin.</p>	<p>emotional, or social development, in comparison with norms.</p>
<p>Anketa metodi –pedagogika va psixologiyaning ilmiy-tadqiqot metodlaridan biri. Bu metod orqali izlanish ob'ektini o'rganish maqsadida tuzilgan savollarga yozma ravishda tegishli javoblar olinadi.</p>	<p>Questionnaire method - is a research instrument consisting of a series of questions and other prompts for the purpose of gathering information from respondents. Although they are often designed for statistical analysis of the responses, this is not always the case.</p>
<p>Inklyuziv ta'lim – bolalarning psixofiziologik yoki madaniy o'ziga xosligidan qat'i nazar umumiy sinfda o'qitish. Bunda o'qituvchi emas, balki ta'lim tizimi bola ehtiyojlaridan kelib chiqib sharoit yaratadi. Bu jarayonda individual rivojlanish rejasidan foydalanish mumkin.</p>	<p>Inclusive education - as once described as an approach where in students with <u>special educational needs</u> spend most or all of their time with non-disabled students. Now it is crucial that all policy makers, school boards, administrators, guidance counsellors, teachers, parents and students ensure inclusive practice in all aspects of educational environments.</p>
<p>Reabilitatsiya – bemorlik, baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo'qotilgan ruhiy yoki jismoniy funksiyalar, ko'nikmalarni tiklash.</p>	<p>Rehabilitation - is a treatment or treatments designed to facilitate the process of recovery from injury, illness, or disease to as normal a condition as possible.</p>
<p>Nutqiy qobiliyatni rivojlantirish – nutqiy bilish, anglash, qayta tasvirlash va psixofizik mexanizmlarini shakllantirishga imkon yaratish demakdir. Maxsus o'qitishning birinchi kunlaridanoq bolalarga ma'lum predmetli vaziyatdagi ularga qaratilgan nutqga ta'sirlanishni, predmetli harakatlarni tuzilishiga qarab ulardan nima talab qilinayotganini payqash shartlari</p>	<p>The development of speaking skills – is creation allows to forming speech knowing, understanding, describing.</p>

	<p>Nogironlikning ijtimoiy modeli – keng miqyosda nogironligi bo‘lgan kishilar duch keladigan iqtisodiy va madaniy, shuningdek, atrof-muhitdagi to‘siqlarga diqqat-e’tiborini qaratadi. Nogironlikka ega bo‘lgan kishilarni jamiyatning to‘laqonli a’zosi bo‘lib yashashiga to‘siq bo‘luvchi holatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu modelga asosan nogironlikka ega bo‘lgan kishilarning jamiyatdagi holati va huquqlarining buzilishi jamiyat tomonidan sun’iy ravishda yaratilgan bo‘lib, ularning nogironlar ega bo‘lgan buzilishlarga aloqasi yo‘qdir.</p>	<p>Social model of disability - is a reaction to the dominant medical model of disability which in itself is a functional analysis of the body as machine to be fixed in order to conform with normative values. The social model of disability identifies systemic barriers, negative attitudes and exclusion by society (purposely or inadvertently) that mean society is the main contributory factor in disabling people. While physical, sensory, intellectual, or psychological variations may cause individual functional limitation or impairments, these do not have to lead to disability unless society fails to take account of and include people regardless of their individual differences.</p>
	<p>Onatiliyo‘qitishning uslubiy tamoyillari o‘zarobog‘langan talablar (yoki qoidalar) tizimidir</p>	<p>Methodological principles of teaching mother tongue – system of mutual connected requirements (or rules)</p>
	<p>O‘qish va yozish malakalari – bu nutqiy malakalar, o‘qish va yozishni o‘zi esa nutqiy faoliyatni shunday turishi namoyon etadi</p>	<p>Reading and writing skills – isa teaching to reading and writing</p>
	<p>Internat muassasalari — keksalar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadigan nogironlar uchun «Muruvvat» internat-uylari, keksalar va nogironlar uchun «Saxovat» internat-uylari, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.</p>	<p>Residential institutions - broadly defined, is a pre-college education provided in an environment where students both live and learn outside their family homes. Varied forms of residential education have been in existence in the United States since before the nation's founding. Some typical forms of residential education include boarding schools, preparatory schools, orphanages, children and youth villages, residential academies, military schools and, most recently,</p>

		residential charter schools.
	<p>Diagnoz –yunoncha diagnosis - aniqlash so‘zidan olingan bo‘lib, kasallikning tavsifi va mohiyati haqidagi qisqacha tibbiy xulosa ma’nosini anglatadi. Hozirda diagnoz o‘rnida <i>tashxis</i> atamasi ham qo‘llanilmoqda.</p>	<p>Diagnosis -is the process of determining which disease or condition explains a person's symptoms and signs. It is most often referred to as diagnosis with the medical context being implicit. The information required for diagnosis is typically collected from a history and physical examination of the person seeking medical care. Often, one or more diagnostic procedures, such as diagnostic tests, are also done during the process. Sometimes Posthumous diagnosis is considered a kind of medical diagnosis.</p>
	<p>Interfaol metodlar –ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan maqsadga erishish uchun qo‘llanuvchi o‘quvchilarning o‘z va o‘zaro faollashuvlariga qaratilgan yo‘l va usullar yig‘indisi.</p>	<p>Interactive methods -is a pedagogical approach that incorporates social networking and urban computing into course design and delivery. Interactive Learning has evolved out of the hyper-growth in the use of digital technology and virtual communication, particularly by students. Beginning around 2000, students entering institutes of higher education have expected that interactive learning will be an integral part of their education. The use of interactive technology in learning for these students is as natural as using a pencil and paper were to past generations.</p>
	<p>Ichkinutq – insonningo‘z-o‘zigamurojaatetganfikriynutqidir. U talaffuzqilinmaydivayozilmaydi. Ichkinutqayrimso‘zvaso‘zberikmalariishtir okidaamalgaoshiriladi. Ichkinutqdarajasidabolalaryangibilimlarnio‘zlashtirishadihamdayangima’lumotlarasos idayozmafikrbildirishgatayyorgarlikko‘rish</p>	<p>Inner speech – is a intellectual speech which addressing to own self. With inside speech children can prepare to writing speech. Inside speech preparation are increased speaking and writing skills of children.</p>

	<p>adi, fikran gap tuzishadivauniog‘zakibayonetishadi, yozishadi. Bundayichkinutqiytayyorgarliko‘quvchilar ningso‘zlashishhamdanutqiy mahoratini (nutqiningsifatini) oshiradi.</p>	
	<p>Mazmunini ko‘rsatib berish. Mazmunniyoritishinibuusuli ham tayyorlovsinflaridakengqo‘llaniladi. Mazmunni butahlilyo‘lini “Alifbe”dagimaterialgaqo‘llash maqsadga muvofiqbo‘ladi.</p>	<p>Revelation themes – is disclosing theme of lesson. We can use this method to revelation of alphabet.</p>
	<p>O‘qiganni umumlashtirish. O‘qigan matnni ustida ishlashdan eng oxirgi bosqichi umumlashtirish, bunda biz o‘quvchilarni bilimni umumlashtirib, g‘oyaviy-tematik yo‘naltirib, g‘oyaviy-estetik, tushunchalarini yanada chuqurroq o‘zlashtirish</p>	<p>Generalization of read – is generalizing all knowledge and skills, the ideological-thematic directing.</p>
		<p>External speech – is a speech which addressing to other people. This speech is realized with sounds and letters. There are two types of external speech dialogical and monological.</p>
	<p>To‘g‘ri o‘qish – bu harf va tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilib, bo‘g‘inlarni tushurib qoldirmasdan, bo‘g‘inlarni so‘zlarda o‘rnini almashtirmay, tushurib qoldirmay, nafas olish qoidasini buzmay, so‘zlardagi urg‘u, pauza, orfoepik normalarga javob bergan holda o‘qishdir.</p>	<p>Correctly reading – is a correctly pronouncing letter, voice and syllable.</p>
	<p>Korreksiyalash–imkoniyati cheklangan bolalarning psixofizik rivojlanishidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash, zaiflashtirish yoki to‘g‘rilashga qaratilgan psixologo-pedagogik choralar tizimi.</p>	<p>Correction - An amount or quantity added or subtracted in order to correct. A temporary decline in stock-market activity or prices following a period of increases.</p>
	<p>Mulohaza - bu matn, unda biron bir ta‘kidni isboti uchun mulohaza ishlatiladi,</p>	<p>Reasoning – is a very difficult, hard form of connected</p>

	<p>misollar keltiradi solishtirish va xulosa amalga oshiriladi, yangi mulohazalarga yetaklovchi va oxir tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi boshlang'ich ta'kid tezis nomi bilan keladi. Mulohaza - bog'langan matnni ancha qiyin murakkab shaklidir</p>	<p>speech</p>
	<p>Rasmlarni moslash. O'quvchilar iborali yoki matnni qismini o'qishadi va o'qituvchi vazifasiga ko'ra o'qilganlarni mazmuniga mos rasm ko'rsatadilar. Rasm o'qituvchi tomonidan maxsus tayyorlanadi yoki kitobdagi rasmlardan foydalaniladi.</p>	<p>Choosing pictures – is a adapting special pictures to the lesson</p>

Z. N. Mamarajova

ONA TILI O'QITISH MAXSUS METODIKASI
(surdopedagogika ta'lim yo'nalishi)

Muharir: B.B.Mamarajabov
Texnik muxarir: B.B.Mamarajabov
Musahhah: B.X.Xidoyatov
Dizayner sahifalovchi : A.S.Alimova

Bosishga ruhsat etildi 05.10.2020. "UZ-Times" garniturasida. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60×84. Bosma tabog'i: 9,5. Nashr hisob tabog'i: 10. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 55.

Nizomiy nomli TDPU nashriyoti
Toshkent shahri, Yusuf Xos Xojib ko'chasi, 106 uy